Mustaqil ta' limning maqsadi- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

№	Mavzular nomi	soat
1	Iqtisodiy taraqqiyotda pulning roli.	6
2	Oltin pul sifatida.	6
3	Pulning mohiyati.	4
4	Pulning o' ziga xos xususiyatlari.	4
5	Pul umumiy ekvivaliyent sifatida.	6
6	Pul shakllari va turlarining evolyutsiyasi.	6
7	Pul nazariyalari	6
8	Pulning metallilik nazariyasiga nisbatan tanqidiy qarashlar.	6
9	Pulning nominallik nazariyasining yuzaga kelish shart-sharoitlari va asosiy qoidalari.	6
10	Pul massasi va pul agregatlari.	6
11	Pul tizimi: mazmuni, turlari va elementlari.	6

12	O'zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning elementlari.	6
13	Inflyatsiya va unga qarshi kurashish yo'llari.	6
14	Pul islohotlari.	6
15	Kreditning zarurligi, funksiyalari, turlari va shakllari.	6
16	Kredit bo'yicha foiz stavkalar va ularga ta'sir qiluvchi omillar.	6
17	Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi.	6
18	Uzbekiston Respublikasi bank tizimi va uning tarkibi.	6
19	Markaziy bank va uning funksiyalari.	6
20	Milliy valyuta kursi va unga ta'sir etuvchi omillar.	6
21	Tijorat banklari va ularning funksiyalari.	6
22	Tijorat banklarining operatsiyalari.	6
23	Nobank moliya-kredit muassasalari.	6
24	Bank inqirozlari.	4
25	Pulning xalqaro munosabatlardagi harakati.	6
26	Xalqaro moliya institutlari, ularning maqsadi va funksiyalari.	6
Jami:		150

VI. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, mustaqil ta'lim

bo' yicha berilgan topshiriqlarni bajarish hamda yakuniy nazorat bo' yicha yozma ishni topshirish talab qilinadi.

Fanning yakuniy bahosi uchta yo' nalihdagi baholarga asoslanadi:

(1) Dars mashg' ulotlariga tayyorgarlik va faol ishtirok etish (10%).

Dars jarayonida muntazam ishtirok etishdan tashqari, talabalar darslar boshlanishidan oldin onlayn o' quv materiallari bilan tanishgan bo' lishlari talab etiladi. Har bir talabadan ma' ruza va amaliy mashg' ulotlarda faol ishtirok etish talab qilinadi.

(2) Auditoriyadagi mashg' ulotlar (10%)

Har semestrda haftada o' tilgan ma' ruzalar asosida jami 15 tadan amaliy mashg' ulot o' tkaziladi. Har bir amaliyot mag' ulot bo' yicha topshiriqlar keyingi dars mashg' ulotiga qadar bajarilib topshirilishi lozim. Amaliy mashg' ulotda berilgan topshiriqlarni bajarish (10%).

(3) Yakuniy baholash (80%) (Baholash turi (" Test" (kompyuterda)), vaqti (jadval asosida), baholash mezonlari (har bir talabaga alohida variant boyicha 30 ta savoldan iborat test beriladi va har bir to' g' ri javobga 1 ball belgilanadi))

Talabalar bilimni baholash tizimi

A (93-100)

A- (86-92)

B+ (82-85)

B (77-81)

B- (71-76)

C+ (67-70)

C (60-66)

C- (56-59)

D (55-50)

E (0-49)

IX. Dasturning informatsion- uslubiy ta' minoti.

Mazkur fanni o' qitish jarayonida Pul va banklarga oid qonunlari, kodekslar, Prezident Qarorlari va Farmonlari, O' zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, chet el va Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlar, elektorn adabiyotlar, turli slaydlar, vikepediyalar, ilmiy jurnallardagi maqolalar, ma' ruza matnlari, fan bo' yicha o' quv-uslubiy majmualar hamda Internet materiallaridan foydalaniladi.

X. ASOSIY VA QO‘ SHIMCHA O‘ QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBAALARI

Asosiy adabiyotlar

1. Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited. 2015.695 pages.
2. Omonov A.A, Qoraliev T.M. “ Pul va banklar” Darslik. T.: - “ Iqtisod-Moliya” , 2019 y. - 461 b.
3. A. A.Omonov, T.M. Qoraliyev. Pul, kredit va banklar. Darslik / Soliq akademiyasi, Toshkent moliya instituti. - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2012. -324 b.
4. Yu. Rashidov va boshq.; “Pul, kredit va banklar”: Darslik/ T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. - 328 b.
5. Abdullayeva Sh.Z. va b. “Pul va banklar” Darslik. T.: - “IQTISOD-MOLIYA”, 2019 y. - 628 b.
6. Деньги, кредит, банки: учеб./под.ред. Г.Н.Белоглазовой. – М.:Высшее образование, 2018, -245 с,
7. Кузнецова, Е.И. Деньги, кредит, банки: Учебное пособие / Е.И.Кузнецова. – М.:ЮНИТИ, 2019.-567 с.
8. YE.A.Baydaulet. Islomiy moliya asoslari/– T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2019. – 432 b.
9. Boboqulov T.I., Abdullaye O.A. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari: Darslik;-T.: “ Iqtisod-Moliya” , 2019.-228 b.

Qo‘ shimcha adabiyotlar

1. “2022-2026-yillarga mo‘ ljalangan Yangi O‘ zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘ g‘ risida”gi O‘ zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli [Farmoni](#).
- 2.Mirziyoyev SH.M. “ Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” . Toshkent. O‘ zbekiston. NMIU-2017.-488b

3. Mirziyoyev SH.M. “ Tanqidiy tahlil, qat’ iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘ lishi kerak” . Toshkent. O‘ zbekiston. NMIU - 2017. 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. “ Erkin va farovon, demokratik O‘ zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” . - Toshkent: “ O‘ zbekiston” NMIU, 2017. -56 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. “ Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’ minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” . - Toshkent: “ Uzbekistan” NMIU, 2017. -48 b.
6. Болвачев, А.И. Деньги. Кредит. Банки: Учебник/Е.А. Звонова М.Ю. Богачева, А.И. Болчавев; Под ред. Е.А.Звонова.-М.: НИЦ ИНФРА-М, 2016,-592с.
- 7.Варламова.М.А. Деньги, кредит, банки: Учебное пособие / М.А. Варламова, Т.П. Варламова, Н.Б.Ермасова.-М.:КНОРУС, 2017,-128с
8. Владимирова.М.П. Деньги, кредит, банки: Учебное пособие /М.П.Владимирова. – 3е-изд., перераб.и доп.- М.:КНОРУС, 2017,-245с
9. Галицкая С.В. Деньги, кредит, финансы: учеб./С.В.Галицкая.-М.:Эксмо, 2016,-456 с.

Internet manbalari

www.lex.uz:

www.norma.uz;

www.tfi.uz;

www.cbu.uz;

www.finance.uz;

www.stat.us;

www.sciencedirect.com.

www.reader.elsevier.com.

www.scopus.com;

O‘ ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’ LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

“BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDIT ” KAFEDRASI

“PUL VA BANKLAR”

fanidan

MA’ RUZALAR MATNI

Qarshi-2023

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash munosabatlari pul va banklarning ishtirokisiz amalga oshmasligi barchamizga ma'lum. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyatning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan bo'lib, ushbu faoliyatning asosini ham pul tizimi va bank tizimi bilan bog'liq qator munosabatlar tashkil etadi. Bu o'z-o'zidan, keyingi yillarda, mamlakatimiz o'quv yurtlarida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda "Pul va banklar" fanining ahamiyatini keskin oshirmoqda.

E'tirof etish joizki, mamlakatimizning iqtisodiyot va moliya yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari tomonidan "Pul va banklar" fani bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etilgan.

2020 yilda o'zlashtirish mo'ljallanayotgan investitsiyalar. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish ko'rsatkichlari. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasining jahondagi etakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan e'tirof etilayotgani.

"Fitch Ratings" va "Standart & Poor's" reyting agentliklari tomonidan birinchi marta mamlakatimiz xalqaro suveren kredit reytingini belgilangani. Reyting agentliklarining O'zbekistonda valyuta, savdo va narx siyosati erkinlashgani, davlat boshqaruvidagi institutsional o'zgarishlar, mamlakat oltin-valyuta va byudjet zaxirasi etarli ekani, davlat qarzining kamligi singari omillarga alohida e'tibor qaratayotgani.

2019 yilda O'zbekistonning suveren davlat obligatsiyalarini xalqaro moliya bozorlariga chiqarilishi. Bu borada "J.P.Morgan", "Citibank", "Deutsche Bank" kabi etakchi xalqaro investitsiya banklari bilan olib borilayotgan hamkorlik.

Mamlakatimizda bank kapitalining asosiy qismi davlatga tegishli ekani-bank tizimidagi asosiy muammo. Uning bank sektorida sog'lom raqobatga, xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir qilayotgani.

Xalqaro moliya institutlari ko'magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqish lozimligi.

Bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib borishning sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qilishi.

1-MAVZU. PUL VA BANKLAR FANIGA KIRISH

REJA:

1. Pul va banklar fanining maqsadi, predmeti va vazifalari.
2. Iqtisodiyotda pul, kredit va banklarning o'zviy bog'liqligi.
3. Moliya bozorlari faoliyati mazmuni.

Pul va banklar fanining maqsadi, predmeti va vazifalari.

Bozor munosabatlarining yuqori sur'atlarda rivojlanib borishi har bir sub'ektning pul, banklar, kredit va moliyaviy bozorlarning dastagi bo'lgan moliyaviy instrumentlar hamda ularda yuzaga keladigan o'zgarishlarga munosabati va qiziqishlarini kuchaytirib boradi. Chunki, bozor mexanizmi iqtisodiyot talablaridan kelib chiqib tez o'zgarib, yangilanib turadi va shular asosida u mamlakat iqtisodiyotining har tomonlama rivojlanib borishi yo'nalishlarini belgilab beruvchi doimiy harakatda bo'lgan dastak hisoblanadi. Bizni doimo pulning to'lov yoki sotib olish qobiliyati yildan yilga oshadimi yoki pasayadimi? Ehtiyojimizdan ortiq pulimizni bankga omonotga qo'ysak u bizga har oyda yoki yilda necha foiz daromad beradi, mabodo ularni qimmatli qog'ozlarga qo'ysak – qaysi turdagi va qaysi emitentning qimmatli qog'ozlari bizga yuqori daromad berishi mumkin? Bank kreditlarining foizi qancha, inflyatsiya yoki pulning qadrsizlanish darajasi qanaqa, milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan kursi qanaqa va uning tez orada o'zgarishi bo'yicha qanday prognozlar mavjud kabi savollar qiziqtiradi hamda biz o'z – o'zidan bozor munosabatlarining faol ishtirokchilariga aylanamiz. Bu masalalar bozor munosabatlarining sub'ekti bo'lgan yuridik shaxslar faoliyatida har kuni echimini talab qiladigan vazifalardan hisoblanadi. Jahon iqtisodiy fanida o'z asarlari bilan mashg'ur bo'lgan iqtisodchi – olim Frederik S. Mishkin Pul, bank ishi va moliyaviy bozorlarning iqtisodiy nazariyasi kitobida shunday misol keltiradi. Faraz qiling siz hozirgi yangiliklarda Federal zaxira tizimi (AQSh markaziy banki) qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizlarni 0,5 punktga oshirganidan xabardor bo'ldingiz. Bunday xolat siz olgan avtokredit bo'yicha to'layotgan summangizga qanday ta'sir ko'rsatadi? Ko'chmas mulkning narxi ortadimi? Keyingi yilda yangi ish topish imkoniyati ortadimi yoki kamayadimi? degan savollarni qo'yadi va aynan Pul va banklar fani shu kabi savollarga javob topishga imkon berishini ta'kidlaydi, chunki

bu fan moliyaviy bozorning roli va funksiyalarini o'rganishga, moliyaviy muassasalar (banklar, sug'urta tashkilotlari o'zaro fondlar va boshqa muassasalar), hamda pullarning iqtisodiyotdagi rolini o'rganishga imkon beradi. Moliyaviy bozorlar va institutlar nafaqat aholining kundalik hayotiga ta'sir ko'rsatadi balki bizning iqtisodiyotimizga trillionlab dollar qiymatga ega fondlarni jalb qiladi. Bu holat o'z navbatida korxonalarining daromadi, mamlakatda tovarlar va xizmatlarning ishlab chiqarilishiga, hattoki AQShdan tashqari boshqa davlatlarning farovonligiga ham ta'sir ko'rsatadi. D.Yum A.Smitning pul xususidagi qarashlariga e'tiroz bildirib, –Pul bu – savdo – sotiqning g'ildiragi emas, balki u yog', shu savdo – sotiq g'ildiragini erkin va yumshoq yurishiga imkoniyat yaratadigan vositadir» degan fikrni bildiradi. Rossiyalik iqtisodchi olimlar ham pulning iqtisodiy mohiyatiga alohida e'tibor qaratishgan. Jumladan, iqtisod fanlari doktori, professor B.I.Sokolov pulning mohiyatiga –pul mehnat taqsimoti chuqurlashib borayotgan ushbu jamiyatda tovarlarni ayirboshlash va to'lovlarni amalga oshirish ishlarini engillashtiradi» deya ta'kidlaydi. Pulning vujudga kelishi kishilik jamiyati tsivilizatsiyasining buyuk kashfiyotlaridan hisoblanadi. «Pul» deb nomlangan maxsus tovarning paydo bo'lishi natijasida odamlar o'rtasida ayirboshlash bilan bog'liq ziddiyatlar va «ehtiyojlarning bir – biriga mos kelmasligi» kabi muammolar barham topdi. Pulning vujudga kelishi, uning evolyutsion rivojlanishi, nazariyasi, mohiyati va funksiyalari haqida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, nazariyachilar, mutaxassislar juda ko'p ilmiy asarlar, maqolalar va tadqiqot ishlari yaratgan. Hozirgi kunda ham ushbu jarayon davom etmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga kelishi va uning hozirgi kundagi ko'rinishi haqida yagona yondashuv mavjud emas. Pulning vujudga kelish sababini bilish uchun qadimda odamlar o'rtasida ro'y bergan ayirboshlash munosabatlarini amalga oshirish jarayoniga e'tibor qaratish lozim. Chunki, aynan mana shu tabiiy ayirboshlash jarayoni hozirgi kunda siz bilan biz kundalik hayotda va hisob – kitoblarda foydalanib kelayotgan pulning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Xususan, pulning vujudga kelishiga quyidagi omillar asos bo'lib xizmat qiladi: qadimgi davrda odamlar o'z ehtiyojidan ortib qolgan iste'mol mahsulotlari turib qolmasligi va saqlashning imkoniyati bo'lmaganligi bois ularni o'zlariga yaqin yoki tanish odamlarga bergan, bu o'z – o'zidan odamlar o'rtasida stixiyali ravishda bir tomonlama ayirboshlash munosabatlari vujudga kelishiga sabab bo'lgan; keyinchalik

odamlarning ongi, dunyoqarashi va hayot kechirish tarzi rivojlanganligi natijasida, ikki tomonloma ayirboshlash munosabatlari vujudga kela boshladi. Bu davrda, kishilarda o'ziga zarur bo'lmagan buyumning o'rniga nimadir olish evaziga, ikkinchi kishiga berishi lozimligini anglay boshladilar.

Monetar siyosat va pullarni nima sababdan o'rganamiz?

Pul yoki pul massasi- tovar va xizmatlarga cheklovlarsiz ayirbosh qilinadigan, qarz majburiyatlarini qoplashda qo'llaniladigan umumiy qabul qilingan to'lov vositasi. Pul massasining hajmi ko'pchilik iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq hamda har birimizning va umumiy iqtisodiyotning farovonligida aks etadi. Fanning ikkita yakunlovchi qismi iqtisodiyotda pullarning rolini o'rganishga bag'ishlangan.

Pul va iqtisodiy sikllar

1981-1982 yillarda AQShda jami tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmi keskin kamaydi, ishsizlik hamji esa (mavjud bo'lgan ishchi kuchiga ishsizlar sonining nisbati foizda) 10 % gacha o'sdi. 1982 yilda iqtisodiyotda tez o'sish boshlandi va 1989 yilga kelib ishsizlik hajmi 5%gacha kamaydi. 1990 yilda sakkiz yillik iqtisodiy o'sish davri tugadi va ishsizlik soni yana 7% gacha o'sdi. 1991 yilda AQSh tarixida eng uzun bo'lgan jonlanish davri bo'lib, ishsizlik ko'rsatkichi 4% gacha pasaydi. 2001 yilning martida iqtisodiyotda faollikning pasayish davri boshlandi va ishsizlikning hajmi 6%gacha ko'tarildi. Ishsizlik darajasi 4,4% gacha pasayish orqali iqtisodiyot 2001 yil noyabr oyidan boshlab tiklanishni boshladi. 2007 yil dekabr oyidan boshlab iqtisodiyot retsessiya holatiga tushdi va 2009 yil iyun oyida iqtisodiyot sekinlik bilan tiklanishdan oldin ishsizlik darajasi 10%dan oshib ketdi. Nima sababdan AQSh iqtisodiyoti shunday keskin o'zgarishlarni boshdan kechirdi? Faktlar shundan dalolat beradiki, iqtisodiyotda tovar va xizmatlar hajmining kamayishi yoki ortishi orqali pullar iqtisodiy tsikllarini shakllantirishda asosiy rolni o'ynaydi. Iqtisodiy tsikllar har birimizning farovonligimizga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ishlab chiqarish oshsa, ish topish oson bo'ladi, aksincha, ishlab chiqarish pasaysa, ish topish qiyinlashishi mumkin. 3-rasmdagi grafik 1950 yildan 2011 yillar oralig'ida pul massasining o'sishi dinamikasi ko'rsatilgan. Shtrixlangan ma'lumotlar tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmini tushishiga to'g'ri kelib, retsessiya holatini ko'rsatadi. Ko'rishimiz mumkinki, pul massasining o'sishi iqtisodiy tsikllarni xarakatga keltiruvchi kuch ekanligi retsessiya

sodir bo'lishidan oldin pul massasi kamayganligida ko'ringandir. Lekin xar bir pul massasining pasayish davri iqtisodiy tushish davri bilan mos kelmagan. Ushbu fanda pul va monetar siyosat qanday qilib iqtisodiyotga ta'sir qilishi mumkinligini tadqiq qilamiz, shuningdek, pul miqdori va monetar siyosatdagi o'zgarishlar yalpi iqtisodiy faoliyat va inflyatsiyaga bog'liqligini ko'rsatuvchi monetar nazariyani o'rganamiz.

Pul va inflyatsiya.

Pul va inflyatsiyaning mohiyatini tushunish uchun Frederik S. Mishkin –Pul, bank ishi va moliyaviy bozorlarning iqtisodiy nazariyasi kitobida shunday misol keltiradi, ya'ni, o'ttiz yil oldin siz kechaginao'n dollar to'lagan, kino chiptangiz bir yoki ikki dollardan ortiq turmas edi. O'n dollar esa kinoga chipta olish bilan birga, yana nafaqat popkorn xarid qilishga balki, tushlik qilishga ham etar edi.

Iqtisodiyotda tovar va xizmatlarning o'rtacha narxi, sodda qilib aytganda, narxlarning umumiy darajasi deyiladi. 1950 yildan 2011 yilga qadar AQSh iqtisodiyotidagi narxlar darajasi qariyb olti barobar o'sgan. Inflyatsiya narxlar umumiy darajasining tinimsiz o'sishi bo'lib, har bir xaridorga, ishlab chiqaruvchiga va xukumatga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy strategiyani ishlab chiquvchilar va iqtisodchilar inflyatsiyani jilovlashga xarakat qiladilar, shuning uchun ushbu maqsadga erishish yo'lida narxlar darajasini tebranishini aniqlovchi omillarini bilish zarur. Inflyatsiya bilan pul massasining yaqindan aloqasining keyingi isboti 5- rasmda ifodalangan grafik hisoblanadi. Bir nechta mamlakatlarda, o'rtacha inflyatsiya darajasi (odatda har bir yilda foizli o'zgarishda o'lchanadigan narxlar darajasining o'zgarish surati) ni aks ettirib, har bir nuqtani koordinatlari aniq bir mamlakatni aks ettirib, 2000-2010 yillar oralig'ida pul massasining o'rtacha o'sishi va ushbu davrda inflyatsiyaning o'rtacha sura'tini ifodalaydi. Ko'rganingizdek, keltirilgan ma'lumotlar inflyatsiya bilan pul massasining o'sishi o'rtasidagi to'g'ri bog'liqlikning mavjudligini ifodalaydi. Inflyatsiya darajasi eng katta bo'lgan mamlakatlarda o'z navbatida pul massasining o'sish darajasi ham yuqoridir. Misol uchun, Turkiya, Ukraina va Zambiya kabi davlatlar ushbu davrda inflyatsiya darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ushbu davlatlarda pul massasining o'sishi ham yuqoriligi kuzatilgan. Aksincha, Shvetsiya va AQShda ushbu davrda inflyatsiyaning sura'ti juda past bo'lgan (pul massasining o'sishi singari). Ushbu faktlar Nobel mukofoti sovrindari Milton Fridmenning taniqli xulosasiga asos bo'lgan: — Inflyatsiya- bu hamisha va har erda monetar hodisadir.

Aynan shu mavzularda pul massasi miqdori va monetar siyosatning inflyatsiya suraʼtlariga taʼsirini koʻrib chiqamiz.

Pul va foiz stavkalari

Boshqa omillar bilan bir qatorda, pullar ishlab chiqaruvchilar va isteʼmolchilarning doimiy diqqat eʼtiborida boʻlgan foiz stavkalarining tebranishiga ham taʼsir koʻrsatadi. 6-rasmdagi grafikda AQShning uzoq muddatli gʻaznachilik obligatsiyalari boʻyicha foiz stavkasi bilan pul massasidagi oʻsish tenglashtirilganligi koʻrsatilgan. 1960 va 1970 yillarda uzoq muddatli obligatsiyalar boʻyicha foiz stavkasi pul massasi bilan birgalikda oʻsib bordi. Lekin 1980 yildan boshlab foiz stavkasining oʻsishi bilan pul massasining oʻsishi oʻrtasida oʻzaro aloqadorlik yoʻqola bordi. Biz foizlarga oid mavzularda foiz stavkalarning xarakterini tadqiq qilganimizda pul va foiz stavkalar oʻrtasidagi bogʻliqlikni ham tahlil qilamiz.

Monetar siyosatni amalga oshirish

Pullar mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlovchi koʻpgina iqtisodiy oʻzgarishlarga taʼsir koʻrsatganligi sababli, monetar siyosat yaʼni, pullar va foiz stavkalarini boshqarish – butun dunyoda iqtisodiy strategiyani ishlab chiquvchilar va siyosatchilarning diqqat eʼtiboridagi obʼektlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda monetar siyosatni amalga oshirishga Markaziy bank javobgar (AQShda bu Federal Zaxira Tizimi (FZT)) hisoblanadi. Shu bois, mazkur fanda AQSh va boshqa davlatlarda amalga oshirilayotgan monetar siyosatning oʻziga xos xususiyatlari va iqtisodiyotda pullarning miqdorini boshqarishda Markaziy banklarning rolini tahlil qilishga ham baʼzi mavzular bagʻishlangan.

Monetar va fiskal siyosatning bogʻliqligi. Fiskal siyosat soliqqa tortish va davlat xarajatlari doir masalalarni hal etishni oʻz ichiga oladi. Byudjet defitsiti- bir yil ichida davlat xarajatlarining uning daromadlaridan ortishini. Byudjetning ijobiy saldosi (profitsit)-byudjet daromadlarining xarajatlardan ortishini bildiradi. Byudjet defitsitini moliyalashtirish maqsadida xukumat qarz olishiga toʻgʻri keladi; ijobiy saldo esa davlat qarzlarini kamaytirishga imkon beradi. Televidenie yoki gazetalarda byudjetning ijobiy saldosi – yaxshi, salbiy saldosi – zaralar ekanligi toʻgʻrisida eshitgan boʻlishingiz mumkin. Ushbu fikrlar qanchalik haqiqatga yaqinligini biz 2001 yilda Argentinada yuzaga kelgan byudjet taqchilligi moliyaviy inqirozning sababi

sifatida to'g'risida ham ko'rib chiqilgan. Shuningdek, biz byudjet taqchilligining pul massasi o'zlashiga, inflyatsiya sur'atlari va foiz stavkalariga ta'sirini ham taxlilijihatdan o'rganamiz.

Xalqaro moliyani nima sababdan o'rganamiz?

So'nggi yillarda moliyaviy bozorlarning globallasuvi yanada tezlashib ketdi. Dunyo bo'ylab moliyaviy bozorlar juda yuqori suratlarda integratsiyalashdi. Amerika kompaniyalari tez-tez xorijiy moliyaviy bozorlardan qarz olishadi va xorijiy kompaniyalar AQSh moliya bozorlariga qarz berishadi. Banklar va boshqa moliyaviy institutlar, jumladan, JP Morgan Chase, Citigroup, UBS, Doychebank jahon bo'ylab ko'plab mamlakatlarda operatsiyalarni amalga oshirish orqali xalqaro darajaga chiqdi. Ushbu fan xorijiy valyuta bozorlari va xalqaro moliyaviy tizimni ham o'zida aks ettiradi. Banklarning mohiyatiga iqtisodiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud.

–Bank etimologiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, –bank so'zi qadimgi frantsuzcha –banque va italiyancha –bansa so'zlaridan paydo bo'lib, –almashtirish stoli ma'nosini anglatishining guvohi bo'lamiz.

Bank – bu moliyaviy muassasa bo'lib, jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar bilan jalb etib, ushbu mablag' larga ehtiyoji mavjud bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarishlik, muddatlilik, to'lovlilik va ta'minlanganlik asosida beradigan tijorat tashkilotdir.

Boshqa bir adabiyotda, bank – tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos turi bo'lib, uning faoliyati ssuda kapitalining harakati, ya'ni ularni jalb qilish va joylashtirilishi bilan bevosita bog'liqdir, degan fikr ilgari suriladi.

Bankir ssuda kapitalistidan farqli o'laroq, turli ko'rinishdagi xizmatlarni taklifetadii va pul aylanmasini tashkil qiladi. Ssuda kapitalisti ishlab chiqarishni o'z kapitali hisobidan moliyalashtirsa, bankir ushbu jarayonni chetdan jalb qilingan begona shaxslarning mablag'lari hisobidan amalga oshiradi.

Tijorat banklari mohiyatini teranroq anglash uchun ayrim metodologik masalalarga e'tibor qaratish lozim. Ularning ayrimlari quyida keltiriladi:

– banklarning mohiyatini yoritishda ularning mikrodarajadagi faoliyatiga e'tibor qaratish lozim;

- banklarning mohiyatini yoritishda ular qanday shaklda va maqsadda tashkil etilganligiga emas, balki ularga yagona bank sifatida faoliyat yuritishiga eʼtibor qilish lozim;
- banklarning mohiyatini ajralmas qismi sifatida ularning tashkil topish asoslari, yaʼni tashkiliy – huquqiy asoslari muhim ahamiyat kasb etadi;
- banklarning mohiyati – bu oʻziga xos xususiyatga ega boʻlgan obʼjektning tarkibini anglatadi;
- banklarning mohiyatiga qator taʼriflar shakllantirilgan boʻlib, muammoni oʻrganayotgan paytda uning qanday jihatiga eʼtibor qaratilayotganligi muhim hisoblanadi.

Iqtisodiyotda pul, kredit va banklarning oʻzviy bogʻliqligi.

Jamiyatda mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish jarayonining mavjudligi iqtisodiy hayotda pulning roli doimo oshib boraveradi. Birgina mehnat taqsimotiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, kompaniya yoki firma biror narsani ishlab chiqarish yoki xizmat turini koʻrsatish uchun zarur xom – ashyo va materiallarni olish maqsadida bir necha xoʻjalik yurituvchi subʼektlar bilan iqtisodiy aloqalarni oʻrnatadi, ishlab chiqaruvchi yoki xizmat koʻrsatish jarayonida ishtirok etayotgan xodimlarning mehnati uchun haq toʻlaydi va boshqa qator ishlarni amalga oshiradi. Bularning barchasi tomonlar oʻrtasidagi oʻzaro iqtisodiy hamkorlik va manfaatdorlik asosida amalga oshiriladi. Mana shu iqtisodiy hamkorlik va manfaatdorlikni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi sifatida pulning roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillarida biri har qanday faoliyatning asosida iqtisodiy manfaatdorlik yotadi. Ishlab chiqaruvchi korxona, tashkilot yoki firma yaratayotgan tovar yoki xizmatlarni shaxsiy isteʼmoli uchun emas, balki bozorda sotish orqali tegishli iqtisodiy foyda koʻrish ilinjida ishlab chiqaradi. Bu ishlab chiqaruvchi va isteʼmolchilar oʻrtasida tovar – pul munosabatlarini vujudga keltiradi, ushbu munosabatda pul ishlab chiqaruvchi va isteʼmolchi oʻrtasida ayirboshlash vositasi sifatida muhim rol oʻynaydi.

Bu erda ishlab chiqaruvchi va isteʼmolchi oʻrtasida ayirboshlanadigan tovar yoki mahsulotning bahosi muhim rol oʻynaydi. Ularning bahosi bozordagi talab va taklif asosida pulda ifodalanadi. Pulning rolini amal qilishida baho muhim iqtisodiy

mexanizm hisoblanadi, tovar va xizmatlar bahosiga qator omillar ta' sir qiladi. Xususan, tovar va xizmatlarning sifati, unga bo' lgan talab darajasi, sotib oluvchining to' lov qobiliyati va boshqa qator omillar shular jumlasidandir.

Haqiqatda ham yuqorida qayd etilgan jarayonlarni tashkil etishda pulning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, pulning tovar xo' jaligi sharoitida amal qilishining samaradorligini oshishiga qator omillar ta' sir qiladi. Xususan ular quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligi. Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va raqobatbardoshligi aholining iste' mol tovarlar va xizmatlarga bo' lgan talabini mahalliy ishlab chiqarish hisobidan qondirishimkoniyatini beradi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida juda muhim hisoblanadi. Birinchidan, import hajmini qisqartirish asosida xorijiy valyutalarni chetga chiqib ketishining oldini oladi. Ikkinchidan, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan barqarorligini oshiradi.

Markaziy bankning mustaqilligini ta' minlanganligi. Ma' lumki, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta' minlashga qaratilgan, ushbu maqsadni samarali amalga oshirish uchun Markaziy bank hukumat va davlatboshqaruv organlari bosimidan holi bo' lishi lozim. Aks holda milliy valyutaning barqarorligi zaiflashadi va uning xalq xo' jaligidagi roli pasayadi.

2. Aholi va mijozlarning bank tizimiga ishonchining mustahkamligi. Mamlakat aholisi va mijozlarning bank tizimiga bo' lgan ishonchining yuqoriligi pulning roliga bevosita va bilvosita ta' sir qiladi. Chunki aholi va mijozlarning banklarga nisbatan ishonchining yuqoriligi ularning vaqtinchalik bo' sh pul mablag' larini banklarga muddatli omonat sifatida qo' yishga undaydi. Bu esa pulning jamg' arma vositasi va to' lov vositasi rolini oshiradi, shu bilan birga, birinchidan, pul egalariga qo' shimcha daromad keltiradi, ikkinchidan, banklarning real sektorni kreditlash imkoniyatlarini oshiradi. Bularning barchasi tovar xo' jaligi sharoitida pulning rolini oshishiga ijobiy ta' sir ko' rsatadi.

3. Inflyatsiya darajasining tegishli me' yorlarda saqlab turilishi. Milliy valyutaning inflyatsiya darajasi xalqaro amaliyotda qabul qilingan me' yorlardan ortib ketishi uning iqtisodiyotdagi rolga salbiy ta' sir ko' rsatadi. Inflyatsiya darajasi yuqori bo' lgan

sharoitda aholining real daromadlari pasayadi, kredit muassasalarida uzoq muddatli omonatlar hajmi qisqaradi, korxona va tashkilotlar ishlab chiqarish hisobidan emas, balki o'zaro olib sotish yo'li bilan daromad izlash payiga tushib qoladi. Natijada aholining iste'mol tovarlarga bo'lgan talabi mahalliy ishlab chiqarish hisobidan emas, balki import hisobidan qondiriladi. Bularning barchasi milliy valyutaning iqtisodiyotdagi rolini pasayishiga olib keladi.

2-MAVZU. PULNING PAYDO BO' LISHI, ZARURLIGI VA FUNKSIYALARI

REJA:

1. Pul, uning kelib chiqishi va zarurligi.
2. Qiymat shakllarining evolyusiyasi.
3. Pulning mohiyati. Pulning funksiyalari.

Pul, uning kelib chiqishi va zarurligi.

Pulning vujudga kelishi kishilik jamiyati sivilizatsiyasining buyuk kashfiyotlaridan hisoblanadi. Pul deb nomlangan maxsus tovarning paydo bo' lishi natijasida odamlar o' rtasida ayirboshlash bilan bog' liq ziddiyatlar va«ehtiyolarning bir – biriga mos kelmasligi» kabi muammolar barham topdi. Pulning vujudga kelishi,

qadimgi davrda odamlar o' z ehtiyojidan ortib qolgan iste' mol mahsulotlari turib qolmasligi va saqlashning imkoniyati bo' lmaganligi bois ularni o' zlariga yaqin yoki tanish odamlarga bergan, bu o' z – o' zidan odamlar o' rtasida stixiyali ravishda bir tomonlama ayirboshlash munosabatlarivujudga kelishiga sabab bo' lgan;

uning evolyusion rivojlanishi, nazariyasi, mohiyati va funksiyalari haqida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, nazariyachilar, mutaxassislar juda ko' p ilmiy asarlar, maqolalar va tadqiqot ishlari yaratgan. Hozirgi kunda ham ushbu jarayon davom etmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga kelishi va uning hozirgi kundagi ko' rinishi haqida yagona yondashuv mavjud emas. Pulning vujudga kelish sababini bilish uchun qadimda odamlar o' rtasida ro' y bergan ayirboshlash munosabatlarini amalga oshirish jarayoniga e' tibor qaratish lozim. Chunki, aynan mana shu tabiiy ayirboshlash jarayoni hozirgi kunda siz bilan biz kundalik hayotda va hisob – kitoblarda foydalanib kelayotgan pulning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Xususan, pulning vujudga kelishiga quyidagi

omillar asos bo'lib xizmat qiladi: Keyinchalik odamlarning ongi, dunyoqarashi va hayot kechirish tarzi rivojlanganligi natijasida, ikki tomonloma ayirboshlash

Ayirboshlash– bu kishilarning istak – xohishlari va ehtiyojlari mahsuli sifatida amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, buning natijasida, tomonlar ehtiyojini qondirish maqsadida ixtiyoridagi narsadan voz kechib, zarur bo'lgan narsaning o'rniga berishdir. Ayirboshlash kishining ehtiyoji bo'lgan buyumga ega bo'lish imkoniyatini beradigan jarayondir.

munosabatlari vujudga kela boshladi. Bu davrda, kishilarda o'ziga zarur bo'lgan buyumning o'rniga nimadir olish evaziga, ikkinchi kishiga berishi lozimligini anglay boshladilar. Bularning barchasi dastlab stixiyali ravishda sodir etilib, bu odamlarning kundalik uchun zarur bo'lgan buyumlar, oziq – ovqatlar, kiyim – kechaklar va boshqa ehtiyojlarini qondirish natijasida ro'y bergan. Bu davr ishlab chiqarish usulining natural xo'jalik tuzumi davriga borib taqaladi. Ma'lumki, natural xo'jalik tuzumidan ilgari davrda har bir kishi kunlik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan mahsulotni mustaqil ravishda ishlab topgan (yaratgan)ligi bois, ular o'rtasida ayirboshlash munosabatlariga ehtiyoj mavjud bo'lgan. Yuqorida qayd etilgan ikki omil, kishilar o'rtasida ayirboshlash munosabatlarining shakllanishiga zamin yaratdi, natijada odamlar ixtiyoridagi ortiqcha mahsulotni o'zi uchun zarur bo'lgan boshqa mahsulotga ayirboshlashga ehtiyoj sezga boshladi.

Demak, ayirboshlash –A va –B tomonlar o'rtasidagi o'zaro kelishuv natijasida sodir bo'ladigan jarayon bo'lib, –A o'ziga tegishli tovar yoki xizmatini B tomonning tovar yoki xizmati uchun berishdir. Madomiki, ushbu almashuv jarayoni ikki tomonga ham iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib, –A|| tomon voz kechgan tovar yoki mahsulot o'rniga o'zi uchun zarur bo'lgan, undan ham foydaliroq tovar yoki xizmatni oladi.

PUL NIMA?

Agar siz Amerikada mustakillik uchun kechgan urushdan ilgari yashaganingizda, sizning pullaringiz asosan ispan kumush tangalardan iborat bular edi. (kumush tangalar «pieces of eight» deb nomlanar edi). Fukarolik urushigacha bulgan davrda AQShda pulning asosiy shakllari sifatida oltin va kumush tangalar xamda xususiy banklar tomonidan muomalaga chikarilgan banknotalar, veksellar mavjud edi . Xozirgi kunda AQShda pul sifatida xukumat tomonidan muomalaga chikarilgan nafakat tangalar va dollar banknotalari, balki banklardagi mavjud xisobrakamlarga yozilgan cheklarni pul

sifatida ishlatishingiz mumkin. Turli davrlarda pul kurinishida xar xil tovarlar ishlatilishig karamasdan, pul doimo insonlar va iqtisodiyot uchun muxim xisoblangan.

Pulning iqtisodiyotga tasirini tushunish uchun, pulning aynan nima ekanligini bilishimiz zarurdir. Ushbu bobda pulning funksiyalari, iqtisodiyotni samaradorligini oshirishda ularning urni, pulning tarixiy shakllari va ularni ulchashning yangi yondashuvlari kurib chikiladi.

Pulning mohiyati

Biz kunlik nutkimizda ishlatadigan «Pul» suzining mazmuni iqtisodchilar uchun aloxida moxiyatga ega xisoblanadi. Yuzaga kelishi mumkin bulgan chalkashlikdan kochish maksadida, odatiy foydalanishdan farkli ravishda iqtisodchilar tomonidan «Pul» suzini kay tarika ishlatilishini aniklashtirib olishimiz lozim. Iqtisodchilar pul (yoki pul massasi) ni cheksiz ravishda tovar va xizmatlarni ayirboshlashda, shuningdek karz majburiyatlarini sundirishda qullaniladigan umumkabul kilingan tulov vositasi sifatida belgilashadi. Dollar banknotalari va veksellardan tashkil topgan nakd pullar tulaligicha ushbu karashga mos keladi va pullarning bir turi xisoblanadi. Kuplab odamlar pul xakida gapirishganda, nakd pullarni nazarda tutishadi. (kogoz pullar va tangalar).Agarda, masalan, kimdir sizning oldingizga kelib, shunday desa – Pulingiz yoki xayotingiz , «Pul deganda aynan nimani nazarda tutdingiz? » deyishdan tiyilgan xolda siz tezda barcha pullaringizni unga tutasiz. Iqtisodchilar pulning moxiyatini fakatgina nakd pullar bilan cheklanishinijuda xam tor deb xisoblashadi. Cheklar xarid uchun tulov vositasi sifatida ishlatilganligi bois, chek depozitlari xam pul urnida kuriladi. Ammo pulning moxiyatini yanada kengrok aniklash zarur: xattoki amaliyotda jamgarma depozitlar nakd pullar va chek depozitlarga tezda aylanganligi bois pulning urnida ishlatilishi mumkin. Shunday kilib, iqtisodchilar pul yoki pul massasining umumiy va anik tushunchasiga ega emaslar. «Pul» suzi tez-tez «boylik» suzi bilan sinonim sifatida ishlatilishi, tushunchaning moxiyatini yanada murakkablashtiradi. Odamlar tomonidan «Joe juda xam boy – uning juda kup puli bor» suzining aytilishi, nafakat uning nakd puli va bankdagi depozitida kup mablag borligini, balki aksiyalari, obligatsiyalari, turtta mashinasi, uchta uyi va yaxtasi borligini bildiradi. Uz navbatida, nakd pullar «pul» suzining tor ma'nosini anglatsada, ushbu suzning «boylik» ma'nosida ishlatilishi juda xam keng ma'nosini bildiradi. Iqtisodchilar pullarni (nakd kurinishida, talab kilib olinguncha depozitlar va boshkalar) sotib olish uchun

ishlatiladigan va boylik – jamgarilgan mulkning qiymati sifatida farqlashadi. oylik uz ichiga nafakat pullarni, balki boshqa aktivlar kurinishidagi obligatsiyalar, oddiy aksiyalar, sanʼat asarlari, er, mebel, avtomobil va uyni uz ichiga oladi. Sheyla – juda xam zur qallic, unda juda xam ajoyib ish bor va kup pul ishlab topadill kabi misolda iqtisodchilar tomonidan –daromad sifatida olingan kursatkich, odamlar tomonidan –pull sifatida tavsiflanadi. Ammo daromad bir vakt birligida mablaglar okimini bildiradi. Aksincha, pul bu –ayni vakt xolatiga maʼlum bir summani ifodalovchi zaxira xisoblanadi. Agar sizga kimdir uning daromadi 1000 doll. ni tashkil qilganini maʼlum kilsa, kaysi davr oraligʻida (yilda, oyda, kunda) ishlab topilganligi tugʻrisida maʼlumotga ega boʻlmasdan, siz ushbu daromad kam yoki kup ekanligini ayta olmaysiz. Kimdir sizga uzining chuntagida 1000 AQSh dollari borligini maʼlum kilsa, siz ushbu summaning kam yoki koʻpligi toʻgʻrisida aniq tasavvurga ega boʻlasiz. Eslab utish joizki, ushbu kitob cheklovlarsiz tovarlar va xizmatlarni ayirboshlashda qullaniladigan pulning umumkabul kilingan tulov vositasi, shuningdek, daromad hamda boylikdan tashqari qarz majburiyatlarini soʻndirish vositasi sifatida oʻrganishga bagʻishlangandir. Shuningdek, natural xoʻjalikning rivojlanib borishi, jamiyatda mehnat taqsimotini shakllanishiga olib kelgan. Vaqt oʻtishi bilan odamlar oʻrtasida mahsulot ayirboshlash jarayoni rivojlanib, ishlab chiqarishning ixtisoslashuv jarayoni roʻy bera boshlagan. Xususan, pulning vujudga kelishida chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi, keyinchalik hunarmandchilikning shakllanishi juda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu davrda, odamlar oʻrtasida mahsulotlarni faol ayirboshlash jarayoni boshlandi. Oʻsha davrdagi ayirboshlash munosabatlarini faollashishiga asosiy omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- ishlab chiqarishning natural xoʻjalik shaklidan tovar ishlab chiqarish davriga oʻtishi;
- ishlab chiqaruvchi subʼektlarning bir – biriga oʻzaro bogʻliqligining vujudga kelishi;
- ayirboshlash jarayonida tovarlar ekvivalentligining taʼminlanganligi.

Qiymat shakllarining evolutsiyasi

Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga kelishini yoritishda asosiy eʼtibor, uning qiymat shaklining rivojlanish evolyusiyasiga qaratiladi. Chunki, pulning vujudga kelishida uning

qiymat shakllari juda muhim o'rin tutadi. Pulning qiymat shakllari, asosan, beshta ko'rinishdan iboratligi e'tirof etilib, ular quyidagilardan iborat.

1. Qiymatning oddiy shakli. Qiymatning ushbu shakli natural xo'jalik tuzumiga xos bo'lib, mahsulotlarning ortiqchaligi vaqti – vaqti bilan vujudga kelgan sharoitda amal qilgan. Qiymatning oddiy shaklida ishlab chiqarish hajmining pastligi, yaratuvchi va oluvchining manfaatlari doimo ham bir – biriga mos kelmagan ayirboshlash jarayonida ma'lum tovarlarga ishtirok etgan.

Ushbu davrda odamlar o'rtasida vujudga kelgan ayirboshlash munosabatlarining vujudga kelishiga ortiqcha mahsulotni buzilmasligi va turibqolmasligining oldini olishga bo'lgan ehtiyoj turtki bo'lgan.

Masalan, bir qop don = bitta qo'yga almashilgan va h.k.

2. Qiymatning kengaytirilgan shakli. Qiymatning kengaytirilgan shakli jamiyatda mehnat taqsimotining vujudga kelish davri bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu davrda, kishilar o'rtasida ayirboshlash munosabatlari rivojlandi. Endi kishilar mahsulotning asosiy qismini ayirboshlash uchun ishlab chiqara boshladi. Natijada, ishlab chiqarish salmog'i ortib bordi, mahsulotlar tez – tez tovar sifatida ayirboshlash jarayonida ishtirok eta boshladi. Bitta tovar bir necha tovarga ayirboshlanadigan bo'ldi. Ayirboshlash jarayonining vujudga kelishida, tomonlarning mafaatlari o'zaro mos kelishi asosiy omil sifatida maydonga chiqdi.

Qiymatning kengaytirilgan shakli amal qilgan davrda ayrim tovar turlari, mehnat qurollari va mollar pulning vazifasini bajargan. Masalan, bir qop don = bitta qo'y, bitta boltaga ayirboshlana boshladi. Albatta, mamlakatning geografik xususiyati va ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, ular o'rtasida pul vazifasini bajaradigan tovarlar va mahsulotlarni ajralib chiqishiga sabab bo'ldi. Masalan, AQShda tamaki, Sharqiy Xindistonda qand, fil suyagi, Qadimgi Gretsiyada buqa, Shotlandiyada mix, Misrda mis, shuningdek don, tuz va jun kabi mahsulotlar umum ekvivalent vazifasini bajara boshladi.

3. Qiymatning umumiy shakli. Bu sharoitda umum ekvivalent sifatida e'tirof etilgan tovarlar eramizdan oldingi V – IV asrlarga qadar pul vazifasini bajardi. Qiymatning umumiy shakli davrida, ishlab chiqarish kengaydi va uning asosiy maqsadi barcha uchun zarur bo'lgan tovarni o'zlashtirishga qaratildi.

Umumiy ekvivalent sifatida qo'y, don, jun, qimmatbaho buyum va boshqalar e'tirof etildi, lekin ular o'zining xossasidan kelib chiqqan holda uzoq vaqt

umumekvivalent vazifasini bajarmadi. Chunki, ishlab chiqarishning rivojlanishi, kishilar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni tezlashtirdi, bu sharoitda umumekvivalent vazifasini bajaradigan tovarlarni olib yurish, saqlash va boshqa jarayonlar turli noqulaylik va qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Buning qiyinchiligi shunda ediki, masalan, dehqon ustiga kiyadigan kiyim olish uchun to'quvchiga donni taklif etsa, to'quvchiga don emas, balki qo'y zarurligini aytadi. Bunday paytda dehqon donni qo'yga almashtirish va shundan so'ng to'quvchiga qo'yni berib o'ziga zarur bo'lgan kiyimni olishi mumkin, ya'ni ayirboshlash jarayonlarida ishtirok etayotgan tomonlarning manfaatlari doimo ham bir – biriga mos kelmasligi oqibatida, turli qiyinchilik va ziddiyatli holatlar vujudga keldi. Buning natijasida, qiymatning pul shakli vujudga keldi.

4. Qiymatning pul shakli. Ayirboshlash munosabatlarining rivojlanishi, jahon bozorining vujudga kelishi, kumush va oltinning barcha tovarlar ichidan umumekvivalent vosita sifatida ajralib chiqishiga olib keldi. Ushbu metallarning tabiiy xossasi (yagona jismligi, qiymatining o'zgarmasligi, sifatining buzilmasligi) uzoq davr jamiyatda pul vazifasini bajarishiga xizmat qildi.

Oltin pul sifatida.

Qimmatbaho metallar umumekvivalent sifatida muomalaga kiritilishining dastlabki davrida pul har xil quyma shakldan (sim, plastinka, yumaloq va boshqa shakllar) iborat edi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi va mehnat taqsimotining taboro takomillashib borishi metall pullardan ma'lum shakl va miqdorga ega bo'lgan tangalarni zarb qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Tarixiy manbalarga ko'ra, dastlabki metall tangalar eramizdan avvalgi VII asrda Xitoy va Lidiya (Malaya Aziya) davlatlarida zarb etilgan.

Metall pullarning nominal qiymati haqiqatdagi qiymatiga teng bo'lib, noyob qimmatbaho metallardan tayyorlanadi va pulning barcha funksiyalarini bajaradi.

E'tiborli jihati shundaki, muomalada haqiqiy pullar ayirboshlash vositasi vazifasini bajargan davrda iqtisodiyotda pul muomalasi avtomatik ravishda tartibga solinadi. Natijada, iqtisodiyotda pulning qadrsizlanishi, baholarning o'sishi va inflyasiya holati kuzatilmaydi. Chunki qimmatbaho metallarning muomalada ortiqchalik holatining vujudga kelishi, ularni jamg'arma va boylik sifatida saqlashga yo'naltirilishi orqali

bartaraf etiladi. Agar, muomalaga qo‘ shimcha ayirboshlash qiymati zarur bo‘lsa, ular qiymat o‘lchovi, muomala va to‘lov vositasifatida qaytadan muomalaga chiqariladi.

Oltinning muomalada amal qilishi XX asrning 30 – 70 yillarida bekor qilindi,

ya‘ni oltin demonitizatsiyasi yuz berdi. Oltin ayirboshlash vositasi sifatida muomaladan chiqarilishining dastlabki davrida avval muomala va to‘lov vositasi funksiyasini, 1975 yildan so‘ng esa jahon puli funksiyasini to‘xtatdi. Ushbu vazifalarni ichki va jahon bozoriga oltinning o‘rniga kirib kelgan qog‘oz va kredit pullar egalladi.

5. Qiymatning qog‘oz – pul shakli. Dastlabki qog‘oz pullarni muomalaga chiqarilishi taxminan X asrning oxiri XI asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Shu davrdan boshlab, muomaladagi oltin va kumush pullar o‘rnini qog‘oz pullar egallay boshladi. Muomalada oltin va kumush amal qilgan sharoitda ular bilan parallel ravishda to‘lov vositasi sifatida qog‘oz pullarni kirib kelishining sabablari sifatida quyidagilarni ta‘kidlash lozim:

- qimmatbaho metallarni olib yurish, saqlash va xavfsizligini ta‘minlash yuzasidan muammoli holatlarning vujudga kelishi;
- oltin va kumush muomalada qo‘ldan qo‘lga o‘tishi natijasida edirilib, o‘zining dastlabki hajmi va xossasini yo‘qotishi;
 - qimmatbaho metallar zebu ziynat va boylik timsolida muomaladan chiqib ketishi;
 - iqtisodiy taraqqayotning yuqori darajada rivojlanishi natijasida tovar va xizmatlar massasining qimmatbaho metallar (oltin, kumush) massasiga nisbatan shiddat bilan ortib borishi.

Dastlab muomalaga chiqarilgan qog‘oz pullarning asosi oltin bilan ta‘minlangan bo‘lib, ushbu pullar bilan birgalikda oltin tangalar ham muomalada ishtirok etgan.

Qog‘oz pullar mustaqil qiymatga ega bo‘lmasdan, ular davlatning qonuniy hujjatlari asosida mamlakatda to‘lov va muomala vositasi rolini bajaradi. Shuning uchun qog‘oz pullarning qiymati o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, u mamlakat ichki bozorida chet el valyutasiga bo‘lgan talab va taklif, milliy iqtisodiyotning barqarorligi hamda ijtimoiy – iqtisodiy holatlar ta‘sirida o‘zgarib turadi. Bu uning sotib olish qobiliyatining mustahkamligi, inflyasiya darajasi va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi.

Pulning mohiyati. Pulning o‘ziga xos xususiyatlari.

Pulning iqtisodiy mohiyati xususida iqtisodiy adabiyotlarda turli ta'riflar va talqinlar mavjud bo'lib, uning mohiyatiga nisbatan yagona yondoshuv mavjud emas. Chunki, jamiyatda xo'jalik yuritish tuzumining va ijtimoiy – iqtisodiy sharoitning o'zgarishi pulning mohiyatini turlicha talqin etilishini talab etmoqda. Jumladan, iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislari pulni – iqtisodiy kategoriya sifatida, qiymat o'lchovi vositasi, umumekvivalent tovar, maxsus tovar, ayirboshlash vositasi ekanligini e'tirof etadii.

D.Yum A.Smitning pul xususidagi qarashlariga e'tiroz bildirib, –Pul bu – savdo – sotiqning g'ildiragi emas, balki u yog', shu savdo – sotiq g'ildiragini erkin va yumshoq yurishiga imkoniyat yaratadigan vositadir degan fikrni bildiradi⁹.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar ham pulning iqtisodiy mohiyatiga alohida e'tibor qaratishgan. Jumladan, iqtisod fanlari doktori, professor B.I.Sokolov pulning mohiyatiga –pul mehnat taqsimoti chuqurlashib borayotgan ushbu jamiyatda tovarlarni ayirboshlash va to'lovlarni amalga oshirish ishlarini engillashtiradi deya ta'kidlaydi¹⁰.

Pul shakllari va turlarining evolyusiyasi.

Pul hozirgi kundagi ko'rinishi, holati va darajasiga etgunga qadar juda uzoq tarixiy davrni boshidan kechirdi. Er yuzida puldan ayirboshlash vositasi sifatida foydalanib kelinayotganiga etti ming yildan ortiq vaqt bo'ldi¹⁴. Bu davr ichida dastlabki pullar tovar, buyum, oddiy metall va qimmatbaho metallar ko'rinishidan hozirgi kunda keng foydalanib kelinayotgan qog'oz va elektron pullar ko'rinishigacha etib keldi.

Jamiyatda ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar takomillashib va rivojlanib borgan sari pulning shakli, pul ishlari va pul ishtirokidagi hisob – kitoblar ham doimiy ravishda takomillashib va rivojlanib kelmoqda.

Pulning rivojlanishiga turtki bo'lgan asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi. 1.Tovar ishlab chiqarishning kengayishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi. 2. Barcha shakllardagi mulk qiymatlarining o'sishi. 3. Tovarlar oldi – sotdisi bo'yicha aylanmalar hajmining ortishi.

Tanga pullarning rivojlanish tarixi. Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki tanga pullar Xitoy mamlakatida va qadimgi Lidiya xonligi davrida miloddan avvalgi VII asrda paydo bo'lganligini ta'kidlaydi. Manbalarga ko'ra, birinchi oltin pullar bizning eramizgacha bo'lgan VII asrda Lidiya shohi Gigesning buyrug'i bilan zarb etilgan. Oltinga o'zining tasvirini tushirib zarb qilgan birinchi shox Aleksandr Makedonskiy

hisoblanadi, o' sha davrda oltinning qiymati uning probasi va og' irligi bilan o' lchanar edi.

AQShda monetalar 1793 yilda zarb etilgan, shu davrga qadar va undan keyin uzoq muddat davomida mamlakatda xorijiy mamlakatlarning tangalari to' lov vositasi sifatida amal qilgan. Mamlakatda ayrim xorijiy tangalar 1857 yilgacha to' lov vositasi sifatida muomalada ishtirok etdi.

Muomalada oltin tangalar to' lov vositasini bajarganda ular haqiqiy pul sifatida o' zining sohibiga iqtisodiy zarar keltirmaydi va avtomatik ravishda boshqarilib turish xususiyatiga ega bo' lgan. Ya' ni, ularni hozirgi paytdagi kabi qog' oz pullarni emissiyasi orqali tartibga solib turishga ehtiyoj bo' lmagan. Agar oltin tangalarning hajmi ehtiyojdan ortib ketadiigan bo' lsa, ular boylik sifatida avtomatik tarzda jamg' armaga o' tadi, aksincha bo' lganda esa to' lov vositasi sifatida muomalaga chiqadi. Shu bois ham oltin tangalar to' lov vositasini bajargan paytda pul tizimini tartibga solish apparati va pul – kredit siyosatini amalga oshirishga ehtiyoj bo' lmagan.

O'zbekiston hududida dastlabki metall tangalar miloddan ilgarigi VI asrda Ahmoniy shoh Doro I tomonidan zarb etilgan. Ushbu metall tangalarning og'irligi 8,4 grammni tashkil etgan bo'lib, –darik deb nomlangan tilla tangalar ekanligi taxmin qilinadi. O' sha vaqtlarda, ya'ni miloddan ilgarigi VI – IV asrlarda hozirgi O'zbekistonning asosiy qismi, ya'ni Xorazm, Sug'diyona va Sak qabilalari yashagan hududlar Ahmoniyar davlati tarkibida bo'lganini hisobga olsak, ushbu –dariklar O'zbekiston zaminida amal qilgan bizga ma'lum birinchi tangalar o' lgan desak xato qilmaymiz.

Miloddan avvalgi 330 – 327 yillarda makedoniyalik Iskandar Ahmoniyar saltanatini tor – mor qilib, hozirgi O'zbekiston zaminida joylashgan Baqtriya va Sug'diyonaga bostirib kiradi. Makedoniyalik Iskandar surati tushirilgan tangalardan vazni 4,1 g. bo' lgan kumush draxma, vazni 8,2 g. bo' lgan kumush didraxma (ikki draxma) hamda vazni 16,4 g. bo' lgan kumush tetraxma (to' rt draxma)lar zarb qilinib, ular muomalada bo' lgani ma' lum. Shuningdek, vazni 8,4

g. bo' lgan oltin tanga (starer) va vazni 40 grammdan ortiq bo' lgan kumush dekadraxma ham zarb qilingan.

Yunon – Baqtriya davlati tomonidan zarb etilgan tangalardan 100 donaga yaqini Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida topilgan. Ushbu davlat pul tizimiasosini o' sha

paytda draxma, didraxma, tetradraxma va dekadraxmalar tashkil etganligi tarixiy manbalardan ma'lum.

O'rta Osiyo eramizning V asrida tarixan qisqa muddat davomida sosoniylar tasarrufida bo'lgan. Bu davrda hozirgi O'zbekiston xududida turli davrlarda zarb etilgan tangalar muomalada bo'lgan. Jumladan, sosoniylar tangalari asosan oltin, kumush va bronzadan zarb qilingan bo'lib, ularda sosoniy shohlariing suratlari bilan birga, turli hayvonlar va qushlar aksi ham tushirilgan. Hozirgi O'zbekistonning asosiy qismi V asrning ikkinchi yarmida Sirdaryoning sharqiy sohilidan kirib kelgan deb taxmin qilinayotgan va tarixda eftaliylar nomi bilan qolgan qabilalar tomonidan bosib olinadi. Eftaliylar davrida O'rta Osiyo asta sekin rivojlana boshlagan. Xalqaro savdo ham rivojlangan. Tashqi savdo asosan Xitoy, Xindiston, Eron va Vizantiya (Rum) bilan amalga oshirilgan. Eftaliylar dastlabki paytlarda sasoniy hukmdorlari Bahrom va Perozning kumush tangalaridan keng foydalanishgan. Buning asosiy sababi sifatida sosoniylar tomonidan eftaliylarga o'lgan sifatida to'langan juda ko'p miqdordagi kumush tangalar xazinada to'planganligiga bog'liq deb taxmin qilinadi. Eftaliylar hukmronligi davrida juda ko'p miqdorda, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda 200 dan ko'proq marta metall tangalar zarb qilingan. Har bir viloyat, har bir yarim qaram xudud o'zi tanga zarb qilish huquqiga ega bo'lgan. Umuman, V – VI asrlarda hozirgi O'zbekiston hududiga shimol va sharq tomonlardan turli ko'chmanchi xalqlar tinimsiz bosqinchilik qilib kirib kela boshlaydi. VIII asrning o'rtalarida O'rta Osiyo arablar tomonidan bosib olinib, o'lkada islom dini joriy etiladi va qadimiy yurt Movarounnahr deb atala boshlaydi. Shu davrdan boshlab muomalada bo'lgan metall tangalar ko'rinishida o'zgarishlar yuz bera boshlaydi. Asta – sekin tangalardan shoh va hokimlarning suratlari o'rnini islom oyatlari egallaydi. Natijada «kufi» nomi bilan tarixda ma'lum bo'lgan tangalar davri boshlanadi. Islom imperiyasida markazlashtirilgan boshqaruv tizimi tashkil etilgandan keyin xalifa Abdumalik 696 yilda imperiyaning butun hududida yagona pul tizimini joriy etdi. Shu davrdan boshlab, yirik savdo bitimlarini amalga oshirish uchun vazni 4,3 gramm bo'lgan oltin dinor zarb etilgan. Maosh va soliqlar to'lovi uchun vazni 2,8 gramm bo'lgan kumush drahmalar chiqariladi. Kundalik savdo – sotiq esa mis tangalar – fuluslar yordamida (yunoncha «follis» hamyon ma'nosini anglatadi) amalga oshirila boshladi. Bu pul birliklari Movarounnahrda ham o'sha davrda muomalada bo'lgan. IX asrga kelib, Movarounnahrda somoniylar davlati vujudga keladi. Somoniylar xalifa hukmronligini rasman tan olishgan bo'lsada, ular amalda mustaqil edilar. Somoniylar davlatining

poytaxti Buxoro shahri bo'lgan. Somoniylar davlati o'z tasarrufiga hozirgi O'zbekistonning asosiy qismi, Turkmaniston va Tojikiston hamda Eronning Xuroson viloyatini qamrab olgan, markazlashgan davlat edi. Bu davlat taxminan 120 yildan ko'proq muddat davomida mavjud bo'ldi.

XII asrning o'rtalarida, xorazmshoh Otsiz davriga kelib, Xorazm davlati kuchayib ketadi. XII asr 80 – 90 yillariga kelib Xorazm o'ziga Movarrounnahr, Eron, Forsiy Iroqni bo'ysundiradi. Xorazm davlati xorazmshoh Tekash (1172 – 1200 yillar) va uning o'g'li Muhammad (1200 – 1220 yillar) hukmronligi davrlarida ayniqsa gullab – yashnagan. Xorazmshohlar davlatida ham an'anaviy musulmon pul birliklari – oltin dinorlar, kumush dirhamlar va mis fuluslari muomalada bo'lgan. Bu tangalarda ham an'analar tarzida xalifa nomi qayd qilinib, undan so'ng xorazmshoh nomi bitilgan. Mo'g'ullar istilosi davrida (1220 yil yozidan) Xorazmda va uning tobeligidagi xududlarda vazni 1,8 – 1,9 gramm bo'lgan kumush dirhamlar muomalada bo'lgan. Mayda savdo – sotiq uchun mis pullar chiqarilgan. Mo'g'ullar zulmiga qarshi xalq bosh ko'tardi. Bu harakat tarixda –Sarbadorlar qo'zg'oloni deb nom olgan. Bu qo'zg'olon natijasida Samarqanddan mo'g'ullar haydab chiqariladi. 1370 yilda Samarqand taxtiga Amir Temur o'tiradi va Buyuk Temur saltanatini barpo etadi. Ushbu imperiya tarkibiga hozirgi O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Afg'oniston, Armaniston, Eronning barcha hududi, Iroq, Hindiston, Ozarboyjon, Gruziya, Qozog'istonning bir qismi kirgan. Katta miqdorda vazni 2 grammni tashkil etgan oltin dinorlar, shuningdek, vazni 1,8 gramm bo'lgan kumush tangalar – miralar ham zarb etila boshlagan. Amir Temurning 40 dan ortiq tanga zarbxonalari bo'lganligi va bu erlarda zarb etilgan oltin va kumush tangalar Evropada ham mashhur bo'lganligi haqida ko'plama ma'lumotlar mavjud. Birgina G'arbiy Eron va Ozarboyjonda Amir Temurning nomi bitilgan 120 turdan ortiq oltin va kumush tangalar muomalaga kiritilgan. Rossiyada XIX asrda va XX asrning boshlarida naqd pul shaklida oltin tangalar keng qo'llanilgan, xususan 1895 – 1897 yillardagi pul islohotlaridan keyin ham birinchi jahon urushiga qadar muomalada o'n va besh so'mlik oltin tangalar mavjud bo'lgan. O'zbekiston territoriyasida ham oktyabr inqilobiga qadar Chor Rossiyasining tangalari bilan bir qatorda Buxoro va Xiva xonligining oltin tangalaridan foydalanilgan. Jahon sivilizatsiyasining taboro rivojlanib borishi va iqtisodiy

munosabatlarning takomillashuvi muomalada qog‘oz pullarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Natijada, qimmatbaho metallar o‘rnini qog‘oz pullar egalladi.

Qog‘oz pullarning muomalaga kiritilishi. Manbalarga ko‘ra, dastlabki qog‘oz pullar X asrning oxiri XI asrning boshlarida Xitoyda chiqarilgan. Xitoyda qog‘oz pullar muomalaga chiqishida mamlakatda qog‘ozning kashf etilganligi va bosma mashinalarining yaratilganligi muhim ahamiyat kasb etgan. Dastlab muomalaga chiqarilgan qog‘oz pullar –erkin tangal, keyinchalik –qimmatbaho qog‘oz tangalar deb yuritildi, ular mamlakatda erkin aylanadigan to‘lov vositalari bo‘lsada oltin yoki tovarlar bilan ta‘minlanmagan edi. Qog‘oz pullar kvadrat shaklda bo‘lib, bir tomonida imperatorning nomi va dinastitsiyasi haqidagi ma‘lumotlar, ikkinchi tomonida esa –G‘aznachilik boshqaruvi iltimosiga ko‘ra qaror qilindi, hukumronlik qiluvchi imperator tomonidan tasdiqlangan va ushbu yozuv bo‘lgan bu qog‘oz tanga qiymatga ega va haqiqiy kumush tanga qatorida to‘lovga qabul qilinishi shart. Ushbu tartibni buzgan har qanday shaxsning boshi kesiladi degan mazmundagi so‘zlar bitilgan edi. Xitoyda muomalaga chiqarilgan qog‘oz pullarning hajmi ortib ketganligi va ularni tartibga solish mexanizmlari mavjud bo‘lmaganligi bois juda tez vaqt ichida qadrsizlanib ketadi. Natijada 1500 yillarga kelib qog‘oz pullarni muomalaga chiqarish bekor qilinadi. Evropada dastlabki qog‘oz pullar Stokgolim banki tomonidan 1661 yilda emissiya qilingan. Evropada qog‘oz pullar emissiyasining namoyandalaridan biri shotlandiyalik Djon Lo (1671 – 1729) hisoblanadi. Uning ta‘limotiga ko‘ra, muomalaga chiqarilgan qog‘oz pullar ishlab chiqaruvchilar faolligini oshiradi va davlatning xazinasini to‘ldirishda juda qulay vosita hisoblandi. U o‘zining ta‘limotini 1716 – 1720 yillarda Fransiyada o‘zi tashkil etgan bank orqali amalga oshirishga erishdi. Biroq, muomalada qog‘oz pullar haddan ortiq ko‘payib ketishi natijasida pullarning qadri tushib ketdi va uning ta‘limoti inqirozga yuz tutdi.

O‘zbekistonda qog‘oz pullar 1918 yildan boshlab dastlab Buxoro amirligida muomalaga chiqarilgan. Muomalaga chiqarilgan nominali 20, 60, 100, 200, 300, 500, 1000, 2000, 3000, 5000, va 10000 qog‘oz pullar tanga deb atalgan. 1920 yilda Buxoro Sho‘ro qo‘shinlari tomonidan bosib olinib, Buxoro amirligi o‘rniga Buxoro Sovet Xalq Respublikasi (BSXR) tashkil etiladi. Yangi BSXR da 1920 yilda Buxoro amirligi tomonidan chiqarilgan metall va qog‘oz tangalar muomalada bo‘lib keladi, hamda ularni bir oz o‘zgartirilgan holda chiqarish, ya‘ni sovet simvolikasi qo‘yilgan holda tanga nomi bilan qog‘oz pullar muomalaga chiqarish davom etgan. 1921 yilda BSXR

muomalaga yangi, nominali rublda ko‘rsatilgan qog‘oz pullarni chiqara boshlaydi. Bu pullar 3000, 10000 va 20000 rubl nominalda muomalaga chiqarilgan. 1922 yilda BSXR tomonidan denominatsiya amalga oshirilib, pullarning nominali yuzlab marta kamaytirilgan va 1, 5, 10, 25, 100 rubllik yangi pullar muomalaga chiqarilgan. Ammo ko‘pchilik o‘rtasidan, kuchli inflyatsiya natijasida past nominaldagi pul birliklari bozor ehtiyojlarini qondira olmay qoladi va 1000, 2500 va 5000 rubllik pullar bosib chiqarila boshlagan. Xulosa qilib aytganda, pulning vujudga kelishi jamiyat ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarini rivojlanishi va takomillashib borishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bularning ichida kishilar o‘rtasida mehnat taqsimotining paydo bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, biz yashab istiqomat qilayotgan zaminda pullarning vujudga kelishi uning tarixi va sivilizatsiyasi juda boy va qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

Pulning funksiyalari.

Pul chig‘anoq yoki brilliant, oltin yoki qog‘oz pul ko‘rinishida bo‘lishidan qat‘iy nazar, iqtisodiyotda pul uchta funksiyani bajaradi. Pul ayirboshlash vositasi, qiymat ulchovi va jamg‘arish funksiyalarini bajaradi. Aynan ayirboshlash funksiyasi pulning boshqa aktivlar – aksiyalar, obligatsiyalar va uylardan farqini belgilab beradi.

Ayirboshlash funksiyasi.

Bizning iqtisodiyotimizdagi mavjud deyarli barcha bozor iqtisodiyoti tamoyillarida yuzaga keladigan operatsiyalarda pul naqd pullar yoki cheklar ko‘rinishida tovarlar va xizmatlar to‘lovi uchun foydalanilib ayirboshlash funksiyasini namoyon qiladi. Pulning ayirboshlash vositasi sifatida foydalanilishi ayirboshlash operatsiyalarida vaqt xarajatlarini kamaytirib iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. Nima uchun aynan shunday ekanligini tushunish uchun tovarlar va xizmatlar to‘lag‘ridan-to‘lag‘ri boshqa tovar va xizmatlarga ayirboshlanadigan barter iqtisodiyotni ko‘rib chiqamiz. Misol tariqasida, iqtisod fanlari professori Elen faqat bitta ajoyib ishni, ya‘ni iqtisodiyot bo‘yicha ma‘ruza o‘qiy oladi. Agar Elen ovqatlanishni hojlasa, barter iqtisodiyotda nafaqat unga mos keladigan maxsulotlar ishlab chiqaradigan balki uning iqtisodiyot bo‘yicha ma‘ruzalariga qiziqadigan ferma topishiga to‘lag‘ri keladi. Ko‘rinib turibdiki, Elen faqatgina uning leksiylariga muhtoj bo‘lgan odamlarga ma‘ruza o‘qiy olishi ko‘p vaqt va kuch talab qiladi. Bunday holat ochlikdan o‘lishiga olib

kelishi mumkinligi bois u ma'ruza o'qishni to'xtatib, fermerlik bilan shug'ullanishiga to'g'ri keladi. Tovar va xizmatlarni ayirboshlashga sarflangan vaqt – operatsion xarajatlar hisoblanadi. Barter iqtisodiyotda operatsion xarajatlar juda yuqori hisoblanib, odamlar –xohish va istaklarni ikki hissa moslashtirishni qondirishlariga to'g'ri kelib, ular zaruriy tovar va xizmatlarga ega va bir vaqtning o'zida ushbu tovarlar va xizmatlarni ayirboshlashni xohlaydigan kishilarni topishi zarurdir. Elenning iqtisodiyotida pullar paydo bo'lsa, nimalar sodir bo'lishini ko'rib chiqamiz. Bunday holatda uning ma'ruzalari uchun pul to'laydigan har bir odamning hisobini yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keyinchalik u har qanday fermer (supermarket) ga borishi yoki ma'ruza o'qishi natijasida ishlab topilgan pullarga zaruriy iste'mol maxsulotlarini sotib olishi mumkin bo'ladi. –Xohish va istaklarni ikki hissa moslashtirishni muammosi tugatilsa, Elen kuplab vaqtni tejashi orqali, o'zining eng sevimli ishi hisoblangan dars berish bilan shug'ullanadi. Ko'rib chiqilgan misoldan ko'rishimiz mumkinki, pullar iqtisodiyotning samaradorligini oshirib, tovarlar va xizmatlarni ayirboshlashga ketadiigan vaqtni tejash imkonini beradi. Odamlarning yuqori malaka to'plash orqali ma'lum ishlarga ixtisoslashuvi iqtisodiyotning samaradorligini oshishiga olib keladi. O'z navbatida, pul – iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, o'zining xususiyatiga ko'ra moylovchi material sifatida operatsion xarajatlarni kamaytirish, ishchi kuchini ixtisoslashuvi va taqsimlanishini chuqurlashtirish xisobiga iqtisodiyotning ancha moslashuvchanligini oshiradi. Pulga bo'lgan talab shu darajada yuqoriki, eng primitiv ko'rinishidagi jamiyatdan tashqari xar qanday jamiyat pulni o'ylab topadi. Xar qanday tovar pul sifatida samarali ishlashi uchun bir nechta talablarga javob berishi zarurdir: birinchidan, osonlik bilan uning qiymatini aniqlash uchun standartlashgan bo'lishi; ikkinchidan, umumqabul qilingan bo'lishi; uchinchidan, qismlarga bo'linishi; to'rtinchidan, bir joydan ikkinchi joyga osonlik bilan ko'chirilishi; beshinchidan, tezda parchalanib ketmasligi lozim. Insoniyat tarixida ushbu talablarga javob beruvchi pullar sifatida ko'plab noodatiy shakllar, ya'ni amerikalik xindular tomonidan foydalanilgan marjonlardan tortib birinchi amerikalik kolonistlar tomonidan foydalanilgan tabaka va viskilar hamda ikkinchi jahon urushida harbiy asirlar uchun lagerlarda sigaretlargacha ishlatilgan. Pulning turli shakllaridan foydalanish – ishlab chiqarish vositalarining va tilning rivojlanishi kabi insoniyat topqirligining yana bir belgisidir.

Qiymat o' lchovi.

Pulning ikkinchi funksiyasi – iqtisodiyotda pul o' lchov vositasi sifatida xizmat qilganda xisob birligini ta' minlashi lozim. Og' irlikni funtda yoki masofani milda ulchaganimiz kabi biz tovarlar va xizmatlarning qiymatini pul birliklarida ifodalaymiz. Ushbu funksiyaning muhimligini anglashimiz uchun pul qiymat o' lchovi funksiyasini bajarmaydigan barter iqtisodiyotni yana bir ko' rib chiqamiz. Agarda iqtisodiyotda faqatgina uchta tovarlar, aytaylik, shaftolilar, iqtisodiyot bo' yicha leksiyalar va filmlar mavjud deb qarasak, unda tovarlar almashinuvini ta' minlash uchun faqatgina uchta narxlarni bilishimiz zarurdir: iqtisodiyotdagi ma' ruza nuqtai-nazardan shaftolining narxi (shaftoliga pul to' lashingiz uchun iqtisodiyotdan nechta ma' ruza o' qishingiz lozim), film nuqtai-nazaridan shaftolining narxi, film nuqtai-nazaridan iqtisodiy ma' ruzaning narxi. Agarda iqtisodiyotda 10 ta tovarlar bo' lganida edi - 45 ta tovarning narxini, 100 ta tovar mavjud bo' lsa – 4950 ta tovarning narxini, 1000 ta tovar mavjud bo' lsa – 499 500 ta tovarlarning narxini bir tovarni boshqasiga ayirboshlashimiz uchun bilishimiz zarurdir.¹⁸ Tasavvur qilib ko' ringki, barter iqtisodiyot sharoitida polkada minglab turli xil tovarlar joylashgan supermarketda bir funt tovuq go' shtining narxi to' rt funt yog' narxiga, bir funt baliqning narxi sakkiz funt pomidorning narxiga teng bo' lgan sharoitda tovuq yoki baliqdan qay birining narxi arzon ekanligini aniqlashga to' g' ri kelar edi. Barcha tovarlarning narxlarini solishtirishingiz uchun xar bir narsaning ustidagi yorliqda 999 ta narxlar ro' yxati mavjud bo' lish lozim edi. Natijada ularni o' qishga sarflangan vaqt juda katta tranzaksion xarajatlarni keltirib chiqarar edi. Ushbu muammoni xal etish uchun iqtisodiyotga pulni tatbiq etish va barcha tovarlarning (shaftolilar, iqtisodiyot bo' yicha ma' ruza, filmlar) narxlarini pul birliklarida, masalan, dollarlarda aks ettirish kerak. Iqtisodiyotda faqatgina uchta tovarlar mavjud bo' lgan holatda tranzaksiyalarni o' tkazish uchun uchta narxga nisbatan ehtiyojimiz mavjudligi bois barter tizimiga nisbatan unchalik katta foyda bo' lmaydi. Ko' rishimiz mumkinki, puldan qiymat o' lchovi vositasi sifatida foydalanish ko' rib o' tilgan xolatda narxlar sonini kamaytirib, operatsion xarajatlarni pasaytiradi. Iqtisodiyot yanada murakkablashib borishi barobarida pulning ushbu funksiyasidan olinadigan foyda yanada oshib boradi.

Jamg' arish vositasi.

Pul shuningdek jamg' arish vositasi sifatida xizmat qiladi; daromad olingan vaqtdan boshlab xarajat qilingungacha bo' lgan davrda xarid qobiliyatini saqlab turish

vositasi xisoblanadi. Pulning ushbu funksiyasi foydali hisoblanib, ko'pchiligimiz saqlashni afzal ko'rib, pullarni olishimiz bilan darhol xarajat qilishni hojlamaymiz. Pul – yagona jamg'arish vositasi emas; har qanday aktivlar

– pullar, aksiyalar, obligatsiyalar, er, uy, san'at asarlari yoki zargarlik mollari – jamg'arish vositasi hisoblanadi. Ushbu aktivlardan ko'pchiligi pulga nisbatan o'zining egalariga katta foyda (foiz) keltirib, narxi kutariladi va qulayliklar yaratadi (masalan, boshimiz ustidagi tom). Agarda ushbu aktivlar jamg'arish vositasi sifatida pul bilan taqqoslaganda ancha foydali bo'lsa, unda insonlar nega pullarni jamg'arishadi? Ushbu savolga javob muhim iqtisodiy tushuncha hisoblangan **likvidlilik** bilan bog'liq hisoblanib, aktiv oson va tezkorlik bilan ayirboshlash vositasiga aylanadi. Likvidlilik juda ham muhim hisoblanadi. Pul ayirboshlash vositasi hisoblanganligi bois eng likvidli aktiv hisoblanadi; bir narsa sotib olish uchun pul boshqa narsaga aylantirish shart emas. Boshqa aktivlar pulga aylantirilganda tranzaksion xarajatlarni talab qiladi. Masalan, siz uyingizni sotsangiz, brokerlik komissiyasini to'lashingiz shart (odatda sotish narxining 4-6% ini tashkil qiladi). Agar siz kechiktirib bo'lmaydigan hisobraqamlarni tezda to'lash uchun naqd pullarga muhtoj bo'lsangiz, pulni tezda sotish uchun uyingizni ancha past narxda sotishingizga to'g'ri keladi. Pul eng likvidli aktiv bo'lmasin va yuqori darajadagi jamg'arish vositasi hisoblanmasada odamlar bajonidil pulni saqlaydi. Jamg'arish vositasi sifatida pulning ishonchlilik narxlar darajasiga bog'liq hisoblanadi. Masalan, barcha narxlarning ikki barobar oshishi, pulning qiymatini ikki barobarga kamayganligini anglatadi. Teskari holatda narxlarning ikki barobarga kamayishi pulning qiymatini ikki barobarga oshganligini ko'rsatadi. Inflyasiya sharoitida narxlar darajasining tezlik bilan o'sishi kuzatilsa, pul tezda o'zining qiymatini yo'qotadi. Natijada odamlar istar-istamas o'zlarining boyliklarini pul shaklida saqlashadi. Bu holat oylik inflyasiya surati 50% dan oshishi natijasida yuzaga keladigan giperinflyasiyaga hos bo'lgan bo'lgan yuqori inflyasiya sharoitiga ko'proq mos tushadi. Birinchi jahon urushidan so'ng Germaniyada xuddi shunday inflyasiya sodir bo'lib, inflyasiya surati ba'zan oyiga 1000% dan oshib ketdi. 1923 yilda giperinflyasiya tugaguncha narxlar darajasi ikki yil oldingiga nisbatan 30 milliard marotaba o'sishi kuzatildi. Aytishlaricha, giperinflyasiya tugash davrida buxanka non sotib olish uchun bir zambil naqd pul talab qilingan ekan. Pul o'zining qiymatini shunchalik darajada tez yo'qotgan ediki, ish kuni davomida ishchilarga bir necha marotaba ish haqi to'langan va pullar o'zining qiymatini

yo‘ qotib qo‘ yishidan oldin ertaroq pullarni sarflashlari maqsadida tanaffuslar e‘ lon qilingan. Hech kim pulni jamg‘ arishni xohlamagan, chunki ularning almashuv vositasi sifatida o‘ rni yo‘ qolgan va barter tizimi yanada rivojlanishiga olib kelgan. Operatsion xarajatlar yuqori darajada o‘ sib, kutganimizdek, yalpi ishlab chiqarish hajmi keskin tushib ketgan.

3-MAVZU: PUL NAZARIYALARI

REJA:

Pul nazariyasining mohiyati

Pulning metallik nazariyasi

Pulning nominallik nazariyasi

Pul nazariyasining mohiyati

Pul nazariyasining olamshumul ilmiy ahamiyati shundaki, u barcha iqtisodiy fanlarning bazisi hisoblanadi. Haqiqatda ham birorta iqtisodiy adabiyot mavjud emaski, agar pul yoki u bilan bog‘ liq munosabatlarni o‘ zida aks ettirmagan bo‘ lsa.

Pulning nazariy tabiati bir nechta bo‘ lib, qator konsepsiyalarda uning mavjudligini tabiiy asoslari va amal qilishining sabablari keltiriladi. Shartli ravishda buni –tovarli|| va –tovarsiz|| konsepsiyalarga ajratish mumkin³⁵.

Tovarli konsepsiyada pulning qimmatlilikini aniqlashda asosiy e‘tibor real foydali hisoblangan ichki qiymatiga qaratiladi. Bu borada juda keng tarqalgan pulning metallilik nazariyasi e‘tiborga olinadi. Pulning tovarsiz konsepsiyasida uning tovarni sotib olish huquqini beruvchi qiymati, simvoli, ieroglifi, umumiy ko‘rinishi kabi belgilariga e‘tibor qaratiladi. Albatta, pul nazariyasining ko‘p qirraliligi va uning iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi juda ko‘p iqtisodchi olimlar, mutaxassislar, ekspertlar tomonidan e‘tirof etilgan. E‘tiborli jihat shundaki, iqtisodchi olimlar, ekspertlar va mutaxassislarning pul nazariyasi va uning iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi haqidagi qarashlari, ta‘limotlari va g‘oyalari juda ko‘p hollarda bir – biridan farq qiladi. Buning asosiy sabablaridan biri, bizning nazarimizda, iqtisodiy nazariyachi olimlar, mutaxassislar va ekspertlarning pul nazariyasi haqidagi asarlarining turli vaqtda, turlicha ishlab chiqarish sharoitida va turli hududlarda yaratilganligidir. Jamiyatda mehnat

taqsimotining mavjudligi, kishilarni bir – biriga bog‘lab turadilar, ular o‘rtasida mahsulotlar va resurslar almashuvini ta‘minlaydigan mexanizmni amal qilishini talab etadi. Ushbu mexanizm bozor bo‘lib, bozor kishilar faoliyatini tartibga soladi va ularning manfaatlarini bir – biriga mos kelishini ta‘minlaydi. Kishilar faoliyatini harakatga keltiruvchi, ular o‘rtasidagi ayirboshlashni ta‘minlovchi va ularning manfaatlarini tartibga soluvchi vosita sifatida pul maydonga chiqadi. Ma‘lumki, jamiyatda ayirboshlash munosabatlarining dastlabki davrlarida kishilar barterdan juda keng ravishda foydalangan, keyinchalik ular barter, ya‘ni tovarni – tovarga almashtirish jarayoni ma‘lum qiyinchilik va qo‘shimcha vaqtni talab etishi natijasida, bozor ishtirokchilari pulni kashf etdilar. Pul – barcha tovarlarning umumiy ekvivalenti sifatida maydonga chiqadigan maxsus tovar bo‘lib, uning yordamida barcha tovarlar qiymati o‘lchanadi. Pulning jamiyatda amal qilishi va uning evolyusiyasi bilan bog‘liq masalalar iqtisodiy adabiyotlarda pul nazariyasi sifatida talqin etiladi. Ushbu iqtisodiy adabiyotlarda pul nazariyasining iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi quyidagi uchta guruhga ajratib o‘rganiladi. Pulning metallik nazariyasi

Pulning metallik nazariyasi XVI – XVII asrlarda dastlab kapitalning boylik sifatida jamg‘arish, kapitalistik tuzumning shakllanishi va rivojlanishi sharoitida vujudga keldi. Moneta tarkibini buzish (monetaning og‘irlik miqdorini kamaytirish) ga qarshi kurashda progressiv (ijobiy) rol o‘ynadi. Bu nazariyalar o‘sha davr ruhi va vujudga kelayotgan burjuaziya ehtiyojlarini aks ettirib, merkantilistlar baquvvat metall pullar tarafdori bo‘lib chiqdilar. Bu nazariya o‘sha davr kapitalizmining eng rivojlangan Angliya davlatida maydonga keldi. Ularning fikricha, barqaror metall valyuta jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Jamiyat a‘zolarining jamg‘arishga bo‘lgan intilishi iqtisodchilarning boylikning manbaini o‘rganishlariga sabab bo‘ldi. Ular bu manbani savdodan izladilar. Ularning e‘tirof etishlaricha, aktiv savdo balansi mamlakatga oltin va kumushning kelishini ta‘minlaydi. Shunday qilib, ilk metallik nazariyasi tarafdorlari jamiyat boyligini qimmatbaho metallar bilan almashtirib, ular pulning hamma funksiyalarini bajaradi deb hisoblar edilar. Ma‘lumki, pul birligining sotib olish qobiliyati metall asosida aniqlanadi, metall tangalar o‘zida pulning haqiqiy qiymatini aks ettirib, ulardan tanga (moneta)lar zarb etilgan. Shu bois ham metall pul nazariyasini qo‘llab – quvvatlovchi iqtisodiy nazariyachilar vakillari qog‘oz pul nazariyasini inkor etadilar. Metall pul nazariyasi vakillari ushbu ta‘limotni yoqlab

chiqqanlarida asosan nodir metallarni, ya'ni kumush va oltin tangalarni nazarda tutadilar. Ularning ta'limotida kumush va oltin tangalar real qiymatni aks ettiruvchi haqiqiy pul bo'lib, ular o'z qiymatlarini yo'qotmaydilar. Shu bilan birga, kumush va oltin pullar ayirboshlash munosabatlarida real qiymatlari asosida ishtirok etib, iqtisodiyotda inflyasiya muammosini keltirib chiqarmaydi, deya ta'kidlaydilar. Ushbu olimlarning ilmiy karashlaricha mamlakatning boyligi pulning ko'payishi bilan belgilanishi kerak xamda metall pullar faqat oltin va kumushdan yaratilishi lozim. Bundan kelib chiqadiki, metallistlar nazariyasiga ko'ra: pulning mohiyati ijtimoiy zaruriy mehnatning rivojlanishi bilan belgilanmasdan oltin va kumushning tabiiy xususiyatlari bilan belgilanadi, ya'ni qanchalik ushbu metallar sifatli bo'lsa pulning qadri shuncha yuqori bo'ladi. Pulning metallik nazariyasi kapital harakatining dastlabki davrida taraqqiy etdi. Moneta tarkibini buzish (monetaning og'irlik miqdorini kamaytirish)ga qarshi kurashda progressiv rol o'ynadi. Bu nazariyalar o'sha davr ruhi va tuzilayotgan burjuaziya ehtiyojlarini aks ettirib, merkantilistlar baquvvat metall pullar tarafdori bo'lib chiqdilar. Bu nazariya o'sha davr kapitalizmining eng rivojlangan davlati Angliyada maydonga keldi. Metallik nazariyasining asoschilaridan biri U. Stefford (1554-1612 y.) edi. U o'z qarashlarini o'zining Londonda 1581 yilda chop etilgan

«Vatandoshlarimizning ba'zi odatiy arizalarining qisqartmasi» asarida bayon etdi. Bu oqim tarafdorlari Angliyada T. Men (1571-1641y.), D. Nors (1641-1691y.), Fransiya bu ta'limotni A. Monkreten (1575-1621y.), Italiya F. Tamani (1728-1787y.) va boshqalar rivojlantirdi. Ularning fikricha, barqaror metall valyuta jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Jamiyat a'zolarining jamg'arishga bo'lgan intilishi iqtisodchilarning boylik manbaini o'rganishlariga sabab bo'ladi. Ular bu manbaini savdodan izladilar. Ularning e'tirof etishlaricha, aktiv savdo balansi mamlakatga oltin va kumushning kelishini ta'minlaydi. Shunday qilib, ilk metallik nazariya tarafdorlari jamiyat boyligini qimmatbaho metallar bilan almashtirib, ular pulning hamma funksiyalarini bajaradi, deb hisoblar edilar. Ilk metall nazariya tarafdorlarining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat edi:

ilk metallchilar haqiqiy pullarni qiymat belgilari bilan almashtirish zarurligi maqsadga muvofiq kelishini tushunib yetmadilar;

ilk metallchilar pulning jamiyat taraqqiyotida tovar muomalasi asosida yuzaga kelgan tarixiy kategoriya ekanligini tushunmadilar;

ular jamiyat boyligi deb qimmatbaho metallarni jamg'arishni tushundilar va «bunday boylik manbai savdodir» degan noo'rin fikrga keldilar.

Ular jamiyat boyligi mehnat natijasida vujudga keladigan moddiy va ruhiy qadriyatlar yig'indisi ekanligini tushuna olmadilar. Ilk metallik nazariya targ'ibotchilari savdo burjuaziyasi manfaatlarini himoya qilib chiqqan edilar.

XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmiga kelib sanoat burjuaziyasi manfaatlarini qondira olmagan metallik nazariya o'z mavqeini yo'qotdi. Ammo XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib nemis iqtisodchisi, tarixiy maktab vakili K. Knis (1821-1898 y.) bu nazariyani himoya qilib chiqdi. Bu g'oyaning qayta tiklanishiga 1871-1873 yillarda Germaniyaga kiritilgan oltin tanga standarti sabab bo'ldi. K. Knis targ'iboti metallchilar nazariyalarini yangi sharoitga moslashtirdi. Knis pul sifatida faqatgina metallni emas, balki Markaziy bank banknotalarini ham e'tirof etdi. Bu paytga kelib xo'jalikda kredit asosiy mavqega ega bo'la boshladi va bu oltin monetalar bilan birga muomalada bo'lib, ularga almashtiriladigan banknota emissiyasining asosini tashkil etdi. K. Knis banknotalarni tan olgan holda, hech nima bilan ta'minlanmagan qog'oz pullarga qarshi chiqdi. Uning fikricha, pul muomalasi metall bilan ta'minlangan banknotalar va metall monetalariga asoslanishi shart. Qog'oz pullar xuddi «qog'oz bulka» kabi ma'nosiz narsadir. K. Knis ta'kidlashicha, oltin o'z tabiatiga ko'ra puldir. I Jahon urushidan so'ng metallizm tarafdorlari oltin moneta standartini qayta tiklash mumkin emasligini tan olib, o'z nazariyalarini himoya qilish maqsadida oltin quyma standart va oltin deviz standartga asoslangan banknota ishlab chiqarishni yoqlab chiqdilar.

Pulning nominallik nazariyasi

Nominalizm quldorlik tizimi davridagi faylasuflar ta'limotida yuzaga kelgan bo'lib, bu ilk nominalizmdir. Birinchi nominalistlar tanga tarkibini buzish (tanganing og'irlik miqdorini kamaytirish)ni ko'rko'rona madh etuvchilar bo'lganlar. Yemirilib ketgan tangalarni teng qiymatli tangalar bilan muomalada bir xilda yurganligiga asoslanib, ular pulning metall miqdori emas, balki nominali muhimdir deb da'vo qilib chiqdilar. Nominal pul nazariyasi tarafdorlari ushbu nazariyaning asosida qog'oz pullar e'tirof etilishini e'tiborga oladigan bo'lsak, shuningdek nominal pul nazariyasining amal qilishining asosiy omili sifatida pul nominallarini davlat tomonidan belgilanishi va uning ta'minlanishi ham davlat tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadigan bo'lsak,

nominal pul nazariyasini –qog‘oz pullar nazariyasini tarzida ifodalash ham mumkin bo‘ladi. Nominal pul nazariyasini –qog‘oz pul nazariyasini tarzida yuritilishi uning aniqliligini, metall pul nazariyadan ushbu nazariyani, nominal pul nazariyasini qanday farqlari mavjudligini ortiqcha qiyinchiliklarsiz aniqlash imkonini beradi.

Nominal pul nazariyasi xususidagi dastlabki qarashlarni quldorchilik, keyinchalik feodal tuzumi sharoitidagi qadimgi faylasuflar ta‘limotlarida kuzatish mumkin. Pulning nominal nazariyasi XVII – XVIII asrlarda, muomalaga haqiqiy bo‘lmagan metall pullar kiritilgan davrda shakllangan. Dastlabki nominal pul nazariyasining asosini qog‘oz pullar emas, balki haqiqiy bo‘lmagan tanga monetalar tashkil etgan. Pulning nominal nazariyasini ilgari surgan dastlabki iqtisodiy nazariya vakillari Dj.Berkli (1685 – 1780) va Dj.Styuart (1712 – 1780) hisoblanadi. Ularning nazariyalari asosida quyidagi ikkita holat yotardi: pul davlat tomonidan yaratiladi va pulning qiymati uning nominali bilan aniqlanadi. Pul birligining sotib olish qobiliyati uning nominali asosida, ya‘ni qog‘oz pulda ko‘rsatilgan nominal qiymati bilan aniqlanadi. Nominal pul nazariyasi tarafdorlarining asosiy zaifligi shundaki, ularning ta‘limotiga ko‘ra pulning qiymatini davlat belgilaydi. Bu bilan ular pulning mehnat mahsuli nazariyasi va tovar tabiatiga ega ekanligini inkor qiladi. Biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning sotib olish qiymati talab va taklif asosida belgilanadi, shuningdek, milliy xo‘jalik doirasida to‘lov vositasini bajaradigan pullarning kursi xalqaro miqyosda amal qiladigan xorijiy valyutalarga bo‘lgan talab asosida o‘zgarib turadi. Nominalist pul nazariyasi vakillarining rivojlangan davri asosan XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga to‘g‘ri kelib, uning ko‘zga ko‘ringan tarafdorlaridan biri, nemis olimi G.Knapp (1842 – 1926) hisoblanadi. G.Knappning pul nazariyasini, uning ta‘limoticha ma‘lum qiymatga ega bo‘lmagan monetalarda emas, balki xazina biletlari asosida asoslashga harakat qiladi. 6Nominal pul nazariyachilarining asosiy kamchiligi shundaki, ularning ta‘limotida pulning qiymati davlat tomonidan belgilanadi degan g‘oya ilgari suriladi. Kredit pullar (veksellar, banknotalar, cheklar) esa ularning ta‘limotida inobatga olinmaydi va e‘tibordan chetda qoldiriladi. Chunki kredit pullarning qiymati davlat tomonidan emas, balki ularning emitentlari tomonidan belgilangan nominal qiymatga ega bo‘lib, ushbu qiymat o‘zgarishga moyildir, ya‘ni ularni muomalaga chiqargan emitentlar kredit pullarining dastlabki qiymatda saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar. Bizning nazarimizda, nominal pul nazariyasi vakillari qog‘oz pullarning qiymatini nafaqat oltin qiymatidan, balki tovarlar qiymatidan ham ajratib oldilar va

ularning nominal qiymatining barqarorligi, sotib olish qobiliyati davlatning tegishli hujjatlari asosida aniqlanadi degan mantiqsiz g'oyani ilgari suradilar. Nominal pul nazariyasi vakillarining ta'limoti Germaniya tomonidan birinchi jahon urushini moliyalashtirish uchun muomalaga chiqarilgan katta miqdordagi emissiya jarayonida namoyon bo'ldi. Biroq, ushbu ta'limotning haqiqatga yaqin emasligi Germaniyada 1920 yillarda yuz bergan giprinflyasiya sharoitida isbotlandi. Muomalaga asossiz ravishda emissiya qilingan juda katta miqdordagi qog'oz pullar juda tez muddatda 700 – 800 foiz darajasida inflyasiyaga uchrashi natijasida mamlakatda pul – kredit, moliya tizimi izdan chiqdi. Buning natijasida ishlab chiqarishga bo'lgan qiziqish pasayib, kishilar moddiy ne'mat yaratish hisobiga emas, balki mavjud moddiy ne'matlarni sotish hisobiga qo'shimcha daromad olish payiga tushib qoldilar. Chunki ishlab chiqarish va qo'shimcha moddiy ne'matlarni yaratish ma'lum darajadagi vaqtni talab etar, bu vaqtda esa ishlab topilgan daromad inflyasiya natijasida o'zining qiymatini yo'qotar edi.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, nominal pul nazariyasi iqtisodiyotning markazdan boshqarish tuzumi sharoiti va talablariga mos keladi. Chunki ushbu tuzumda pulning nominal qiymati davlat tomonidan o'rnatilib, uning amal qilishi ham to'liq nazorat ostiga olinadi. Shunda ushbu nazariya tarafdorlari tomonidan ilgari surilgan ta'limot o'zini oqlaydi. Ta'kidlash joizki, markazdan boshqarish tuzumi yoki markazdan rejalashtirish tuzumi sharoitida qog'oz pullarning nominali davlat tomonidan o'rnatilishi bilan birga, yaratilgan tovar moddiy qimmatliklarning bahosi ham yuqoridan belgilanadi. Shu bilan birga, muomalaga emissiya qilinadigan pulning miqdori, ularning harakati va amal qilish kabi barcha jarayonlar ham davlat tomonidan rejalashtirilib, ushbu rejaning bajarilishi to'lig'icha tegishli organlar tomonidan nazorat qilib boriladi. Biroq, bozor iqtisodiyoti sharoitida nominal pul nazariyasini amaliyotga joriy etish va uning

Pulning miqdoriylik nazariyasi klassik maktab iqtisodchilari tomonidan XIX-XX asr boshlarida ishlab chiqilgan edi va umumiy daromadning nominal qiymatini aniqlashga bag'ishlangan edi. Bu

nazariya berilgan umumiy daromad miqdorida qancha pul

mavjudligini izohlashi bo'lsa, u pulga talab nazariyasi ham hisoblanadi.

Ushbu nazariyaning eng muhim xususiyati shundaki, u

61

foiz stavka pulga bo'lgan talabga ta'kidlanmaydi deb ta'kidlaydi¹.

amal qilishining imkoniyati mavjud emas. Chunki davlat banklari tomonidan muomalaga emissiya qilingan pul belgilari tegishli talab va taklif asosida tovar moddiy qimmatliklarning bahosini belgilaydi. Uning sotib olish qobiliyatini mustahkam yoki zaif bo'lishi davlatning nazdidan anchagina yiroqda bo'lib, davlat unga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bunday holat pulning miqdoriy pul nazariyasini vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Keynsning likvidlikning afzal ko'rinishi nazariyasi

Miqdoriy pul nazariyasida pulning sotib olish qobiliyati va baho darajasi muomaladagi pul miqdori bilan belgilanadi. Miqdoriy pul nazariyasining asoschisi fransuz iqtisodchisi J.Boden (1530 – 1596) hisoblanadi. Keyinchalik ushbu nazariyani ingliz iqtisodchilari D.Yum (1711 – 1776) va Dj.Mil (1773 – 1836), shuningdek fransuz Sh.Monteske (1689 – 1755) rivojlantirdi.

D.Yum Angliyaga XVI – XVII asrlarda Amerikadan katta hajmda nodir metallarning kiritilishi natijasida baholarni ortib ketishini kuzatib: –pulning qiymatini uning miqdori belgilaydi degan ta'limotini ilgari suradi.

Miqdoriy pul nazariyasining dastlabki vakillari pulni faqat to'lov vositasi sifatidagi vazifasiga e'tibor qaratadi, ularning fikricha pul va tovar ayirboshlash jarayonida uchrashishi natijasida pulning qiymati aniqlanadi degan noto'g'ri g'oyani ilgari suradilar. Shuningdek, ularning ta'limotidagi ikkinchi kamchilik muomalaga chiqarilgan barcha pullar muomala jarayonida ishtirok etadi deya ishonishlaridir. Haqiqatda esa ob'ektiv iqtisodiy qonunlar muomalaga zarur bo'lgan pulning miqdorini aniqlaydi. Bu bilan ular pulning jamg'arma, to'lov vositasi kabi funksiyalarini e'tibordan chetda qoldirishadi.

Aylanish tezligining aniqlovchilari Irving Fisher shuni isbotladiki, pulni aylanish tezligi iqtisodiy sub'ektlarning transaksiya qilishi bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Agar bitim qilinayotganda hisob kitob schyotlari ishlatilayotgan bo'lsa va kredit kartochkalar, demak iqtisodiyotda ishlab chiqilgan tovar va xizmatlarga to'lash uchun kamroq pul kerak bo'ladi ($M_i \propto P \times Y$ ga nisbatan) va aylanish tezligi $(P \times Y)/M$ kattalashadi. Teskarisiga agar aholi sotib olganiga naqd to'lasa yoki chek bilan o'sha nominal daromad darajasida ko'proq pul kerak bo'ladi va aylanish tezligi pasayadi. Bunda Fisher taxmin qilgan ediki qisqa muddatda aylanish tezligini doimiy deb hisoblash mumkin chunki institutsional va texnologik faktorlar sekin o'zgaradi.

Tenglama shuni qayd qiladiki, bitimlar hajmi berilgan YaMM bo' yicha qilinadiganlar PY pulga talab M^d ko' rsatkichini aniqlaydi. Bundan Fisherning pul miqdorining asosiy xulosasi kelib chiqadi: pulga talab asosan daromadga bog' liq va foizli stavka pulga bo' lgan talabga ta' sir ko' rsatmaydi.

Keynschilik nazariyasining keyingi rivojlanishi

O' zining 1936 yilda chop etilgan, - "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" mashxur kitobida Djon Meynard Keynes klassik yondashishdan bosh tortdi, aylanish tezligining doimiy ekanligi to' g' risidagi va pulga bo' lgan talab nazariyasini ishlab chiqdi, protsentli stavkalarining rolini alohida e' tiborga olib, bu pulga bo' lgan talab nazariyasi likvidlikni ustun ko' rilishi deb nomlanadigan nazariya-nega aholi pulni ushlab turadi?– degan savolga javob beradi. U taxmin qildiki pulga talab 3 ta sabab orqali izohlanadi: transaksionli, spekulyativ va ehtiyotkorlik motivi.

Transaksion motiv

Klassik yondashishga ko'ra aholi pulni almashinish vositasi sifati o' zida ushlab turadi (har kungi transaksion amallarni bajarish uchun).

Klassik yondashish amaliga ko' ra Keynes ta' kidlab o' tdiki pulga bo' lgan talabning bu tarkibi avvalambor transaksiya darajasi bilan belgilanadi. Klassiklarning fikriga qo' shilgan holatda transaksiya darajasi daromadga proporsional, Keynes taxmin qilar ediki pulga bo' lgan talabni tashkil qiladigan transaksiya daromadga proporsional.

Ehtiyotkorlik motivi

Klassiklarnig nazariyasidan tashqariga chiqqan holda Keynes aniqladiki odamlar har kungi ehtiyojlarini bajarishdan tashqari kutilmagan vaziyatlar uchun ham pulni saqlashadi. Faraz qilamiz siz avaldan stereosistema sotib olmoqchisiz va u sotiladigan do' konni topdingiz ham deylik u protsentga sotilar ekan.. Agar sizda kutilmagan vaziyatlar uchun pul bo' lsa siz uni hoziroq sotib olasiz, agar bunday pul bo' lmasa siz sotuv imtiyozlaridan foydalana ololmaysiz. Kutilmagan vaziyatlar uchun bo' lgan pullar bundan ham yoqimsizroq tovarlarni va xizmatlar uchun ham kerak bo' lib qolishi mumkin misol uchun avtomobil remonti uchun yoki davolanish uchun. Keynes taxmin qildiki, pul miqdori kutilmagan vaziyatlar uchun, avvalombor kutilayotgan transaksiya amallarining darajasiga bog' liq, kutilayotgan transaksiya darajasi esa daromadlarga proporsional.

Spekulyativ motiv

Agar Keynsning nazariyasi ya'ni aholi pulni kutilmagan vaziyatlar va har kungi xarajatlar uchun saqlash bilan chegaralanib qolganida bunda pulga bo'lgan talab faqatgina daromadlar hajmi bilan aniqlanar edi va Keynsning yondashuvi klassiklarning yondashuvidan farq qilmas edi. Ammo u shuningdek pulni boylik to'plash sifatida ham qaragan va bu saqlash metodni spekulyativ metod deb qaragan. Boylikni daromad bilan uzviy bog'ligidan kelib chiqib Keyns qayd etadiiki, pulga bo'lgan talabning spekulyativ tarkibi daromadga bog'liq. Keyns aktivlarni bo'ldi, boylikni saqlash vositasi kabi ishlatiladiganlarni ikkikategoriyaga pullar va obligatsiyalarga

4-MAVZU: PUL AYLANMASI VA UNING TARKIBI

REJA:

- 1. Pul aylanmasi tushunchasining mazmuni va pul aylanmasining tarkibiy tuzilishi.**
- 2. Naqd pul aylanmasi va uni tashkil qilish printsiplari.**
- 3. Naqdsiz pul aylanmasi va uni tashkil qilish printsiplari.**

4. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari.

5. To'lov tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.

6. Plastik kartochkalar orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar

**Pul aylanmasi tushunchasining mazmuni va pul aylanmasining
tarkibiy tuzilishi.**

Pul aylanmasi-bu pulning naqd va naqdsiz shakildagi uzluksiz harakatlari yig'indisidir. Pulning doiraviy aylanishi – bu pulning bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tishidir. Pulning doiraviy aylanishining takrorlanishi pulning aylanishi deyiladi. Demak, pul aylanmasini pulning aylanishi sifatida talqin qilish mumkin.

I. Shakerning ta'rif berishicha pul aylanmasi bu pullarning naqd va naqd bo'lmagan shakllardagi doiraviy aylanish jarayoni bo'lib, bunda pullar muomala vositasi va to'lov vositasi funksiyasini bajaradi. Pulning bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tishini Shaker doiraviy aylanish deb atadi. Pullarning bir subektdan ikkinchi subektga o'tishi, pulning doiraviy aylanishi takrorlanishi pulning aylanishi deyiladi.

Naqd pul va naqd pulsiz shaklida hisob – kitoblarni amalga oshirish pul aylanmasini tashkil etadi. Naqd pul aylanmasi – bu qog'oz pullar va tanga pullar vositasida amalga oshirilib, naqd pullar harakati jarayonida namoyon bo'ladi. Naqd pul aylanmasi asosan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar o'rtasida vujudga keladigan ayirboshlash munosabatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Pul aylanmasi tarkibida naqd yoki naqdsiz hisob – kitoblar bilan amalga oshirilayotgan to'lovlar hajmining yuqori yoki pastligiga pulning barqarorligi, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va boshqa qator omillar ta'sir qiladi. Pulning aylanmasi mohiyatini yanayam chuqurroq aniqlash uchun uning ob'ekti va sub'ektlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Pul aylanmasi sub'ektlari sifatida davlat va davlat muassasalari, Markaziy bank, kredit va moliya muassasalari, mamlakat rezidenti va norezidentlari, korxona va tashkilotlarni keltirish mumkin. Uning ob'ekti esa tovar va tovarsiz operatsiyalar jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, ya'ni aylanmalar hisoblanadi. Pul aylanishi tushunchasi – bu ma'lum davr davomida iqtisodiyotda pulning qanchalik darajada tez ko'chib yurishi jarayonini

anglatadi. Bu ko'rsatkich nominal YaIM ni pul taklifiga (M_2) bo'lish orqali topiladi. Shuningdek bu mamlakatdagi umumiy pul massasini aylanish darajasini bildiradi ya'ni masalan, 1 dollarni necha marta tovar yoki xizmatlar sotib olish uchun ishlatilinish darajasidir. Pul aylanishi tushunchasini yanada aniqroq tushunishimiz uchun 2 ta A va B shaharchalarni olamiz. A shaharcha maydoni kichikroq biroq aholi soni B shaharchanikidan ko'proq. Shunga ko'ra, A shaharchada bank strukturasi yaxshi rivojlangan, tadbirkorlik faoliyati ham yuqori darajada tashkil qilingan. A shaharchada bank muassasalari soni ko'p bo'lib, pulni istalgan shaklda ishlatish bu shaharcha aholisi uchun muammo emas. Natijada, bu shaharcha iqtisodiyotida pul aylanishi ko'rsatkichi yuqori bo'lib, bu uning iqtisodiyot ko'rsatkichlari yaxshi bo'lishiga ham olib kelgan. Boshqa tomondan esa, B shaharcha maydon jihatdan A shaharchadan katta bo'lsa ham, aholi soni bo'yicha undan kichkina. Bank faoliyati yaxshi rivojlanmagan hamda bank tashkilotlari soni yetarli emas. Tadbirkorlik faoliyati ham o'z-o'zidan rivojlanishi past darajada bo'lib, bank orqali bo'ladigan hisob-kitob operatsiyalari yaxshi rivojlanmagan. Natijada aholi qo'lidagi pul mablag'larini banklarga ishonib topshirish tushunchasiga ega emas va bu B shaharchaning iqtisodiyoti barqarorligiga ta'sirini ko'rsatgan.

Bu ikki holatdan shuni aytish mumkinki, agar biror hududda pul aylanish darajasi qanchalik darajada past bo'lsa, pul aholi qo'lida shuncha kam aylanadi hamda pul massasining iqtisodiyotga ta'siri ham sezilarsiz bo'lishi kuzatiladi. Pul aylanish darajasiga ta'sir etuvchi omillar sirasiga quyidagilar kirishi mumkin:


- Hududdagi moliyaviy tashkilotlar soni
- Aholining umumiy soni
- Amalga oshiriladigan pul o'tkazmalari miqdori

Xorijiy Iqtisodchi olimlardan biri Ludwig von Misesning ta'kidlashicha pul aylanishi tushunchasining asosiy mohiyati shundan iboratki, bu jarayonni nafaqat butun bir iqtisodiyot darajasida balki, alohida individuallar faoliyati misolida o'rganish kerak. Shu jihatdan pul aylanishi jarayonini o'rganishda narxlar va xarid qilish qobiliyati bo'yicha tatbiq etish har doim ham to'g'ri bo'lmashligi mumkin.

Yana bir iqtisodchi olim Helmut Creutz pul aylanishi tushunchasini xarid qilish jarayonidan tashqari qarz va qayta tolovlar miqdoriga ham bog'lab


o'rganadi. Bu olim pul aylanishini 3 xil ko'rinishda turli jarayon bo'yicha tasvirlaydi.

Pul aylanishi to'lovlar va qarz bo'yicha olib qaralganda



Yuqorida keltirilgan jarayonni boshi ham oxiri ham mavjud emas. Ya'ni bu jarayonda qaralayotgan mablag' qanaqa maqsadda ishlatilmasin, u to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Bunda A, B..E lar iqtisodiyotdagi barcha sub'ektlar bo'lib, agar bu jarayonda masalan, A sub'ekt B ga xaridi uchun pul to'lagan bo'lsin. B sub'ektesa bu pulni C ga qarz sifatida beradi va C o'sha pulga D dan tovar sotib oladi. E sub'ekt esa A ning ko'rsatgan xizmati uchun to'lovni D dan qarz sifatida oladi. Bu jarayonda muomalada aylanayotgan pul tovar va xizmatlarga to'lov uchun 3 marta, qarz munosabati uchun esa 2 marta ishlatildi. Agarda B sub'ekt mablag' ini qarz munosabatiga yo'naltirmasa, bunda jarayon buzilishi mumkin.

1. To'lovlar va qarzdorlik to'lovlari bo'yicha pul aylanishi jarayoni:



Bu jarayonda A sub'ekt C dan tovar sotib oladi, C esa o'zining kreditorlik qarzini B ga to'laydi va natijada B sub'ekt E dan mahsulot sotib oladi. O'z navbatida E sub'ekt ham D ga o'z qarzini qaytaradi va D bu mablag' ga A da tovar yoki xizmatlar sotib olishi mumkin.

2. Pul aylanishi bank orqali yoki uni vositachiligida yuzaga kelganda:

Bunday jarayonda endi A sub' ekt B dan bank cheki orqali mahsulot sotib oladi va qolga jarayon ham yuqoridagi kabi davom etgan holda chek bo' yicha hamda bank vositachiligida to' lovlar amalga oshiriladi. Buyuk iqtisodchi Karl Marks esa bu jarayonni asosan tovar va pulga bog' lab tushuntiradi. Unga ko' ra pul aylanishining ilk oddiy ko' rinishi talab va taklif asosida amalga oshiriladigan savdo-sotiq jarayonida vujudga keladi. Bunda sotish ham sotib olish ham va pul ham bir-biriga uzviy aloqador bo' lib, sotuvchi tovar yoki xizmatga, xaridor esa pulga ega bo' ladi. Shunga ko' ra, pul aylanishini asosiy vositasi asosan xarid vositasi sifatida namoyon bo' ladi va bu pul aylanishi jarayonida turli vazifalarni bajaradi. Xarid qilish jarayonida pul sotuvchi qo' liga, tovar esa xaridor qo' liga o' tadi.u holatda esa tovar va pul qarama qarshi yo' nalistda harakat qiladi. Pul aylanmasi sub' ektlar o' rtasida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlarning naqd va naqd pulsiz ko' rinishidir. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiy adabiyotlarida pul aylanmasi deyarli o' rganilmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri, balki mazkur mamlakatlar bank muassasalarida hisob – kitoblarni amalga oshirishda pul aylanmasi naqd va naqd pulsiz ko' rinishi shakllari o' rtasida farq mavjud emasligi bo' lishi mumkin. Haqiqatda ham rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar banklarida naqd va naqdsiz pul hisob – kitoblarni amalga oshirish o' rtasida farq mavjud emas. Pul aylanishi modeli uning (yaratilishi) muomalaga chiqarilishi va qaytishi bilan bog' liq izchil to' rt bosqichdan iborat:

 banklar firmalarga kredit beradi;

 firmalar o' z xodimlariga ish haqi to' laydi;

 xodimlar firmalarning yaratgan mahsuloti, tavari, xizmatini xarid qiladi;  firmalar banklarga olgan kreditlarini qaytarib to' laydilar.

Grazianining fikriga ko'ra: –Pulning aylanish nazariyasi pulning butun aylanish davomiyligini muhokama qiladi, ya'ni bank qarzlarini berilishi bilan boshlanib, qarzlarni to' lanib so' ndirilishi bilan tugaydi.

Pul aylanmasidan tashqari to' lov aylanmasi degan tushuncha mavjud. To' lov aylanmasi pul aylanmasiga qaraganda keng tushuncha. To' lov

aylanmasi-bu pul shaklidagi mablagʻ larning va pul bozori instrumentlarning vositasida amalga oshirilgan toʻlovlarining yigʻindisidir. Toʻlov aylanmasi – bu pullar va pul bozori instrumentlari harakatlari yigʻindisidir.

Pul bozori instrumentlariga quydagilar kiradi :

- Veksellar;
- Depozit sertifikatlari;
- Jamgʻarma sertifikatlari;
- Obligatsiyalar;
- Bank akseptlari.

Veksel – veksel beruvchining yoki vekselda koʻrsatilgan boshqa tulovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan soʻmmani toʻlashga doir shartsiz majburiyatni tasdiqlovchi qimmatli qogʻozdir. Tijorat veksellari – tijorat veksellari tovarlar kreditga sotilganda yoziladi. Vekselni mol etkazib beruvchi toʻldiradi. Sotib oluvchi esa vekselga masʻul shaxsning imzosi va muhr qoʻyadi. Ana shundan keyin veksel sotib oluvchining mol etkazib beruvchi oldidagi qarz majburiyatini tasdiqlovchi hujjatga aylanadi. Tijorat vekseli pulning toʻlov vositasi funksiyasini bajaradi. Vekselni indassament orqali boshqa shaxslarga uzatish mumkin. Indassament-vekselni boshqa shaxsga uzatish huquqini beruvchi maxsus yozuv. Vekselni boshqa shaxsga uzatgan shaxs indossant deyiladi. Vekselni qabul qilib olgan shaxs indossat deyiladi.

Obligatsiyalar – oʻz egasiga qatʻiy belgilangan foiz koʻrinishida daromad keltiruvchi qimmatli qogʻoz.

Davlatning xazina majburiatlari.

Depozit sertifikatlari – bu tijorat banklari tomonidan korxonalar ixtiyoridagi vaqtinchalik boʻsh pul mablagʻlarni jalb qilish maqsadida chiqariladigan qimmatli qogʻoz. Jamgʻarma sertifikatlari – bu jismoniy shaxslar ixtiyoridagi vaqtinchalik boʻsh pul mablagʻlarni banklarga jalb qilish maqsadida chiqariladigan qimmatli qogʻoz. Cheklar unda koʻrsatilgan summani toʻlash toʻgʻrisidagi topshiriqdir. Amaliyotda pullik cheklar va hisob kitob cheklari qoʻllaniladi. Fredrik Mishkenning fikriga koʻra cheklarning jiddiy

kamchiligi ularni chiqarish bilan bog' liq xarajatlarning katta ekanligidir. AQSh da har yili chekni muomalaga chiqarish uchun 40 mlrd.\$ xarajat qilinadi.

- Bank aktseptlari – aktsept so' zi lotincha so' z bo' lib qabul qilmoq degan manoni anglatadi. Bank aktsepti deganda bank tomonidan tijorat vekseli va chek bo' yicha to' lovning kafolatlanishi tushuniladi. τTo'lov aylanmasining mutlaq asosiy 75-80% ini pul aylanmasi tashkil qiladi.Chunki pul eng yuqori likvidli aktiv hisoblana

Pul aylanmasini tashkil qilish asoslari:

- Qonunchilik asoslari;
- Institutsional asoslar;
- Milliy to'lov tiziminig mavjudligi;
- Xo'jalik yurituvchi subyektlarning banklarda ochilgan joriy hisob varaqlarining mavjudligi;
- Mamlakatning xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro munosabatlarining mavjudligi.

Qonunchilik asoslari:

- 1) O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi;
- 2) Qonunlar va kodekslar;
- 3) Qonunosti hujjatlari:
 - a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
 - b) Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
 - c) Vazirliklarning buyruqlari, Davlat Qo'mitasi raislari buyruqlari, Markaziy bankning yo'riqnomalari (ular faqat Adliya Vazirligidan ro'yxatdan o'tgandan keyin kuchga kiradi).

Pul aylanmasi ikki yirik qismdan iborat:

1. Naqdsiz pul aylanmasi
2. Naqd pul aylanmasi

Naqdsiz pul aylanmasi – bu pul mablag'larining to'lovchining bankidagi hisob raqamidan oluvchining hisob raqamiga ko'chirish shaklidagi harakatlarining yig'indisidir.

Sobiq Ittifoq o'rnida tashkil topgan davlatlar o'zaro talab va majburiyatlarini voz kechish deb nomlanuvchi naqdsiz pul aylanmasi mavjud.

Pul aylanmasi tarkibi

Birinchi yo'nalish, pul mablag' lari shakliga ko'ra, naqd pulli aylanmasi va naqdsiz pul aylanmasidan tashkil topgan.

Ikkinchi yo'nalish, pul aylanmasida ishtirok etayotgan sub'ektlar joylashuviga ko'ra, bir shahar ichidagi va shaharlararo pul aylanmasidan iborat.

Uchinchi yoʻnalish, pul funksiyalarining namoyon boʻlishiga qarab muomala vositasi va toʻlov vositalarini oʻz ichiga oladi.

Toʻrtinchi yoʻnalish, tovar – pul munosabatlarining aks etishiga koʻra, tovarli pul oboroti va tovarsiz pul oborotlari koʻrinishida namoyon boʻladi.

Pul aylanmasi tarkibida naqd pulli yoki naqd pulsiz hisob – kitoblar hajmining past yoki yuqori ekanligi qator omillar bilan izohlanadi. Xususan, ular quyidagilardan iborat:

- mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish holati, aholining maʼnaviy, iqtisodiy va huquqiy ongi;
- milliy iqtisodiyotni boshqarish tartibi va rivojlanganlik darajasi;
- mamlakat bank tizimining rivojlanganlik darajasi va unga aholi ishonchining mustahkamligi;
- real sektorning rivojlanganligi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligi;
- Markaziy bankning pul – kredit siyosatini amalga oshirish boʻyicha mustaqilligining taʼminlanganlik darajasi.

Naqd pul va naqd pulsiz hisob – kitoblari oʻrtasida juda yaqin bogʻliqlik mavjud boʻlib, naqd pullar naqdsiz pul koʻrinishiga, naqdsiz pullar naqd pul koʻrinishiga oʻtish orqali ular doimiy ravishda bir – birini toʻldirib turadi. Masalan, korxona va tashkilotlarning bankdagi naqdsiz pullari ishchi xodimlarga naqd pul va unga tenglashtirilgan mablagʻlar koʻrinishida beriladi. Aholining qoʻlidagi naqd pullar esa banklarga omonat sifatida qoʻyilganda banklar uchun kredit resursi sifatida naqdsiz pul koʻrinishida maydonga chiqadi. Shu tariqa naqd pul va naqd pulsiz aylanmalar bir – biriga chambarchas aloqadorlikda amal qiladi.

Naqd pul aylanmasi va uni tashkil qilish printsiplari.

Naqd pul aylanmasi bu pullarning naqd koʻrinishidagi harakatlarining yigʻindisidir. Naqd pul aylanmasi – bu naqd pullarning doiraviy aylanishining doimiy ravishda takrorlanishidir.

Naqd pul aylanmasi bu pul mablagʻlarining naqd koʻrinishidagi aylanmasidir. Taraqqiy etgan mamlakatlarda naqdsiz pul aylanmalarini yuksak darajada rivojlanganligi, naqd pullarga boʻlgan talabni keskin pasayishiga olib keldi.

AQSh va Yaponiyada plastik kartochkalarga asoslangan to'lovlar rivojlangan. Evropada plastik kartochkalar va pullik cheklarga asoslangan to'lovlar rivojlangan.

Muomiladagi naqd pullar. FZT naqd pullarni chiqaradi. (Bu kulrang yashil qog'oz bo'laklari yuqori qismida "Federal Reserve Note" yozuvi bo'ladi). Muomiladagi naqd pullar – bu aholi qo'lidagi naqd pullar hajmi. Depozit tashkilotlarining seyfidagi naqd pullar markaziy bank passivi, lekin rezerv pul hisoblanadi.)⁴⁷

Naqd pulli hisob – kitoblar bevosita naqd pullar bilan amalga oshiriladi. Iqtisodiyotda pul aylanmasi tarkibida naqd pulli hisob – kitoblarning ulushi sezilarli darajada bo'lib, taxminan 5 – 12 foiz atrofida tebranib turadi. Mamlakat pul oboroti tarkibida naqd pulli hisob – kitoblar ulushining pastligi yoki ortib borishi iqtisodiyotda ishlab chiqarish darajasi, moliya – kredit tizimi va milliy valyutaning barqarorligi hamda boshqa qator omillar bilan izohlanadi.

Naqd pullar aylanishining amal qilishiga doir quyidagicha asosiy tamoyillar ajratib ko'rsatiladi:

- 1) moliya muassasalari-emitentlarning mavjudligi;
- 2) bozor qatnashchilarining mablag'larni sarflash yuzasidan iqtisodiy erkinligi;
- 3) ta'sis etilgan milliy pul birligining amal qilishi;
- 4) nazorat qiluvchi organlar oldida tushumlar va xarajatlar hajmlari uchun hisobotchilikni amalga oshirish mumkinligi;
- 5) pul mablag'lariga egalik qilishning legitimligi.

Naqd pul aylanmasini tashkil qilish quyidagi printsiplar asosida amalga oshiriladi:

1. Naqd pul aylanmasini tashkil qilish va tartibga solishni me'yoriy huquqiy asoslarining mavjudligi. Masalan, Markaziy bankning kassa operatsiyalarini amalga oshirish to'g'risidagi yo'riqnomasi muhim me'yoriy hujjat bo'lib hisoblanadi.
2. Barcha korxonalar va tashkilotlar o'zlarining naqd puldagi mablag'larini tijorat banklarida saqlashlari shart.
3. Korxonalar va tashkilotlarga kassada kichik miqdorda naqd pul saqlab turishga ruxsat etiladi. Buning uchun ularning kassasiga tijorat banklari tomonidan limit

belgilanadi. Bu limit ko'zda tutilmagan xarajatlar uchun ajratiladi.

4. Naqd pullardan maqsadli foydalanish printsiplari

Banklardan korxonalar naqd pullarni pul cheklari orqali oladi. Pul chekida nima maqsadda naqd pul olinayotganligi ko'rsatiladi.

To'lovlar ma'lum ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Xalqaro amaliyotda pullik to'lovlarni amalga oshirishning 2 xil ketma-ketligi mavjud:

1. Kalendar ketma-ketlik.

2. Maqsadli ketma-ketlik.

Kalendar ketma – ketlikda qaysi qarzdorlik oldin paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha to'lanadi. Bu ketma-ketlik taraqqiy etgan mamlakatlarda qo'llaniladi.

Maqsadli ketma-ketlikda to'lovlar oldindan belgilangan maqsadlarga qarab to'lanadi. Bu ketma-ketlik rivojlanayotgan davlatlarda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladi. Har qanday pullik to'lovlar pul aylanmasida ishtirok etuvchi subektlarining joriy hisob raqamlaridagi pul mablag'lari hisobiga to'lanadi. Joriy hisob raqamlar AQSh bank amaliyotida transaksion depozit hisob raqamlari, Germaniyada jiro hisob raqamlari, Rossiyada –depoziti do vostrebovaniye deyiladi. Fransiyada joriy hisob raqami deyiladi, O'zbekistonda talab qilib olinadigan depozit hisob raqamlari deyiladi.

Naqd pul aylanmasi muomalaga 2 kanal orqali chiqadi:

1) Markaziy Bankning zaxira vakillik tizimi orqali (Tijorat banklarining buyurtmalari asosida). Tijorat banklarida naqd pulga bo'lgan qo'shimcha talab yuzaga kelganda ular bu talabni qondirish uchun markaziy bankga naqd pul olish uchun buyurtma beradilar. Markaziy Bank buyurtma qilingan naqd pulni emissiya qiladi va uni inkassatsiya xizmati orqali tijorat banklariga etkazadi. Emissiya qilingan summaga Markaziy Bank balansining passiv qismidagi –Majburiyatlar moddasini ko'payadi. Tijorat bankining Markaziy Bankning balansida ochilgan –Vostroll vakillik hisob raqamining qoldig'i ana shu summaga kamayadi.

2) Davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtirishda. Markaziy Banklarning tuman va shahar filiallari bo'lmaydi, shu sababli ular davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshirish maqsadida tijorat banklarining xizmatlaridan foydalanishga majbur bo'ladilar. Moliya vazirligi byudjet tashkilotlari xarajatlarini naqd pulsiz shaklda moliyalashtirib beradi. Moliyalashtirilgan

summaning naqd pul ta' minoti Markaziy bank tomonidan amalga oshirilinadi. Markaziy Bank inkassatsiya xizmati orqali naqd pulni tijorat banklariga etkazib beradi. Etkazib berilgan naqd pulning naqd pulsiz ekvivalenti tijorat bankining hisob raqamidan echib oladi.

Naqd pul aylanmasining tarkibi quyidagi qismlardan tashkil topadi:

Naqd pul aylanmasi – bu pullarning naqd shakldagi harakatlari yig'indisidir.

Naqd pul aylanmasi tarkibi va qism umumiy nom bilan iyrarxik qism deyiladi.

1. Markaziy bank va tijorat banklar o'rtasidagi naqd pul aylanmsi.

Davlat budjetining kassa ijrosi bilan bog'liq naqd pul aylanmasi Markaziy bankning tuman va shahar filiallari bo'lmaganligi sababli u davlat budjetining kassa ijrosini amalga oshirishda tijorat banklarinig xizmatlaridan foydalanishga majbur. Moliya vazirligi davlat budjeti xarajatlari naqd pullik ta' minotining tijorat bankining NOSTRO hisob raqamiga naqd pulni tashlab beradi. Markaziy bank tijorat bankiga budjet xarajatlariga naqd pullik ta' minotiga inkassatsa xizmati orqali yetkazib beradi. Yetkazib berilgan naqd pulning naqd pullik ekvivalenti tijorat banklarining NOSTRO vakillik hisob raqamidan olib qo'yiladi.

2. Tijorat banklari o'rtasidagi banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi naqd pullik aylanmasi. Barcha naqd pul ko'rinishidagi pullarini tijorat banklariga topshirishlari shart.Tijorat banklari o'z mijozlariga naqd pul puldagi xarajatlarini moliyalashtirish uchun naqd pullar beradi (Ish haqi, mukofot, mehnat ta' tili pullari va boshqalar):

a) Naqd pulning tijorat banklari uchun daromad keltirmaydigan aktiv hisoblanadi. Shu sababli bank kassasidagi ortiqcha pullarni unga muxtojlik sezayotgan banklarga foiz hisobiga sotadi;

b) Banklar mijozlarga kassa xizmati ko'rsatadi ya'ni, ularning naqd pullarini qabul qiladi va ularga naqd pul beradi;

3. Korxonalar, tashkilotlar va aholi o'rtasidagi naqd pul aylanmasi.

Bunda korxona tomonidan aholiga ish haqi, stependiya, pensiya, nafaqa, dividendlar, sug'urta qoplash summalari kabi to'lovlarni amalga oshiriah bilan bog'liq bo'lgan naqd pul aylamasi ko'zga tutiladi.

4. Aholi o'rtasidagi naqd pul aylanmasi.

1. Naqd pulsiz hisob kitoblar tizimi yuqori darajada rivojlangan. Naqd pul muomalasi bilan asosan aholi shug'ullanadi. Plastik kartochkalarga asoslangan to'lov amaliyotining rivojlanganligi naqd pullarga bo'lgan talabni qisqartirish imkonini bergan.

2. Xufyona iqtisodiyotni kichik salmoqqa ega ekanligi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda naqd pul aylanmasini qisqartirishda eng samarali usul sifatida plastik kartochkalar va pullik cheklarni rivojlantirish usuli qo'llanilgan.

Naqdsiz pul aylanmasi va uni tashkil qilish printsiplari.

To'lov aylanmasining asosiy qismi naqd pulsiz to'lov aylanmasidan tashkil topadi. Bu to'lov aylanmasi naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida amalga oshiriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda, korxona va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmatlar ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatlarni pul mablag'larini naqd pul ishlatmasdan bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqa o'tkazish orqali bajarilishi tushuniladi.

Naqd pulsiz pul aylanishi – banklarda pul mablag'larini to'lovchilar va oluvchilarning hisobvaraqlari bo'yicha yozuvlar yordamida yoki o'zaro talablarni hisobga olish yo'li bilan amalga oshiriladigan pul aylanishidir.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar bankdagi hisob raqamlar orqali bank ichida, bosh bankda ochilgan filiallarning tranzit hisob-raqamlari hamda banklararo o'rnatilgan vakillik munosabatlari asosida amal qiladi.

Banklararo to'lov tizimi orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi talablarga rioya etiladi:

a) O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha mablag'larni tezkorlik bilan o'tkazishni ta'minlash;

b) uzatilayotgan elektron to'lov hujjatlarini ruxsatsiz kirishdan himoya qilish;

v) elektron to'lovlarni tartibga soluvchi qonunlar va qoidalarga rioya qilish.

–O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi nizom
O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, –O'zbekiston Respublikasining
Markaziy banki to'g'risidagi, –Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi, "Xo'jalik
yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi,

"Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik xujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni o'tkazish tartibini belgilaydi. Ushbu tartib naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlariga tadbqiq qilinadi.

Pul aylanmasi tarkibida naqd pulsiz hisob – kitoblar hajmini oshirishga qator omillar ta' sir qiladi. Xususan:

1.Yuridik va jismoniy shaxslarning banklarga bo'lgan ishonchining yuqoriligi. Agar yuridik va jismoniy shaxslar banklarga nisbatan ishonchi yuqori darajada bo'lsa, banklarga naqd pullarni topshirishga bo'lgan moyilligi pasayadi, hisob – kitoblarni naqd pullarda amalga oshirishga intiladi.

2.Iqtisodiyotda monetizatsiya koeffitsienti darajasining tegishli me' yori ta' minlangan bo'lishi lozim. Iqtisodiyotning etarli darajada pul bilan ta' minlanganlik darajasi monetizatsiya koeffitsienti asosida aniqlanadi. Monetizatsiya koeffitsienti mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan aniqlanib, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va ekspertlarning fikrlariga ko' ra uning miqdori, o'tish iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlarda 45-60 foizdan iborat bo'lishi lozim. Agar mamlakatda monetizatsiya koeffitsienti ushbu miqdordan past bo'lsa iqtisodiyotda pul taqchilligi, tijorat banklarida likvid mablag' lar va resurslarning etishmasligi, kreditlar va omonatlar bo'yicha foiz stavkalarining yuqoriligi kuzatiladi. Bularning barchasi naqd pulsiz hisob – kitoblar hajmiga salbiy ta' sir ko' rsatadi;

3.Tijorat banklarining resurslarga bo'lgan ehtiyojining etarli ravishda qondirilmasligi. Ma'lumki, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan pullar o'zining boshlang' ich nuqtasiga qaytib kelmasligi banklarning resurs bazasiga salbiy ta' sir ko' rsatadi. Buning oqibatida tijorat banklarining real sektorni kreditlash uchun yo' naltirayotgan resurslarning taqchilligi, omonatlarga to'lanadigan to'lovlar miqdorining oshib ketishi, bu esa o'z navbatida naqd pulsiz hisob – kitoblar hajmini pasayishiga olib keladi.

Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari.

Iqtisodiyotda bo'ladigan pul aylanishining 80-90 foizini naqdsiz pul aylanishi tashkil etadi. Naqdsiz pul aylanishi naqd pulsiz hisob-kitob shakllari

asosida olib boriladi. Naqd pulsiz hisob kitoblarning keng ishlatilishiga ko'p tarmog'li bank tizimining rivojlanishi, davlat tomonidan makroiqtisodiy jarayonlarni o'rganish va uni tartibga solish nuqtai-nazaridan davlatning qiziqishi, mulkchilik shakllarining ko'payishi va turli mulkchilik munosabatlarining kengayib borishi asos bo'ladi.

Iqtisodiyotda naqd pulsiz xisob-kitoblar ma'lum tizim asosida olib boriladi. Naqd pulsiz xisob-kitoblar tizimi o'z ichiga hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari, shakllari, usullari hamda naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish oldida qo'yilgan talablarni oladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar bir necha shakllarda olib boriladi va bu shakllar vaqt o'tishi bilan o'zgarib borishi mumkin. Hozirgi kunda respublikada naqd pulsiz hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan va halqaro amaliyotda qabul qilingan shakllarda tashkil etiladi. Hisob-kitob shakllari deyilganda huquqiy me'yorlarda ko'zda tutilgan, pul mablag'larining maqsulot etkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning hisobvarag'iga yozish usuli, hisob-kitob hujjatining turi va hujjatlar aylanishi tartibi bilan farq qiluvchi hisob-kitob turlari tushuniladi.

Xalqaro bank amaliyotida naqd pulsiz hisob kitoblarning 4ta shaklidan foydalanadi.

- To'lov topshiriqnomalari
- Cheklar
- Hujjatlashtirilgan akkreditivlar
- Inkasso

Iqtisodiy kontragentlar o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- 1) inkasso operatsiyalari vositasidagi hisob-kitoblar;
- 2) akkreditivlar yordamidagi hisob-kitoblar;
- 3) bo'nak to'lovlari shaklidagi hisob-kitoblar;
- 4) ochilgan hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblar;
- 5) veksellar va cheklar shaklida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar.

O‘zbekiston Respublikasi banklari naqd pulsiz hisob-kitoblarni quyidagi shakllarda tashkil etadilar va amalga oshiradilar:

- 1) to‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar;
- 2) akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblar;
- 3) inkasso bo‘yicha hisob-kitoblar;
- 4) cheklar bilan hisob-kitoblar.

Ko‘rsatilgan shakllar bo‘yicha naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi pul-hisob-kitob xujjatlaridan foydalaniladi:

- 1) memorial order;
- 2) to‘lov topshiriqnomasi;
- 3) to‘lov talabnomasi;
- 4) inkasso topshiriqnomasi;
- 5) akkreditivga ariza;
- 6) tijorat bankning hisob-kitob cheki.


Shuningdek, naqd pulsiz hisob-kitoblar plastik kartochkalar foydalangan holda, amalga oshirilishi mumkin.

Bank ish kuni yakunlanib, balans hisoboti tuzilib O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga jo‘natilganidan so‘ng, xato yozuvlar aniqlangan hollarda, ushbu xato yozuvlar kiritilgan hisobvaraqlarga ertasi bank ish kuni teskari buxgalteriya yozuvlari kiritish (storno berish) yo‘li bilan, tuzatish memorial orderlari asosida to‘g‘rilanishi lozim. Bunday hollarda hisobvaraqlardan summalar mijozlarning

roziligisiz hisobdan chiqariladi. Bu haqda bank bilan mijoz oʻrtasida tuzilgan shartnomada koʻrsatib oʻtilgan boʻlishi shart.

Toʻlov topshiriqnomasi - mijozning unga xizmat koʻrsatuvchi bankka oʻz hisobvaragʻidan oluvchining hisobvaragʻiga maʼlum bir summani oʻtkazish toʻgʻrisidagi topshirigʻini anglatadi.

Toʻlov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar boʻyicha hujjatlar aylanishini quyidagi rasm orqali koʻrish mumkin:



4.4.3-rasm. Toʻlov topshiriqnomalari boʻyicha hisob-kitoblardagi hujjatlar aylanishi⁴⁹.

Yuqorida keltirilgan rasimga quyidagicha tavsif beramiz:

1. Eng avvalo mol joʻnatuvchi va mol oluvchi korxonalar oʻrtasida xoʻjalik shartnomasi tuziladi.

2. Shartnomaga asosan mol jo' natuvchi korxona mol oluvchi korxonaga maqsulot jo' natadi.
3. Mol oluvchi korxona olgan maqsulotga pul o' tkazish uchun to' lov topshiriqi rasmiylashtirib o' ziga xizmat ko' rsatuvchi bankka topshiradi.
4. Bank xodimi tomonidan to' lov topshiriqi asosida mol oluvchi korxona hisobvarag' idan pul chegiriladi.
5. Hisob-kitob markazi orqali elektron to' lov mol sotuvchi korxona bankiga jo' natiladi.
6. Kelib tushgan elektron to' lov mol sotuvchi korxona bankida mol sotuvchikorxona hisobvarag' iga o' tkaziladi.
7. Elektron to' lov topshiriqining bir nusxasi to' langan hujjatlarsifatida mol sotuvchi korxonaga beriladi.

Hozirgi kunda respublikamizda banklar orqali o' tkazilayotgan barcha to' lovlarning 45-50 foizi to' lov topshiriqnomalari yordamida amalga oshirilmoqda, bu uning afzalliklari bilan bog' liqdir.

Bu afzalliklar quyidagilardan iboratdir:

-birinchidan, hujjatlar aylanishining oddiyligi va tezligi, ya'ni hisob-kitoblarni amalga oshirishning texnik jixatdan kulayligi. Bu esa o'z navbatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va bank xodimlarining mehnat sarfini kamaytiradi;


-ikkinchidan, pul mablag' lari xarakatining tezligi, ya'ni to'lov talabnomasiga nisbatan to'lov topshiriqnomasi bo'yicha hisob-kitoblarda hujjatlarning aylanishi harakati qisqaligi so'zsiz xo'jalik oborot mablag' larining aylanish tezligini oshiradi;


-uchinchidan, tovar sotib oluvchining qabul qilgan tovarlari yoki xizmatlar sifatini oldindan aniqlab olinishi. hisob-kitoblarning bu shaklida to'lov talabnomasi orqali hisob-kitoblarda bo'lgan kabi bankka raddiya arizasi topshirilmaydi, chunki to'lovchining o'zi tulovni to'lashga rozi bo'lsa, topshiriqnomani bankka topshiradi;

-to'rtinchidan, to'lov topshiriqnomasining barcha tovarsiz operatsiyalarda ko'llanishi, bu esa ushbu shakl bo'yicha hisob-kitoblarning ahamiyatini yanada yaqqol aks ettiradi.

To'lov topshiriqnomasi bo'yicha hisob-kitoblarning afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud. Kamchiliklar shundan iboratki, mol jo'natuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxona uchun to'lovning o'z vaqtida o'tkazilishi to'la kafolatlanmagan. Chunki to'lovning o'z vaqtida o'tkazilishi to'lovchi korxonaning depozit hisob varag'idagi mablag' lar miqdoriga bog'liq. To'lovning to'liq o'tkazilishiga etarli pul mablag' larining bo'lmashligi pul aylanishi sekinlashtiradi va maqsulot jo'natuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonaning moliyaviy holatini yomonlashtiradi.

To'lov talabnomasi — o'zida mablag' oluvchini to'lovchi tomonidan bank orqali ma'lum bir summani to'lash to'g'risidagi talabi aks ettirilgan pul-hisob-kitob hujjatidir. To'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblar umumlashgan holda qanday amalga oshirilishini to'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblarning hujjatlar aylanishi sxem. 8 orqali yaqqol ko'rish mumkin.





4.4.5-rasm. To'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblardagi aylanishi

hujjatlar

1. Maqsulot jo'natuvchi korxona bilan maqsulot oluvchi korxona o'rtasidagi shartnomasi tuziladi.

2. Maqsulot jo' natuvchi korxona maqsulot oluvchi korxonaga tovar jo' natadi.
3. Maqsulot jo' natuvchi korxona o' ziga xizmat ko' rsatuvchi bank bo' limigato' lov talabnomasi va tovar-transport hujjatlarini taqdim qiladi.
4. Maqsulot jo' natuvchi korxona banki maqsulot oluvchi korxona bankigapochta yoki kurerlar orqali hujjatlarni jo' natadi.
5. Maqsulot oluvchi korxona banki kelib tushgan to' lov talabnomasini akseptlash uchun maqsulot oluvchi korxonaga beradi.
6. Korxona o' z bankiga akseptlangan talabnomani taqdim etadii.
7. Maqsulot oluvchi korxona banki talabnomada ko' rsatilgan summani to' lovchi korxona hisob varag' idan chegirib, talabnoma bo' yicha to' lovni amalga oshiradi.
8. Maqsulot oluvchi korxona banki hisob Markaziga to' langan elektron to' lov talabnomasini modem orqali jo' natadi.
9. Hisob Markazi elektron to' lov tizimi orqali to' langan talabnomani maqsulot sotuvchi korxona bankiga o' tkazadi.
10. Maqsulot sotuvchi korxona banki talabnoma summasini maqsulot sotuvchi korxonaning hisobvarag' iga o' tkazadi.
11. To' lovning kelib tushganligini habar qilish uchun kompyuterda chiqarilgan elektron to' lov talabnomasining ikkinchi nusxasini hisobvaraqdan ko' chirma bilan birgalikda maqsulot sotuvchi korxonaga topshiradi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllari kabi to' lov talabnomasi bo' yicha hisob-kitoblar xam ma' lum bir afzallik va kamchiliklarga ega. To' lov talabnomalari bilan hisob-kitoblarnig afzalliklari quyidagilardan iborat:

- 1) Maqsulot sotuvchi bilan maqsulot oluvchi tomonlar bir-birini o' zaro nazorat qilishga kulay.
- 2) Maqsulot oluvchiga tovarni jo' natish kechiktirilmaydi.
- 3) Mol jo' natuvchi bilan hisob-kitob qilish uchun maqsulot oluvchining mablag' ini aloxida hisobvaraqda deponent qilib ko' yish talab etilmaydi, ya' ni to' lovchining mablag' lari biror muddatga oborotdan tashqariga chiqib ketmaydi.
- 4) To' lovchiga taqdim etilgan hujjatlar asosida mol etkazib beruvchining shartnoma shartlari .ay darajada bajarilishini tekshirish huquqi beriladi, shu bilan birga shartnoma shartlaridan biri buzilgan holda to' lov to' lashdan bosh tortish

huquqiga ega bo' ladi.

5) Mol oluvchi hisob varag' idan akseptsiz talabnomalar bo' yicha mablag' larning majburiy olinishi maqsulot etkazib beruvchi yoki xizmat ko' rsatgan tomon manfaatlariga mos keladi.

To' lov talabnomasi bo' yicha hisob-kitoblarning kamchiliklari quyidagilar:

1. Maqsulot sotuvchi korxonaga to' lovning o' z vaqtida o' tkazilishi kafolatlanmaydi.

2. To' lov o' tkazilishi bilan tovar jo' natilishi vaqtining bir-biriga mos kelmasligi.

3. To' lov talabnomasi bo' yicha hisob-kitoblarda hujjatlar aylanishi to' lov topshiriqiga nisbatan uzo.roq davom etadii.

Umuman, to' lov talabnomasi bo' yicha hisob-kitoblarning ishlatilishi ko' p hollarda - 2-kartotekadan o' z vaqtida to' lanmagan to' lov talabnomalarning ko' payishiga sharoit yaratadi, chunki talabnoma bankka to' lov uchun kelib tushgan


vaqtda to'lovchining hisobvarag' idan qar doim ham to'lovni amalga oshirish uchun etarli pul mablag' lari bo'lmaydi. Kartotekaga qo'yilgan qar bir to'lov talabnomasi respublika qal. xo'jaligi debetorlik va kreditorlik qarzlarining oshganligidan dalolat beradi. Shu sababli, respublika banklari o'z mijozlarining kartotekadagi hujjatlari va ularni to'lash bo'yicha qanday ishlar olib borilayotganini nazorat qilib turadilar.

Hisob-kitoblarning akkreditiv shakli to'lov oborotida juda kam ulushni tashkil etadi. Hisob – kitoblarning akkreditiv shaklida mijozning (to'lovchining) topshirig'iga ko'ra mablag' larni oluvchi foydasiga to'lovni amalga oshirish uchun mablag' ma'lum muddatga deponentlanadi.

Akkreditiv-mijozning topshiriqiga ko'ra shartnoma bo'yicha uning kontrogenti foydasiga berilayotgan bankining shartli pul majburiyatidir. Unga ko'ra akkreditiv ochgan bank maqsulot etkazib beruvchiga to'lovni bajarishi yoki boshqa banklar tomonidan akkreditivda ko'zda tutilgan hujjatlar taqdim qilinganda va akkreditivning boshqa shartlari bajarilganda ularga bu to'lovlarni bajarish uchun vakolat berishi mumkin.

Akkreditiv bilan hisob – kitoblarning ijobiy jihati shundaki, korxona jo'natgan tovar va ko'rsatgan xizmatlari uchun to'lov kafolatlanadi. Shu bilan birga aytish lozimki, akkreditiv bilan hisob – kitoblarda mol sotib oluvchi korxonaning mablag' lari ma'lum muddatga o'z ixtiyoridan chiqib ketadi.

Akkreditiv bo'yicha hisob-kitob operatsiyalarni quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin.



4.4.6-rasm. Akkreditiv bo' yicha hisob-kitoblardagi hujjatlar aylanishi

1-tovarlarni oldi-sotdi shartnomasini imzolash.

2- sotib oluvchi o' z bankiga akkreditiv ochish to' g' risida ariza beradi.

3-akkreditiv ochiladi va bu haqda mol yetkazib beruvchining bankiga xabar beriladi. Xabar akkreditiv telegrammasi shaklida beriladi. Mana shu vaqtdan boshlab sotib oluvchining banki to' lov yuzasidan kafil hisoblanadi.

4-mol yetkazib beruvchining banki mol yetkazib beruvchini akkreditiv ochilganligidan xabardor qiladi.

5-mol yetkazib beruvchi tovarlarni jo' natadi.

6-mol yetkazib beruvchi tovarlar bilan bog`liq hujjatlarni o`zining bankigauzatadi.

7-mol yetkazib beruvchining banki hujjatlarni tekshiradi va qabul qilib oladi.

8- mol yetkazib beruvchining banki tovarlar bilan bog`liq hujjatlarni sotib oluvchining bankiga jo`natadi.

9-sotib oluvchining banki akkreditiv bo`yicha to`lovni amalga oshiradi.10-sotib oluvchining banki tovar hujjatlarini sotib oluvchiga beradi.

11- sotib oluvchining banki mol yetkazib beruvchining bankini (9) operatsiya bajarilganligi to`g`risida yozma ravishda xabardor qiladi.

12-mol yetkazib beruvchining banki to`lov summasini mol yetkazib beruvchining joriy hisob raqamiga kirim qiladi.

13- mol yetkazib beruvchining joriy hisob raqamidan ko`chirma berish.

Hujjatlashtirilgan akkreditivda ishtirok etuvchilarning o`z nomlariga

ega:Mol yetkazib beruvchi benifetsiar deyiladi

Sotib oluvchining banki xabar beruvchi deyiladi

Sotib oluvchi arizador diyiladi

Sotib oluvchining banki akkreditiv bank deyiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning akkreditiv shaklining o`z afzalligi, shu bilan birgalikda, bir qator kamchiliklari mavjud. Akkreditiv shakli bo`yicha hisob-kitob qilishning afzallik tomoni shundaki, maxsulot etkazib beruvchi uchun to`lov to`liq kafolatlangan bo`ladi. Hujjatlashtirilgan akkreditiv ning asosiy kamchiligi bu uning qimmatligidir. Germaniya banklari aholiga ochganligi uchun 1,2-1,4% yevro oladi. O`zbekistonda esa akkreditiv summasi mijozning joriy hoisob raqamidan olinib alohida hisob raqamiga depozit qilinadi.

Akkreditiv shaklining kamchiliklari esa quyidagilardan iborat:

- akkreditiv shakli bo`yicha hujjatlar aylanishi texnik jiqatdan birmuncha qiyinroq;

- transportga qulay emas, akkreditiv ochilgan paytda yukni jo`natish uchun tayyor transport bo`lmasligi mumkin, bu esa yuk jo`natishni kechikishiga olib keladi;

- bu shaklda to'lovchining mablag' lari oborotdan qisman chetlashadi, boshqa hisob-kitoblar uchun bu mablag' lardan foydalanishga ruxsat etilmaydi;

- akkreditiv bo'yicha odatda faqat bir mol etkazib beruvchi bilan hisob-kitob qilinadi.

To'lov tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri pul aylanishini to'g'ri va aniq tashkil qilishdan iborat, chunki bozor iqtisodiyoti tovar pul munosabatlarining holati va taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Korxona va tashkilotlar o'zlarining xo'jalik faoliyati jarayonida doimo bir-birlari bilan aloqada bo'ladilar. Ular o'rtasida tovar ayirboshlash jarayoni pul va pulli hisob-kitoblar yordamida amalga oshiriladi. Tovar ayirboshlashning o'zi esa pul aylanishining moddiy asosi hisoblanadi, uning asosida boshqa pulli munosabatlar, jumladan, pensiya fondi, sug'urta fondi, soliq idoralari, bank muassasalari bilan bo'ladigan pulli munosabatlar hamda banklararo to'lovlar vujudga keladi.

5-mavzu. Pul tizimi: mazmuni, turlari va elementlari

R E J A:

5.1. Pul tizimi va uning mazmuni.

5.2. Pul tizimi shakllari va ularning evolyutsiyasi: bimetallizm, monometallizm.

5.3. Pul tizimi elementlari. Ba'zi xorijiy davlatlar pul tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

5.4. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi barqarorligini ta’minlash

Tayanch iboralar: pul tizimi, evolyutsiyasi, bimetallizm, monometallizm, pul tizimi elementlari, milliy va jahon valyuta tizimi.

Pul tizimi va uning mazmuni.

Pul tizimi pul muomalasini tashkil etishning tarixiy jihatdan qaror topgan va qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan shaklidir. Boshqacha aytganda, bu pul muomalasining aniq bir mamlakatda muayyan vaqt ichida qo‘llaniladigan qoidalari va normalari majmuidir. Milliy valyuta tizimi pul tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Pul mablag‘lari iqtisodiyotda amal qiladigan shaklga qarab pul mablag‘larining ikki turi: metall pullar muomalasi tizimi va pul belgilari muomalasi tizimi farqlanadi.

Metall pullar muomalasi tizimlari pullik tovar (oltin va kumush) bevosita muomalada bo‘lgan sharoitda amal qilgan. Bunda mazkur metall pullarning barcha funktsiyalarini bajargan, mavjud kredit pullar esa metallga erkin almashtirilgan.

Metall pul belgilarining muomalasi tizimida bimetallizm davri va monometallizm davri farqlanadi. Bunday holda bimetallizm iqtisodiy jarayonlarda ikkita asl metallarning bir vaqtda foydalanishi bilan tavsiflanadi, monometallizm esa umumiy ekvivalent sifatida bir metallga o‘tishni anglatadi. Bunda bimetallizm holatida quyidagicha xillar ajratib ko‘rsatiladi:

1) parallel valyuta tizimi – oltin bilan kumush o‘rtasidagi o‘zaro nisbat bozorda stixiyali ravishda belgilanadi;

2) qo‘shaloq valyuta tizimi – ikki metall o‘rtasidagi o‘zaro nisbat davlat tomonidan ushbu metallarga bo‘lgan talabga, shuningdek, ushbu davlatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatga qarab belgilanadi;

3) nuqsonli valyuta tizimi – metallar iqtisodiy tizimda mavjud bo‘ladiyu, lekin teng huquqlarga ega bo‘lmaydi. Odatda, davlat kumush valyutaning zarb qilinishi va foydalanishiga cheklashlar kiritadi.

Faqat bir metallning amal qilishi tizimi sifatidagi monometallizm ham ayrim o‘zgarishlar yuz berdi:

1) oltin tangali standart – to‘laqonli oltin valyutaning amal qilishi, unda tovarlarning qiymati ham ushbu valyuta bilan hisoblanadi;

2) oltin yombili standart – oltin muomalada bulmaydi, lekin unga katta miqdorlardagi (yombi miqdorida) almashinish amalga oshiriladi;

3) oltin valyutali (oltin devizli) standart – pullarning almashinishi faqat oltin yombili standartli mamlakatlarning valyutalariga amalga oshiriladi.

Valyuta tizimi - bu, mamlakatlar o'rtasida valyuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir.

Valyuta tizimi - bu, xo'jalik aloqalarini baynalmilallashuvi asosida tarixan shakllangan, valyuta amali bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Valyuta tizimining mohiyati, tashkil etilish shakllari va roli jamiyatning iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi.

Valyuta tizimi davlat, rezident va norezident shaxslarga tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Sub'ektlarning ushbu faoliyati amalga oshishida valyuta qonunchiligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Maxsus adabiyotlarda valyuta tizimlarining 3 ko'rinishi farqlanadi, ya'ni milliy, jahon va hududiy valyuta tizimlari.

Pul tizimining elementlari.

Zamonaviy pul tizimi quyidagi elementlarni uz ichiga oladi: pul birligi; valyuta kursini o'rnatish qoidalari, baxolar masshtabi; pul ko'rinishlari; emissiya tizimi; davlat yoki kredit apparati.

Pul tizimining tarkibiy qismi milliy valyuta tizimidir.

Pul birligi - konuniy tarzda urnatilgan pul belgisi bulib, barcha tovarlar baxosini uzaro solishtirish va ifodalash uchun xizmat kiladi. Kupincha pul birligi mayda bulinuvchi kism'larga ajraladi. Kupchilik mamlakatlarda *unlik* bulinish tizimi urnatilgan. Masalan, 1:10:100 (AKSh dollari 100 tsentga, 1 funt sterling - 100 pensga, 1 Indoneziya rupiyasi - 100 senga teng va x.k)

Rasman baxolar masshtabi o'zining iqtisodiy ma'nosini davlat monopolistik kapitalizmi rivojlanishi va kredit pullarni oltinga almashinishi to'xtatilgandan so'ng yo'kotdi. 1976-1978 yilda o'tkazilagan Yamayka valyuta isloxoti natijasida oltinning rasmiy narxi va pul birliklarning oltin tarkibi bekor qilindi.

Qonuniy to'lov vositasi bo'lgan pul ko'rinishlari - bular asosan bank kredit bilet'lari, qog'oz pullar (xazina bilet'lari) va tangalardir. Masalan, AQSh da muomalada kuyidagi pullar mavjud: 100, 50, 20, 15, 5 va 1 dollarlar, bank bilet'lari. Xazina bilet'laridan tashkari: kumush-mis va mis-nikel tangalar (50, 20, 10, 5, 1 tsentli)

chiqariladi Buyuk Britaniyada muomalada 50, 20, 10, 5, 1 f. st. banknotalar: 1 f. st., 50, 10, 5, 2 pennli, 1 va 1/2 pensli tangalar amal qiladi. Yana eski 2 va 1 shilling tagalari yuritiladi, ular yangi

10 va 5 pensga teng. Agar rivojlangan mamlakatlarda asosan bank biletlari chiqarilsa, qator rivojlanayotgan mamlakatlarda ko' prok xazina biletlari chiqarish keng tarqalgan. Masalan, Indoneziyada 50, 25, 10, 5, 1 sen qiymatli, Xindistonda - 1 rupiya qiymatli xazina biletlari chiqariladi.

Respublika hukumati tomonidan iqtisodiy mustaqillikka erishish borasida qat'iy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu, ayniqsa, iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirishda, shu jumladan an'anaviy sektorlarni zamonaviylashtirish va mamlakat ichida nisbatan yuqori darajadagi qo'shilgan qiymat hosil qilishga qodir bo'lgan yangi tarmoqlarni tashkil etishda yaqqol ko'zga tashlandi. Mazkur chora-tadbirlar oxir-oqibatda milliy pul tizimini shakllantirish va iqtisodiyotda islohotlarning navbatdagi bosqichini amalga oshirishning poydevori bo'lib xizmat qildi.

Yuzaga kelgan vaziyat va pul tizimi rivojining yuqorida ko'rsatilgan variantlari tahlili asosida dastlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 12 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi hududida so'm-kuponlarni muomalaga kiritishni joriy qilish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 1993 yil 15 noyabrdan boshlab oraliq valyuta sifatida «so'm-kupon» 1 so'm - 1 rubl nisbatda muomalaga kiritildi.

1994 yilda milliy valyutaning muomalaga kiritilishi bank tizimi rivojlanishining birinchi bosqichini yakunladi va ikkinchi bosqichini boshlab berdi. Bu iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlarda sifat jihatidan yangi bosqich boshlanganidan darak berardi. Bu davrda Markaziy bank asosiy e'tiborni makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga va shu asosda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratdi.

Shu paytdan boshlab, Markaziy bankning asosiy kuch va vositalari mustaqil pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, samarali to'lov tizimini yo'lga qo'yishga erishishga yo'naltirildi.

Bu davrda pul tizimining huquqiy bazasi mustahkamlanib, bank qonunchiligi takomillashtirildi. 1995 yili «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni va 1996 yili O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunining yangi tahrirda qabul qilinishi zamonaviy pul

tizimini tashkil etilishini, tijorat banklarini xalqaro moliya bozorlariga chiqishini, aholi, korxonalar va xorijiy sarmoyadorlarning pul tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlanishini, barqaror iqtisodiy o'sishni hamda xalq farovonligini oshirilishini ta'minlashga qaratilgan istiqbollarni belgilab berdi.

“Pul tizimi” tushunchasining mazmuni. Pul tizimini tashkil qilish shart-sharoitlari. Pul tizimini tashkil qilish printsiplari.

Tizim deganda o'zaro bog'liq elementlarning birligi tushuniladi.

Pul tizimi – bu bir biri bilan o'zaro bog'liq holda xarakatlanuvchi va pul tizimining yaxlitligini ta'minlovchi elementlarning yig'indisidir.

Pul tizimi – bu mamlakatda yoki alohida olingan iqtisodiy hududda pul muomalasini tashkil qilishning davlat-huquqiy shaklidir.

Pul tizimini obektiv va subektiv asoslari mavjud. Pul tizimining obektiv asoslariga tovar pul munosabatlarining rivojlanganlik darajasi kiradi. Pul tizimining subektiv asoslariga to'lov hujjatlarini va vositalarini hamda ulardan foydalanish tartibini qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilishi kiradi.

Pul tizimining ikkita jihati mavjud:

1. Funktsional jihat(aspekt) – pul tizimi funksional jihatidan pul muomalasidan tashkil qilish printsiplari, shakllari va usullarining yig'indisidir.

2. Institutsional jihat – institutsional jihatdan pul tizimi pul muomalasini tashkil qiluvchi va tartibga soluvchi institutlarning yig'indisidir. Bunday institutlarga Markaziy bank, tijorat banklari, kliring markazlari, hisob uylari kabi muassasalar kiradi.

Pul tizimini tashkil qilish quyidagi printsiplar asosida amalga oshiriladi

1. Pul tizimining barqarorligi va elastikligi prinsipi. Pul tizimining barqarorligi deganda pulning barcha funksiyalarini to'liq bajarilishini ta'minlash tushuniladi. Pul tizimining elastikligi deganda pul tizimining iqtisodiyotning pul mablag'lariga bo'lgan talabini o'zgarishiga o'z vaqtida javob bera olishiga aytiladi.

2. Muomalaga chiqarilgan pullarning ta'minlanganlik prinsipi. XX asrning 70-yillariga qadar muomalaga chiqarilgan naqd pullar oltin bilan ta'minlanar edi. Muomaladagi har bir AQSh dollari $1\$ = 0.88$ gramm sof oltin asosiga ega edi. 1 unsiya = 35\$ bahoda almashtirib berdi. 1 unsiya = 31.1 gramm sof oltinga teng. Milliy valyutaning oltin bilan ta'minlanishi baho masshtabi deb ataladi. 1976-1978- yillarda bo'lib o'tgan Yamayka jahon valyuta tizimida oltinni demonitizatsiya qilish tugatildi.

Bu oltindan to'lov vositasi sifatida foydalanishni ta'qiqlash. Natijada baho masshtabi dunyo mamlakatlarida bekor bo'ldi, eng oxirgi davlat Shvetsariya baho masshtabini 2011-yilda bekor qildi. Hozirgi davrda muomalga chiqarilayotgan pullar Markaziy bankning aktivlari bilan ta'minlanadi.

3. Pul aylanmasini rejalashtirish va prognos qilish prinsipi.

4. Pul aylanmasini nazorat qilish prinsipi

Pul tizimlari XVI-XVII asrlarda ishlab chiqarish kapitalistik usulining yuzaga kelishi va qaror topishi munosabati bilan shakllangan, biroq shunday bo'lsa ham, uning ayrim elementlari bundan ancha oldin paydo bo'lgan. Tovar-pul munosabatlari va ishlab chiqarishning kapitalistik usuli rivojlanishi bilan pul tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

Pul tizimi turlari pul qanday shaklda amal qilishiga bog'liq, ya'ni umumiy ekvivalent - tovar sifatida yoki qiymat belgisi sifatida bo'lishiga qarab quyidagicha pul tizimlar mavjud bo'lgan.

1. Metall pul muomalasi tizimlari. 2. Qog'oz va kredit pullar muomalasi tizimlari.

Birinchi tizimda metall pul bevosita muomalada bo'ladi va pulning barcha funksiyalarini bajaradi, kredit pullar esa metallga almashinishi mumkin;

Kredit va qog'oz pullar muomalaga kiritilishi bilan qog'oz pullar muomalasi tizimi yuzaga kelgan. Mamlakatda umumiy ekvivalent sifatida qabul qilingan metallga va pul muomalasi bazasiga qarab pul tizimi bimetalizm va monometalizm pul tizimlariga bo'linadi.

Pul tizimining shakllari: bimetalizm; monometalizm; qog'oz va kredit pullari tizimi.

Mamlakatda umumiy ekvivalent sifatida qabul qilingan metallga va .t muomalasi bazasiga qarab pul tizimi bimetalizm va monometalizm pul tizimlariga bo'linadi.

Bimetalizm - pul tizimida umumiy ekvivalent rolini metall (kupincha ;tin va kumush) bajargan, bu tizimda ikkala ikkala metallardan xam shgalarning erkin muomalaga chikarilishi va ularning cheksiz almashishiga mal qilingan.Parallel valyuta

tizimida ikki metall qiymati stixiyali, metallning yuzor baxosiga munosib tarzda belgilangan. Bu pul tizimida davlat metallar erasidagi mutanosiblikni urnatib kuygan. Oltin va kumush tangalarning chikarilishi va ularning axoli tomonidan kabul kilinishi ana shu mutanosiblikka muvofik amalga oshirilgan.

Bimetalizm XVI-XVII asrlarda keng tarkalgan bulib Garbiy Evropaning kator mamlakatlariga esa XIX asrgacha etib kelgan. 1865 yili Frantsiya, Belgiya, Shveytsariya va Italiya mamlakatlari bimetalizmni xalkaro sulx - Lotin tanga Ittifoki yordamida saklab kolishga urinishgan. Tuzilgan konventsiyada ikkala metall dan xam 5 frank va undan yukori qiymatli tangalarni chikarish, oltin va kumush urtasida 1:15,5 qiymat mutanosibligini urnatish shartlari kuzda tutilgan.

Biroq, bimetallik pul tizimining kullanilishi rivojlangan kapitalistik xujalik extiyojlariga moe kelmasdi, chunki qiymat ulchovi sifatida bir vaktning uzida ikki metall - oltin va kumushning qo' llanilishi pulning ushbu funktsiyasi tabiatiga to' g' ri kelmagan. Umumiy qiymat o' lchovi bulib fakat birgina tovar xizmat kilishi mumkin. Bundan tashqari ikki metall orasidagi davlat tomonidan o' rnatiladigan nisbat ularning bozor narxiga to' g' ri kelmas edi. XIX asr oxirida kumush ishlab chiqarishning arzonlashishi va uning qadrini yo' kotishi natijasida oltin tangalar muomaladan xazinaga keta boshladi. Bunda Kopernik-Greshemning konuni yuzaga chiqqan, ya' ni yomon pullar muomaladan yaxshilarini chiqarib tashlagan.

Kapitalizm taraqqiyoti mustaxkam pul, yagona umumiy ekvivalent bo' lishni talab qildi, shuning uchun bimetalizm o' z o' rnini monometalizmga bo' shatib berdi.

Monometalizm - bu pul tizimida yagona metall (oltin yoki kumush umumiy ekvivalent va pul muomalasining asosi bo' lib xizmat qiladi. Amal qilayotgan tanga va boshqa qiymat belgilari qimmatbaxo metallar almashiniladi.

Kumush monometalizmi Rossiyada 1843-1852 yillarda, Gollandiyada 1847-1875 yy. da mavjud bulgan.

Chor Rossiyada kumush monometalizmi tizimi 1839-1843 yillarda o' tkazilgan pul isloxati natijasida qabul qilingan. Pul birligi kumush rubli bo' lgan. Keyinchalik muomalaga kredit biletleri xam chiqarilgan, ular kumush tanga bilan teng muomalada qatnashgan va erkin tarzda metallga almashtirilgan. Lekin bu isloxot sunayotgan krepostnoylik tizimi davlat byudjeti va tashqi savdo balansi taqchiligi sharoitida pul muomalasini uzoqroq muddatga tartibga sola olmagan. 1853-1856 yillardagi Krim

urushi ko' p miqdorda qo' shimcha kredit pullar emissiyasini talab qildi va natijada ular qog' oz pulga aylanib qoldi.

Ilk bor oltin monometalizmi (standart) pul tizimi sifatida Buyuk Britaniyada XVIII asr oxirida qaror topgan va qonun bilan 1816 yilda tasdiqlangan. Ko' pchilik boshqa davlatlarda u XIX asrning oxirlarida joriy qilingan: germaniyada - 1871-1873 yilda, Shvetsiya, Norvegiya, Daniyada - 1873 yilda, Frantsiyada - 1876-1878 yilda, Avstriyada - 1892 yilda, Rossiya va Yaponiyada - 1897 yilda, AKSh da - 1900 yilda.

Oltin tanga standarti kapitalizmning erkin raqobatiga juda mos kelgan, ishlab chikarish, kredit tizimi, jaxon savdo kapitali kelib chiqishining rivojlanishiga yordam bergan.

Nazorat uchun savollar:

1. " Pul tizimi" tushunchasining mazmunini, pul tizimining shakllarini yoritib bering?
2. Pul tizimining elementlarini tushuntirib bering?
3. " Pul tizimi" tushunchasining mazmunini, pul tizimini tashkil qilish shart-sharoitlarini va pul tizimini tashkil qilish printsiplarini yoritib bering?
4. Pul tizimining shakllari: bimetallizm; monometallizm; qog' oz va kredit pullari tizimini ochib bering?.

MAVZU: PUL MASSASI VA PUL AGREGATLARI

REJA:

- 1. Pul massasi tushunchasi, uning mohiyati va tarkibi.**
- 2. Muomala uchun zarur pul miqdorini aniqlash.**
- 3. Pul multiplikatori va uning mohiyati.**
- 4. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda pul agregatlari va ularning tarkibi.**

Pul massasi tushunchasi, uning mohiyati va tarkibi.

Biz oldin mavzularda ko' rganimizdek va keyingi mavzularda ham bevosita ko' rib o' tadigan pul nazariyalariga ko' ra, pul taklifidagi o' zgarishlar foiz stavkasi va inflatsiya darajasiga bevosita ta' sir qiladi. Iqtisodiyotga ta' siri tufayli pultaklifini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Uni kim nazorat qiladi? Uni o' zgarishiganimalar sabab bo' ladi? Uni yaxshilash uchun qanday tarzda nazorat qilish kerak? Ushbu va keyingi bo' limlarda pul taklifi jarayonini maxsus asoslar

orqali izohlab beramiz va yuqoridagi savollarga javob berib o‘ tamiz. Pul massasi-yuridik va jismoniy shaxslarga hamda davlatga tegishli bo‘ lgan naqd va naqdsiz ko‘ rinishdagi pul mablag‘ larining yig‘ indisidir. Pul taklifi jarayonini tushunishning birinchi bosqichi banklardagi depozitlarni o‘ rganish hisoblanadi, chunki depozitlar pul taklifining katta tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuda banklarning depozit siyosati va ular bilan bog‘ liq operatsiyalari yoritilgan.

Majburiyatlar

Balansdagi 2 ta majburiyat ya‘ ni muomaladagi valyuta va zaxiralar Federal Zaxiraning monetar majburiyatlari hisoblanadi. Ular pul taklifining muhim qismi hisoblanadi chunki ularning birini o‘ sishi yoki ikkalasining ham o‘ sishi pul taklifining o‘ sishiga sabab bo‘ ladi. Federal Zaxiraning Monetar majburiyatlari va hukumat xazina majburiyatlari monetar baza hisoblanadi. Bunda davlat xazina majburiyatlari umumiy bazaning 10%idan kam ulushga ega.

1. Muomaladagi valyuta. Ya‘ ni Federal Zaxira tomonidan chiqarilgan va aholini qo‘ lida bo‘ lgan pullardir. Depozitariy institutlardagi pullar ham Federal Zaxiraning majburiyati hisoblanadi lekin balansning zaxira qismida joylashgan.

2. Zaxiralar. Barcha banklar Federal Zaxiralar tizimi (Fed)da depozit sifatida o‘ z hisob raqamlariga egadirlar. Zaxiralar Feddagi depozit hisobraqamlaridan hamda bank kassalaridagi naqd pullardan tashkil topadi. Zaxiralar banklar uchun aktiv, Federal Zaxira uchun passiv hisoblanadi, chunki banklar istalgan paytda zaxiralar uchun to‘ lov talab qilishlari mumkin va Federal Zaxira o‘ z majburiyatini qoplash uchun Federal Zaxira notalari to‘ lab boradi. Keyinchalik ko‘ rib o‘ tishimiz mumkinki, zaxiralarning oshishi depozitlarning ko‘ payishiga va buning natijasida pul taklifining oshishiga olib keladi.

Umumiy zaxiralar 2 ta kategoriyaga ajratilishi mumkin: Federal Zaxira tomonidan qat‘ iy talab asosida saqlanishi kerak bo‘ lgan zaxiralar (majburiy zaxira), banklar tomonidan ixtiyoriy tarzda saqlanishi mumkin bo‘ lgan qo‘ shimcha zaxiralar (ortiqcha zaxira). Masalan, Fedning talabi bo‘ yicha depozitar tashkilotdagi depozitlarning har bir dollari uchun uning ma‘ lum qismi (misol uchun, 10 sent) zaxira sifatida shakllantirilishi kerak. Ushbu qism (10%) majburiy zaxira nisbati deb ataladi.

Aktivlar

Federal Zaxira buxgalteriya balansidagi 2 turdagi aktivlar ikki sabab bo' yicha eng muhim aktivlardan hisoblanadi. Birinchisi, aktiv moddalaridagi o' zgarishlar zaxiralar va pul bazasining o' zgarishiga olib boradi va natijada pul taklifi miqdoriga ham ta' sir ko' rsatadi. Ikkinchidan, ushbu aktivlar (davlat qimmatli qog' o'zlari va Federal kreditlar) majburiyatlar (foiz to' lanmaydigan muomaladagi pullar, va zaxiralar)ga nisbatan balandroq foiz stavkalarida bo' lganligi sababli, Federal Zaxira har yili milliardlab dollarlar yig' ib oladi, chunki uning aktivlari kattagina daromad keltirsa, passivlari aytarli xarajat talab qilmaydi. Federal Zaxira foydasining ko' pgina qismini federal hokimiyatga qaytarishiga qaramay, u qolgan qismini ham arzirli sabablarga xarajat qilmaydi.

Muomala uchun zarur pul miqdorini aniqlash.

Muomala uchun zarur pul miqdori 2 asosiy yo' nali shda shakllanadi:

1. Pullarga bo' lgan aktiv talabning shakllanishi. Korxonalar o' zini faoliyatini yanada rivojlantirish uchun ishlab chiqarishni kengaytiradi, ya' ni qo' shimcha sehlar quradi. Hamda yangi texnika va texnologiyalarni sotib oladi. Bunda qo' shimcha pul mablag' lariga talab yuzaga keladi.

2. Passiv talabning yuzaga kelishi. Aholi, kompaniyalar va davlat kelgusidagi jiddiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pul jamg' ara boshlaydi.

Pul muomalasi qonunlari muomala uchun zarur bo' lgan pul miqdorini aniqlash imkonini beradi.

I. Fisher tomonidan taklif qilingan pul muomalasi qonuni quyidagicha $M = P \cdot Q / V$

Bunda, M-muomala uchun zarur bo' lgan pul miqdori; P-tovarlar bahosi; Q-tovarlar hajmi; V-pulning aylanish tezligi.

Fisher aytadiki, tovar hajmi ko' rsatkichi o' rniga YaMM ko' rsatkichini qo' llash maqsadga muvofiq. Chunki YaMMning o' sishi muomala uchun zarur bo' lgan pul miqdorini belgilaydigan asosiy omildir.

K. Marks tomonidan taklif qilingan pul muomalasi qonuni quyidagi ko' rinishga ega.

$$PM = (TXBS-KSTs+MKTs)/PBAT$$

PM-muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori, TXBS-tovarlar va xizmatlar baholari summasi KSTs-kreditga sotilgan tovarlar summasi MKTs-muddati kelgan to'lovlar summasi PBAT-pul birligining aylanish tezligi

Karl Marks aytadiki, tovarlar va xizmatlar bahosining o'zishi muomalada qo'shimcha pullarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Nobel mukofoti lauriyati M.Fridmen esa buni teskarisini aytadi. Muomalada ortiqcha pullarning paydo bo'lishi tovarlar va xizmatlar bahosining o'zishiga olib keladi.

Marks aytadiki mamlakatda tovarlarni kreditga sotish tizimini qanchalik rivojlangan bo'lsa pullarga bo'lgan talab shunchalik past bo'ladi.

Inflyatsiya yuqori bo'lgan sharoitda tovarlar va xizmatlar bahosining inflyatsiya ta'sirida o'zishi yuz beradi.

Natijada iqtisodchi olimlar tomonidan inflyatsiya darajasi hisobga olingan pul muomalasi qonuni taklif qilinadi.

$$M=Y*P/V$$

M-muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori Y-real

YaIM

P-Inflyatsiyaning o'zish sur'ati

V-pulning aylanish tezligi

XIX asr oxiri XX asr boshlarida dunyo bo'yicha veksel muomalasining jadal rivojlanishi yuz berdi. Bu iqtisodchi olimlarni pul muomalasi qonunlariga nisbatan munosabatini bir muncha o'zgartirdi. Chunki veksellar pulning to'lov vositasi funksiyasini bajara oladi. Shu sababli iqtisodchi olimlar pullarga bo'lgan talabni aniqlashda veksellar muomalasini hisobga olish kerak degan xulosaga keldi.

Pul massasini miqdoriy o'lchashga nisbatan 2 xil yondashuv mavjud:

1. Transaksion yondashuv- bunda pullarning to'lov vositasi va muomala vositasi sifatida harakatlanishi ko'zda tutiladi. Shu sababli transaksion yondashuvda pul massasining aktiv qismi e'tiborga olinadi.

2. Likvidli yondashuv – bunda pullar eng yuqori likvidli aktiv sifatida tan

olinadi.

Aktivlarning likvidliligi deganda tez pulga aylana olish qobiliyati tushuniladi. Likvidli yondashuvga ko'ra nafaqat aktiv pullar balki passiv pullar ham pul massasining tarkibiga kiritiladi.

Pullarga bo'lgan talab nazariyalari ichida J.Keynsning likvidlikka ixlos qo'yish nazariyasi muhim o'rin egallaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra pullarga bo'lgan talabni 3 ta omil belgilaydi:

1. Transaksion omil-tovarlar xomashyo va materiallar sotib olish uchun, ish haqi to'lash uchun kompaniyalarga pul kerak. Aholi ma'lum turdagi tovarlarni xarid qilish uchun, xizmatlar haqini to'lash uchun pul kerak. Shu sababli ular daromadlarining ma'lum qismini pul shaklida saqlaydilar.

2. Extiyotkorlik omili-aholi ham kompaniyalar ham kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan, ko'zda tutilmagan holatlardan himoyalash maqsadida pul jamg'aradilar.

3. Spekulyativ (chayqovchilik) omili-aholi va kompaniyalar pul mablag'larini kelgusida daromad olish maqsadida aktivlar sotib olish uchun saqlaydi.

Nobel mukofotining laureati amerikalik iqtisodchi olim M.Fridman aytadiki pullarga bo'lgan talab o'zgarishi nominal daromadlarning o'zgarishi oqibatidir. Fozistavkalri esa pullarga bo'lgan talabga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Shuning uchun u % stavkalarining elastikligini 0.15 ga teng deb oladi.

Fridmenning fikriga ko'ra pullarga bo'lgan talab iqtisodiy konyukturaning o'zgarishlariga bog'liq emas. Markaziy bank pul bazasi orqali pullarga bo'lgan talabga ta'sir ko'rsata oladi.

Ko'pchilik iqtisodchi olimlar pullarga bo'lgan talab va inflyatsiya o'rtasida bevosita aloqadorlik mavjulgini e'tirof etishgan. Masalan: Samuelson, Blansher, Fisher.

So'nggi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida davlat byudjeti defitsiti va davlat qarzi darajasini o'sishi kuztilmoqda. Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya va Irlandiyada davlat qarzi YaIM ga nisbatan 120-150% gacha etdi. Aslida me'yoriy darajada 60%dan ortmasligi lozim.

2014 yil yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda 17% tashqi qarz, 0.6% ichki qarz (YaIMga nisbatan).

Davlat byudjeti defitsitining YaIMga nisbatan aniqlanadigan me' yoriy darajasi 3% qilib belgilangan, 3% dan oshmasa normal defitsit hisoblanadi.

Pul taklifi – bu naqd va naqdsiz ko‘rinishdagi pul mablag‘larining muomlada paydo bo‘lishi bo‘lib, pulning to‘lov vositasi va muomala funksiyalari bilan bog‘liq.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda naqdsiz pul aylanmasining rivojlanganligi naqd pullar taklifining ko‘payishiga to‘sqinlik qiladi. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida esa naqd pullarga bo‘lgan talabning yuqori ekanligi naqd pullar taklifi oshishiga sabab bo‘ladi. Taraqqiy etgan davlarda pullar taklifining tartibga solinishi, takomillashgan instrumentlar yordamida qo‘llaniladi. Masalan AQShda Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalari orqali bank tizimidagi qo‘shimcha pullarni olib qo‘yadi.

M.Fridman 1-chi bo‘lib pul massasini aniqrog‘i M2 pul agregati o‘rta sur‘atini nazorat qilishini taklif qilgan. Bu taklifning amaliyotga tadbiri AQShda, Evropa mamlakatlarida pul massasining barqaror o‘rta sur‘atini ta‘minlash imkonini bergan. Urushlar, tabiiy ofatlar pullar taklifining keskin oshishiga sabab bo‘ladi. Kapitallarning spekulyativ harakati pullar taklifida bevosita va kuchli ta‘sir ko‘rsatadigan omil hisoblanadi.

Davlatning pul aylanishiga ko‘plab omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Pul aylanishi tuzilmasi turli belgilar bo‘yicha belgilanadi:

- 1) unda pullarning faoliyat yuritishi shakliga qarab. Ushbu belgiga qarab naqd pulsiz va naqd pullik pul aylanishini ajratish mumkin, chunki barcha pul belgilari uyoki boshqa shaklga ega bo‘ladi;
- 2) ushbu pul aylanishi xizmat ko‘rsatadigan munosabatlar tusiga qarab. Bu erda pul-hisob-kitob aylanishi, pul-kredit aylanishi, pul-moliya aylanishi ajratib ko‘rsatiladi;
- 3) pul mablag‘larining harakati yuz beradigan sub‘ektlarga qarab. Ushbu tasnif bo‘yicha quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi: pul mablag‘larining yuridik shaxslar o‘rtasida banklararo, banklarda aylanishi, yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi aylanish va, nihoyat, pul mablag‘larining faqat jismoniy shaxslar o‘rtasidagi aylanishi. Shunga tegishli, iqtisodiyotda qo‘llaniladigan pul aylanishi hajmiga ta‘sir qiladigan omillarning muayyan guruhini ham ajratish mumkin. Barcha omillarni siyosiy, iqtisodiy va texnik omillarga ajratish mumkin. Tabiiyki, pul aylanishi tuzilmasini shakllantirishning iqtisodiy omillari asosiy ahamiyatga va bevosita ta‘sir kuchiga ega bo‘ladi. Bunday omillarga iqtisodiyotda ishlatiladigan pullar turlari, pul muomalasi tezligi, tovar aylanishi miqdori va shu kabilar kiradi. Binobarin, mavjud pul aylanishi

miqdorlarini vujudga keladigan ehtiyojlarga muvofiq o'zgartirishga yoki pul aylanishining mavjud hajmlarini tovar aylanishining real ehtiyojlariga muvofiqlashtirishga faqat iqtisodiy uslublar vositasida pul aylanishi hajmiga ta' sir ko'rsatadigan ushbu omillar orqali ta' sir qilish mumkin.

Iqtisodiyotda faoliyat yuritadigan, faqat hukumatning ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan va iqtisodiyotning ehtiyojlaridan mustaqil pul mablag' lari miqdoridagi o'zgarishlar siyosiy omillar hisoblanadi. Texnik omillar pul aylanishi tuzilishi va hajmiga faqat bilvosita ta' sir ko'rsatadi, lekin shunga qaramasdan, ularni hisobga olish zarur. Bunday omillarga u yoki boshqa hisob-kitobni o'tkazish uchun talab etiladigan vaqtni kamaytirish

yoki hisob-kitobning o'zini amalga oshirishga imkon beradigan hisob-kitoblarning texnik vositalari kiradi. Masalan, bank plastik kartalariga xizmat ko'rsatuvchi texnik vositalarning keng ommalashganligi aholi o'rtasida ushbu to'lov vositasining ommalashuviga va, binobarin, naqd pulsiz pul mablag' larining qo'llanilishining oshishiga olib keladi. Naqd pulsiz pul mablag' lari qo'llanilishi chastotasining ko'payishi pul muomalasining umumiy tarkibida naqd pullarning kamayishiga va davlatning pul aylanishini tartibga solish asosiy uslublarining o'zgarishiga olib keladi.

Pul muomalasi – bu pullarning mamlakatning ichki iqtisodiy aylanishi, tashqi iqtisodiy aloqalar tizimidagi, tovarlar va xizmatlarning sotilishiga, shuningdek, uy xo'jaligidagi tovarsiz to'lovlarga xizmat ko'rsatadigan naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi harakatidir. Tovar ishlab chiqarish pul muomalasining ob'ektiv negizi bo'lib, undagi tovar olami tovarlarning ikki turiga: tovarlarning o'ziga va tovar- pullarga bo'linadi. Naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pullar yordamida tovarlar, shuningdek, ssuda va fiktiv kapitallarning muomalasi jarayoni amalga oshiriladi. Siyosiy iqtisod matematik maktabining yirik vakili, Xalqaro iqtisodiy jamiyat asoschilaridan biri va uning birinchi prezidenti (1931-1933) **Irving Fisher** (1867- 1947) pullarning miqdoriy nazariyasini zamonaviylashtirishga katta hissa qo'shdi. U «Pullarning xarid qilish kuchi. Uning belgilanishi va kredit, foizlar va tanazzullarga munosabati» asarida (1911) pullar massasi bilan tovarlar narxlari darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni formallashtirishga harakat qilgan. Tovarlar uchun to'langan pullar soni va sotilgan tovarlar narxlari summasi teng bo'lgani uchun buni I.Fisher tarozi bilan o'xshatmoqchi bo'ladi. Fisher formulasi oltin tangali standart sharoitida to'g'ri bo'lmaydi, chunki u pullarning ichki qiymatini

hisobga olmaydi. Biroq oltinga almashtirilmaydigan qog' oz pullar muomala qiladigan sharoitda u muayyan mazmun kasb etadii. Bunday sharoitda pul massasining o' zgarishi, garchi I.Fisher tovarlar narxlarining mutloq elastikligini nazarda tutib, narx mexanizmini ma' lum ma' nodaideallashtirsa-da, lekin tovarlar narxlari darajasiga ta' sir ko' rsatadi. Boshqa neoklassiklar kabi Fisher ham mukammal raqobatchilikka asoslanadi va o' z xulosalarini monopoliyalar hukmronlik qiladigan va narxlar oldingi elastikligini jiddiy yo' qotgan jamiyatga tegishli deb biladi. Ko' pgina hozirgi iqtisodchilar ayirboshlash tenglamasini bir xillik, ya' ni $MV=PQ$ sifatida tavsiflashadi. Gap shundaki, bu tenglama $D - T$ ayirboshlash harakatini tovarlarning jami massasiga daxldor deb ifodalashga urinadi, ya' ni tovarlar sotib olingan pullar summasi sotib olingan tovarlar narxlari summasiga teng (bir xil). Bu tavitologiyadir va shuning uchun ayirboshlash formulasi narxlarning umumiy (mutloq) darajasini izohlash uchun xizmat qila olmaydi. Miqdoriy nazariya tarafdorlarining faraz qilishicha, ayirboshlash formulasi mutloq kattalikni EQ_0 ni izohlaydi (ayni bir vaqtda talab va taklif mexanizmi undan nisbiy tebranishlarni izohlaydi). I.Fisher va uning izdoshlari shunday nuqtai nazarga amal qilishgan. Ular pullarning aylanish tezligi (V) va ishlab chiqarish darajasi (Q) muomalada yurgan pullar miqdoriga (M) va narxlar darajasiga (P) bog' liq bo' lmasligini asoslashga urinishgan. Ular pullarning aylanishi tezligi avvalo demografik (aholining zichligi va hokazo) va texnik (transport vositalarining soni va sifati va hokazo) parametrlarga bog' liq bo' ladi, deb faraz qilishgan. Ishlab chiqarish darajasi esa asosan mehnat bozorida yuzaga kelayotgan shart-sharoitlar bilan belgilanib, narxlar darajasi va muomalada yurgan pullar soniga bog' liq bo' lmaydi. Shubhasiz, bozor xo' jaligi hukmronlik qiladigan sharoitda bunday qoidalar yaqqol noreal tus kasb etadii. Qiymat konuni va uning muomala doirasida yuzaga chikish shakli - pul muomalasi konuni tovar-pul munosabati mavjud bulgan barcha ijtimoiy formatsiyalarga xosdir. kiymat shakllari va pul muomalasi tarakkiyot yo' lini taxlil kilayotib, KMarks pul muomalasining qonunini ochdi. Bu qonunga asosan momala vositasi funktsiyasini amalga oshirish uchun kerak bolgan pul miqdori aniklanadi. Metallik pul muomalasida muomaladagi pul miqdori stixiyali tarzda, pullarning xazina funktsiyasi yordamida tartibga solib turilgan: agar pulga ehtiyoj kamaysa, ortikcha pullar (oltin tanga) muomaladan xazinaga okib o' tishi kuzatilgan va aksincha. Shunday qilib, muomaladagi pul miqdori kerakli darajada ushlab turilgan. Keyinchalik muomalaga banknotalar chiqarilishi va ularning metallar (oltin yoki kumush)ga erkin almashinishi muomalada pulning ortiqcha miqdori bo' lishini inkor

etadii. Agar muomalada oltinga almashinmaydigan banknotalar yoki qog' oz xar (xazina biletleri) amal qilsa, u xolda naqd pul muomalasi pul muomalasi konuniga asosan amalga oshadi. Qog' oz pullar miqdori muomala uchun kerak bo' lgan oltin pullarning miqdoriga teng bo' lganda pul muomalasida xech kanday salbiy jarayonlar yuz bermaydi. Yuqorida ko' rsatilgan talab pulning barqarorligini ta' minlaydi, shuningdek pul muomalasi mavjud bo' lgan barcha ijtimoiy formatsiyalarda o' z kuchiga ega. Pul muomalasi qonuni muomaladagi tovarlar massasi, ularning narxi va pul muomalasi tezligi orasidagi iqtisodiy aloqadorlikni aks ettiradi. Shunday qilib, muomala uchun zarur bo' lgan pul miqdoriga ishlab chiqarish rivoji va shart-sharoitlariga bog' lik bo' lgan turli xil omillar ta' sir ko' rsatadi. Muomala uchun zarur bo' lgan pul miqdoriga ta' sir ko' rsatuvchi asosiy omil - bu tovarlar va xizmatlar baxosi xisoblanadi. Pul miqdori tovarlar va xizmatlar bahosiga tug' ri proportsional, ya' ni tovarlar va xizmatlar baxosining oshishi muomalaga ko' p pul chiqarishni talab qiladi. Pul miqdoriga ta' sir qiluvchi ikkinchi omil - bu pulning aylanish tezligi xisoblanadi. Bu omil pul miqdoriga teskari ta' sir ko' rsatadi. Odatda pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zarur bo' lgan pul mikdori shuncha kam talab qilinadi va aksincha. Muomala uchun zarur bo' lgan pul miqdorini boshqarishda shu muxim omillarga aloxida e' tibor berilishi zarur. Muomala uchun zarur bo' lgan pul miqdorini kamaytirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish muximdir. Bular: iste' mol kreditni rivojlantirish; kreditga qanchalik ko' p tovar sotilsa, shuncha kam miqdorda pul muomalada kerakbo' ladi;

- naqd pulsiz xisob - kitoblarning rivojlanishi;
- pullarning muomala tezligini oshirishga erishish va boshqalar.

Xar bir jamiyat pul muomalasi qonuni talablarini xisobga olgan xolda ish yuritishi zarur. Chunki pul muomalasi qonunining buzilishi pul barqarorligiga putur etkazadi. Bu xolda muomalaga chiqarilgan pul miqdori muomaladagi tovarlar baxosidan oshib ketishi, ya' ni inflyatsiya bo' lishiga, yoki pul ocharchiligiga (etishmovchiligiga) olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pul muomalasini ushlab turish shart-sharoitlari va qonuniyatlari ikki omilning o' zaro ta' siri bilan, ya' ni:

Xo' jalikning pulga bo' lgan ehtiyoji va amalda pullarning muomalaga borib tushishi bilan belgilanadi. Amaliyotda ko' proq uchraydigan hol bu oborotda

xo' jalikka kerak bo'lganidan ko'proq pulning bo'lishidir. Bu albatta, pulning qadsizlanishiga - pul birilgining xarid qobiliyatining tushushiga olib keladi.

Pul multiplikatori va uning mohiyati.

Pul bazasi (yuqori-kuchga ega pullar) muomaladagi pullar C qo'shilgan bank tizimidagi umumiy zaxira R ga teng bo'ladi. Pul bazasi MB quyidagicha ifodalanadi:

$$MB = C + R$$

Federal Zaxira 100 million \$ mablag'ni 100 million \$ qiymatdagi qimmatli qog'ozlarga ayirboshladi, va uning buxgalteriya yozuvi quyidagicha bo'ladi:

Ushbu holatda ochiq bozor siyosatining sof ta'siri shundaki, zaxiralar o'zgarmas bo'lsa, muomaladagi pullar ochiq bozordagi sotib olish tufayli \$100 millionga ko'payadi. Natijada, ochiq bozordagi savdo tufayli pul bazasi \$100 millionga ko'payadi, zaxiralar esa yo'q. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ochiq bozordagi savdoning zaxiralarga ta'siri obligatsiyalarni sotuvchining o'z daromadini depozitda yoki pul ko'rinishida saqlashiga bog'liq bo'ladi. Agar daromad pul ko'rinishida saqlansa, ochiq bozorning zaxiralarga hech qanday ta'siri bo'lmaydi; agar daromad depozitda saqlansa, zaxiralar ochiq bozordagi savdo miqdoricha ko'payadi. Shunga qaramay, obligatsiyalarni sotuvchi o'z daromadini xoh pul ko'rinishida saqlasin, xoh depozitda, ochiq bozorning pul bazasiga ta'siri doimobir xilda bo'ladi (pul bazasi sotuv miqdorida ko'payadi). Ochiq bozor sotuvining zaxiralarga ta'siri uning pul bazasiga ta'siridan ko'ra bir muncha noaniqdir. Ochiq bozor sotuvi. Agar Federal Zaxira \$100 millionlik obligatsiyalarini banklarga yoki nobank shaxslarga sotsa, pul bazasi \$100 millionga kamayadi. Masalan, Federal Zaxira obligatsiyalarini jismoniy shaxslarga naqd pulga sotadigan bo'lsa, sotib oluvchilar \$100 million mablag'larini \$100 millionlik qimmatli qog'ozga almashtiradi. Va uning buxgalteriya yozuvi quyidagicha bo'ladi: 100 million dollarlik miqdordagi obligatsiyalarning ochiq bozor operatsiyalari orqali sotilishi natijasida zaxiralar doimiy holda saqlanadi deb faraz qilinsada, pul bazasining tang miqdorlarda kamayib borishiga erishiladi.

Obligatsiyalarning xaridorlari banklar sanalganda, yoki sotib oluvchilar mahalliy bankda chekli deposit hisobraqamiga ochilgan cheklar orqali obligatsiyalarni sotib olish uchun pul to'lovlarini amalga oshirish jarayonida T korinishdagi buxgalteriya hisobraqamlari ustidan nazoratni amalga oshirish pul bazasida 100 million dollar miqdordagi kamayishga sabab bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, kamayish darajasi sodir bo'lib turadi, chunki zaxiralar darajasi 100 million dollargacha tushib boradi. Ochiq bozor savdolari va xaridlari tahlilidan quyidagi xulosa kelib chiqishi mumkin: Pul bazasi bo'yicha ochiq bozor operatsiyalarining natijasi zaxiralarga oid bo'lgan natijalarga qaraganda ancha aniqroq tasavvur qilinadi. Shuning uchun Federal Zaxira Tizimi pul bazasini ochiq bozor operatsiyalari orqali samaraliroq tartibga sola oladi, chunki bunda natijaga zaxiralarni nazoratga olish orqali erishish samarasiz sanaladi.

Ochiq bozor operatsiyalari davlat obligatsiyalari singari boshqa aktivlar shaklarida ham amalga oshirilishi mumkin va bunda ham shu kabi operatsiyalar pul bazasiga bir xil ta'sir etadi.

Depozitdan valyutaga o'tish (almashinish)

Federal zaxira tizimi ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirmasa, depozitning valyutaga almashinishi bank tizimida zaxira miqdori darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shunday bo'lsada bu kabi almashish pul bazasiga ta'sir o'tkazmaydi, chunki buning sababi FZT zaxiralarga qaraganda pul bazasiga ko'proq e'tibor qaratadi hamda nazoratni amalga oshiradi. Masalan, faraz qilaylik rodjestvo bayrami arafasida aholi sovg'alari sotib olishni nazarda tutib ko'proq valyutaga ehtiyoj sezsin hamda naqd shaklda 100 million dollarlik pulni schyotidan yechib olsin. Nobank aholining T hisobvarag'i quyidagi natijaga ega bo'ladi: FZT nuqtayi nazaridan olib qaralganda, aholining harakat natijasi shuni anglatadiki, 100 million dollarlik qo'shimcha valyuta aholi qo'lida aylanayotgan bir vaqtda bank tizimida zaxiralar miqdori 100 million dollargacha tushib ketadi. FZT ning T hisobi quyidagi ko'rinishga keladi: FZTning pul majburiyatlariga oid sof ta'siri yuvilib ketadi; pul bazasiga aholining naqd pulga bo'lgan talabining oshishi orqali ta'sir ko'rsatilmaydi. Ammo bundan farqli o'laroq, zaxiralar bunga ta'sir etadi. Zaxira miqdorining bir oz miqdorlarda o'zgarib turishi depozitdan valyutaga o'tish yoki aksincha hollarda vujudga keladi. Shunga

o' xshash holatlar pul bazasi uchun tatbiq etilmaydi, chunki u muqarrar o' zgaruvchi sifatida olinadi.

Moliyaviy institutlarga qarzlar.

Bizning yuqoridagi mulohazamiz pul bazasining ikkita asosiy xususiyatlarini ifodalaydi: ochiq bozor operatsiyalari va moliyaviy institutlarga qarz berish. Bunda ochiq bozor operatsiyalaridagi xarajatlar yoki sotish hajmi Fed tomonidan qimmatli qog' ozlardagi dilerlarga buyruqlar berish bilan to' liq boshqariladi, markaziy bank buni mustaqil belgilay olmaydi, shuning uchun Fed dan olish mumkin bo' lgan qarzning miqdorini oldindan aytib bera olmaydi. Federal Zaxira diskont stavkani qo' llaydi(banklarga beriladigan kreditlarning foiz stavkalari), keyin banklar qarz berish haqida o' z qarorlarini qabul qilishadi. Fed ning diskont stavkasi ta' sir qiladigan qarz berish miqdori to' liqligicha Fed tomonidan boshqarilmaydi; banklarning qarorlari ham ahamiyatga ega.

Shuning uchun, biz pul bazasini ikkita tarkibiy qismga bo' lishimiz darkor: biri Fed tomonidan to' liq nazorat qila olinadi hamda boshqasi biroz kamroq boshqariladi. Biroz kamroq boshqariladigan tarkibiy qism bu Fed tomonidan bazaning kreditlar orqali boshqarilishidir. Bazaning qoldiq qismi(qarz berilmagan pul bazasi) Fed ning nazorati ostidadir, chunki uning natijalari asosan ochiq bozor operatsiyalaridan kelib chiqadi⁵⁹. Qarz olinmagan pul bazasidan Feddan olingan qarzlarini ayirish orqali kelib chiqadi, u qarzga olingan zaxiralar deb ataladi:

$$MB_n = MB - BR$$

Bunda: MB_n =qarzga olinmagan pul bazasi

MB =pul bazasi

BR = Fed dan qarzga olingan zaxiralar

Fed tomonidan boshqarilmaydigan omillar(masalan, Fed bilan suzuvchanlik va G' aznachilik depozitlari) qisqa muddatli variatsiyalarni yuzaga keltiradi va hafta kabi qisqa muddatda pul bazasidagi o' zgaruvchanlikning asosi bo' lishi mumkin. Biroq, ushbu o' zgaruvchanliklarni oldin aytib berish mumkin hamda ochiq bozor operatsiyalari bo' yicha muvofiqlashtirilishi mumkin. Fed bilan suzuvchanlik va G' aznachilik depozitlari qisqa muddatli o' zgaruvchanlikni

yuzaga keltirsada, bunda ular pul bazasini boshqarishni qiyinlashtiradi, ular Fed tomonidan aniq boshqarishga to'g'ri qila olmaydi.

Oddiy modelning kamchiliklari

Bizning ko'proq deposit yaratish modelimiz ko'rsatadiki FZT zaxira normasini va majburiy zaxira stavkasini o'rnatish orqali chekli depozitlar ustidan butunlay nazorat qila oladi. Agar A bankning 90 million dollar kreditidan daromadi deposit qilinmasa, ammo valutada saqlansa, bank B ga hech qanday deposit qo'yilmaydi va deposit yaratish jarayoni to'xtaydi. Pul massaidagi umumiy ko'payish Birinchi Milliy Bank A bankka depozitga qo'yilgan kreditlari umumiy miqdori 190 million dollar, yuqorida hisoblangan oddiy modeldagi 1000 million dollarga qaraganda ancha kam, tomonidan yaratilgan boshlang'ich 100 million dollar deposit hamda valutadagi 90 million dollar ko'payishidir. Boshqacha qilib aytganda, depozitlar ko'payganda valutadagi pullar deposit ko'payganek ko'paymaydi. Shunday qilib, agar kreditdan keladigan daromadlar banklarga depozitga qo'yish o'rniga valuta boyliklarini oshirish uchun ishlatilsa, pul taklifi oshmaydi.

Yana bir vaziyatda esa banklar ortiqcha zaxiralari to'g'ri qiymatda kredit bermaydi yoki qimmatli qog'ozlar sotib olmaydi. Agar A bank o'zini ortiqcha 90 million zaxirasini hammasini B bankka deposit qo'ymasdan va bu deposit yaratish jarayonini to'xtatadi. Umumiy o'zgarish depozitlarda 100 million dollar bo'lishi mumkin bizning misolimizdagi 1000 million emas. Chunki agar banklar o'zlarini ortiqcha zaxiralarini qisman yoki to'g'ri ushlab turishga qaror qilsa, depozitlar yaratishni oddiy modelida taxmin qilingan depositlarni oshishi sodir bo'lmaydi.

Bizning misolimiz ko'rsatadiki Federal zaxira pul massasi va depozitlar hajmiga tasir qiladigan yagona subyekt emas.

MAVZU: O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning elementlari

REJA:

1. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning elementlari
2. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning rivojlanishi
3. Milliy valyuta so‘mning muomalaga kiritilishi.
4. Pul tizimi barqarorligini ta‘minlash yo‘llari.

Tayanch sozlar: pul tizimi, milliy valyuta, xalqaro kredit, valyuta munosabatlari, pul agregati, naqd pul aylanmasi

O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlari

Milliy valyuta tizimi mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, valyuta munosabatlarining yig‘indisi sifatida maydonga chiqmaydi, balki ushbu munosabatlarni faqat qonunchilik aktlari bilan tashkil etilish tartibini belgilaydi. Valyuta munosabatlarini tashkil etishning bunday tartibi birinchi navbatda valyuta tizimi elementlarini belgilashni o‘z ichiga oladi.

Milliy valyuta tizimining qonunchilik asosida belgilanadigan elementlariga quyidagilar kiradi:

Milliy valyuta va uning nomi;

Milliy valyuta paritetini belgilash;

Milliy valyutaning konvertatsiya shartlari;

Milliy valyuta kursining rejimi;

Xalqaro kredit muomala qurollaridan foydalanishni tartibga solish (reglamentatsiya);

Xalqaro zahira aktivlari tarkibiy qismlari (komponentlari) o‘rtasidagi nisbatni aniqlash;

Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblarini tartibga solish (reglamentatsiya);

Milliy valyuta va oltin bozorlari faoliyatining rejimi;

Valyuta cheklanishlarining o‘rnatilish tartibi;

Valyuta munosabatlariga xizmat ko‘rsatuvchi va ularni muvofiqlashtiruvchi milliy organlar maqomi.

Yuqorida zikr etilgan elementlar yig' indisi xalqaro valyuta-kredit va hisob-kitob munosabatlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan belgilanadigan valyuta mexanizmidir.

Milliy valyuta va uning nomi milliy valyuta tizimining asosi bo' lib hisoblanadi, u qonun asosida davlatning pul birligi sifatida belgilanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishlatiladigan milliy pullar valyutaga aylanadi. Xalqaro hisob-kitoblarda odatda xorijiy valyuta, ya' ni boshqa mamlakatlarning erkin muomalada yuradigan valyuta maqomiga ega pul birliklari ishlatiladi. Ushbu pul birliklari bilan deviz tushunchasi bog' liq.

O' zbekiston Respublikasi pul tizimining rivojlanishi.

O' zbekiston Respublikasining zamonaviy pul tizimi 1994-yil 1-iyulda milliy valyuta muomalaga kiritilgandan so' ng shakllandi. Chunki milliy valyuta har qanday mamlakat pul tizimining asosiy elementi hisoblanadi. Kurs Respublika valyuta birjasida aniqlanadi. O' zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solish to' g' risida qonuniga ko' ra so' mning kurs rejimi erkin suzish rejimidir, ya' ni so' mning nominal almashuv kursini AQSh dollariga bo' lgan talab va taklifga qarab aniqlanishini bildiradi. O' zbekiston Respublikasi Markaziy banki to' g' risidagi qonunning 23-moddasiga muvofiq hamda O' zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-fevralidagi 63-sonli qaroriga muvofiq O' zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul massasining o' sishini nazorat qiladi. Bunda M2 pul agregati nazorat obekti sifatida olingan. O' zbekistonda Markaziy bank pul tizimini tartibga soluvchi rasmiy organ hisoblanadi. O' zbekistonda pul tizimi to' g' risidagi maxsus qonun 1993-yilda bekor qilingan, shu sababli hozirgi kunda pul tizimining me' yoriy huquqiy asoslari bo' lib, quyidagi qonunchilik hujjatlari hisoblanadi.

1. O' zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi
2. O' zbekiston Respublikasining Markaziy banki to' g' risidagi qonun
3. O' zbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati to' g' risidagi qonun

4. O'zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonuni (1-marta bu qonun 1993-yil 7-mayda qabul qilingan, 2003-yil 11-dekabrda esa Valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonun yangi tahrirda qabul qilindi)

O'zbekiston respublikasi pul tizimida naqd pul aylanmasini tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodchi olimlarning naqd pul aylanmasiga bag'ishlangan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki respublika naqd pul aylanmasi bilan iqtisodiy faollik o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud.

Naqd pullarga bo'lgan talabni qisqartirish maqsadida respublikada plastik kartochkalar muomalasini rivojlantirishga ustuvor yo'nalish deb qaralmoqda. Muomaladagi milliy pul birliklarining barchasi banknotalar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi pul emissiyasi sohasida hech qanday vakolatga ega emas.

Har bir jamiyatda pulga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishi iqtisodiy va ijtimoiy o'sishni rag'batlantiradi, pul qadrlarining tushishi esa tartibsizlikka, jamiyat rivojlanishida boshqa to'qinliklar bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Pulning barqarorligi deganda, pulning sotib olish qiymati-ning o'zgarmasligi va valyuta doimiyligi tushuniladi. Pulning sotib olish qobiliyati shu pul birligiga to'g'ri keluvchi tovar va xizmatlar miqdori bilan ifodalanadi. Binobarin, pulning sotib olish qobiliyatini ifodalovchi «ko'rsatkich» tovarlar va xizmatlar bahosi hisoblanadi. Agar tovar va xizmatlar bahosi barqaror bo'lsa, pulning sotib olish qobiliyati ham barqaror bo'ladi. Agar pul o'zgarmagan sharoitda tovarlar bahosi oshadigan bo'lsa, bu hol pulning sotib olish qobiliyati tushganini ko'rsatadi va aksincha, tovar va xizmatlar bahosining tushishi pulning sotib olish qobiliyatini oshganligidan dalolat beradi.

Demak, pulning qadri tovarlar va xizmatlar bahosiga teskari proportsional – narx pasaysa, pul qadri oshadi yoki narx oshsa pulning qadri tushadi.

Pul tovar bo'lganligi uchun ham unga talab va taklif ta'sir qiladi. Pul taklifi muomalaga chiqarilgan turli shakldagi pullarning yig'indisi bo'lib, u talabdan ortiq yoki kam bo'lishi mumkin. Muomalaga chiqarilgan pul miqdori pulning aylanish tezligiga qarab ham o'zgarib turishi mumkin. Pulga bo'lgan talab mamlakat pul aylanmasi asosida aniqlanadi. Pul talabi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, aholi, davlat tashkilotlari olib boradigan naqd pullik va naqd pulsiz aylanma uchun zarur pul

miqdori asosida aniqlanadi. Pulga bo'lgan ehtiyoj xo'jalik sub'ektlari - ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida bo'ladigan pullik jarayonlarning ko'lamiga va tezligiga bog'liq. Pulni qo'llash yo'li bilan bajariladigan jarayonlarning ko'lamiga qancha keng bo'lsa, pulga bo'ladigan talab shuncha ko'p bo'ladi. Agar pul bilan bog'liq operatsiyalar tez bajarilsa, pulga bo'lgan talab shuncha kam bo'ladi demak, muomalaga kam pul chiqarish kerak bo'ladi. Pulga bo'lgan taklif va talabning tengligi pul muvozanatini bildiradi. Pulga bo'lgan taklif, unga bo'lgan talabdan oshmasa pul barqaror deb xulosa qilish mumkin, aksincha bo'lsa, pulning qadri tushib ketadi va puldan qochish jarayoni boshlanadi. Amaliyotda pulni jamg'argandan ko'ra uni tovarlarga aylantirib qo'yish yoki boshqa bir qadrliroq valyutani jamg'arish qulay bo'lib qoladi.

Pulning barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan yana biri byudjet taqchilligining bo'lmashligidir. Davlat byudjeti xarajatlarning daromadlaridan oshib ketishi natijasida yuzaga keladigan byudjet taqchilligi muomalaga tovarlar bilan ta'minlangan pullar chiqarish hisobidan qoplanadi. Bu tadbir muomalada ta'minlangan pulning ko'payishiga, oqibatda pul qadrining tushib ketishiga olib keladi. Shuning uchun har bir mamlakat pul taqchilligi bo'lmashligiga yoki uning salmog'i sezilarli bo'lishiga erishishi kerak. Pulning barqarorligini ta'minlashning yana bir yo'nalishi bu oltin va valyuta zaxiralarining mavjudligi va ularning ko'payishidir. Oltin valyuta zaxiralarining salmog'i qancha ko'p bo'lsa, pul shuncha barqaror bo'lishi mumkin.

Milliy valyutani mustahkamlashning yana bir sharti – inflyatsiyaga qarshi puxta o'ylangan siyosat yuritishdir. Muomalaga chiqarilgan har bir so'm muayyan miqdordagi tovar va xizmatlar bilan ta'minlangan bo'lishi zarur. Ichki bozorimizni tovarlar bilan to'ldirish, aholiga xizmat ko'rsatishning sifati va turlarini oshirish ham milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashning asosi hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir davlat o'zining pul tizimiga ega bo'ladi. O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida ajralib chiqishi uning mustaqil pul tizimiga ega bo'lishini taqozo qildi. Mustaqil pul tizimi joriy qilinishining I bosqichi 1993 yildan boshlab «so'm-kupon»larning muomalaga chiqarilishi hisoblanadi. O'zbekiston pul tizimini qurishning ikkinchi bosqichi –

1994 yil iyuldan boshlab milliy valyuta—«so' m»ning muomalaga chiqarilishi bo' lib, u O'zbekiston tarixida juda katta ahamiyatga ega.

Har bir davlatning pul tizimi ma'lum elementlardan tashkil topadi va qonun asosida yuqori davlat organlari orqali boshqarib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlari quyidagilar hisoblanadi:

- pul birligining nomi;
- pul birligining turlari - qog'oz va metall pullar;
- ularni muomalaga chiqarish qoidalari;
- pul, kredit, valyuta boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari;
- naqd pulsiz to'lov aylanmasi va kredit pullar (chek, veksel) muomalasini olib borishda davlat tomonidan belgilangan shartlar;
- milliy valyutani chetga olib chiqish va chetdan olib kelish qoidalar;
- xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari;
- milliy valyutani chet el valyutasiga almashtirish tartibi va davlat tomonidan o'rnatilgan valyuta kursi.

Alohida olingan davlatning pul tizimi o'z xususiyatlariga ega bo'lib, uning elementlari u yoki bu tomonga o'zgarishi mumkin.

Pul tizimi ijtimoiy hayotning ko'zgusi hisoblanadi, desak xato bo'lmasa kerak. Shuning uchun ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni pul tizimini ob'ektiv talablar, ya'ni pul tizimining yagona bo'lishi, pul birligi qiymatining doimiyligi va pul muomalasining talabga qarab o'zgarib turishi kerakligini qo'yadi.

Sobiq SSSRning davlat sifatida tarqalib ketishi markazlashgan pul tizimining ham tugashiga olib keladi. Natijada ba'zi respublikalar rublni milliy valyutasi sifatida ishlatib turgani holda, o'z pul siyosatini olib bordi. Estoniya, Latviya, Litva, Ukraina birinchi bo'lib rubl zonasidan chiqib o'z milliy valyutasini qabul qilishdi. Keyinchalik, Ozarbayjon, Qirg'iziston va Moldaviya respublikalari bu yo'nalishni davom ettirdilar. Rubl tizimida vujudga kelgan tartibsizliklar, milliy valyutalar va kuponlarning muomalaga chiqarilishi, yagona pul–rubl zonasining tugashiga, uning har xil kursga ega bo'lishiga olib keladi. 1992 yil oxiriga kelib Rossiyada tovarlar bahosining oylik o'sishi 25-30 foizgacha ko'tarildi. Moskva valyuta birjasida rubl-

ning nominal qiymati bir dollarga 125 rubldan, 1992 yil dekabrda 485 rublgacha, 1993 yil martda 1 dollar 660 rublgacha tenglashdi. Pul qadrining tushishi, naqd pul etishmovchiligiga, oxiri esa ish xaqi, nafaqalarni to'lashda qiyinchiliklar bo'lishiga olib keldi. SSSR davridagi oxirgi banklar to'g'risidagi qonunga asosan davlat banki o'rniga Markaziy bank, mustaqil davlatlarda Markaziy (yoki milliy) banklar tashkil qilindi.

Sobiq Sovet ittifoqi davlatlari valyutalari 1993 yil, aprel

Respublikalar	Pul birligi va uning kursi
Armaniston	Rubl
Ozarbayjon	Manat va rubl (1manat=10 rubl)
Belarussiya	Rubl va B. Rubli (1 B. Rubli=10 rubl)
Estoniya	Krona (8 kron=1 nemis markasi)
Gruziya	Rubl va kupon
Qirg'iziston	Som (3 may 1993 yildan)
Latviya	Latviya rubli (130 l.r. = AQSh dollari)
Litva	Talonlar (505 talon = 1 AQSh dollari)
Moldaviya	Rubl va kupon
Rossiya	Rubl
Tojikiston	Rubl
Turkmaniston	Rubl
Ukraina	Korbonavets (1 korbonavets=0,3 rubl)
O'zbekiston	Rubl va so'm kupon

Rossiya Markaziy banki pul emissiyasi bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni bajarish huquqini o'z qo'lga oldi. Bundan tashqari, davlat pul belgilarini bosib chiqaruvchi muassasa Rossiyada joylashgan edi. Mustaqil davlatlar Markaziy banklarining pul muomalasini olib borish bo'yicha harakatlari cheklagan edi. Natijada pul taqchilligi

yuzaga keldi va u alohida olingan respublikalarda har xil darajada namoyon bo' ldi. Masalan, Rossiya Markaziy banki muomalaga chiqargan pullarda Rossiyaning salmog' i 1991 yil dekabrda 64 foizni tashkil qilgan bo' lsa, 1992 yil iyunga kelib emissiyaning 77 foizi Rossiyani naqd pul bilan ta' minlashga yo' naltirilgan. Qolgan barcha Respublikalarni naqd pul bilan ta' minlash uchun muomalaga chiqarilgan pullarning faqat 23 foizigacha sarflangan, ya' ni boshqa respublikalar ehtiyojini pul bilan ta' minlash salmog' i tushib ketgan. Masalan, Belorussiya, Gruziyaning salmog' i 3 foizdan 1,5 foizgacha, Ukraina va Boltiqbo' yi respublikalarining salmog' i yanada ko' proq qisqargan. O' zbekistonda ham pul resurslari taqchilligi naqd pulga bo' lgan talabning qondirilmaganligida namoyon bo' lgan. Shu iqtisodiy tanglik sharoitida pul tizimini shakllantirish bo' yicha mustaqil davlatlar oldida ikki muhiy yo' l turardi.

- Yagona pul tizimi zonasi – rubl zonasida qolish va yagona pul siyosatini olib borish;
- O' z milliy valyutasini muomalaga chiqarib, o' z pul tizimiga ega bo' lish va qo' shni mamlakatlar inflyatsiyasidan o' zini himoya qilish.

Pul taqchilligi davom qilayotgan va Rossiya rubllari barqaror bo' lmagan sharoitda pul taqchilligini yo' qotish maqsadida ko' pgina respublikalar, jumladan, O' zbekistonda ham mustaqillikning birinchi yillarida pul tizimini shakllantirish loyihasi tuzildi. Yuqorida ta' kidlaganimizdek, muomalaga kupon talonlar chiqarildi va keyinchalik O' zbekiston o' zining milliy valyutasini muomalaga chiqardi.

O' zbekiston milliy pul tizimining asosiy elementi bo' lmish so' m jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Shuning uchun pul tizimining asosiy vazifasi milliy pulimizning qadrini mustahkamlashdan iborat. Bu juda mas' uliyatli va oson bo' lmagan vazifa. O' zbekistonning o' z iqtisodiyotini bozor talablariga mos ravishda rivojlantirishga qaratishi, bozor iqtisodiyotiga o' tishda mamlakatimizning o' ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi milliy valyutaning barqaror bo' lishini taqozo qiladi.

Hozirgi kunimiz, iqtisodiyotimizning rivojlanishida amalga oshirilayotgan iqtisodiy jarayonlar, katta qurilishlar va moliyalashtirishlar O' zbekiston iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun to' g' ri yo' l tanlaganini ko' rsatib turibdi. Zero, mustaqil pul tizimiga ega bo' lmasdan iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat barpo etish mumkin emas.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlarini yoriting?
2. O'zbekiston Respublikasi pul tizimining rivojlanish bosqichlarini ochib bering?.
3. *Sobiq Sovet ittifoqi davlatlari valyutalari haqida ma'lumot bering?.*

6-mavzu. Inflyatsiya va unga qarshi kurashish yo' llari

R E J A:

- 6.1.** Inflyatsiya tushunchasining mazmuni. Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi sabablar.
- 6.2.** Inflyatsiyaning turlari haqida tushuncha.
- 6.3.** Inflyatsiya manbalari. Inflyatsiya va ishsizlik
- 6.4.** Inflyatsiya va davlat budjeti.

Tayanch iboralar: Inflyatsiya, ishsizlik, davlat budjeti, pulni xarid quvvati, baholarni o' sishi, pul miqdorini o' sishi, talab, taklif, sokin, iqtisodiy oqibatlar.

Inflyatsiya tushunchasining mazmuni. Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi sabablar.

Inflyatsiya XVIII asrning o' rtalirida muomalaga ta' minlanmagan juda ko' p miqdorda pul chiqarishi natijasida pul tizimidagi inqiroz holat asosida yuzaga chiqqan. Inflyatsiya (lotincha «inflation» so' zidan olingan va shishish, ko' pchish, ko' tarilish ma' nosini anglatadi) o' z mohiyatiga asosan pulning qadsizlanishi, tovar va xizmatlarga bo' lgan baholarning muntazam ravishda oshib borishi jarayonini anglatadi. Shuni ta' kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlar tajribasi inflyatsiya nisbatan me' yor darajasidagi pul massasi holatida ham yuzaga chiqishi mumkin. Hozirgi zamon inflyatsiyasi nafaqat tovarlar va xizmatlarga bo' lgan baholarni muntazam o' sishi natijasida pulning sotib olish qobiliyatini pasayishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonidagi nomutanosiblik, pul muomalasi, moliya hamda kredit sohasidagi salbiy omillar bilan tasniflanadi. Inflyatsiyaning yuzaga chiqishining asosiy sabablari bo' lib iqtisodiyot tarmoqlari, jamg' arma va iste' mol, talab va taklif, davlat daromadlari va xarajatlari, xo' jaliklarning pul massasi va unga bo' lgan talabi o' rtasidagi mutanosiblik hamda markaziy bankning kredit ekspansiyasi hisoblanadi. Ushbu ta' kidlab o' tgan omillar o' z mohiyatiga asosan inflyatsiyaga, uning darajasiga turlicha ta' sir etishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda inflyatsiyaning narxlarini o' sishi, ya' ni pullarning miqdori o' sishi jixatidan asosan uch shaklini ajratiladi:

1. Sokin (polzuchaya, umerennaya) inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ushbu holatda mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga o'rtacha 3% dan 10% gacha oshishi mumkin. Bu mamlakatlarda muomaladagi pul massasi saqlanib turadi va milliy pul birligining xarid qilish qobiliyati saqlanib turadi.

2. Shiddatli (galopiruyushaya) inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ushbu holatda mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga o'rtacha 10% dan 100% gacha ba'zi holatlarda 200% gacha oshishi mumkin. Buning natijasida muomaladagi pul massasi ko'payadi va milliy pul birligining xarid qilish qobiliyati tushadi. Mamlakat aholisi o'rtasida pulning moddiylashtirish, ya'ni milliy pul birligini jamg'arishi emas, balki oltin, ko'chmas mulk holatida jamg'arishi jarayoni kuchayadi.

3. Jilovlanmagan (giperinflyatsiya) inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya holatida mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga 1000% dan ortiq yoki oyiga 100% dan ortiq darajada oshadi. Ushbu holatda milliy iqtisodiyotda inqiroz yuzaga chiqadi. Buning natijasida ishlab chiqarish va bozor boshqaruvsiz faoliyat ko'rsataditi, narx-navo va ish haqi o'rtasidagi farq ortadi. Mamlakat aholisi qo'lidagi qog'oz pullarga tovarlar sotib oladi. Bu holat esa muomalada tovar massasi bilan tovar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan ortiqcha qog'oz pullarni to'lib-toshishiga olib keladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, inflyatsiyaning asosiy sababi odatda bir emas, balki bir nechta bo'lib o'zaro mahkam bog'langan bo'ladi va narx-navoning ko'tarilib borishi bilangina namoyon bo'lib qolmaydi, balki narx-navoni boshqarilishiga ham bog'liq bo'ladi. Ushbu jixatdan quyidagi inflyatsiya shakllari ajratiladi:

1. Oshkora inflyatsiya. Talab tomoniga qaragan makroiqtisodiy tengsizlik doimiy ravishda narx-navoning ko'tarilib borishi bilan ifodalanadigan bo'lsa, bunday inflyatsiya oshkora inflyatsiya deb ataladi. Oshkora inflyatsiya bozor mexanizmini buzmaydi: narx-navo ba'zi bozorlarda ko'tarilishi bilan bir vaqtda boshqa bozorlarda

pasayib borishi mumkin. Buning asosiy sababi shundan iboratki, bozor mexanizmlari o'z ta'sirini davom ettirib, milliy iqtisodiyotga baholar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkora etkazib turadi, investitsiyalarni ilgari surib, ishlab chiqarishning kengayishi bilan taklifni rag'batlantirib boradi.

2. Yashirin inflyatsiya. Inflyatsiyaning ushbu turi shunday ko'rinishda bo'ladiki, bunday holatda ba'zi bir iste'mol mahsulotlariga narx-navo ma'muriy tarzda davlat tomonidan o'rnatiladi va tartibga solib turiladi. Bundan asosiy maqsad, davlat tomonidan ba'zi mahsulotlarga narx-navoni «ijtimoiy past» darajada belgilaydi. Yashirin inflyatsiya sharoitida narx-navoning keskin o'sishi kuzatilmasligi mumkin. Lekin milliy pul birligining qadrsizlanishi, mahsulotlar aholi pul mablag'lariga kerakli mahsulotlarni harid qilib bo'lmamasligi holatlari paydo bo'ladi.

Iqtisodiyotda yashirin inflyatsiya yuzaga chiqqanda mahsulotlarning narx-navosi hamda aholini daromadlarini o'sishi vaqtincha to'xtatiladi. Yashirin inflyatsiyaning vujudga kelishini asosiy sabablaridan biri bu narxlar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatishdir. Buning natijasida bozor mexanizmi deformatsiyalanadi. Uning qaysi darajada va o'zgarganligi darajasi va davomiyligi davlat tomonidan olib boriladigan siyosatga hamda tartibga solish shakliga bevosita bog'liq bo'ladi. Ushbu inflyatsiyaning salbiy tomoni shundan iboratki, inflyatsiya davrida ishsizlik darajasi oshadi, chunki ishlab chiqarish rivojlanmaydi.

Har bir mamlakatda inflyatsiya mavjudligi undagi iqtisodiy holatning yomonlashuviga sabab bo'ladi. Ushbu salbiy holatlar quyidagi yo'nalishlarda yuzaga chiqadi:

1. Ishlab chiqarish xajmi qisqaradi, chunki narx-navolarning doimiy tarzda tebranib turishi ishlab chiqarishni rivojlantirishga bo'lgan istiqbollarga ishonchni yo'qotishga olib keladi;

2. Ishlab chiqarish sohasidagi kapital savdo va vositachilik operatsiyalariga oqib o'tishi kuzatiladi. Chunki savdo va vositachilik sohalarida kapital aylanishi tez amalga oshadi va katta foyda keltiradi. Inflyatsiya yuqori bo'lgan davrda aholi o'rtasida puldan qochish holati kuzatiladi, ya'ni kishilar qo'llaridagi pullardan imkoniyat darajasida

tezroq sarflashga harakat qiladilar. Ular pullarga turli tovarlar sotib oladilar. Buning natijasida savdo va vositachilik do' konida tovarlar tez sotiladi;

3. Narx-navoning keskin va notekis o' zgarishi natijasida chayqovchilik kengayadi. Inflyatsiya natijasida tovar tanqisligi (defitsit) yuzaga chiqadi. Ushbu taqchillik narx-navoning keskin ko' tarilishiga olib keladi;

4. Davlat moliya resurslari qadrsizlanadi. Davlat byudjeti daromadlari byudjet xarajatlari amalga oshirilguncha qadar davrda qadrsizlanadi. Byudjet daromadlari va xarajatlari o' rtasidagi mutanosiblikni saqlash qiyinlashadi va buning natijasida byudjet taqchilligi (defitsiti) yuzaga chiqadi;

Mamlakatda kredit operatsiyalari cheklanadi. Chunki inflyatsiya darajasi tufayli yuridik va jismoniy shaxslarga tijorat banklaridan beriladigan kreditlarning foiz darajasinig yuqori darajada o' rnatiladi. Ushbu salbiy holat ishonchni pasaytiradi.

Inflyatsiyaning eng asosiy ijtimoiy oqibati bo' lib daromadlar va boyliklarni qayta taqsimlanishi amalga oshishi hisoblanadi. Ushbu qayta taqsimlanishi quyidagi omillar natijasida amalga oshadi:

- mamlakat aholisining daromadlari indeksatsiya qilinmasligi;
- tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar baholar indekslarining o' zgarishini hisobga olinmagan holda berilishligi.

Inflyatsiya shart-sharoitlarida mamlakatda ichki mahsulot va milliy daromad quyidagi yo' naliqlarda qayta taqsimlanadi:

- 1) Milliy iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish sohalari va mamlaat xududlari o' rtasida narx-navoning notekis o' sishi natijasid;
- 2) Mamlakat aholisi va davlat o' rtasida. Bunda davlat tomonidan muomaladagi ortiqcha pul massasidan qo' shimcha daromad sifatida foydalanadi. Xalqaro amaliyotda bu inflyatsion soliq deb nomlanadi;
- 3) Mamlakat aholisining sinflari va turli toifalari o' rtasida.

Maxsulotlar va xizmatlarga bo' lgan narx-navoning notekis o' sib ketishi natijasida aholi o' rtasida ijtimoiy toifalarga bo' linishini (boylar, kambag' allar, qashshoqlar), mulkiy holatidagi farqni chuqurlashuviga, jamg' armalar va joriy iste' molning keskin o' zgarishi yuzaga chiqadi. Inflyatsiyaning ijtimoiy salbiy ta' siri eng avvalo qat' iy

belgilangan daromadlari oluvchi shaxslar hisoblangan – nafaqaxo'rlar, nogironlar, ko'p farzandli oilalar va davlat xizmatchilari (o'qituvchilar, vrachlar, bog'cha xodimlari va boshqalar) uchun juda og'ir kechadi;

4) Debitorlar va kreditorlar o'rtasida. Ushbu holatda olingan qarzlarni pul qadrsizlanishi natijasida debitorlar daromad oladi va buning aksi, kreditorlar qo'shimcha zarar ko'radi.

Inflyatsiya manbalari. Inflyatsiya va ishsizlik

Jaxonning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida inflyatsiyaga qarshi kurash olib borishda juda katta nazariy va amaliy tajriba to'plangan. Inflyatsiyani butunlay yo'qotish imkoniyati yo'q. Chunki uni yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan omillarni (ichki va tashqi, pullik va pulsiz) to'liq yo'qotish mumkin emas. Shuning uchun hozirgi davrda eng asosiy maqsad inflyatsiyaning butunlay yo'qotish emas, balki uni boshqaruvchan qilish va uning salbiy iqtisodiy – ijtimoiy oqibatlarini zaiflashtirish hisoblanadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida hukumat tomonidan mavjud iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda inflyatsiyaga qarshi turli antiinflyatsion siyosatni ishlab chiqaradilar va uni amalga oshiradilar. Davlat tomonidan antiinflyatsion siyosatni olib borishda turli chora-tadbirlar hisoblangan byudjet, ijtimoiy, soliq, baho, kredit-moliya, sanoat-investitsiya, tashqi iqtisodiy va emissiyani amalga oshiradilar.

Byudjet siyosati – bu davlatning asosiy iqtisodiy siyosati hisoblanadi va uning asosiy maqsadi mamlakatning aniq belgilangan muddat mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari belgilanadi va amalga oshiriladi. Byudjet siyosati yordamida soliqlar va yig'imgirlar asosida yig'ilgan davlat moliya resurslarini umummilliy vazifalarini bajarish uchun qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi. Byudjet siyosatining asosiy tarkibiy qismi bo'lib ijtimoiy siyosat hisoblanadi. Chunki mamlakatdagi ijtimoiy tadbirlarni moliyalashtirish asosan davlat byudjeti tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq siyosati – bu davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarini bajarishi uchun zarur moliya mablag'larini yig'ish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va mamlakat aholisidan soliqlar, to'lovlar xamda majburiy ajratmalarni belgilash, ularni undirish yuzasidan qonun asosida belgilangan tizimdir.

Baho siyosati – bu mahsulotlar, xizmatlar va to'lovga qobiliyatli talab o'rtnasidagi mutanosiblikga erishish hamda uni tartibga solib turish bilan bog'liq siyosatdir.

Kredit-moliya siyosati – bu Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasi, majburiy zahiralarni me'yori va ochiq bozordagi operatsiyalar orqali mamlakat bank-kredit tizimini boshqarish hamda tartibga solib turishdan iborat.

Sanoat-investitsiya siyosati – bu yalpi ichki mahsulotning o'sishini ta'minlovchi mamlakat sanoat-texnologik qudratini rivojlantirishga qaratilgan siyosatdan iborat.

Tashqi iqtisodiy faoliyat siyosati – bu davlat tomonidan xorijiy mamlakatlar bo'lib tashqi iqtisodiy faoliyatni boj-tarif dastaklari yordamida tartibga solib turishdan iboratdir.

Emissiya siyosati – bu Markaziy bank tomonidan milliy iqtisodiyotning holatiga asosan muomalaga qog'oz pul chiqarish, ularning aylanishini tartibga solish va muomaladagi ortiqcha pullarni aylanmadan chiqarib turishdan iborat siyosatdir.

Dunyoning har bir mamlakatidan hukumat tomonidan antiinflyatsion siyosati mavjud inflyatsiyani tartibga solishga hamda uni o'sish sur'atlarini pasaytirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunday siyosatni olib borishda asosan ikki shakllardan foydalaniladi:

1. Pul islohotlarini amalga oshirish;

2. Inflyatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solib turish;

Pul islohotlari – bu mamlakatdagi pul muomalasini tartibga solish va kuchaytirish maqsadida davlat tomonidan mavjud pul tizimini to'liq yoki qisman o'zgartirishlarini amalga oshirishdir. Mamlakatning iqtisodiy rivojlangan holati, pullarning ta'minlanganligi darajasiga asosan pul islohotlarining revalvatsiya, devalvatsiya va denominatsiya usullaridan foydalaniladi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardan Germaniya Federativ Respublikasi, Isroil va boshqalarda revalvatsiya usulidan foydalanildi. Revalvatsiya o'z mohiyatiga asosan milliy pul birligini xorijiy valyutaga

nisbatan kursini ko' tarib qo' yishdan iborat. Pul islohotining ikkinchi usuli bo' lib devalvatsiya hisoblanadi. Devalvatsiya o' z mohiyatiga asosan milliy pul birligini xorijiy valyutaga nisbatan tushirib qo' yishdan iborat. Devalvatsiya usulidan asosan iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o' tayotgan mamlakatlarda keng foydalaniladi. Pul islohotining uchinchi usuli bo' lib denominatsiya hisoblanadi. Denominatsiya o' z mohiyatiga asosan milliy pul birligidagi ortiqcha nollarni olib tashlab muomalaga yangi pullarni chiqarishdan iborat. Denominatsiya usulida Rossiya (3 dona nolni olib tashladi) va Turtsiya (liradan 6 dona nolni olib tashladi) xukumatlari foydalanishdi.

Inflyatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solib turish o' z mohiyatiga asosan mamlakatda mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko' rsatiladigan xizmatlarga bo' lgan narx-navolarni o' sib borishini cheklash va pul tizimini barqarorlashtirish masadida davlat tomonidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Ushbu chora-tadbirlar ikki yo' naliishda olib boriladi:

- 1) Deinflyatsion siyosat. Ushbu siyosat mamlakatda pulga bo' lgan talabni pul-kredit va moliya mexanizmlari yordamida tartibga solib turiladi. Deinflyatsion siyosat davlat xarajatlarini qisqartirish, kreditlar uchun foiz stavkalarini oshirish, soliq yukini kuchaytirish (soliqlar soni va ularni foiz stavkalarini ko' tarish) va pul massasini cheklashni o' z ichiga oladi. Shuni ta' kidlash lozimki, deinflyatsion siyosat mamlakatdagi iqtisodiy o' sishni sekinlashuviga sabab bo' ladi;
- 2) Daromadlar siyosati. Ushbu siyosat olib borishda davlat tomonidan mahsulotlar, ko' rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlarga bo' lgan narx-navo va ish haqi ustidan birdaniga nazorat etiladi hamda ularni o' sishini ma' lum chegarasi o' rnatiladi yoki butunlay «muzlatib» qo' yiladi. Daromadlar siyosati o' z mohmiyatiga ko' ra qat' iy siyosat hisoblanadi va u aholi o' rtasida norozilikni kelib chiqarishi mumkin. Lekin inflyatsiya bilan kurashishda ayrim mamlakatlarda daromadlar siyosatidan foydalaniladi.
- 3) Xulosa kilib aytganda, ijtimoiy ishlab chikarish rivojlanishida yuzaga keluvchi disproportsiyalar sababli tovarlar va xizmatlar baxosining umumiy yoki tuxtovsiz usishi va natijada pul muomalasi konuniking buzilishi okibatda pul birligining kddrsizlanishiga inflyatsiya deb aytiladi.

Inflyatsiya va davlat budjeti.

Hozirgi zamon inflyatsiyasi nafaqat tovarlar va xizmatlarga bo'lgan baholarni muntazam o'sishi natijasida pulning sotib olish qobiliyatini pasayishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonidagi nomutanosiblik, pul muomalasi, moliya hamda kredit sohasidagi salbiy omillar bilan tasniflanadi. Inflyatsiyaning yuzaga chiqishining asosiy sabablari bo'lib iqtisodiyot tarmoqlari, jamg'arma va iste'mol, talab va taklif, davlat daromadlari va xarajatlari, xo'jaliklarning pul massasi va unga bo'lgan talabi o'rtasidagi mutanosiblik hamda markaziy bankning kredit ekspansiyasi hisoblanadi. Ushbu ta'kidlab o'tgan omillar o'z mohiyatiga asosan inflyatsiyaga, uning darajasiga turlicha ta'sir etishi mumkin. Xalqaro amaliyotda iqtisodchi olimlar inflyatsiyaning yuzaga chiqadigan omillar asosan ikki guruhga: ichki va tashqi omillarga ajratadilar. Biz ushbu omillarning mohiyatini yoritishga xarakat qilamiz.

1. Ichki omillarni mohiyatiga asosan pullik (monetar) va pulsiz omillarga ajratish mumkin. Pullik omillarga davlat moliyasining inqirozi, byudjetning taqchilligini mavjudligi, davlat qarzдорligini ortishi, pul emissiyasi, kredit dastaklarining aylanishini ko'payishi, pul aylanmasining tezligi va boshqalar kiradi. Pulsiz omillarga milliy iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi nomutanosiblik, tarmoqlar iqtisodiy rivojlanishdagi bir maromsiz daraja, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida monopoliyaning (oligopoliya) mavjudligi, narx shakllantirishdagi davlat monopoliyasi, markaziy bankning kredit ekspansiya va boshqa omillarni kiritish mumkin;

2. Tashqi omillar o'z mohiyatiga asosan biron aniq davlat rivojlanishiga ta'sir etadigan dunyoda amalga oshayotgan jarayonlarni aks etadi. Ushbu omillarga dunyo mamlakatlarda yuzaga chiqadigan soha inqirozlari hisoblanadigan xom-ashyo, energetika, neft, valyuta inqirozlarni kiritish mumkin. Ushbu omillardan tashqari biron-bir davlatning boshqa davlatlarga nisbatan olib boradigan davlat miqyosidagi valyuta

siyosatini, yashirin holatda valyuta, oltinni eksportini amalga oshirilishini ham kiritish mumkin.

Inflyatsiyaning makroiqtisodiy o' sish sur' atlariga ta' siri.

Inflyatsiyaning investitsion jarayonlarga ta' siri.

Inflyatsiya asosan uch yo' naliqda yuzaga chiqadi. Birinchi yo' naliqda maxsulotlar, ishlar va ko' rsatiladigan xizmatlarga bo' lgan narxlarni asossiz ravishda o' sib ketishi tufayli pul qadrsizlana boshlaydi. Buning natijasida milliy valyutaning xarid qilish qobiliyati tushib ketadi. Ikkinchi yo' naliqda, xorijiy valyutalarga nisbatan milliy valyutaning kursi pasayib ketadi. Buning natijasida xo' jalik yurituvchi sub' ektlar va mamlakat aholisi erkin muomaladagi xorijiy valyutalari (AQSh dollari, evro, shveytsariya franki va boshqalarni) jamg' ara boshlaydi. Uchinchi yo' naliqda oltinga bo' lgan milliy pul birligida ifodalangan narx ko' tarilib ketadi. Buning natijasida mamlakat aholisi o' rtiqda oltinning to' planib qolishi, ya' ni tezavratsiya amalga oshadi.

Umuman olganda, pul-kredit sohasida amalga oshirilgan ushbu tadbirlar pul massasining prognoz ko' rsatkichlaridan past bo' lishini ta' minlash va inflyatsiya darajasiga monetar omillar ta' sirining oldini olish imkonini berdi.

O' z navbatida, depozitlar va banklararo pul bozorida foiz stavkalarining pasayishi tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilayotgan kreditlar bo' yicha foiz stavkalarining pasayishiga xizmat qildi.

Banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki yanada faollashib bormoqda. Banklar tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish hamda yangi ish o' rinlari tashkil etishga qaratilgan dasturlar doirasidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo' naltirilmoqda.

Pullar taklifini tartibga solish

Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablariga ko' ra uning ikki toifasini ko' rsatish mumkin: talab inflyatsiyasi va ishlab chiqarish bilan bog' liq inflyatsiya (taklif inflyatsiyasi).

Talab inflyatsiyasi. Inflyatsiyaning bu an' anaviy turi talab oshib ketganda yuzaga keladi. Ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovarlar bahosi o'sadi. Kam miqdordagi tovarlarga ko'ppul massasi to'g'ri keladi.

Talab inflyatsiyaning yuzaga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

a) harbiy xarajatlarning o'sishi va iqtisodiyotning militarlashuvi.

Harbiy texnika sotib olish va boshqa harbiy xarajatlarni qoplash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar muomala uchun keragidan ortiqcha pul chiqarishning omili hisoblanadi;

b) davlat qarzlarning o'sishi va byudjet taqchilligining mavjudligi.

Byudjet taqchilligi, odatda, zayomlar chiqarish yoki banknotalarni emissiya qilish yo'li bilan qoplanadi. Bu, o'z navbatida, qo'shimcha muomala vositalari bo'lishiga, qo'shimcha talab yuzaga kelishiga olib keladi. O'zbekistonda byudjet taqchilligi yuqoridagidan tashqari, 1996 yildan boshlab davlat qisqa muddatli majburiyatlarini (DQMO) sotish orqali ham qoplanmoqda;

v) xalq xo'jaligiga ortiqcha kreditlar berish natijasida muomalada kredit bilan bog'liq muomala vositalari yuzaga keladi. Bular tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni oshiradi.

g) chet el valyutasining mamlakatga kirib kelishi va uning milliy valyutaga almashinuvi natijasida, muomalada pul massasi ortib boradi, milliy pulga nisbatan chet el valyutasining qadri oshadi;

d) xalq xo'jaligining etakchi tarmoqlarini keragidan ortiqcha investitsiyalash ham aylanmaga qo'shimcha pul ekvivalentlarini chiqarishga olib keladi.

Shunday qilib, talab inflyatsiyasi umumiy talabning o'sishi natijasida baholar o'sishi bilan namoyon bo'ladi.

2. Inflyatsiyaning sotsial iqtisodiy oqibatlari. Pul muomalasini barqarorlashtirish va inflyatsiyani bartaraf qilish yo'llari.

Inflyatsiyaning har tomonlama avj olib ketishi mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qaramaqarshiliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Shuning uchun davlat inflyatsiyaning oldini olish, pul muomalasini barqarorlashtirish chora tadbirlarini ishlab

chiqadi. Inflyatsiyaga qarshi kurashning asosiy shakllari– inflyatsiyaga qarshi siyosat va pul islohoti hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. “ Inflyatsiya” tushunchasining mazmunini,inflyatsiyaning turlarini, inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yoritib bering?
2. Inflyatsiyaga qarshi kurash va pulning barqarorligini ta’ minlash yo’ llarini, “ Inflyatsiya” tushunchasining mazmunini tushuntirib bering?
3. Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi sabablarni ochib bering?
4. Inflyatsiyaning makroiqtisodiy o’ sish sur’ atlariga ta’ sirini, inflyatsiyaning investitsion jarayonlarga ta’ sirini ochib bering?
5. Pullar taklifini tartibga solishni yoritib bering?

8-mavzu. Kreditning zarurligi,funksiyalari,turlari va shakllari

R E J A:

- 8.1. Kredit va uning mazmuni. Kreditning zarurligi.
- 8.2. Kreditning tamoyillari. Kreditning ob’ ektlari va sub’ ektlari.
- 8.3. Kreditning funksiyalari. Kredit qonunlari.
- 8.4. Kreditning turlari. Tarmoqlarni kreditlashning xususiyatlari.

Tayanch iboralar: kredit, iqtisodiy munosabat, tamoyillari, xarakterli tomonlari, xususiyatlari, qiymat harakati,

Kredit va uning mazmuni. Kreditning zarurligi.

„**Kredit**” – soʻzi *lotincha* „**credit**” soʻzidan olingan boʻlib ishonch degan maʼnoni anglatadi. Kredit – bu pul va tovar shaklidagi resurslarni qaytarib berishlik, muddatlilik va foiz toʻlashlik shartlari asosida berish natijasida yuzaga keladigan qiymatning harakatidir. Kredit munosabatlarining subekti boʻlib kreditor va kredit oluvchi hisoblanadi, kreditning obekti boʻlib pul va tovar hisoblanadi.

Bank kreditining obekti boʻlib pul mablagʻlari hisoblanadi. Tijorat kreditining obekti tovarlardir. Hozirgi kunda kreditning sudxoʻrlilik shakli mavjud emas, bu shakl kredit munosabatlarining dastlabki shakllanish bosqichlarida mavjud edi.

Kredit insoniyatning buyuk kashfiyoti hisoblanadi:

- 1) Kredit xoʻjalik yurutuvchi subʼektlar faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.
- 2) Kredit mamlakatning eksportning salohiyatini yuksaltirish imkonini beradi.
- 3) Kredit iqtisodiyotdagi toʻlovning uzluksizligini taʼminlash imkonini beradi.
- 4) Kredit davlatning oʻz funktsiyalarini bajarilishini taminlashda muhim oʻrinda tutadi.
- 5) Kredit aholining turmush farovonligini taʼminlash imkonini beradi.

Kredit oʻzining aniq printsiplariga ega.

- 1) Qaytarib berishlilik printsiipi;
- 2) Muddatlilik printsiipi;
- 3) Foiz toʻlashlilik printsiipi;
- 4) Taʼminlanganlik printsiipi.

Kreditlar odatda birinchi toifali garov obʼektlari bilan taʼminlanadi. (er, oltin va boshqa metallar)

- 5) Maqsadlilik printsiipi.

Kreditning zarurligini belgilovchi omillar.

- 1) Kreditning zarurligini belgilovchi eng asosiy omil bu kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishidir.

P-ishlab chiqarish vositalari....ishlab chiqarish jarayoni-T`-P`

bu jarayonning takrorlanishi capital aylanmasi deyiladi

- 2) ayrim tarmoqlarda ishlab chiqarishning mavsumiy harakterga ega ekanligi.
- 3) davlat budjetining defitsitinig mavjudligi.
- 4) aholining turmush farovonligini ta' minlashning zarurligi.

Kreditning ob' ekti ikkitaga bo' linadi:

- pul mablag' lari;
- tovarlar.

Bank kreditlarni pul mablag' lari shaklida beriladi.

Ob' ekti tavar bo' lgan kredit tijorat krediti deyiladi. Bunda sotilgan tavarlarning puli kechiktirib to' lanadi ya' ni ma' lum muddat o' tgandan so' ng to' lanadi. Tijorat krediti odatda tijorat vekseli bilan rasmiylashtiriladi.

Hozirgi davrda bank kreditlarini berish tizimi tijorat kreditlari berish tizimiga qaraganda yuksak darajada rivojlangan. Buning asosiy sababi *pulning yuqori likvidli akti ekanligidir.*

Kreditning sub' ektlari bo' lib quydagilar hisoblanadi.

- Banklar;
- nobank kredit tashkilotlari, kredit uyushmalari, lombardlar, mikromoliyalash tashkilotlari, kredit korporativlari va boshqalar;
- korxonalar;
- jismoniy shaxslar;
- davlat;
- davlat organi;
- halqaro moliya kredit tashkilotlari.

Kredit-qiymatning harakati bo' lib pul va tavar ko' rinishidagi mablag' larni qaytarib berishlilik, muddatlilik va foiz to' lashlilik asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

birinchidan, fondlar aylanishi jarayonida chetga chiqib, bo' sh qolgan mablag' larning harakatsiz turib qolishining oldi olinadi;

ikkinchidan, takror ishlab chiqarishni keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo'lishi zarur. Shu masala bo'yicha ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni tahlil qilib, iqtisodchilar tomonidan kredit yuzaga kelishining quyidagi shartlariga ko'proq e'tibor berilganini ko'rsatib o'tish mumkin. Kredit munosabati bo'lishi uchun:

birinchidan, kredit munosabati ishtirokchilari – qarz beruvchi va qarz oluvchi – huquqiy jihatdan mustaqil sub'ekt bo'lishi kerak. Mustaqil sub'ekt sifatida har ikkala tomon birbiri bilan o'zaro aloqalardan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishini moddiy jihatdan kafolatlay olishi kerak. Majburiyatlarni bajara olish qobiliyatini hisobga olgan holda mustaqil huquqiy sub'ekt sifatida tomonlar iqtisodiy munosabatga kirishishlari kerak.

ikkinchidan, qarz beruvchi va qarz oluvchi manfaatlari birbiriga mos tushgan taqdirdagina kredit zaruriyatga aylanadi. Bu manfaatlar, avvalambor, ob'ektiv jarayonlar, o'zaro manfaatlarni taqozo etuvchi aniq vaziyat bilan bog'liq.

Kreditor(qarz beruvchi) tomonidan pul mablag'larini qarzga berish bo'yicha, qarz oluvchi tomonidan esa shu mablag'larni olish bo'yicha qiziqish tug'ilgan taqdirdagina kredit munosabatlari vujudga keladi. Kreditning vujudga kelishi kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarining yo'nalishiga bog'liq. Tomonlar manfaatlarining mos kelishi kredit shartnomasi tuzilishini ta'minlaydi. Lekin kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaati nafaqat vaqt va makon jihatdan, shuningdek, sifat jihatdan ham mos tushgan taqdirdagina bu munosabatlar reallikka aylanadi. Shu bilan birga, kreditning bu muhim sifatleri kredit munosabatlari sodir bo'lishining asosiy sababi bo'la olmaydi. Kredit vujudga kelishi uchun, yuqorida aytilgandek, aniq bir iqtisodiy asos fondlarning doiraviy aylanishi va shunga o'xshash boshqa aniq sharoitlar bo'lishi zarur. Faqatgina ana shu ta'sir etuvchi omillar bo'lgan taqdirdagina kreditning vujudga kelishi reallikka aylanadi. Ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda kreditning zarurligi xususida bir necha boshqa fikrlar ham uchraydi. Masalan, kredit korxonalar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish uchun zarur, deb ta'kidlanadi. Agar bu fikr to'g'ri deb qaraydigan bo'lsak, kreditning zarurligi faqat kreditor uchun tushunarli bo'ladi, chunki u qarz berish orqali qarz oluvchi faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bunday sharoitda kreditning chegarasi ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishiga asoslangan ob'ektiv jarayonlarga emas, balki bankning kredit operatsiyalari orqali qarz oluvchining faoliyatini nazorat qilish istagiga bog'liq bo'lib qoladi.

Bu mulohazalardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytish mumkinki, kreditning ob'ektiv zarurligi takror ishlab chiqarish jarayonida fondlarning doiraviy aylanishi qonuniyatlariga asoslangandir.

Kreditga zarurat tug'ilganda quyidagi manbalardagi bo'sh mablag'lardan kredit resurslar sifatida foydalanish mumkin. Bu manbalar asosan quyidagilardir:

- asosiy fondlarni tiklash, kapital tamirlash uchun ajratiladigan amortizatsiya sifatidagi pul mablag'lari;
- tovarlarni sotish va yangi moddiy resurslarni sotib olish vaqtlarining birbiriga mos kelmaganligi tufayli yuzaga kelgan bo'sh pul mablag'lari;
- tovarlar realizatsiyasidan tushgan tushum bilan ish haqini to'lash vaqtlari orasida vaqtincha bo'sh turib qolgan pul mablag'lari;
- kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida yig'iladigan va kapitallashtirish uchun mo'ljallangan qo'shimcha mablag'lar;

shaxsiy sektor daromadlari, jamg'armalari va boshqa bo'sh pul mablag'lari

Kreditning zarurligini ifodalovchi omillar mohiyatini ochishda, ularning har birining ahamiyatini kredit shartnomasini tuzish darajasigacha olib kelish xato hisoblanadi. Alohida olingan bir omilning o'zi kredit berilishi uchun u yoki bu darajada etarli bo'lmasligi mumkin.

Kreditning mohiyati. Kreditning funktsiyalari. “Kredit” tushunchasining mazmuni.

Mohiyat so'zi iqtisodiy yoki ijtimoiy hodisa yoki voqelikning ichki xususiyatini anglatadi. Kreditning mohiyati uning bir qator ichki xususiyatlarida namoyon bo'ldi, avvalo, kredit qiymatning harakati bo'lib ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi, lekin kredit har qanday qiymatning harakati emas. U vaqtinchalik

foydalanishga beriladigan pul va tovar shaklidagi mablag' larning harakatidir. Kreditning yana bir ichki xususiyati uning subektlar o'rtasidagi munosabatlarda nomoyon bo' ladi. Kreditnin sub' ekylari 2 ta:

- kreditor;
- kredit oluvchi.

Kreditning 3 muhim xususiatlari shundan iboratki kredit unga bo' lgan obektiv talab tufayli yuzaga keladi.

Ayri hollarda mijozlar kreditni qaytara olmaydi. Bu esa kreditni qaytarib berishlilik xususiatlarini inkor etmaydi.

Kreditning mohiyatan farqlanuvchi asosiy jihati ham uning qaytarib olinishidir. Taraqqiy etgan davlatlarda ssuda kapitali bozori yaxshi rivojlangan. Bu bozor ikki qisimdan iborat:

- 1) birinchi segment pul bozori deyiladi. Bu bozorda qisqa muddatli kreditlarning foiz stavkalari shakillanadi.
- 2) Ikkinchi segment capital bozori deyiladi. Bu bozorda o' rt va uzoq muddatli kreditlarnintg foiz stavkalar shakillanadi.

Libor+Spred=Libid

Bu erda:

Libor-kredit foiz stavkasi;

Spred-bank foydasi;

Libid-kreditning qiymati.

Marja-bank bilan mijoz o' rtasidagi munosabatlarni harakterlaydi.

Spred-bank bilan bank o' rtasidagi munosabatlarni harakterlaydi.

Kreditning mohiyatini anglashda kredit qonunlari muhim o' rinni egallaydi. Kreditning 3 ta qonuni bor:


- 1) qaytarilish qonuni;
- 2) qiymatning saqlanish qonuni;
- 3) muvozanat qonuni- berilayotgan kreditlar va ularning resurslar taminoti ortasida muvozanat bo' lishi kerak.

Kreditning mohiyatini yanada aniqlashtirish uchun uning tarkibini, harakat bosqichlarini, iqtisodiy tushuncha sifatidagi muhim belgilarini va ijtimoiy iqtisodiy xarakteristikasini ko'rib chiqamiz. Kreditning mohiyatini tushunish uchun, avvalambor, uning tarkibi nimadan iborat ekanligini tushunib olish zarur. Kredit munosabat bo'lishi uchun uning zarur elementlari – kreditning ob'ekti va sub'ekti bo'lishi zarur.

Kredit munosabatlarida sub'ektlar ikki xil bo'ladi:

1. *Kreditor (qarz beruvchi)*
2. *Qarz oluvchi*

Bundan tashqari, kredit munosabatlari tarkibining elementi sifatida kreditning ob'ekti yuzaga keladi.



Kredit munosabatlaring ob'ektlari va sub'ektlari.

Kredit ob'ekti bu (kreditor) qarz beruvchidan qarz oluvchiga beriladigan va qarz oluvchidan kreditor (qarz beruvchi)ga qaytib beriladigan qiymatdir.

Bunda qarzga berilgan mablag' o'z qiymatini saqlab qolishi kreditning asosiy sifati hisoblanadi.

Kredit tarkibi uning elementlari birligini ifodalaydi.

Kreditning harakat bosqichlari ham uning muhim belgisi hisoblanadi. Qarzga beriluvchi qiymat harakatini quyidagi sxemada ifodalash mumkin:

$B_k \ O_{kz} \ I_k \dots V_r \dots Q_k \ F_{ks}$

B_k – kreditning berilishi;

O_{kz} – kreditning qarz oluvchi tomonidan vaqtinchalik ehtiyojlarini qondirish uchun olinishi;

I_k – kreditning ishlatilishi qarz oluvchining kreditni nima maqsadda olganligi bilan uzviy bog' liq bo' ladi;

V_r – qarz oluvchining xo' jaligida qarzga olingan qiymat aylanmasi tugallanishini resurslarning aylanmadan chiqarilishini ifodalaydi;

Q_k – kreditni qaytarish;

F_{ks} – vaqtinchalik berilgan qiymatni kreditor qo' liga qaytib kelishi (% bilan).

Kreditning mohiyatini malum vaqtdan keyin qaytarib berish va foiz bilan qaytarish sharti yanada kengroq ochib beradi. Bu har ikkala shartdan tashqari, kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida harakat qilishini asoslash uchun iqtisodiy munosabatlarning chuqur ijtimoiy iqtisodiy belgilarini hisobga olish zarur.

Kredit mohiyatining tahlili uzluksiz jarayon. Tahlil jarayonida yangidan yangi belgilar, xususiyatlar yuzaga chiqishi mumkin.

Har qanday iqtisodiy kategoriya o' zining funktsiyalariga ega bo' lgani kabi kredit ham o' zining bir qator funktsiyalariga ega. Ijtimoiy iqtisodiy tizimda kreditning o' rni va ahamiyati bajarayotgan funktsiyalari bilan aniqlanadi. Kreditning funktsiyasi – bu kreditning iqtisodiyotdagi faoliyati konkret ravishda namoyon bo' lishidir.

Kreditni tahlil qilishda, funktsiya, uning mohiyati va ahamiyati o' rtasidagi oraliq bo' g' in sifatida ko' rib chiqiladi.

Kreditning funktsiyalari haqida olimlar o' rtasida yagona izchillik yo' q.

I. Lavrushinning fikricha, kreditning funktsiyalarini tahlil qilishda ikkita echilmagan muammo mavjud:

1. Funktsiyani tushunishning uslubiy asoslari.
2. Funktsiyalarning tarkibi va strukturasi.

Kreditning tarkibiy qismidan kelib chiqqan holda unga quyidagi munosabatlarga xos funktsiyalar taalluqli:

- a) kreditorning qarz oluvchi va qarzga beriluvchi qiymat bilan munosabati orqali;
- b) qarz oluvchining kreditor va qarzga beriluvchi qiymat bilan munosabati orqali;
- v) qarzga beriluvchi qiymat bilan kreditor va qarz oluvchining munosabati orqali.

Kreditning tamoyillari. Kreditning ob' ektlari va sub' ektlari.

Kredit munosabatlari iktisodiyotda mavjud anik uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo' lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma' lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit rivojlanishining birinchi boskichida ko' zga tashlangan edi. Keyinchalik esa ular umumdavlat va xalkaro kredit konunchiligida yakkol uz aksini topdi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega.

Bular kreditning qaytarib berishlilik, kreditning muddatliligi, kreditning ta' minlanganligi, maqsadlilik va to' lovlilik tamoyillaridir.

Kreditning qaytarib berishlilik tamoyili.

Bu tamoyil kreditning mustakil iktisodiy kategoriya ekanligi shartidir, kaytib berishlik kreditning umumiy belgisi hisoblanadi, kaytib berishlilik o' z-o' zidan vujudga kelmaydi: u moddiy jarayonlarga, qiymatning aylanishini tugashiga asoslanadi. Ammo doiraviy aylanishning tugashi – bu qaytarib berishi emas, fakat qaytarib berish uchun zamin tayyorlashdir. Kreditni qaytarish aylanishdan chikkan mablag' lar qarz oluvchiga pul mablag' larining qaytarish imkoniyatini bergan taqdirda qaytariladi, qaytarib berishlilik ikki yoklama jarayonni ifoda etadi, u kreditor uchun xam, qarz oluvchi uchun xam bir xil darajada muximdir.

Qiymatni qaytaruvchi xarakatida xukukiy tomoni xam muximdir. Muayyan bir muddatga beriladigan kiymatga egalik xukuki kreditordan qarz oluvchiga o' tmaydi.

Qarzga beriladigan kiymat fakat muayyan bir muddatgina o' z egasi qo' lidan uzoqlashadi, lekin egasini o' zgartirmaydi.

Bo' sh turgan resurslarni akkumulyatsiya qiluvchi banklar bu resurslardan o' z resurslari sifatida foydalana olmaydi. Bank qarzga beruvchi mablag' ning egasi bo' lib korxona, tashkilot, alohida shaxslar xisoblanadi. Qaytarib berishlilik muayyan

shartnomada o' zining o' rnini topadi. Qaytarib berishlilik ob' ektiv belgi xisoblanadi. Kreditni qaytarib berishlilik tomoni uni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan, shu jumladan, moliyadan farq qilish imkonini beradi. Kreditdan samarali foydalanish asosidagi qaytarib berishlilik – butun bank faoliyatining markaziy punkti hisoblanadi. Kreditning bu tamoyili amaliyotda kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kredit bergan muassasa hisobiga ko' chirish yo' li bilan to' lanadi. Shu yo' l bilan banklar kredit resurslarining qayta tiklanishini ta' minlaydilar. Sobiq ittifok davrida markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida kreditlashning «qaytarilmagan ssuda» deb ataladigan norasmiy tushunchasi bor edi. Kreditlashning bu shakli xalq xo' jaligining ko' p tarmoklarida ayniksa qishloq xo' jaligi soxasida keng tarqalgan edi. Kredit davlat banki tomonidan qarz oluvchining moliyaviy ahvolini hisobga olmagan holda berilar edi. O' zining iqtisodiy mohiyatiga ko' ra qaytarilmaydigan ssudalar byudjet subsidiyalarini qo' shimcha shakli sifatida namoyon bo' ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida «qaytarilmas kredit» tushunchasi bozor iqtisodiyoti tamoyillariga yot bo' lib bunday kreditning amaliyotda bo' lishi iqtisodiyot uchun juda xavfli hisoblanadi.

Kreditning muddatliligi.

Bu tamoyil kredit beruvchidan olingan kreditni o' z vaqtida qaytarib berish muddatini, ya' ni kreditning qanday muddatga berilganligi bilan xarakterlanadi. Bunda shu muddatlilik tamoyiliga ko' ra uzoq va qisqa muddatli kreditlarga bo' linadi.

Kreditning muddatlilik tamoyili qarzdor uchun qulay bo' lgan har qanday vaqtda emas, balki kredit bitimida ko' rsatilgan ma' lum muddatda kreditni qaytarilishi zarur ekanligini bildiradi. Kreditning muddatliligi har ikkala tomon, kreditor va qarz oluvchi uchun muhimdir. Agar kreditor foizni bilan o' z vaqtida qaytarib olsa, uni egasiga qaytarish yoki yana kreditga berish imkoniyatiga ega bo' ladi. Qarz oluvchi kreditni samarali ishlatib, uni o' z vaqtida kreditorga qaytarish va shu bilan shartnomadagi jazo choralaridan qutulishidan manfaatdor. Kreditning muddati bo' yicha kredit shartnomada ko' rsatilgan shartlarning buzilishi natijasida qarz beruvchi qarz oluvchiga iqtisodiy choralar (jarimalar shaklida, kredit bo' yicha foiz darajasini oshirish, kreditni muddatini qisqartirish va boshqa) ni qo' llash mumkin.

Kreditning ta' minlanganligi.

Bu ta' moyil yordamida xalk xo' jaligining rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o' rtasida bo' lishi zarur bo' lgan proportsiyalarning bir meyorda bo' lishi ta' minlanadi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo' jalik aylanishida ishtirok etuvchi bank mablag' larining xar bir so' miga muayyan boyliklarning bir so' mi qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan xalq xo' jaligi tarmoqlariga berilgan kreditlar to' liq tovar moddiy boyliklari va ma' lum xarajatlar bilan ta' minlangan bo' lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, kreditning ta' minlanganlik ta' moyili qarz oluvchi o' ziga olgan majburiyatlarni buzish sharoitida qarz beruvchining mulkdorlik manfaatlarini ximoya qilishni ta' minlaydi va o' zining amaliy aksini kreditni biror garov yoki moliyaviy kafolat asosida berishda topadi. Bu umumiktisodiyot barqarorlikka erishish davrida ayniqsa muhimdir.

To' lovlilik tamoyili.

Bu tamoyil aylanma fondlarning doiraviy aylanishini, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta' minlovchi to' lov resurslari summasini avanslashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Bu tamoyilga asosan korxonalar foydalanilgan qarz mablag' lari uchun kreditorga foiz shaklida to' lovni o' tkazadilar. Kreditning to' lovligi uni to' liq summada o' z egasiga qaytarilishinigina emas, shu bilan kredit uchun foiz shaklidagi to' lov bilan qaytarilishini ifodalaydi. Demak, kreditor o' z mablag' larini xech vaqt o' z xajmida qaytarib olish sharti bilan bermaydi, bunda u mablag' ni qarzga berganligi uchun muayyan to' lov talab kiladi. (foizsiz imtiyozli kreditlar bundan mustasno).

Kreditning to' lovliligi nafakat banklar faoliyatining maqsadiga, balki korxonalarning bevosita foydasiga bog' lik bo' ladi va ijobiy ta' sir ko' rsatadi.

Kredit uchun xaq to' lashning iqtisodiy mohiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o' rtasidagi qo' shimcha olingan foydaning taqsimlanishini qayd qilishda namoyon bo' ladi.

Kreditning maqsadliliği.

Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar anik bir maqsadni amalga oshirishga yo' naltirilgan bo' lishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yo' naltirilganligi, masalan, tovar moddiy boyliklar sotib olishga yoki biror ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va xakozo anik biror ob' ektga maqsadli yunaltirilganligi korxona bilan bank o' rtasida tuziladigan kredit shartnomada ko' rsatilgan bo' ladi. Korxona olgan kreditini faqatgina kredit shartnomada ko' rsatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak.

Bunda kredit muayyan, anik ob' ektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zaxiralariga, tayyor maxsulotga, jo' natilgan tovarlarga, xisob-kitob xujjatlariga va xakozolarga beriladi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida mavjud bo' lishi va xarakat qilishining muxim tomonlarini o' zida ifodalaydi.

Kreditning samaradorligini ta' minlash maqsadida g' arb mamlakatlari amaliyotida kreditlashning biz uchun yangi qoidasi qo' llaniladi. Bu qoida kreditlashda «5 «S» lar koidasi» deb yuritiladi.

Kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishi.

Kredit-qiymatning harakati bo' lib pul va tavar ko' rinishidagi mablag' larni qaytarib berishlilik, muddatlilik va foiz to' lashlilik asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

birinchidan, fondlar aylanishi jarayonida chetga chiqib, bo' sh qolgan mablag' larning harakatsiz turib qolishining oldi olinadi;

ikkinchidan, takror ishlab chiqarishni keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo' lishi zarur. Shu masala bo' yicha ba' zi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni tahlil qilib, iqtisodchilar tomonidan kredit yuzaga kelishining quyidagi shartlariga ko' proq e' tibor berilganini ko' rsatib o' tish mumkin. Kredit munosabati bo' lishi uchun:

birinchidan, kredit munosabati ishtirokchilari – qarz beruvchi va qarz oluvchi – huquqiy jihatdan mustaqil sub' ekt bo' lishi kerak. Mustaqil sub' ekt

sifatida har ikkala tomon birbiri bilan o'zaro aloqalardan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishini moddiy jihatdan kafolatlay olishi kerak. Majburiyatlarni bajara olish qobiliyatini hisobga olgan holda mustaqil huquqiy sub'ekt sifatida tomonlar iqtisodiy munosabatga kirishishlari kerak.

ikkinchidan, qarz beruvchi va qarz oluvchi manfaatlari birbiriga mos tushgan taqdirdagina kredit zaruriyatga aylanadi. Bu manfaatlar, avvalambor, ob'ektiv jarayonlar, o'zaro manfaatlarni taqozo etuvchi aniq vaziyat bilan bog'liq.

Kreditor(qarz beruvchi) tomonidan pul mablag'larini qarzga berish bo'yicha, qarz oluvchi tomonidan esa shu mablag'larni olish bo'yicha qiziqish tug'ilgan taqdirdagina kredit munosabatlari vujudga keladi.

Kreditning vujudga kelishi kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarining yo'nalishiga bog'liq. Tomonlar manfaatlarining mos kelishi kredit shartnomasi tuzilishini ta'minlaydi. Lekin kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaati nafaqat vaqt va makon jihatdan, shuningdek, sifat jihatdan ham mos tushgan taqdirdagina bu munosabatlar reallikka aylanadi. Shu bilan birga, kreditning bu muhim sifatlari kredit munosabatlari sodir bo'lishining asosiy sababi bo'lolmaydi. Kredit vujudga kelishi uchun, yuqorida aytilgandek, aniq bir iqtisodiy asos fondlarning doiraviy aylanishi va shunga o'xshash boshqa aniq sharoitlar bo'lishi zarur. Faqatgina ana shu ta'sir etuvchi omillar bo'lgan taqdirdagina kreditning vujudga kelishi reallikka aylanadi. Ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda kreditning zarurligi xususida bir necha boshqa fikrlar ham uchraydi. Masalan, kredit korxonalar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish uchun zarur, deb ta'kidlanadi. Agar bu fikr to'g'ri deb qaraydigan bo'lsak, kreditning zarurligi faqat kreditor uchun tushunarli bo'ladi, chunki u qarz berish orqali qarz oluvchi faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bunday sharoitda kreditning chegarasi ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishiga asoslangan ob'ektiv jarayonlarga emas, balki bankning kredit operatsiyalari orqali qarz oluvchining faoliyatini nazorat qilish istagiga bog'liq bo'lib qoladi.

Bu mulohazalardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytish mumkinki, kreditning ob'ektiv zarurligi takror ishlab chiqarish jarayonida fondlarning doiraviy aylanishi qonuniyatlariga asoslangandir.

Kreditga zarurat tug'ilganda quyidagi manbalardagi bo'sh mablag'lardan kredit resurslar sifatida foydalanish mumkin. Bu manbalar asosan quyidagilardir:

- asosiy fondlarni tiklash, kapital ta'mirlash uchun ajratiladigan amortizatsiya sifatidagi pul mablag'lari;
 - tovarlarni sotish va yangi moddiy resurslarni sotib olish vaqtlarining birbiriga mos kelmaganligi tufayli yuzaga kelgan bo'sh pul mablag'lari;
 - tovarlar realizatsiyasidan tushgan tushum bilan ish haqini to'lash vaqtlari orasida vaqtincha bo'sh turib qolgan pul mablag'lari;
 - kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida yig'iladigan va kapitallashtirish uchun mo'ljallangan qo'shimcha mablag'lar;
- shaxsiy sektor daromadlari, jamg'armalari va boshqa bo'sh pul mablag'lari

Aholining kreditga bo'lgan talabining paydo bo'lishi. Davlatning kredit resurslariga bo'lgan talabining paydo bo'lishi. Kreditning shakllari.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo'lishi zarur. Shu masala bo'yicha ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni taxlil qilib, iqtisodchilar tomonidan kreditning yuzaga kelishining quyidagi shartlariga kuprok etibor berilganini ko'rsatib o'tish mumkin. Kredit munosabat bo'lishi uchun:

birinchidan, kredit munosabat ishtirokchilari - qarz beruvchi va qarz oluvchi - xuquqiy jixatdan mustaqil subekt bo'lishi kerak Mustakil subekt sifatida xar ikkala tomon bir-biri bilan o'zaro aloqalardan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishini moddiy jixatdan kafolatlay olishi kerak Majburiyatlarni bajara olish qobiliyatini xisobga olgan xolda mustaqil xukukiy subekt sifatida tomonlar iqtisodiy munosabatga kirishishlari kerak

ikkinchidan, qarz beruvchi va qarz oluvchi manfaatlari bir-biriga mos tushgan taqdirdagina kredit zaruriyatga aylanadi. Bu manfaatlar avvalambor, ob'ektiv jarayonlar, o'zaro manfaatlarni taqozo etuvchi aniq vaziyat bilan bog'liq.

Kreditor (qarz beruvchi) tomonidan pul mablag' larini qarzga berish bo' yicha, qarz oluvchi tomonidan esa shu mablag' larni olish bo' yicha kizikish tug' ilgan taqdirdagina kredit yuunosabatlari vujudga keladi.

Kreditning vujudga kelishi kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarining yo' nalishiga bog' lik tomonlar manfaatlarining mos kelishi kredit shartnomasi tuzilishini ta' minlaydi. Lekin, kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaati nafaqat vakt va fazo jixatdan, shuningdek sifat jixatdan xam mos tushgan taqdirdagina bu munosabatlar reallikka aylanadi. Shu bilan birga kreditning bu muxim sifatleri kredit munosabatlari sodir bo' lishining asosiy sababi bo' laolmaydi. Kredit vujudga kelishi uchun, yukorida aytilgandek anik bir kktisodiy asos -fondlarning doiraviy aylanishi va shunta uxshash boshka aniq sharoitlar bo' lishi zarur. Fakatgina ana shu ta' sir etuvchi omillar bo' lgan taqdirdagina kreditning vujudga kelishi reallikka aylanadi.

Ba' zi iqtisodiy adabiyotlarda kreditning zarurligi xususida bir necha boshqa fikrlar xam uchraydi. Masalan, kredit korxonalar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish uchun zarur deb ta' kidlanadi. Agar bu fikr to' g' ri deb qaraydigan bo' lsak kreditning zarurligi faqat kreditor uchun tushunarli bo' ladi, chunki u qarz berish orqali qarz oluvchi faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo' ladi.

Nakd pulsiz shaklidagi hisob kitoblarning bank orkali o' tishida ishlatiladigan mablag' lar ham ssuda kapitali shakllanishining yangi manbai bo' lib, bu mablag' lar aylanma mablag' larning doiraviy aylanish jarayokida yuzaga keladi. Korxonalarda moliyaviy resurslarning vaktincha bush bo' lib qolishining quyidagi asosiy sabablarini ko' rsatib o' utish mumkin:

-ishlab chiqarilgan maxsulotlarni sotish vaqti bilan olingan xom ashyo, materiallar, ishchilarga ish xaqi va boshka to' lovlarni amalga oshirish vaqtining mos kelmasligi;
-asosiy fondlarning eskirishini qoplash uchun mo' ljallangan pul ajratmasi, ya' ni amartizatsiya fondining shakllantirilishi.

Kreditning ikkita asosiy shakli mavjud:

1. Bank krediti
2. Tijorat krediti

Tijorat krediti tovarlar sotish jarayonini tezlashtirishda va korxonalarning aylanma mablag'larini xo'jalik faoliyatidan tezroq bo'shashini taminlashda katta ahamiyatga ega.

Iste' mol krediti. Iste' mol krediti o'zining maqsadi bilan kreditning boshqa shakllaridan farq qiladi. Uning farqli belgisi - jismoniy shaxslarni kredit xisoblanadi. Kreditning bu shaklida kredit beruvchi sifatida maxsus kredit muassasalari bilan birga tovar va xizmatlarni sotishni amalga oshiradigan jismoniy shaxslar xam bo'lishi mumkin.

Iste' mol krediti ikki shaklda: pul shaklida yoki tovar shaklida berilishi mumkin. Jismoniy shaxslarga ko'chmas mulkka egalik qilish uchun, qimmat bo'lgan davolanishni to'lash, xar-xil tovarlar va uy-jixozlari sotib olish va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun iste' mol kreditlari berilishi mumkin.

Ipoteka krediti kuchmas mulk (er, bino, uy-joy kabilarni) garovga qo'yib olinadigan kredit. Odatda, ipoteka kreditidan qishloq xo'jaligida asosiy fondlarni yangilash, yirik kapital qo'yilmalarini qoplash uchun foydalaniladi.

Davlat krediti. Kreditning bu shaklining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat bir tomondan qarz beruvchi va ikkinchi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok qilishi mumkin. Qarz beruvchi vazifasini bajara turib, davlat, davlat kredit institutlari, jumladan Markaziy bank orqali iqtisodning xar-xil soxalarini kreditni o'z zimmasiga oladi. Davlat tomonidan:

- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini kredit;
- moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezayotgan davlat ahamiyatiga ega bo'lgan aniq tarmoq yoki mintaqalarga, agar byudjetdan moliyalashtirish imkoniyati tugagan bo'lsa, vaqtincha foydalanishga mablag' ajratishi mumkin.

Davlatning qarzlari kupaygan xollarda davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish maqsadida, davlat qarz oluvchi sifatida, davlat qarzlarni joylashtirish jarayonini amalga oshiradi. Davlat kreditining xarakterli xususiyati shundaki, davlat tomonidan olingan qarz mablag'lari ishlab chiqarish fondlari aylanishida yoki moddiy boyliklar yaratishda ishtirok qilmaydi. Bu mablag'lar davlat qarzlarni qoplash uchun ishlatiladi.

Davlat davlat xazina majburiyatlari chiqarish, moliya bozorlarida davlat qimmatbaxo qogozlarini joylashtirish, davlat zaemlarini chiqarish va sotish yuli bilan banklarning axolining va boshqa moliya-kredit institutlarining pul mablag' larini yig' adi va ularni davlat qarzi va byudjet kamomadini qoplashga (moliyalashtirishga) sarflaydi.

Xalqaro kredit. Kredit munosabatlarining xalqaro miqyosda (davlatlar o' rtasida) amalga oshirilishi xalqaro kreditning yuzaga kelishiga olib keladi. Kreditning bu shaklining bevosita ishtirokchilari millatlararo moliya-kredit institutlari, tegishli davlat xokimiyati, kredit tashkilotlari va aloxida yuridik shaxslar bo' lishi mumkin.

Xalqaro kredit bir davlat, shu davlat banki, yuridik shaxs tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa yuridik shaxslariga muddatlilik va to' lovlilik asosida beriladigan kredit xisoblanadi.

Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valyuta) shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo' lishi mumkin.

Xalqaro kredit quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

- qarz oluvchi va qarz beruvchi sifatida davlat, tashkilot va muassasalar, yuridik shaxslar (banklar, kompaniyalar), xalqaro valyuta kredit tashkilotlari qatnashadilar;
- qarzga olingan mablag' lar qarz oluvchi mamlakat tomonidan daromad keltiruvchi kapital sifatida ishlatiladi;
- qarz beruvchi mamlakatga tulanadigan ssuda foizining manbasi qarz oluvchi mamlakat tomonidan yaratilgan milliy daromad xisoblanadi.

Xalqaro kredit maxalliy kredit bilan bir qatorda fondlar aylanishining barcha bosqichlarida katnashadi.

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- mamlakatlar o' rtasida kapitalning qayta taqsimlanishini taminlaydi;
- kapitalning kontsentratsiyalashuviga va markazlashuviga sharoit yaratadi va bu jarayonni tezlashtiradi;
- xar xil valyutalarda xalqaro xisob-kitoblarni olib borishda muomila xarajatlarini qisqartiradi .

Xalqaro kreditlar:

- **xarakteri bo' yicha** - davlatlararo, xususiy, firma kreditlariga;
- **shakli bo' yicha** - davlat, bank, tijorat;
- **tashqi savdo tizimida tutgan o' rni bo' yicha** - eksportni kredit, importni kreditga;
- **muddati bo' yicha** - qisqa muddatli-1 yilgacha, uzoq muddatli -5 yildan ortiq muddatga;
- **ob'ekti bo' yicha** - tovar va valyuta;
- **ta'minlanganligi bo' yicha** - tovar-moddiy boyliklar bilan yoki xujjatlar bilan taminlangan kreditlarga bo' linadi. Eksportni kreditda davlat tomonidan subsidiya ajratilganligi uchun firma kreditlari bo' yicha foiz stavkalari odatda foiz stavkalarining bozor baxosidan past bo' ladi.

Xalqaro bank kreditlarining bank eksport kreditlari (xorijiy importyorlarga xususiy tijorat banklari, maxsus tashqi savdo banklari tomonidan beriladigan kredit), evrokredit (yirik tijorat banklari tomonidan evrovalyuta bozori resurslari xisobidan evrovalyutada, 2 yildan 10 yilgacha bo' lgan muddatga, o' zgaruvchan foiz stavkada kreditlar berish) kabi turlari mavjud.

Kredit qonunlarining zarurligi va ob'ektivligi.

Kreditning zarurligini ifodalovchi omillar mohiyatini ochishda, ularning har birining ahamiyatini kredit shartnomasini tuzish darajasigacha olib kelish xato hisoblanadi. Alohida olingan bir omilning o' zi kredit berilishi uchun u yoki bu darajada etarli bo' lmasligi mumkin. Masalan, aytaylik korxonalarda ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishi jarayonida ularda kreditga ehtiyoj tug' iladi. Shunga asosan kredit takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta' minlash zarurligidan kelib chiqadi, degan shartga asoslangan holda kredit berilishi kerak. Ammo bunda qo' shimcha resurslarga muhtojlik o' z o' zidan avtomatik tarzda kredit berilishi kerakligini ifodalamaydi. Buning uchun kreditning zarurligini ifodalovchi boshqa sharoitlar ham mavjud bo' lishi kerak. Iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo' nalaridan biri kredit munosabatlarini rivojlantirishda banklar kredit uchun xarakterli muhim shartlar va qonunlarga asoslangan holda kreditlash jarayonini amalga oshirishlari zarur.

Tijorat kreditida kreditor va qarzdorlar bo'lib faoliyat kursatuvchilar (ishlab chikaruvchilar) xisoblanadilar.

Tijorat kreditining cheklanishlari mavjud bo'lib ularga quyidagilar kiradi:

- faoliyat ko'rsatuvchilarning zaxira kapitallari xajmi bilan cheklanganligi, ya'ni unga hozirgi davrda oborot (muomala) uchun zarur bo'lmagan kapital bilan cheklanganligi;
- yo'nalishiga ko'ra, uni ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar ishlab chiqarish vositalarini iste'mol qiluvchilarga berishi mumkin, ammo teskarisi bo'lishi mumkin emas.

Tijorat kreditidan farkli ularoq bank krediti nafaqat tovarlar muomalasiga xizmat kursatadi, balki yanada kengroq muxitda faoliyat ko'rsatadi.

Bank krediti - pul egalari, banklar va boshka kredit institutlari tomonida ishlab chikaruvchilarga, xamda boshka qarz oluvchilarga pul shaklida beriladigan ssudalardir.

Bank kreditining ob'ekti- pul kapitalidir.

Bank kreditida ishlab chikaruvchi shaxslar (faoliyat kursatuvchilar) faqat qarz oluvchi sifatida ishtirok etadilar, kreditorlar bo'lib esa ssuda kapitali egalari xisoblanadilar.

Bank krediti jamiyat barcha sinflarini pul daromadlari va jamg'armalarini kapitalga aylantirib kapitalni jamg'arilishiga sababchi bo'ladi.

Tijorat krediti veksel bilan xujjatlashtiriladi. Tijorat kreditining foizi, tovarlar pagonasiga va veksel summasiga qo'shiladi va u bank krediti foizidan past bo'ladi. Bank kredit foizining maksadi ssudalar xisobiga daromad (foyda) olishdir.

Kreditning xarakterli va xususiyatli belgilari

Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini moddiy va mexnat omillari ta'minlaydi.

Ishlab chiqarishning bu omillar bilan bir tekisda ta'minlanishi muammodir.

Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

birinchidan, fondlar aylanishi jarayonida chetga chikib, bush kolgan mabalg'larning xarakatsiz turib kolishining oldin olinadi;

ikkinchidan, takror ishlab chiqarishki keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo'lishi zarur. Shu masala bo'yicha bazi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni tahlil qilib, iqtisodchilar tomonidan kreditning yuzaga kelishining quyidagi shartlariga ko'proq e'tibor berilganini ko'rsatib o'tish mumkin. Kredit munosabat bo'lishi uchun:

bir tijorat bankni muomalaga o' zining " banknota " larini (bank bileti) chiqarishgan Oldingi bulimdan malumki **banknota**-bu ushbu banklarning unda kursatilgan mablaglarni xoxlagan paytda real pulga almanishtirilib berilishini kafolatlovchi majburiyatni hisoblanadi.U bankning " vekseli " hisoblangan .Uning tijorat vekselleridan bankotlarni xoxlagan vaxta real pullarga almashtirish mumkin .Kapitalizimnigng dastlabki davrlarida mijozlarning kreditga bulgan extiyojlarining ortib borishi banklar tomonidan chiqarilgan banknotlar bilan qoplangan .Banknotlar muomalaga pulning tulov vositasi funksiyasini bajaradai . Banklar o' zlarining pul zaxiralaridan bir necha barobar kup miqdorda banknotlarni muomilaga chiqarishgan . albatta bu malum davr davomida mamlakatda pul momilasini tashkil qilish xisob-kitoblarni amalda oshirish va muomila jarayonini tashkil etishda o' zining ijobiy natijasini berib kelgan. Biroq vaqt o' tishi bilan tijorat banklari tomonidan muomilaga chiqarilgan qog' oz pullarning xajmi va turi juda kupayib ketgan Bu o' z navbatida pullarning qadirsizlanishi ayrim xollarda tijorat banklarining bankotlar xolatiga tushib qolishi iqtisodiyotda pul muomasalasini buzulishiga va boshqa qator salbiy xolatlarini vujudga kelishiga kelishiga sabab bo' lgan .Bullarning barchasi mamlakatda pul emissiyasini markazlashgan holda amalga oshirish va muomilasini tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqaradi bu o' z navbatda tijorat banklari bazasiga Markaziy banjklarni kelib chiqishiga sabab buladi Markaziy banklarning vujudga kelishi davlatga pul emissiyasini markazlashgan xolda amalda oshirish . Masalan AQSHda 1836 va 1860 yillarda 2500 dan ortiq shtat banklari tashkil etilib ularning 100 dan ortig' I birinchi 10 yil ichida yopilib ketgan .Shu davrda banklar mustaqil ravishda muomilaga pul chiqarish huquqiga ega muomilada ularning 5500 dan ortiq turli pul belgilari amal qilgan . Banklar stixiyali ravishda pul muomilasini tashkil etishi umumiy nazoratning mavjud emasligi ularni inqirozga yuz tutishiga aholining ishonchini pasayishiga muomiladagi pullarning qadirsizlanishiga sabab bulgan shuningdek pulning vositasi funksiyalarini bajarmaslik xolatlari tez-tez sodir bulib turgan Bu esa moliyaviy yuqotilishiga sabab bulgan jumladan 1862 yilda banklarning inqirozga yuz tutishi natijasida AQSH ning yirik kompaniya va

firmalari 100 mlrd AQSH dollaridan ortiq zarar kurgan .Bularning omonidan barchasi AQSH xukumati tijorat bankllari va pul muomalasi ustidan tegishli nazoratga amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqadi 1913 yil AQSH da Federal zaxira tizimi tashkil etilib ushbu bankka yagona emissiya huquqi tijorat banklarini faoliyat litsenziyalash vazifasi yuklatilgan .

Iqtisodiy adabiyotlarda **dastlabki markaziy bank 1960** yil Shvedsiyaning Stokgolom shaxrida tashkil etilganligi qayd qilingan ushbu bankr oltin tangalar ostida depozit setifikatlarini momilaga chiqarilgan makur depozit sertifikatleri butun Shvesiya hududida tulov vositalarini bajargan bulib taqdim qiluvchiga oltin tanga berilishi bilin kafolatlangan Dastlabki emission bank 1694 yilda Angilya banki sifatida tashkil etilgan bulib, ushbu bank muomilaga pullarni emissiya qilish va banklarning tijorat veksellari ruyxatga olish bilan shug' ullangan Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakatlar urtasiga xalqaro savdo va hisob kitoblarning rivojlanishi markaziy bank zimasiga qushimcha vazifalarni yuklash zaruriyatini keltirib chiqadi endi markaziy banklar emission bankvazifasini bajarishdan tashqari mamlakatda keredit muassasalari tartibga solish iqtisodiyotda pul-kredit siyosatini amalga oshirish bilan shug' ullanadi .

Davlat mamlakat milliy valyutasini muomilaga chiqarish uni taryibga solish kredit muassasalarini faoliyatini nazorat qilish hisob-kitoblarini tashkil etish bilan bog' liq qator qonunlarni qabul qiladi shu tarzda davlat kredit muassasalari faoliyatini tashkil etish va pul muomilasini amalga oshirish buyicha barcha ishlarni tuliq o' z quliga oladi. Markaziy bankning tashkil topish shakillariga etibor qaratadigan bulsak ular davlat kapitali asosida tashkil topgan Markaziy banklar (Buyuk Biritaniya, Yevropa ittifoqi, Rossiya) aksiyadorlik shaklidagi markaziy banklar (AQSH, Italiya) aralash kapital ishtirokida markaziy banklar (Yaponiya Belgiya) kurinishida vujudga kelgan .Ayrim markaziy banklar dastlab aksiyadorlik shakliga tashkil etilib keyinchalik davlat tomonidan milliylashtirilgan takidalash joizki markaziy banklar qanday tashkil topgan bo' lishidan qat'iy nazar ular o' z vazifalarini davlat bilan o' zaro kelishuv va ularni siyosatlarini hamohang tarzda olib boradi ayniqsa ularning o' zaro yaqinligi mamlakatlar o' rtaida iqtisodiy

aloqalar rivojlanishning zamonaviy bosqichida juda chuqurlashdi. Markaziy bank davlat bilan juda yaqin aloqada faoliyat yuritib mamlakatda pul kredit siyosatini amalga oshirishda davlatdan mustaqil bulish juda muhim hisoblanadi .Agar davlat markaziy banklar pul kredit siyosatida bevosita almasha ularga pul kredit siyosatini amalga oshirish buyicha zarur darajadagi mustaqillikni bermasa mamlakat milliy valyutasi va pul muomilasi barqarorligini taminlashda qator muammolar vujudaga kelgan . Shujixatdan Markaziy banklar iqtisodiy va huquqiy jihatdan mustaqil hisoblanadi, ularning davlatga bog' liqligi yoki mustaqilligi turli mamlakatlarda turlichadir. Odatda mamlakat parlamentiga hisobdor bulgan Markaziy banklar ko' proq mustaqil hisoblanadi (AQSH Rossiya O'zbekiston) mamlakat moliya vazirligiga hisobdor bo'lgan Markaziy banklar mustaqilligi nisbatan pastroq hisoblanadi dunyoda bunday banklar kupchilikni tashkil etadi .Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirishda u yoki bu darajada davlatdan davlatdan mustaqil bo'lgani bilan o'zining pul-kredit siyosati orqali hukumatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish rejasini siyosatini qullab-quvotlashga va belvosita va bilvosita hisoblanadi .Shunday ekan markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati hukumatning makro iqtisodiy darajadagi siyosatini amalga oshirish nuqtai nazardan ishlab chiqilishi va amalyotga joriy etilishi lozim buladi .

Markaziy bankning funksiyalari

Ma'lumki Markaziy bankning asosiy maqsadi mamlakat milliy valyutasining barqarorligini taminlashdan iborat .Ular ushbu vazifani bajarish uchun qator funksiyalarni bajaradi ushbu funktsiya va vazifalar davlatning Markaziy bank tug'risidagi qonunida belgilab quyiladi .Sanoati rivojlangan shaharlarda Markaziy banklar asosan turta funktsiyani bajaradi :

- banknotalar emissiyasi ;
- pul-kredit munosabatlarini tartibga solish ;
- banklarning banki ;
- hukumat banki .

Banknotalarni emissiya qilish-markaziy bankning eng asosiy va dastlapki funksiyalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki muomiladagi pul massasi hajmini oshirish yoki kamaytirish aynan Markaziy bankning banknotlarini emissiya qilish funksiyasi bilan bog'liq bulib, uning hajmi iqtisodiyotdagi pul massasining hajmi bilan belgilanadi. Yani iqtisodiytda pul massasi va tavar massasi o'rtasidagi o'zaro bog'likni taminlashi milliy valyutaning barqarorligi va to'lov qobiliyatining mustahkamligiga bevosita va bilvosita tasir qiladi.

Markaziy bankning *pul-kredit munoabatlarni tartibga solish* funksiyasining sosiy maqsadi milliy valyutaning barqarorligini taminlashga qaratilgan bo'lib ushbu funktsiya qator pul-kredit instrumentlari orqali amalga oshadi.

Ushbu instrumentlar sifatida

- 1) *tijorat banklariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira sifati;*
- 2) *tijorat banklarni ayta moliyalash siyosati (hisob stavkasi) ;*
- 3) *ochiq bozordagi siyosati;*
- 4) *valyuta va dipozit siyosatlarini keltirish maqsadga muvofiq.*

Markaziy bank banklarning banki sifatida mamlakatlarning barcha kredit muassasalariga litsenziya beradi va ularni qaytarib oladi shuningdek tegishli iqtisodiy meyorlar asosida kredit muassasalari faoliyatini tartibga solib ularning ustidan tegishli nazoratni amalga oshiradi.

Markaziy bank hukumatning banki funksiyasini bajarishda asosiy etibor hukumatning oltin va valyuta zaxiralarni saqlash va ularni tasarruf qilish moliyaviy yordamini (kredit) berishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda Markaziy banklarning vujudga kelishi va ularning faoliyatini tashkil etilishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib dastlabki Markaziy bank tijorat banklari bazasida tashkil topgan ularning faoliyati va bajaradigan funksiyalari doimiy ravishda takomillashib kelmoqda.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati

Markaziy bank milliy valyutaning barqarorligini taminlash maqsadida mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jaroayonlarni etiborga olib o'zining pul-kredit siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati

iqtisodiyotida pul massasi yoki stavkalarini zarur darajadagi meyorini taminlash iqtisodiyotini pulga bo'lgan talabini qondirish yoki milliy valyuta kursini xorijiy valyutalarga nisbatan mustahkamlash yoki qator omillar nuqtai nazaridan turlicha ko'rinishda amalga oshiriladi shu jihatdan Markaziy bankning **restriksiyon (qattiq)** va **ekspansion** (yumshoq) pul-kredit siyosati turlarini keltirish mumkin. Restriksion pul-kredit siyosatida iqtisodiyotida pul massasi va kredit operatsiyalar hajmini kamaytirish va foiz stavkalarini oshirish bilan bog'liq tadbirlar amalga oshiriladi. Buning natijasida milliy iqtisodiyot kredit, deposit va soliq stavkalari oshishi, ayrim tadbirlarga davlat byudjeti xarajatlari qisqarishi yuz beradi, inflyatsiya darajasi jilovlanadi, mamlakat to'lov balansini sog'lomlashtirishga bo'lgan tadbirlar amalga oshiriladi. Ekspansion pul-kredit siyosatida odatda kreditlash hajmini oshirish, iqtisodiyotda pul massasining oshishi ustidan nazoratni susaytirish, soliq va bank foiz stavkalarini pasaytirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati restriksion yoki ekspansion bo'ladimi u keng qamrovli yoki selektiv xarakterga ega bo'lishi mumkin. Keng qamrovlida Markaziy bankning pul-kredit siyosati mamlakatdagi barcha kredit muassasalari va ularning barcha operatsiyalariga joriy etiladi, selektivda esa, pul-kredit siyosati alohida olingan tijorat banklar faoliyatida yoki ayrim operatsiyalar uchun tatbiq etilishi mumkin. Demak, Markaziy bankning pul-kredit siyosati usullari xilma-xil bo'lib, ularni joriy etishda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holat muhim o'rin tutadi. Masalan, mamlakatda iqtisodiyotning pasayishi va ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan sharoitda Markaziy bank **arzon pullar siyosatini** qo'llashi mumkin. Bunday siyosatning maqsadi kredit foiz stavkalarini pasaytirish orqali iqtisodiyotga pul taklifi va investitsiyalar hajmini oshirishga qaratilgan, bu albatta mamlakatda iqtisodiy o'sish va bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Demak, iqtisodiyotda pul taklifini oshirish kredit foiz stavkalarni pasayushiga olib keladi, qimmatli qog'ozlarni sotib olish, majburiy zaxira normasi va qayta moliyalash stavkasi (hisob stavkasi) darajasini pasaytirishi lozim. Iqtisodiyotda inflatsiya darajasi yuqori bulgan hollarda Markaziy bank qimmat pullar siyosatini qullaydi, buning asosiy maqsadi umumiy xarajatlar va

umumiy takliflarni qisqartirishga qaratiladi Bunda Markaziy bank tijorat banklarning ortiqcha pul mablag' larini sterilizatsiya qilish maqsadida va davlatning qimmatli qog' ozlarini sotadi, majburiy zaxira va hisob stavkalari normasini oshirdi.

Pul-kredit siyosatining qator usullari mavjud bulib, ularning asosiylari quyidagilar :

- *tijorat banklariga nisbatan urnatilgan majburiy zaxira siyosati ;*
- *tijorat banklarini qayta moliyalash siyosati (hisob stavkasi) ;*
- *ochiq bozordagi siyosati;*
- *valyuta va depazit siyosati.*

Iqtisodiy adabiyotlarda va xalqaro bank amaliyotida Markaziy banklarning pul-kredit siyosati monetar siyosat, monetar instrumentlar tarzida ham yuritiladi. Biroq, Markaziy bankning pul-kredit siyosati qanday tarzda yuritilishiga qaramasdan, ularning maqsadi bitta masalaga, ya' ni mamlakat milliy valyutasining barqarorligini ta' minlashga qaratiladi.

Xalqaro bank amaliyoti va xo' jalik yuritish tajribasidan ma' lumki, milliy valyuta sotib olish qobiliyatining tushib ketishi iqtisodiyotda inflyatsiya darajasining oshishiga va mamlakatda ishsizlik darajasining oshishiga va mamlakatda ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi va aksincha . Ya' ni, inflyatsiya darajasining pasayishi esa mamlakatda ishsizlik darajasining oshishiga olib keladi.

Markaziy bank aynan shu iqtisodiy jarayonni milliy iqtisodiyotga salbiy ta' sir etmaydigan darajada ushlab turish va milliy valyutaning barqarorligini taminlash uchun pul-kredit siyosati usullarini amaliyotga joriy etadi.

O' zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosati O' zbekiston Respublikasi Markaziy banki to' g' risida" gi Qonunning 23-moddasiga binoan kelgusi yil uchun mamlakat monetary siyosatining asosiy yo' nalishlari sifatida ishlab chiqiladi.

Xususan, ushbu siyosat:

- iqtisodiy kon' yunkturaning tahlili va istiqbol ko' rsatkichlarini;

- muomalada bo'lgan pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralarini;
- pul massasi yillik o'sish sur'atining aniq maqsadli ko'rsatkichlarini, shu jumladan, Markaziy bank ichki aktivlarining o'zgarishini;
- pul-kredit sohasini tartibga solishga doir harakatlarning aniq maqsadli asosiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Tijorat banklariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira siyoti.

Markaziy bankning pul-kredit siyosatini asosiylaridan biri tijorat banklariga o'rnatilgan majburiy zahiralar siyosati hisoblanadi. Markaziy bank ushbu siyosati orqali, birinchidan, banklarning resurslarini chegaralashi natijasida iqtisodiyotda pul massasini tartibga soladi, ikkinchidan, bank iqtisodiy jihatdan to'lovga layoqatsiz holatiga tushib qolgan paytda, qisman bo'lsada uning mijozlarining manfaatlarini himoya qiladi. Tijorat banklari majburiy zaxiralarga mablag'ni "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi QONUNNING 28-moddasi, "Banklar va bank faoliyat to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasiga asosan Markaziy bank tomonidan 2000 yil 25 martda ishlab chiqilgan "Banklar tomonidan Markaziy bankda majburiy xizmatlarni deponentlash tartibi to'g'risida"gi 449-sonly Nizom asosida o'tkazadi. Majburiy zaxiralarning obyektlari bo'lib, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag'lari hisoblanadi. Banklar chet-el valyutasidagi mablag'lar jismoniy shaxslar depozitlari, deposit va jamg'arma sertifikatlari, ipoteka obligatsiyalari chiqarish yo'li bilan jalb qilingan mablag'lar hisobidan zaxiralarni amalga oshirmaydi. Banklar yoki ularning filiallari har biroy boshlangandan so'ng uch ish kuni mobaynida Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasiga bank rahbari va bosh buxgalteri imzolagan majburiy zaxiralar hisob-kitobini taqdim etad. Bunda bankning jalb qilingan mablag'larning hajmi oshishi natijasida zaxiraga qo'shimcha o'tkazish yoki jalb qilingan mablag'lar hajmining kamayishi natijasida oldin zaxiraga o'tkazilgan summaning bir qismini qaytarish zarurligi ko'rsatiladi.

Markaziy bankning hududiy Boshqarmalari Har oyning 8-kunigacha banklar tomonidan majburiy zaxiralarni deponentlashga doir talablar bajarilishi to'g'risida hisob-kitobni Markaziy bankka taqdim etadi.

Tijorat bankida majburiy zaxiralar summasi 10309-“ Markaziy bankdagi majburiy zaxira hisob varag' i” da hisobga olinadi. Markaziy bankda esa ushbu summa 21312-hisob varaqda yuritiladi.

Markaziy bank o'z faoliyatini boshlagandan buyon mamlakatda samarali majburiy zaxiralar siyosatini olib bormoqda, buning natijasida tijorat banklarining jalb qilingan mablag' lariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxiralarning me'yori pasayib borish tendentsiyasiga ega bo'lgan.

Tijorat banklarini qayta moliyalash siyosati (hisob stavkasi)

Bozor iqtisodiyotining dovishimiy ravishda rivojlanib va takomillashib borishi iqtisodiyotda qushimcha pul resuslariga bulgan talabini iqtisodiyotda vatanchilik bush pul mablag' larini o'ziga jalb qilish orqali qondiradi .xujalik yurituvchi subektlarning ushbu talabining o'z vaqtida va past kredit foizlari asosida ta'minlanmasligi mamlakat iqtisodiyotining rivojiga salbiy ta'sir kursatadi .Albatta bu jarayonni iqtisodiyotda pul taqchilligi sifatida sifalash mumkin . Bir jixatdan iqtisodiyotda vujudga kelgan pul taqchilligi milliy valyutaning inflatsiya darajasini pasayishiga olib keladi lekin iqtisodiyotda pul tiqchilligi darajasining oshishi kabi xavfli ijtimoiy-iqtisodiy tanglikni keltirib chiqaradi. Markaziy bank aynan mana shunday ijtimoiy-iqtisodiy xavfni tijorat banklarning qushimcha moliyaviy resuslariga bulgan talabining o'zining qayta moliyalash siyosati orqali bartaraf etadi, yani Markaziy bank tijorat banklariga arzon moliyaviy resuslarini berishi orqali iqtisodiyotga pul massasi va tavar massasi o'rtasidagi muvozanatni taminlaydi . Demak Markaziy bank qayta moliyalash siyosati orqali mamlakatdagi pul resursleri bozordagi foiz stavkasiga tasir etib milliy valyutaning barqarorligini mustaxkamlaydi chunki qayta moliyalash stavkalarining pasaytirishi iqtisodiyotda pul massasining ortishiga aksincha uning oshirilishi esa tijorat banklarining pul resuslariga bulgan talabini kamayishi natijasida iqtisodiyotda pul massasining pasayishiga olib keldi.

Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi orqali faqat pul bozoriga emas balki mamlakat fond bozorida xam tasir utkazadi. Qayta moliyalash stavkasining ortishi pul bozordagi deposit mablag' larning foizini va bank krediti foizi oshib borishiga olib keladi. Pul bozorida deposit mablag' larning va bank krediti foizini ortishi o' z navbatida fond bozorida qimmatli qog' ozlarga bulgan talabning pasayishiga va ularning taklifini ortishiga olib keladi . chunki pul bozorida depozit mablag' lariga to' lanadigan foizlar miqdorining ortishi pul bozori ishtirokchilari tug' ridan-tug' ri moliyalashtirishga bo' lgan manfaatdorligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash siyosati tarixidan

Markaziy bank mustaqillikning dastlabki yillarida o' zining qayta moliyalash stavkasidan inflyatsiyaga qarshi kurashda asosiy qurollardan biri sifatida foydalandi. Milliy valyuta muomalaga kiritilgan paytda ayta moliyalash stavkasi yiliga 150 % ni tashkil etar edi. Ammo milliy valyutani muomalaga kiritilgungacha bo' lgan davrda inflyatsiyaning inertsiya kuchi shu darajada katta ediki, tezda qayta moliyalash stavkasining bu darajada yetarli emasligi ma' lum bo' lib qoldi. Inflyatsiyani kamaytirish borasida yanada qat' iyroq siyosat yuritish maqsadida Markaziy bank 1994 yil oktyabr oyidan boshlab qayta moliyalash stavkasini 150 % dan 225 % gacha ko' tardi. 1995 yil fevral oyida 250 % gacha oshirilgn bo' lsa, mart oyidan boshlab 300 % etib belgilandi*.

Inflyatsiya darajasining anchagina kamaytirilishi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini ham asta-sekin tushirib borishi uchun zamin yaratdi. 1996 yili qayta moliyalash stavkasi 50% ni tashkil etgan bo' lib, keyinchalik pasayib boorish tendensiyasiga ega bo' lgan. Xususan, 2003 yil 16 iyulda 24%, 2003 yil 10 sentyabrda 20 %, 2004 yil 5 iyulda 18%, 2004 yil 12 yanvarda 16%, 2006 yil 15 iyulda 14%, 2011 yil 1 yanvarda 12% belgilandi**.

*O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. F.Mullajonov tahriri ostida. T.: <<O'zbekiston nashriyoti, 2001 yil. 59-60 betlar.

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining e' lon qilingan ma' lumotlari asosida tayyorlandi.

Ochiq bozordagi siyosati. Markaziy bankning ochiq bozordagi siyosati-bu davlatning obligatsiyalari, xazina veksellari va boshqa qimmatli qog' ozlarni yuridik va jismoniy shaxslarga sotishi va sotib olishi bilan bog' liq operatsiyalaridir. Markaziy bank davlatning va o' zining qimmatli qog' ozlarni sotish orqali iqtisodiyotda pul masasini pasaytiradi. Bu o' z navbatida milliy valyutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamlash va inflyatsiya darajasining pasayishiga olib keladi. Markaziy banksotilgan qimmatli qog' ozlarni qayta sotib olish orqali muomaladagi pul masasining osishiga va tijorat banklarining qo' shimcha pul resurslariga bo' lgan ehtiyojni qondirishga zamin yaratadi. Markaziy bank hozirgi kunda Davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarini va o' zining obligatsiyalarini muomalaga chiqarish orqali ochiq bozordagi operatsiyalarni amalga oshiradi. Markaziy bank ushbu operatsiya orqali tijorat banklarining likvidligiga va qimmatli qog' ozlarning foiz stavkasiga ta' sir qiladi. Markaziy bank obligatsiyalari va davlatning qimmatli qog' ozlarni sotish iqtisodiyotda pul massasini kamaytiradi, ularni muomaladan qaytarib sotib olish esa teskari natijani beradi. Markaziy bankning ochiq bozordagi qperatsiyalari orqali pul-kredit siyosatini amalga oshirishning samarali usullardan biri hisoblanib mamlakatning pul va fond bozoridagi bevosita tasir kursatadi shuningdek milliy iqtisodiyotda muxim axamyat kasp etadi . Markaziy bank va xukumat tomonidan chiqariladigan qimmatli qog' ozlar eng avvalo ta' minlanganligi va foizining nisbatan yuqoriligi ularning jozibadorligini oshiradi va yuridik hamda jismoniy shaxslarni sotib olishga undaydi. Shuningdek ushbu qimmatli qog' ozlarga fond bozorlarida talabning yuqoriligini ta' minlashga erishish, ularni sotib oluvchilarning likvidli aktivlarining hajmini ortishiga xizmat qiladi shu bois investorlarda qushimcha mablag' larga zaruriyat tug' ulganda ularni fond bozorida qiyinchiliklarsiz sotish orqali talabini qondirish imkonini beradi. Shu bilan birga ochiq bozordagi operatsiyalar o' zining zaif jixatlariga xam ega. Birinchidan iqtisodiyotda infilatsiyaning mavjudligi yuridik va jismoniy shaxslrga davlatning va Markaziy bankning qimmatli qog' ozlarni sotib olishga bulgan manfaatdorligini tushirib yuboradi .Ikkinchidan qimmatli qog' ozlning qaytarish

mudatlari yetib kelganda ularga tulanadigan foizlar bilan qaytarib sotib olinishi mamlakatda dastlabki pul massasini ortishga olib keladi qimmatli qog'ozlarga tulanayogan foizlaning hajmi tovarlar bilan taminlangan bulsa iqtisodiyotda baxo va inflyatsiya darajasining oshishiga zamin yaratadi.

Hukumat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlardan tushgan mablag'lar asosan davlatning strategic ahamiyatiga ega bulgan vazifalarini bajarishga va byudjet taqchilligini qoplashda yunaltiriladi . davlat byudjetining taqchilligi noinflyatsion qoplash manbasi bulgan qisqa muddatli obligatsiyalar (DQMO) 1996 yil mart oyidan muomilaga chiqarildi .

Markaziy bank 1998 yil yanvardan boshlab ikkilamchi bozorda davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarini o'tkaza boshldi.

Markaziy bankning o'ziga bozordagi operatsiyalari " O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bilan REPO bitimlari amalga oshirish tug'risida " muvqqat Nizom " O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yuridik shaxslar uchun obligatsiyalarni chiqarish va ular muomilasi tug'risida " " O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligatsiyalarni chiqarish va ular muomilasi tug'risida " " O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan banklarga lambard krediti berish tartibi tug'risida nizom" va boshqa me'yoriy hujjatlar tug'risida tartibga solinadi.

Valyuta va deposit siyosati . Markaziy bank **valyuta siyosatining** asosiy maqsadi milliy valyuta kursining xorijiy mamlakatlar valyutasi kursiga nisbatan nisbatining barqarorligini taminlashda qaratilgan Markaziy bank o'zining vakolati doirasida hukumat bilan hamkorlikda yunalishlarni belgilaydi, mamlakatda valyuta siyosatining joriy va krelgusi davrda xolti yuzasidan rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi Bularning ichida eng asosiylari sifatida mamlakatninng tulov pul kredit siyosati va milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlashning tartibini takidlash mumkin

Markaziy bank valyuta siyosatiniolib borishda quyidagi asosiy vazifalarini bajaradi :

1. Vakolati tijorat banklarining o'zlari va mijozlari nomidan chet el valyutasidagi soyish vasotib olishning miqdorini, yani ochiq valyuta pozitsiyalarni ajratadi .

Ochiq valyuta pozitsiya deganda, banning tegishli chet el valyutasidagi aktivlarni uning majburiyatidan ortiqchaligi (uzun valyuta pozitsiyasi) yoki ushbu aktivlarning majburiyatidan pastligi(qisqa valyuta pozitsiyasi) tushiniladi .

2. O'zbekiston Respublikasi valyuta bozorida chet el valyutalarini sotish va sotib olishni tartibga solib boradi ;

3. Tijorat banklarida chet el valyutasi va tulov xujjatlari hamda boshqa qimmatliklar buyicha kassa operatsiyalarini tashkil etish va amalga oshirishning tartibini belgilaydi

4. Vakolatli banklarda norezident O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi hisob-varaqlarning yuritish tartibini belgilaydi.

5. Vakolatli banklarda rezident va norezident (yuridik va jismoniy shaxs) lariga chet el valyutasida hisobvaraqlarni ochish va yuritish tartibini belgilaydi.

6. O'zbekiston Respublikasida korxona va tashkilotarning chet el valyutalarini qabul qilish hisobga olish saqlash va kassa inziomiga rioya etishini tartibga soladi.

Investitsion loyihalarni erkin valyutada kreditlashning tartibini belgilaydi.

Markaziy bank valuta intervensiyasidan keng miqyosda foydalanadi.*Valyuta intervensiyasi*-bu Markaziy bankning milliy valyuta kursi va pulning yalpi taklif va talabiga tasir etishi uchun moliya bozorida chet el valyutasini sotish va sotib olish bilan bog' liq operatsiyasidir.

Markaziy **bank depozit** orqali mamlakat resurs bozori tijorat banklari deposit siyosati va deposit operatsiyalarni holatiga tasir kursatadi . oadatda tijorat banklari depozit siyosatini ishlab hiqarish depozit siyosatining asosiy yunalishlari buyicha asosiy mezonlarni aniqlab beradi. Bundan tashqari Markaziy bank qayta moliyalash stavkalarini o' zgartirish orqali depozitlarning kupayishi va qiishiga sabab bulishi mumkin.Umuman olganda Markaziy bank o' zining valyuta va depozit siyosatiga orqali muomiladagi pul massasi hajmiga tasir kursatadi.

2017 yil 13 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-3272-sonli "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari tug'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorda mamlakatimizda Markaziy bankning monetary siyosatini yanada takomillashtirish borasida quyidagi vazifalar belgilab quyilgan

➤ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ichki narxlarining barqarorligini ta'minlashda erishish prinsip va mexanizmlarni xorijiy markaziy banklar tomonidan qullaniladigan inflyatsiyaviy targetlash rejimiga o'tish;

➤ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2018 yilning 1 martgacha rivojlantirish va pul-kredit siyosatini amalga oshirishning o'rta muddatli konsepsiyasini hamda 2018-2021 yillarda Konsepsiyani amalga oshirish buyicha "yul xaritasini" ishlab chiqish va tasdiqlash;

➤ Umumiy iqtisodiy, soliq-byudjet va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish amalotini takomillashtirish bunda iqtisodiy o'sish, davlat byudjetining va iqtisodiyotdagi narxlar darajasini barqarorligi buyicha o'zaro harakatlar va maqsadlarning kelishilganligini taminlashga alohida e'tibor qaratish;

➤ Likvidlikni ta'minlash va jalb qilish operatsiyalari buyicha pul-kredit siyosatining samarali qullaniladigan foiz instrumentlari turlarini kengaytirish;

➤ Tijorat banklari tomonidan foiz stavkalarini shakllantirishda shu jumladan kreditlar buyicha bozor mexanizmlarini keng joriy etish;

➤ Ilg'or xorijiy tajribaga muvofiq makroiqtisodiy tahlil va pragnoslarni takomillashtirish;

➤ Olib borayotgan pul kredit siyosatining jumladan amalga oshirayotgan siyosatda qo'llanilayotgan instrumentlar va yakuniy maqsadlar to'g'risida axborot yetkazib berish yuli bilan shaffoflik va oldindan bashorat qilish imkoniyatni oshiradi.

➤ Qarorda kursatilgan vazifalar ijrosini ta'minlanishi kelgusida

mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustaxkamlash, Markaziy bank pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirishda muxim axamyat kasp eadi.

Muomila uchun zarur bulgan naqt pullar miqdorini aniqlash asoslari

Naqt pul muomalasini tartibga solishning *asosiy vazifasi, bu-muomilaga chiqarilishi yoki olinishi lozim bulgan nqt pul miqdorini aniqlashdan iboratdir.* Ushbu vazifa muomila uchun zarur next pul mablag' lariga bulgan talabini aniqlash orqaliamalga oshiriladi.

Ma' lumki naqt pullar kichik xajimdagi chakana va uyishmagan savdo hamda naqt pulli xizmatlar uchuntulovlarda qulaniladi .Yoki naqt pul aylanmasining umumiy pul aylanmasidagi ulushi yuqorida kursatilgan naqt pulli tulovlarning jami tulovlardagi ulushi bilan aniqlanadi. Demak naqt pulga bulgan talabumumiy pul massasiga bo' lgan talabining bir qismidir . Lekin umumiy pul massasiga nafaqat tavarlar va xizmatlar hajmi balki pulning aylanish tezligi va bank foiz stavkalarining darajasi xam tasir etadi. Ushbu omillar nazariy jixatdan omillar tomonidan alaqachon asoslanib ulgurilgan va bugungi kunda juda kup mamlakatlarning iqtisodiyotini boshqarishda pulga bulgan talab va taklifini tartibga solish mexanizimini sifatida qullanilmoqda. Fanda bu usul monetarizim (pulning miqdoriy nazaryasi) nomi bilan mashhur bulib kelgan. Bunda shuni qayd qilish lozimki klassikk-dastlabki mometarizm asoschilari muomila uchun zarur bulgan pul miqdorini asosan muomiladgi mavjud tovarlar qiymati va turli pul to' lovlar yig' imdisidan kelib chiqqan holda aniqlashga uringanlar.

Keyinchalik kapitalistik Tovar ishlab chiqarish rivojlangan sari muomiladagi pul miqdorini belgilavchi yangi abektiv omillar vujudga kela boshladi . Ayniqsa pul muomilasi banklar tomonidan tartibga solina boshlagandan sung pul muomilasi banklar tomonidan tartibga solina boshlanga sung pulga bulgan talab taklif banklarning ssuda foizi darajasiga kuproq bog' lanib borishi kuzatilgan natijada iqtisodchi olimlar tomondan pulga bulgan talab va taklifni boshqarish bilan bog' liq yangi zamonaviy monetarizim vujudga kelgan. Albatta ushbu bobda naqt

pul muomilasi uchun zarur pul miqdorini aniqlash buyicha olimlar tomonidan bugungi kungacha yaratilgan barcha nazariyalarni tahlil qilib chiqish mumkin emas. Lekin Markaz banklar tomonidan amalga oshirilayotgan zamonaviy naqt pul siyosatining negizini chuqurroq tushinish uchun ularning ayrimlarini keltirib o' tamiz. Masalan ingliz iqtisodchisi U.Petti (1623-1687) muomala uchun zarur bo' lgan naqt pullar miqdori aholining bir xaftalik pul daromadlarini, yer ijarasi uchun to' lanadigan haqning yarmi va barcha eksport qilinadigan tovarlar sumasining turtdan birqismiga teng bulishi lozim deb hisoblangan. Ingliz faylasufi J.Lokka (1632-1704) muomila uchun zarur bulgan naqt pullar miqdorining ish haqining elikdan bir qismi, yer ijara haqining turdan bir qismi va yillik Tovar aylanmasining yigirmadan bir qisimlarining yig' indisi sifatida topshirish taklif qilgan. Ingliz iqtisodchisi R.Kantilon 91680-1734) muomila uchun zarur bulgan naqt pullar miqdorini mamlakatdagi mavjud maxsulotlar qiymatining tuqqizdan bir qismi yoki yer ijarasi uchun tulanadigan tulanadigan haqning uchdan bir qismiga teng bulishi lozimligini etirof etadi.Shotland iqtisodchisi Amitt (1723-1790) ushbu kuratgichni aniqlash mumkin emas deb hisoblangan bo' lsa ham, lekin ko' pgina olimlar uni yillik umumiy ishlab chiqarilgan maxsulot qiymatining beshdan o' ndan yigirmadan va o' ttizdan bir qismiga teng bo' lishi ta' kidlanganlarini eslatib o' tadi .Agar etibor berilgan bulsa yuqorida sanab o' tilgan nazariyalar klasik yani dastlabki monetarizimga talluqli ekanligini sezish giyin emas.

MAVZU: MARKAZIY BANKNING MUSTAQILLIGI

REJA:

- 1. Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi va uni belgilovchi mezonlar**
- 2. Markaziy bankning mustaqilligi va uni belgilovchi mezonlar**
- 3. O' tish iqtisodiyotida markaziy banklar**

Markaziy bank mustaqilligining mezonlari va zarurligi

Markaziy bankning iqtisodiyotdagi o' rni va ahamiyati hamda uni mamlakat

hududida bo' layotgan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish-dagi roli haqida munozarali bahslar bir necha marotaba o' zining rivojlanish yo' nalarini o' zgartirdi va buning oqibatida iqtisodiyot-dagi bank tizimining birinchi pog' onasida real o' zgarishlar bo' lishiga sabab bo' ldi. Bu esa birinchi navbatda davlat boshqaruv organlariga bo' lgan munosabatlarda namoyon bo' ldi. Mazkur muammoni tahlil etishda asosiy e' tibor-mamlakat Markaziy bank siyosatining davlat iqtisodiy siyosati yo' nalariga qaramligi, ya' ni aniqrog' i bu tobelikning darajasiga bog' liq. Markaziy bankning pul-kredit siyosati milliy iqtisodiyotni tartibga solish siyosati bilan chambarchas bog' liq bo' lsa, bunday bog' liqlikni samarali deb hisoblash mumkin. Lekin, shu narsa katta ahamiyatga egaki, bu bog' liqlik Markaziy bank tomonidan qanchalik ixtiyoriy ravishda tuzilgan va u kimga hisobdor va bank tizimida pul-kredit siyosatini tartibga solishdagi metodlarni va yo' nalarini tanlashda hamda qonun bo' yicha Markaziy bank mustaqilligi darajasi va bunga haqiqatda erishilganligiga ahamiyat berish lozim.

Markaziy bankning mustaqilligi va iqtisodiyotni tartibga solish-dagi o' rni ko'p hollarda milliy urf-odatlardan va bank tizimining milliy xususiyatlaridan kelib chiqadi. Lekin, umumiy yo' nalarlarni ham asosiy iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga taqqoslagan holda ko' rib chiqish mumkin. Shundan kelib chiqib, Markaziy bankning tartibga solish mexanizmini xarakterli xususiyatlari bilan xuddi shu davrda amal qilayotgan iqtisodiy nazariyalar yo' nalarini o' rnasida etarli darajada o' xshashlik-larni tnisol qilib keltirish mumkin. Davlat aralashuvi kuchaygan davrda (keynschilar tarafdorlari nazariyasi bo' yicha) Markaziy banklarning o' rni kuchayadi, tartibga solishning ma' muriy metodlarini qo'llash kengayadi, va aksincha, monetaristlar nazariyasining ta' siri kuchayishi va davlatning iqtisodiyotga aralashuvining kamayishi oqibatida markaziy banklarning iqtisodiyotni tartibga solishda bozor mexanizmlaridan foydalanishga o' tishiga majbur bo' ladilar. Markaziy bank shunday vaziyatlarda o' zining vakolatining bir qismini ichki pul-kredit va valyuta siyosatidagi muammolarni echish uchun Moliya Vazirligiga beradi.

Biroq, g' arb iqtisodchilari nuqtai-nazarlarining tahlili shuni ko' r-satadiki,

Markaziy bankning iqtisodiyotdagi o'zgarishiga subyektiv omillar ham katta ta'sir ko'rsatishi mumkin, shu jumladan, hatto bank rahbarining shaxsiy sifatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Misol qilib, G'arbiy Yevropadagi mamlakatlar Markaziy bank-larining rolini o'zgarishini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda bir qator iqtisodchilar 70-yillarda Markaziy banklarning kuchayishini shu milliy bank tizimining boshqamvida ko'zga ko'ringan hukuinat va halqaro doiralarda obro' - e' tibi yuqori bo'lgan moliya arboblari boshqarganligini ta'kidlaydilar. Buning oqibatida o'sha davrdagi milliy valyuta raqobatbardoshligiga xavf soluvchi hukumatning iqtisodiy chora-tadbirlariga qarama-qarshi "qattiq siyosat" qo'llash mumkin bo'lgan edi. U yoki bu Markaziy bankning o'z faoliyatidagi mustaqillik darajasini aniqlash uchun ularning mustaqillik mezonlari (belgisi) ga xolis baho berish kerak. Xorijiy adabiyotlarda markaziy banklarning mustaqilligini aniqlashning bir necha usullari qayd etilgan. Asosan markaziy banklarning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligi ajralib (farqlanib) turadi.

Markaziy bankning mustaqilligi darajasini aniqlashda uning pul-kredit siyosatini tanlash va o'tkazishda davlat boshqaruv organlariga ko'proq yoki kamroq qaramligiga e'tibor beriladi.

Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi-bu uning o'z instrumentlaridan o'zi xohlagan yo'nalishda va chegaralanmagan miqdorda foydalana olishiga aytiladi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning markaziy banklarini turkumlanishi pul-kredit siyosati masalalarini hal etishdagi mustaqilligi xorijiy adabiyotlarda turli mezonlarga qarab amalga oshiriladi.

Umuman olganda markaziy banklarning mustaqilligini ustunligini o'rganish tadqiqotlarida subyektiv yoki obyektiv faktorlarga baho berib ajratish mumkin. Masalan, subyektiv faktorlar sifatiga mamlakat Markaziy banki bilan hukumat o'rtasidagi o'zaro rasmiy munosabatlarni hamda Markaziy bank rahbarlarining hukumat doirasi bilan bo'lishi mumkin bo'lgan norasmiy aloqalarni tanlab ko'rsatishgan.

Chet el mualliflarining tadqiqotlarida mustaqilikning 4 ballik tizimi tanlangan: 1-ballga-markaziy banklarning davlat boshqamvidan past darajada mustaqilligi, ya'ni to'la qaramligi; 4-ballga-mustaqillik darajasi juda yuqori bo'lgan markaziy banklar kiradi.⁷³

Sanoati rivojlangan mamlakatlar Markaziy banklarining mustaqilligini obyektiv faktorlariga baho berishda, masalan, quyidagi inezonlarni kiritish mumkin:

- > Markaziy bankning kapitalida va foydani taqsimlashda davlatning ishtiroki;
- > bank rahbarlarini tayinlash (saylash) dagi tartib va ularning faoliyat ko'rsatishi muddati hamda davlat tomonidan milliy bankning faoliyatini nazorat qilish shakli;
- > Markaziy bank vazifalarini aniqlashni qonunchilikda yoritilish darajasi;
- > Markaziy bank rahbariyati qarorini davlat organlari o'qitilgan qonun bilan to'xtatishini yoki davlatning umumiy iqtisodiy yo'nalishi bilan Markaziy bankning pul-kredit doirasidagi tadbirlarni tartibga solishning mavjudligi;
- > mamlakat Markaziy bankining davlat harajatlarini to'g'ri va egrimoliyalashtirishni tartibga soluvchi qoidaning mavjudligi va shakllari.

Markaziy bankning monetar siyosatni amalga oshirish va faoliyatini tashkil etishda mustaqilligining ta'minlanishi mamlakatda bozor iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishi va milliy valyutaning barqarorligini tahrinlash, shuningdek aholi va mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchning mustahkamlashda muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonunda "Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish borasida mustaqildir. Davlat Markaziy bankning majburiyatlari yuzasidan, Markaziy bank esa davlatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, bosharti, ular o'z zimmlariga bunday majburiyatlarni olmagan bo'lsalar yoki qonunlarda boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa"⁷⁴, deya belgilab qo'yilgan.

Xalqaro amaliyotda Markaziy banklarning mustaqilligi quyidagi mezonlar asosida aniqladi:

- > pul siyosatining ochiq e'lon qilingan maqsadlari mavjudligi;
- > hukumat Markaziy bank bashorat qilgan inflyatsiya ko'rsatkichlarini qabul qilish tartibi;
- > Markaziy bankning qaror qabul qilish jarayonida hukumat yoki boshqa organlar tomonidan aralashuv darajasi;
- > Markaziy bankka mansabdor shaxslarni tayinlash tartibi.

Maqsadlarni belgilashda mustaqillik, agar asosiy maqsad yokipul-kredit siyosatining maqsadlari mamlakat qonunchiligida aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, markaziy bank o'z faoliyatini mustaqil ravishda belgilashi mumkin. Operatsion mustaqillik, markaziy bank o'z-o'zidan amalga oshiradigan oraliq va monetar siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, bu esa pul-kredit siyosatining yakuniy maqsadlariga erishish orqali milliy valyutaning barqarorligiga yo'naldiriladi. Markaziy bankning pul-kredit siyosatining maqsadlarini mustaqil ravishda belgilash va operativ mustaqillikka erishish huquqi sifatida joylashtirilishi, moyil hukumatning pul-kredit siyosatiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatini kamaytirishga yordam beradi deb taxmin qilish mumkin. Monetar siyosat vositalarining mustaqil bo'lishi, o'z maqsadlariga erishish uchun siyosat vositalarini tanlashda Markaziy bankning to'liq mustaqilligini nazarda tutadi. Bu pul-kredit siyosati sohasida tezkor qarorlar qabul qilish vakolatini pul hokimiyatiga topshirish uchun hukumat (asosiy) va markaziy bank (agent) o'rtasida bir xil kelishuvni tuzish deganidir.

Markaziy bankning mustaqilligini aniqlovchi indekslar va ularning tavsifi

Iqtisodiy adabiyotlarda Markaziy bankning mustaqilligi tushunchasi turli iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan.

Massachusetts texnologiya universiteti professori Stenli Fisher-ning fikriga ko'ra, Markaziy bank mustaqilligining 2 turi mavjud:

- instrumentlarni tanlashdagi mustaqillik;
- maqsadlarni tanlashdagi mustaqillik.

V. Grilli 1991 yilda fanga Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi tushunchasini kiritdi. Uning fikriga ko'ra, Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi-

bu Markaziy bank rahbariyatini tayinlash jarayo-nini hukumatdan mustaqilligidir.

Ammo hozirgi davrda Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi nafaqat Markaziy bank rahbariyatini tayinlash jarayonidagi mustaqil-likni, balki pul-kredit siyosatini amalga oshirishdagi mustaqillikni ham o'z ichiga oladi.

Ko'pchilik iqtisodchi olimlar-(Maskiandaro, Tabellini, Tsukerman, Eyffinger, Shennaev va boshq.) tomonidan Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligini mavjudligi e'tirof etilgan.

Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi-bu Markaziy bank-ning o'z ixtiyoridagi mablag'lar va instrumentlardan foydalanishda hukumatdan va davlat boshqaruv organlaridan mustaqilligidir.

Markaziy bankning mustaqilligini belgilovchi indekslar:

- Tsukerman indeksi;
- GMT (Grilli, Maskiandaro va Tabellinilar omonidan asos solingan) indeksi;
- Eyffinger-Shaling indeksi.

Tsukerman indeksi mustaqillikni tavsiflovchi 4 ta guruhga bo'lingan 16 ta ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtiradi.

1. Kadrlar siyosatini mustaqilligi;
2. Pul-kredit siyosatini ishlab chiqish;
3. Uning maqsadlari va davlat byudjetini moliyalashtirishni cheklangan.

Har bir 16 ta ko'rsatkich 0 dan 1 gacha belgilanishi mumkin.

GMT indeksi 2 qismdan iborat bo'lib, MBning siyosiy va iqtisodiy mustaqilliligini belgilaydi. Har bir qism o'zida indekslarni aks ettirib faqat 2 ta ko'rsatkich bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda GMT indeksi MBning mustaqilliligini baholash uchun ko'plab ishlatilayotgan indeksdir, chunki uni hisoblash uchun etarli ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi.

GMT indeksi bo'yicha Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi 8 ta mezon bo'yicha baholanadi:

1. Markaziy bank rahbari Hukumatning aralashuvisiz tayinlanadi.
2. Markaziy bank rahbari 5 yildan ortiq muddatga tayinlanadi.
3. Markaziy bank Boshqaruvchilar kengashi a'zolari Hukumat-ning

ishtirokisiz tayinlanadi.

4. Markaziy bank Boshqaruvchilar kengashi bankni 5 yildan ortiq boshqaradi.

5. Markaziy bank Boshqaruvchilar kengashida Hukumat vakil-larining majburiy ishtirokiga zaruriyat yo‘q.

6. Pul-kredit sohasida qabul qilingan qarorlarni Hukumat tomonidan ma‘qullanish zaruriyatining yo‘qligi.

7. Markaziy bankda qonun bo‘yicha ustuvor maqsadlardan biri sifatida mamlakatda baholar barqarorligini ta‘minlash majburiyati bo‘lishi kerak.

8. Markaziy bank Hukumat bilan qarama-qarshilikka borib qol-ganda, uning pozitsiyasini kuchaytirish imkonini beradigan qonun-chilik me‘yorlarining mavjudligi.

*GMT indeksi bo‘yicha Markaziy bankning **iqtisodiy mustaqilligi** 7ta mezon bo‘yicha baholanadi:*

1. Hukumatga avtomatik tarzda kreditlar berish jarayonining mavjud emasligi.

2. Markaziy bank kreditlari Hukumatga bozor stavkalarida beriladi.

3. Markaziy bank kreditlari Hukumatga ma‘lum uddatga beriladi.

4. Kreditlar Hukumatga cheklangan miqdorda beriladi.

5. Markaziy bank davlat qimmatli qog‘ozlarining birlamchi ishtirokchisi hisoblanmaydi.

6. Markaziy bank davlat qimmatli qog‘ozlarining birlamchi ishtirokchisi hisoblanmaydi.

7. Markaziy bank o‘zining foiz stavkalari mustaqil, Hukumat bilan kelishmasdan, o‘rnatiladi.

8. Markaziy bank bank sektorini nazorat qilish yuzasidan javobgardir. (Bu holatda GMT indeksi asosida MB ga 2 ball o‘rnatiladi yoki boshqa davlat organi bilan birgalikda amalga oshirilsa 1 ball qo‘yiladi).

Har bir mezon 2 ta o‘lchamga ega, ya‘ni 0 va 1 ball bilan baholanadi.

0- mustaqillik darajasi past;

1- mustaqillik darajasi yuqori.

Siyosiy va iqtisodiy mustaqillik indeksleri bo‘yicha to‘plangan ballar

qo‘ shilib, umumiy mustaqillik indeksi aniqlanadi.

Umumiy mustaqillik indeksining eng yuqori darajasi 15 ballg teng.

Shundan:

siyosiy mustaqillik-8 ball

iqtisodiy mustaqillik-7 ball.

Eyffinger-Shaling indeksi 3 ta faktor asosida hisoblanadi:

- 1) MBning pul-kredit siyosatini aniqlashdagi mustaqilligi;
- 2) MB boshqaruv organlarida hukumat organlarining mavjudligi;
- 3) Hukumat tomonidan tayinlanadigan MB boshqaruv organlari a'zolarining ulushi;
- 4) Bu indeks qanchalik shartlarni bajarilishiga ko‘ ra 1 dan 5 gacha baholanadi.

Bundan tashqari, MB siyosiy mustaqilligi MB boshqaruvini tayinlash jarayonining qonun bilan boshqarilishida ham ko‘ zga tashlanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda MBning boshqaruvini tanlash va ularning vakolat muddatlarini qisqartirishga hukumatning aralashishi, bank boshqaruvida hukumat vakillari ishtirok etishi hamda hukumat bilan munozaralarda MBning qonuniy himoyasining chega-ralanganligi kabilar ularning mustaqil qaror qabul imkoniyatini bermaydi.

Hozirgi davrda dunyo bo‘ yicha siyosiy mustaqillik darajasi eng yuqori bo‘lgan Markaziy bank-bu Yevropa Markaziy bankidir (EMB) . Xususan:

- EMB Yevropa Ittifoqi boshqaruv organlariga va yevrohudud hukumatlariga umuman bo‘ ysunmaydi;
- EMB baholar barqarorligiga javob beradi;
- EMBning vakolatlarini qonunchilik asosida o‘ zgartirilishi mumkin emas.

EMBning vakolatlari faqatgina Maastrixt shartnomasini qayta ko‘ rib chiqish natijasida o‘ zgartirilishi mumkin. Bu esa, juda murakkab jarayon bo‘lib, barcha ishtirokchilarning roziligini olishni talab etadi.

AQSh FZTning ham siyosiy mustaqillik darajasi yuqoridir.

FZT Boshqaruvchilar kengashi a‘ zolari 14 yilga tayinlanadi. AQSh Prezidenti faqat 2 muddatga (8 yil) saylana oladi. FZT Prezi-denti nomzodini AQSh Prezidenti Senatga taqdim etadi, shuningdek FZT pul-kredit siyosatini amalga

oshirishda mustaqildir.

Ammo FZTning siyosiy mustaqillik darajasi EMBnikidan past, chunki FZTga Kongress ta' sir ko' rsata oladi.

Kanada va Angliya Markaziy banklarining siyosiy mustaqillik darajasi bundan ham pastdir.

Kanada Markaziy bankining Direktori Hukumat tomonidan tasdiqlanadi. Pul-kredit siyosati instrumentlarini mustaqil tanlay olmaydi.

Kanada Markaziy banki va Hukumati o' rtasida kelishmovchilik yuzaga kelsa, Moliya vazirligi direktiva chiqarish huquqiga ega va Markaziy bank uni bajarishga majbur.

Ammo hozirga qadar Moliya vazirligi bironta ham direktiva chiqarmagan. Chunki, direktiva yozma ravishda rasmiylashtirilishi kerak.

O'zbekiston Markaziy bankining siyosiy mustaqilligi:

1. Markaziy bank Raisi hukumatning aralashuvisiz tayinlanadi (1ball) .
2. Markaziy bank Raisi 5 yilga tayinlanadi (0 ball) .
3. Boshqaruv a' zolari Hukumatning ishtirokisiz tayinlanadi (1ball) .
4. Boshqaruv a' zolarining vakolat muddati belgilanmagan (0ball) .
5. Boshqaruvda hukumat vakillari ishtirok etmaydi (1 ball) .
6. Pul-kredit sohasida qabul qilingan qarorlarni Hukumat tomonidan mahqullanishi qonun hujjatlarida belgilanmagan (1 ball) .
7. Markaziy bank to' g' risidagi qonunda baholar barqarorligini ta'minlash majburiyati Markaziy bankka majburiyat sifatida yuklanmagan (0 ball) .
8. Markaziy bank va Hukumat o' rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelganda, Markaziy bankning pozitsiyasini kusaytirish imkonini beradigan qonunchilik me' yorlari mavjud emas (0 ball) .

Jami: 4 ball.

O'zbekiston Markaziy bankining iqtisodiy mustaqilligi:

1. Hukumatning avtomatik tarzda kreditlash jarayoni mavjud emas (1 ball) .
2. Hukumatga bozor stavkalarida kredit berish Markaziy bank to' g' risidagi qonunda ko' zda tutilmagan (0 ball) .

3. Hukumatga beriladigan kreditlar ma' lum muddatga, kredit shartnomasi asosidaberiladi (1 ball) .

4. Markaziy bank tomonidan hukumatga beriladigan kreditlar bo' yicha cheklovlar Markaziy bank to' g' risidagi qonunda ko' zda tutilmagan (0) .

5. Markaziy bank Hukumat qimmatli qog' ozlari birlamchi bozorining ishtirokchisi emas (Markaziy bank to' g' risidagi qonunning 25-moddasi) (1 ball)

6. Markaziy bank o' zining foiz stavkalarini mustaqil belgilaydi (Markaziy bank to' g' risidagi qonunning 27-moddasi) (1 ball) .

7. Markaziy bank tijorat banklari, nobank kredit tashkilotlari faoliyatini nazorat qiladi (0 ball) .

Jami: 4 bali.

GMT indeksi bo' yicha O' zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqillik darajasi 8 ballni tashkil qilgan bo' lib, bu ko'rsatkich o' rta darajadagi mustaqillik darajasini anglatadi.

Bugungi kunda Markaziy bank mustaqilligini baholash har bir mamlakat uchun bank tizimining nazorat qilinishida va eng asosiysi malakatda monetar siyosatning qay darajada olib borilishini baholashda muhiin o' rin tutadi.

Markaziy bank mustaqilligini baholashda xalqaro bank amaliyo-tida turli xil yondashuvlar mavjud. Ulardan so' nggilari sifatida “ The New Index for Central Bank Independence” reytingli baholash ko' rsatkichini keltirish mumkin. Ushbu ko' rsatkich 0-36 ballgacha oraliqda Markaziy bank mustaqillik darajasini aniqlaydi. Bunda asosiy mezon qilib, Markaziy bankning 3 guruh: Monetar siyosat mustaqilligi (MSM), Personal mustaqillik (PM) va Moliyaviy mustaqillik (MM) ko' rsatkichlariga jaratilgan holda ular ham tarkiban balli baholashga asoslanadi.

A. Monetar siyosat mustaqilligi (MSM)

A1. Markaziy hankning konservativlik darajasi yoki samarali maqsad va vazifalarni o ' rnatishdagi mustaqilligi:

1) Monetar siyosatning maqsadi faqatgina baholar barqarorligi yoki baholar barqarorligi asosiy hisoblanib, u uzoq muddatga moTjallangan monetar siyosatning

vazifasi boTsa (3 ball.)

2) Monetar siyosatning maqsadi baholar barqarorligi va boshqa aspektlar, masalan, moliyaviy barqarorlik, valyuta kursi barqarorligi hamda bank sektori barqarorligini ifodalasa (2 ball) .

3) Monetar siyosatning maqsadi baholar barqarorligi va iqtisodiy o'sish hamda ish bilan bandlik barqarorligini ifodalasa (1 ball) .

4) Monetar siyosatning maqsadi to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy o'sish va ish bilan bandlik barqarorligini qisman ta'minlash yoki baholar barqarorligini ta'minlashga imkoni yo'q boTsa (0 ball) .

A2. Vazifalar va ko'rsatkichlarni belgilash mustaqilligi:

1) Markaziy bank bir qancha ko'rsatkichlar yoki vazifalarni, masalan, valyuta kursi, pul agregatlari, foiz stavkasi yoki inflyatsiyani o'zini o'zlashtirishi (3 ball) .

2) Markaziy bank va Hukumat birgalikda ko'rsatkichlar va vazifalarni, masalan, siyosiy bitim va kelishuvlar orqali belgilasa (1, 5 ball) .

3) Hukumatning o'zini maqsadga erishish vazifalarini belgilasa (0ball) .

A3. Markaziy bank qo'llaydigan instrumentlar mustaqilligi darajasi:

1) Markaziy bank o'z maqsadlariga erishishda monetar siyosatning instrumentlarini o'zini belgilasa (3 ball) .

2) Markaziy bank va Hukumat birgalikda monetar siyosatning instrumentlarini o'zini belgilasa (1 ball) .

3) Hukumatning o'zini instrumentlarini o'zini belgilashda qaror qabul qilsa (0 ball).

A4. Umumiy siyosatyuritishdagi munozaralar(konfliktlar) :

1) Markaziy bank siyosat yuritishda Hukumatdan mutlaq ustunligi (3 ball) .

2) Hukumat ushbu jarayonda keyinchalik Markaziy bankka ustunlik berishni maqsad qilsa (0, 5 ball) .

3) Hukumat mutlaq ustunlikka ega bo'lsa(0 ball) .

A5. Valyuta kursi siyosati koordinatsiyasi:

1) Markaziy bank valyuta kursi va xorijiy valyuta kursi siyosatlari barqarorligini saqlab turadi va tijorat banklari tomonidan qaraganda Hukumatga

bo' ysinadi (1 ball) .

2) Markaziy bank valyuta kursi va xorijiy valyuta kursi siyosatlarini Hukumat yo' riqnomalari asosida ishlab chiqsa (0 ball) .

A6. Moliyaviy nazorat:

1) Bank nazorati Markaziy bank tomonidan amalga oshirilsa va Hukumat organiga hisobot bersa (1 ball) .

2) Bank nazorati Markaziy bank va maxsus hukumat organi bilan birgalikda amalga oshirilsa (0, 5 ball) .

3) Monetar siyosatning funksiyasi va bank nazorati boshqa yagona moliyaviy institut tomonidan amalga oshirilsa (0 ball) .

MSM uchun maksimal ball =12 ball

B. Siyosiy mustaqillikyoki personal mustaqillik (PM)

BI. Markaziy bank Raisini tayinlash:

1) Markaziy bank Raisi markaziy bank Kengashi yoki boshqa hukumat organlari bilan birgalikda xolisona tayinlansa (2 ball) .

2) Hukumat Markaziy bank Raisi nomzodini kiritsa va tayinlasa, masalan, Moliya vazirligi nomzodni kiritsa va Vazirlar Mahkamasi Raisni tayinlasa (0 ball).

B2. Markaziy bank Boshqaruvi vazifasining amal qilish muddati:

1) 5 yildan ortiq muddatga (2 ball) .

2) 5 yil muddatga (1 ball) .

3) 4 yil muddatga (0, 5 ball) .

4) 4 yimldan kam muddatga (0 ball) .

B3. Markaziy bank Raisi mustaqilligi

1) Markaziy bank Raisi bankning qoniqarsiz faoliyat ko'rsatayotganligi ustidan nazorati yuqoriligi (1 ball) .

2) Agar boshqa ishtirokchilar transparent bo' lmasa (0, 5 ball) .

3) Markaziy bank Raisi Hukumatga bo'ysunsa (0 ball) .

B4. Kengash a 'zalarini tayinlash:

Hukumat kengash a' zolarining yarmidan ko'pini tayinlasa yoki boshqa organlar, masalan, Moliya vazirligi nomzodlarni kiritsa va qonunehilik organi

tayinlasa (3 ball) .

B5. Kengash a 'zolarining vazifalarining amal qilish muddati:

- 1) 5 yildan ortiq muddatga va o' zgartirilgan (2 ball) .
- 2) 5 yil muddatga va o' zgartirilgan (1 ball) .
- 3) 4 yil muddatga va o'zgartirilgan (0, 5 ball) .
- 4) 4 yimldan kam muddatga va o' zgartirilgan (0 ball) .

B6 Markaziy bank Kengashida Hukumatning ishtiroki darajasi:

- 1) Hukumatning Markaziy bank Kengashida hal qiluvchi ishtiroki bo'Intasa (2 ball) .
- 2) Hukumatning Markaziy bank Kengashida hal qiluvchi ishtiroki bo'lsa (0 ball) .

PS uchun maksimal ball =12 ball.

D. Fiskal mustaqillikyoki mnliyaviy mustaqillik (MM) .

D1. Majburiyatlar bo'yicha limitlar (sek'yuteritizatsiya qilinmagan kreditlar bo ' yicha) :

- 1) Markaziy bankning Hukumat oldida hech qanday majburiyati ho' lmasa (3 ball) .
- 2) Markaziy bank majburiyatlarning bir qismini zimmasiga olganda (2 ball) .
- 3) Markaziy bank va Hukumat majburiyatlari bo' yicha hech cumday qonuniy cheklov boMmasa (0 ball) .

D2 Sek yuteritizatsiya qilingan kreditlar bo ' yicha limitlash:

- 1) Markaziy bankning Hukumat oldida hech qanday majburiyati boMmasa (1, 5 ball) .
- 2) Markaziy bank majburiyatlarning bir qismini zimmasiga olganda (1 ball') .
- 3) Markaziy bank majburiyatlarni o' z zimmasiga olishida qisman cheklov mavjud bo' lsa (0, 5 ball') .
- 4) Markaziy bank va Hukumat majburiyatlari bo' yicha hech qanday qonuniy cheklov boMmasa (0 ball) .

D3. Markaziy bank kreditlaribo'yicha limitlar o'rnatish ixtisosligi darajasi:

- 1) Markaziy bank kreditlari absolyut valyuta qiymatida ifodalansa (1, 5 ball) .

2) Markaziy bank kreditlarining bir qismi Hukumat daromadlari hisobidan amalga oshirilsa (1 ball) .

3) Markaziy bank kreditlari tomiq Hukumat xarajatlari hisobiga boMsa (0 ball).

D4. Kreditlar muddati:

1) Markaziy bank kreditlari muddati 6 oydan oshmasa (2 ball) .

2) Markaziy bank kreditlari muddati 6 oydan ortiq, lekin 1 yildan oshmasa (1ball) .

3) Markaziy bank kreditlari muddati bo‘ yicha hecli qanday cheklov yo‘ q boMsa (0 ball) .

D5. Foiz stavkasi:

1) Markaziy bank Hukumatga bozor, foiz stavkasida kredit bersa (2 ball) .

2) Markaziy bank Hukumatga bozor foiz stavkasidan pastroq, lekin ijobiy stavkada kredit bersa (0 ball) .

D6. Hukumat qimmatli qog'ozlari oldi-sotdisida Markaziy bankning birlamchi bozorda ishtiroki:

1) Markaziy bank Hukumatning qimmatli qog‘ oz!arini biriamchi bozordan sotib oluvchi sifatida emas, balki volantlyor boMib qatnashsa (2 ball) .

2) Markaziy bank Hukumatning qiminatli qog‘ ozlarini biriamchi bozordan sotib oluvchi va faol ishtirokchi boMsa (0 ball) .

MM uchun maksimal ball =12 bali.

Maksimat ball: MBM=MSM+PM+MM=36 ball.

Xorijiy davlatlarda markaziy bankning mustaqilligini belgilovchi xususiyatlar

Markaziy bankning kapitalida va foydasini taqsimlashda dav-latning ishtiroki faktori Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligining qanchalik darajadaligini ko'rsatadi. Lekin, bu qaramlik ikkilamchi rol o‘ ynaydi, chunki Markaziy bankning kapitali to‘ g‘ ridan-to‘ g‘ ri davlat-ga tegishli bo‘ Imasa ham, qonunchilikda maMum sharh (izoh) mavjud bo'ladi. Agar mavjud bo'lmasa

davlat egri metodlardan foydalanadi.

Misol uchun, Avstriya Milliy banki haqidagi qonunni olaylik. Bu bank xuddi aktsionerlik jamiyati shaklida tuzilgan va faoliyat ko'rsatmoqda (Markaziy bankning 50% kapitali Federatsiyaga, qolgan 50% kapitali avstriyalik huquqiy va jismoniy shaxslarga tegishli) . Markaziy bank kapitaliga faqat Moliya vazirligidan ruxsat olgan huqu-qiy va jismoniy shaxslargina ulush qo'sha olish huquqiga egadirlar.

Pay (ulush) meros (vorislik) orqali o'tishi yoki Moliya Vazirligi ruxsati bilan sotilishi mumkin. Shu orqali davlat bilvosita nazoratni amalga oshirishi mumkin.

Bundan tashqari Markaziy bankning funksiya va vazifalari qonunda ko'rsatilgan. Shu sababli ulush egalari yig'ilishi chegaralan-gan masalalarnigina echa oladi. Albatta bu masalalar bankning iqtiso-diy siyosati bilan to' g' ridan-to' g' ri bog' liq bo' lmaydi.

Shunday qilib, mamlakat Markaziy bankining kapitalida 100 % davlatning ishtiroki-ko' proq Markaziy bankning prestijiga va an' analariga hamda ulush egalariga ham bog' liq. Yuqoridagilami isbotiga misol tariqasida AQShning Federal Rezerv Tizimini va Germaniyaning Federal bankini ajratib ko' rsatish mumkin. Ikkala Markaziy bank jahonda eng mustaqil markaziy banklar sifatida tan olingan. Shunday bo' lsa-da, Nemis Federal bankining 100 % kapitali Federatsiyaga, Federal Rezerv Tizimi kapitali esa 100 % a' zo-bank-larning to'liq mulkiga tegishli. Va aksincha, banklar va sug' urta kompaniyalarining mulkiga tegishli bo'lgan Italiya Markaziy banki davlat boshqaruv organlariga qaram.

Yuqoridagi omilni tahliliidan ko' rinadiki, markaziy banklaming kapitali egalarining tarkibidan qat' iy nazar, ular uning pul-kredit siyosatidagi mustaqilligiga ahamiyatli ta' sir ko'rsata olmaydi.

Shu narsani alohida ta' kidlab o'tish joizki, O' zbekiston Res-publikasi Markaziy bankini ham Gennaniya, Buyuk Britaniya,

Frantsiya, Gollandiya, Daniya va Rossiya kabi davlatlarning markaziy banklari guruhlariga qatoriga kiritish mumkin, chunki bu guruhlarning kapitalining 100 % davlat mulki bo' lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining iqtisodiyotdagi o‘rnini ham uning mamlakat hukumati bilan bo‘ladigan munosabatidan bilish mumkin. Barcha mamlakatlarda Markaziy banklarning faoliyati Markaziy bank to‘g‘risidagi qonun bilan tartibga solinadi. Qonunda Markaziy bank faoliyatining barcha jihatlari o‘z aksini topgan bo‘lishi kerak. Chunki, Markaziy bank uchun hukumatning boshqa qonun hujjatlari “Markaziy bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun oldida ustivor emas.

Markaziy bankning mustaqilligi darajasini belgilovchi keyingi omil bo‘lib, bank rahbarini saylanish tartibi hisoblanadi.

Bu omil Markaziy bankning davlat organlari boshqaruvidan qanchalik darajada siyosiy mustaqilligini belgilashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Birinchi qarashda, mamlakatlar o‘rtasidagi farq faqat Markaziy bankning boshqaruv lavozimiga nomzodlarni kim tavsiya etishida namoyon bo‘ladi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda (Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Yaponiya, AQSh, Daniya, Shveytsariya, Avstriya) bank rahbariyatiga hukumat tavsiya etgan nomzodlarni saylashadi yoki tayinlashadi.

Shu kabi sharoitlarda mamlakat Markaziy bank rahbariyati bosh-qamvida etakchi lavozimdagi shaxs katta rol o‘ynaydi. Nemis Federal banki rahbarligiga masalan, Frantsiya banki rahbarlariga qarama-qarshi ravishda yuqori tashkilot hisoblangan Moliya Vazirligidan kelib chiqqan xizmatchilar saylanmaydilar. Frantsiya banki raisi va uning birinchi 2-ta yordamchisi Respublika Prezidenti tomonidan maxsus dekret asosida tayinlanadi. Bu dekret Ministrlar Kengashida tasdiqlanadi. Avstriya milliy bankining umumiy yig‘ilishida bosh kengashga 6 a’zoni ta’kisichilar saylaydilar; prezidentni, 2-ta vitse prezidentni va kengashning qolgan 5 a’zosini Moliya Vazirligi tayinlaydi. Bunda, saylanayotgan shaxs ishlashga rozilik bildirmasa yoki boshqa shaxsni nomzodini ko‘rsatsa, saylovlar tayin qilinadi, agar-saylangan shaxs vafot etsa, u holda yangi nomzodlikni Moliya Vazirligi tayinlaydi. Kengashning 6 a’zosi saylanish davrida aktsionerlardan etarli ovoz ololmasalar, ularni ham Moliya Vazirligi o‘zi tayinlashi mumkin.

Ko'rilayotgan davlatlardan faqatgina Italiya va Gollandiyada Markaziy bankning boshqaruviga saylash uning o'z nomzodlaridan kelib chiqadi. Biroq, bu holda ham saylanish davlat strukturalari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Markaziy banklarning raislari va boshqaruv a'zolarini qonun bo'yicha ishdan olish tadbiri ham qiziqarli holatda rasmiylashtirilgan. Ko'pgina sanoati rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, AQSh, Daniya, Avstriya, Shveytsariya va Gollan-diyajning markaziy banklar raislarini, boshqaruv a'zolarini saylangan muddatlaridan ilgari vaqtda ishdan olib bo'lmaydi. Hukumatga yuqoridagi davlatlarga nisbatan qaramroq bo'lgan markaziy banklar bunga kirmaydi: Italiya, Frantsiya.

Shunday qilib, Markaziy bank boshqaruvini saylovi va ishdan olish tartibi mamlakat Markaziy bankining davlat boshqaruv organlariga nisbatan bo'lgan mustaqilligini namoyon etadi.

Markaziy bankning siyosiy mustaqilligini ko'rsatuvchi uchinchi omil bo'lib, uning qonunda ko'rsatilgan faoliyati darajasi va maqsadlari hisoblanadi. Bu omil bir tomondan Markaziy bank faoliyatini erkinligiga chegara qo'ysa, boshqa tomondan, uning qonunda ko'rsatilgan vakolatlarini aniqlaydi.

Ko'pgina iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, Shveyt-sariya, Frantsiya, Yaponiya, Daniya, Avstriyajda Markaziy bankning faoliyat doirasi va asosiy maqsadlari Konstitutsiyada yoki Markaziy bank haqidagi Qonun va banklar faoliyati haqidagi qonunlarda o'z aksini topadi.

Nemis Federal bankining asosiy maqsadi va vazifalari doirasi mamlakat Konstitutsiyasida aniq belgilab qo'yilgan. Bu milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashning kafolatidir.

Nemis Federal banki haqidagi Qonunda bosh bank tizimi oldida uchta asosiy vazifa turadi:

- pul muomalasini tartibga solish;
- iqtisodiyotni kredit bilan ta'minlashni tartibga solish;
- to'lov oborotini amalga oshirish (osushchestvlenie platejnogo oborota).

Nemis Federal bankining vazifalari, maqsadlari va yo'nalishiga yaqinroq

boigan Avstriya Milliy bankini misol tariqasida keltirish mumkin. Markaziy bankning vazifasi qonunda umumlashgan holda aks etgan va ayni vaqtda uning ruxsat etilgan operatsiyalari aniq ko'rsatilgandir.

Avstriya bank qonunchiligining o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning Markaziy bank qonunchiligida qatnashish huquqiga ega ekanligi hisoblanadi.

Pul-kredit sohasiga tegishli qonun loyihalarining hammasi Markaziy bankka ko'rib chiqish uchun maduin vaqtga beriladi va uning roziligidan so'nggina tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank haqida"gi qonunida Markaziy bankka quyidagi vazifalar yuklatilgan. Bular:

- pul muomalasini tartibga solish;
- so'nmning qadrini oshirishni ta'minlash;
- pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari faoliyati ustidan nazorat o'rnatish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish;
- davlatning tashqi qarzini to'lash va oltin-valyuta rezervlarini boshqarish.

Qonun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga pul-kredit siyosati mexanizmlarini tanlashda katta darajada mustaqillik bergan. Misol tariqasida, kreditlarning foiz stavkasini, banklarga o'rnatilgan iqtisodiy normativlarni, qimmatbaho qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni, majburiy rezervlar miqdorini aniqlash va shu kabilarni keltirish mumkin.

Bu borada Angliya Markaziy banki mavqei o'zgarib bormoqda⁷⁵. Uning asosiy vazifalari qonuniy tartibda ham qayd qilinmagan, shu bilan birga Moliya Vazirligiga ham bo'ysunmaydi. Angliya Markaziy banki-ning vazifalari bu sohada milliy urf-odatlariga tayanadi, bu esa o'z navbatida Angliya bankini tashkil topishdagi tarixiy hujjatlariga asoslanadi. Bir qator mamlakatlarda, masalan, AQSh, Shvetsiya, Buyuk Britaniya va Italiyada Markaziy bank vazifalarining ta'riflari qonunda qayd etilmagan yoki umumiy holda ko'rsatilgan, xolos. Shunday bo'lsa ham, ikkala guruhda juda mustaqil va shu bilan birga qaramroq bo'lgan

markaziy banklar bordir. Shundan kelib chiqib, bu omilning ta'sirini faqatgina Markaziy bankning tashkil topishi sharoiti va urf-odatlar tahlili bilangina ko' rish mumkin. Markaziy bankning vazifa va maqsadlari qonunda aniqlanish faktori slui sababli ikkinchi darajali rol o' ynaydi. Markaziy bankning mustaqilligining belgilovchi omillardan biri bo' lib, uning pul-kredit siyosatiga davlat organlarining aralashishini qonun bo' yicha qanchalik darajada o' rnatilganligidadir. Bu omil birinchi galda Markaziy bankning siyosiy mustaqillligiga ta'sir ko'rsatadi. Mustaqillik darajasi nisbatan past bo'Mgan markaziy banklarga misol qilib, Frantsiya va Italiya markaziy banklarini ko' rsatish murnkin.

Mazkur mamlakatlarda pul-kredit siyosati yo' nalishini hukumat belgilashi Qonun bilan mustahkamlangan. Markaziy bank esa hukumat ko' rsatmalarini bajaradi va unga maslahatchi vazifasini o' taydi. Ikkinchi jahon urushi vaqtidan boshlab Frantsiya banki Moliya Vazirligi qaramog' idadir. Pul bozoridagi interventsianing tashab-buskori ham, nemis markasiga nisbatan frantsuz frankini kursini ush-lash masalasi hamda Yevropa Flamjamiyati bozorini tashkil topishda valyuta operatsiyalarini tartibga solishda ham hukumat ishtirok etmoqda.

Albatta Frantsiya Markaziy banki tomonidan hukumatning pul-kredit siyosatini tartibga solishdagi harakatini qoralab chiqishlar bo' ldi. Masalan, 1982 yilda Markaziy bank Moliya Vazirligi talabiga binoan hukumatning kreditlayotgan summa miqdorini oshirishdan bosh tortdi. Biroq, Raisga qarshi tazyiq (siquv) lar bo' ldi va Frantsiya banki odatdagidek Moliya Vazirligi ko' rsatmasiga bo' ysinishga majbur bo'ldi.

Pul-kredit siyosatiga davlatning aralashishini qonun bo' yicha ko'rsatilganligi va uning darajasi kengligi omiliga keyingi mamiakatlar guruhini Buyuk Britaniya, Gollandiya, Shvetsiya va Yaponiya mamlakatlari egallaydi. Bu mamlakatlarda davlat organlarining Markaziy bank siyosatiga aralashishi, unga yo' l-yo' riq ko'rsatishi, uning qarorini bekor qilishi va shu kabilar Qonunda aniq belgilangan.

Angliya Markaziy banki tashkil topishda o' zining haqiqiy mustaqilligini yo'qotgan. Davlat bilan Markaziy bank o' rtasidagi munosabatlar 1946 yilda

chiqazilgan “ Angliya banki haqidagi qonun” ning 1-bo‘ limining 4-bandi bilan tartibga solinadi. Shu qonunga muvofiq, Moliya Vazirligi Markaziy bank ustidan sezilarli ta'sir o'tka-zish uchun rasmiy huquqni olgan. Shu sababli, Angliya banki vazir-falami bajarishdagi mustaqilligini yo‘ qotdi va u hukumat siyosatiga jiddiy qarshilik qila olmaydi.

Angliya banki ma'muriyatining fikrlari Moliya Vazirligi tomonidan tinglanadi va pul-kredit siyosati masalalarini echishda e' tiborga olinadi, biroq, Angliya bankining pul-kredit siyosati Moliya Vazirligining oddiy qarorini o' zida aks etadi. Faqatgina Angliya banki ma' muriyati a'zolarining professionalliklari, biznes aloqalari va obro' -e' tiborlari ularning hukumat siyosatiga nisbatan bo' lgan mustaqilliklarini o' zida namoyon qiladi.

Angliya banki faoliyat ko' rsatishga nisbatan ko' proq ta' sir ko' rsatishga ega. Daniya va Avstriya Markaziy banklari esa pul-kredit siyosati yuritishda hukumatning aralashuvidan mustaqillik darajasi bo' yicha oldingi o' rinlarda turishadi. Bu davlatlarning qonunchiligi hukumatning Markaziy bankining pul-kredit siyosatiga aralashuviga rasmiy ravishda yo' l qo' ymaydi, biroq, markaziy banklarni hukumatning iqtisodiy siyosatiga moslab siyosat yuritishlarini o' zaro moslashni talab qiladi.

Avstriya Milliy banki faoliyati ustidan nazoratni Moliya Vazirligi olib boradi. Moliya vaziri bank faoliyatining qonuniyligi bo' yicha qonun oldida javobgardir. U davlat komissari va uning o' rinbosarlarini tayinlaydi, ular Bdsh Kengashning yig' ilishlarida o' z ovozlari bilan ishtirok etishlari mumkin hamda spravka va tushuntirish xatlarini talab qilishlari mumkin. Davlat komissari Markaziy bank Bosh Kenga-shining qarorini orqaga surishga haqqi bor, albatta agar bu qaror komissaming fikricha amal qilayotgan qonunchilikka zid kelsa.

Biroq, Markaziy bank qonunda ko' rsatilgan faoliyatni va operatsiyalarni amalga oshirsa, davlat komissari ham Moliya vaziri ham aralashishga huquqi yo' q. Shu orqali bir tomondan, Avstriya Milliy banki mustaqilligi qonun bilan mustahkamlangan, boshqa tomondan esa, davlat organlari Markaziy bank siyosatiga bevosita rahbarni saylab va nazorat o' rnatib ta' sir ko' rsatishi

mumkin.

Oxirgi to'rtinchi guruh mamlakatlarga Germaniya va Shveytsariya ajratib ko'rsatish mumkin-ki, bu davlatlarning markaziy banklari eng mustaqil bo'lib hisoblanadi. Bu mamlakatlar qonunchiligida davlatning Markaziy bankning pul-kredit siyosatiga aralashuvi ko'rsatilmagan. Shveytsariya Markaziy bankini hukumat iqtisodiy siyosatiga moslashishi xususida qonunchilikda qayd qilinmagan.

Germaniyada Markaziy bank siyosati mamlakat hukumatidan qonun bo'yicha mustaqil qilib belgilab qo'yilgan. 1924 yilda Germaniyada bo'lgan inflyatsion krizis davrida aniq bo'ldiki, Markaziy bank faoliyatini hukumat ta'siridan chegaralash kerak. FRG emissiya bankining to'liq mustaqilligi 1948 yilda qayta tiklandi.

AQShning Federal Rezerv Tizimidan farqli ravishda Nemis Federal banki parlamentga hisobdor emas, u o'z faoliyati vakolatini "Nemis Federal banki haqida" gi qonunga muvofiq amalga oshiradi.

Bank bilan Federal hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar "Nemis Federal banki haqida" gi qonunda quyidagicha ta'riflangan: "Nemis Federal banki o'z vazifalariga muvofiq tarzda hukumatning umumiy-tisodiy siyosatini qo'llab-quvvatlashga majbur. Qonunda belgilanishicha u o'z majburiyatlarini bajarishda hukumatga bo'ysinmaydi".

50-yillarning o'rtalaridan boshlab Nemis Federal banki o'z siyosati oldiga bosh maqsad qilib "nemis markasini barqarorligini himoyalash va inflyatsiyaga qarshi kurash" qilib belgiladi. Bu maqsad, 1957 yilgi "Nemis Federal banki haqida" gi qonunda o'z ifodasini topgan va mustaqilligi poydevorining asosiy qismini tashkil etadi. Nemis Federal banki va hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabat savolining boshqa toinoni ham qiziqarlidir. Aniqrog'i, Nemis Federal Flukumati Markaziy bankning yuqori darajadagi mustaqilligini qanday baholaydi. Konrad Adenauer hukumatning Markaziy bankni mustaqilligiga munosabati pozitsiyasini ta'riflab: "Markaziy bankning mustaqilligi doimo ma'qul emas, lekin bu juda xotirjam qiladi" deb aytgan.⁷ Biroq, bunday hamjihatlik tabiiyki doimo amalda bo'lmaydi. Ko'pgina markaziy banklardan, shu jumladan, hukumatdan mustaqilligi bilan

nom chiqazgan milliy banklardan farqli ravishda Nemis Federal banki amaliyotda o' zining alohida mavqega ega ekanligini bir necha bor isbotladi.

Bunga misol tariqasida " qo' shilish" munosabatining birinchi kunidan boshlab Nemis Federal banki tomonidan kalendar yilga pul massasini chegarasini qattiq belgilashini va unga amal qilishini, G' arbiy va Sharqiy Germaniyani qo' shilishidan so' ng yangi federal erlarni rivojlantirish uchun moliyalashtirish bo' yicha sabab bo' lgan munozaralarga imtiyozli yondoshilmagan holda siyosat yurgizganligini keltirish mumkin.

Nemis Federal bankining o' slia vaqtdagi prezidenti Karl Otto Pel bank islohotining boshidan boshlab uning hamma mexanizmlari yagona bank tizimini rivojlanishi yo' nalishiga istisno va engilliklarsiz amalga oshishi uchun qat' iy turdi.

Markaziy bankning mustaqilligining beshinchi omili hukumatni kreditlashni chegaralanganligini qonunda mavjudligida namoyon bo' ladi. Hukumatni kreditlashni chegaralash Markaziy bankning iqtiso-diy mustaqilligiga, siyosiy mustaqilligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bu omil faqatgina Markaziy bank tomonidan hukumatni bevosita moliyalashtirish tizimini mavjud ekanligida ahamiyatlidir. Bunday tizim dunyoning ko' pgina rivojlangan mamlakatlarida tarqalgan. Istisno tariqasida AQSh va Buyuk Britaniyani ko' rsatish mumkin. Chunki, bu mamlakatlarda davlat zayomlarini taqsimlanishi ochiq bozorda amalga oshiriladi.

Bu belgi bo' yicha ko' proq Germaniya, Avstriya va Gollandiya markaziy banklari mustaqilroqdirlar. Federatsiya hukumatining va erlar (hududiy bo' linmalar) ni boshqaruv organlarini bevosita moliyalashtirish jmkoniyatlari masalan, Avstriya Milliy banki uchun qonun bo' yicha chegaralangan. Bu guruhning boshqa mamlakatlari singari istisno tariqasida davlatning qimmatbaho qog' ozlarini chiqarish orqaii qisqa muddatli kreditlar beriladi.

Bu belgi bo' yicha mustaqillik darajasining ikkinchi guruhiga Yaponiya va Frantsiya Markaziy banklarini ko' rsatish mumkin. Bu davlatlarda hukumatni kreditlash mamlakat parlamenti tomonidan tasdiqlanadi hamda qonun bo' yicha

qat'iy mustahkamlangandir.

Xuddi shu guruhga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankini ham kiritish mumkin. Qonunning 48-moddasida bu haqda quyidagicha bayon etilgan:

“ Kreditlar hukumatga Oliy Majlis tasdiqlagan miqdorda, erkin muomalada bo'ladigan va olti oylik muddat ichida qiymati to'lanadigan qarz majburiyatlari ko'rinishida, lasdiqlangan davi; i qimmatli qog'ozlari garovga qo'yilishi sharti bilan beriladi. Bunday qimmatli qog'ozlar Moliya Vazirligi tomonidan chiqariladi, bozor stavkasi bo'yicha to'lanadigan daromad manbaiga ega bo'ladigan i Markaziy bankka topshiriladi. Kredit muddatlari erkin muomaladagi qarz majburiyatlarini to'lash muddatlariga muvofiq kelishi iuzim.

Kredit berish hukumat va Markaziy bank o'rtasidagi i aloqada kredit shartnomasi tuzish bilan rasmiylashtiriladi, unda kreditning miqdori, qaytarilish muddatlari, to'lanadigan foizlar normasi va ssudani uzish tartibi kelishib olinadi. Markaziy bank hukumatga obuna bo'yicha badaliar uchun yoki respublikaning u yoki bu xalqaro tashkilotga a'zolidan kelib chi-quvchi boshqa tomonlari uchun ancha uzoq muddatli kreditlar berishga haqli. Markaziy bank hukumatga ushbu moddada nazarda tutilganlardan tashqari hollarda moliyaviy yordam berishga haqli emas” . Biroq, iqtisodiy krizis, ishlab chiqarish hajmini pasayishi hamda inflyatsiyani o'sish tendentsiyasi davom etayotgan davrda Markaziy bankning byudjetni ertgilliklar bilan davlat qimmatbaho qog'ozlarini chiqannasdan moliyalashtirishi davom etmoqda. O'zbekiston bankining Moliya Vazirligini kreditlashdagi asosiy salmog'ini (60 % atrofida) uzoq muddatli kreditlar tashkil etadi hamda bu kreditlar juda past foiz stavkasida berilishi mamlakatda inflyatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishiga ko'mak beradi. Hukumat bilan Markaziy bank o'rtasidagi kreditlash borasidagi o'zaro munosabatlarni jahon normasiga moslash uchun 1 yilgacha beriladigan kreditlardan tashqari hamma zayomlarni Davlat qarz obligatsiyalari sifatida qayd etish lozim. Shu holatda O'zbekiston banki ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazib, davlatning ichki qarzini investorlarga foydaliroq shartlarda qayta taqsimlashi mumkin.

Shveytsariya, Italiya, Shvetsiya va Daniyada hukumatni kredit-lash hajmini

chegaralash rasman mavjud emasligi, ulaming markaziy banklarining bu mezon bo'yicha davlatga qattiq qaramliklarini ko'rsatadi.

Shular orqali, tahlil qilingan beshta omil ichidan uchta asosiy (aniqrog'i: 2, 4, 5) va ikkita qo'shimcha (1 va 3) omilni ajratish mumkin. Markaziy bankning hukumat boshqamv organlaridan mustaqilligini belgilovchi asosiy obyektiv faktorlarga:

- bank rahbarini saylash va ishdan ozod qilish tartibi;
- pul-kredit siyosatiga davlatning aralashishi huquqi;
- hukumatni Markaziy bank tomonidan kreditlashni chegara-langandligini mavjudligi va qat'iyligini ajratib ko'rsatish mumkin.

Markaziy bank kapitalida davlatning ulushini va qonunchilikda Markaziy bankning maqsadi va vazifalarini aniq belgilanganligi yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, u Markaziy bank mustaqilligi darajasini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynamaydi va ular ikkilamchi omillar bo'lib hisoblanadilar.

Yuqorida qayd etilganlar asosida shunday xulosa qilish mumkin, rivojlangan mamlakatlar markaziy banklari o'zlarini mustaqil ta'sir o'tkazadigan institut sifatida ko'rsatishlari zarur. Bu bir tomondan, ularga qonun asosida ruxsat etilgan instrumentlar yordamida iqtisodiyotni tartibga solishni amalga oshirish huquqini beradi, boshqa tomondan esa, Milliy bank va pul tizimi manfaatlarini himoyachisi sifatida maydonga chiqadi.

Shu munosabat bilan Markaziy bankning iqtisodiyotni tartibga solish jarayonidagi va umuman iqtisodiyotdagi mavqeini, shuningdek, mamlakat hukumati bilan o'zaro munosabatlarini tahlil qilar ekanmiz, uning pul-kredit tizimi va hukumat organlari o'rtasida oddiy vositachi emasligini, balki ma'lumot, tadqiqot, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi markaz ekanligini alohida ta'kidlashni istardik.

Biroq, mamlakat pul-kredit sohasidagi Markaziy bankning mustaqillik darajasi savoli hanuzgacha munozarali holatda qolmoqda. Milliy pul birligini qadrini oshirish bilan bog'liq chora-tadbirlar faqatgina pul-kredit sohasiga tegishli emas, balki u yaxlit butun iqtisodiyotga ta'sir o'tkazadi, bu esa har qanday

darajadagi iqtisodiy siyosat bilan kelishishni va davlatning barqarorlashtirish dasturi doirasidan chetga chiqmaslikni taqozo etadi.

Bobga oid savollar

1. Markaziy bankning mustaqilligi tushunchasiga izoh bering.
2. Markaziy bank mustaqilligi va uning zarurligini belgilovchi omillar qaysilar?
3. Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi nimalarda namoyon bo' ladi?
4. Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi deganda nimani tushunasiz?
5. Markaziy bankning mustaqillik koeffitsiyentlariga izoh bering.
6. Yevropa Markaziy bankining mustaqillik darajasi qanday belgilanadi?
7. AQSh FZT va uning mustaqillik darajasiga izoh bering.
8. O' zbekiston Respublikasi Markaziy banki mustaqillik darajasi?
9. GMT indeksi bo' yicha iqtisodiy mustaqillik me' yorlari qanday belgilanadi?
10. GMT indeksi bo' yicha siyosiy mustaqillik me'yorlari qanday belgilanadi?

MAVZU: TIJORAT BANKLARI VA ULARNING FUNKSIYALARI

REJA:

- 1. Tijorat bankini tashkil qilishning asoslari va funksiyalari**
- 2. Tijorat banklarining turlari**
- 3. Ulgurji banklar, chakana banklar va aralash banklar**

Tijorat banklari va ularning tashkil topishi

Tijorat banklari mamlakat bank tizimining ikkinchi bo' g' inidagi moliyaviy muassasa hisoblanadi. Qonunchilik hujjatlari va iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklari jamiyatdagi vaqtinchalik bo' sh pul mablag' larini jalb qilib, ushbu mablag' lami tegishli shartlar (to' lov-lilik, qaytarishlik, muddatlilik, ta'minlanganlik, maqsadlilik) asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga joylashtiradigan, shuningdek jismo-niy va yuridik shaxslarga to' Iov hisob-kitoblarni amalga oshirish bo' yicha xizmat ko' rsatadigan tijorat tashkilotlari sifatida tasniflanadi.

Zamonaviy sharoitda tijorat banklarining jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatadigan vositachilik operatsiyalari va xizmat turlari ortib bormoqda. Tijorat banklarining ushbu munosabatlari tijorat asosida tashkil etiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarining faoliyati tijoratga asoslangan bo'lib, ularning asosiy faoliyati yuqori darajada foyda olishga yo'naltiriladi. Biroq, tijorat banklari ishlab chiqarish korxonalaridan farqli o'laroq, o'z foydasini qo'shimcha qiymat ishlab chiqarish hisobidan emas balki, korxona, tashkilotlar va aholi ixtiyoridagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida jalb qilib, ushbu mablag'larga ehtiyoji mavjud bo'lgan shaxslarga tijorat yo'sinida berish orqali foydasini shakllantiradigan o'ziga xos moliyaviy muassasa hisoblanadi.

O'zbekistonda tijorat banklarining tashkil etilishi bevosita mus-taqillik yillariga to'g'ri keladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar "bank tizimini faqatgina bir necha banklar, ya'ni SSSR Davlat banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, Qurilish banki va Davlat mehnat omonat jamg'armalari kassalari mavjud bo'lib, ittifoqdosh respublikalarda ushbu banklarning respublika, viloyat idoralari va tuman bo'limlari faoliyat ko'rsatar edi". O'zbekistonda dastlabki tijorat banklarini tashkil etilishining huquqiy asosi bo'lib 1991 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni xizmat qildi.

Albatta, mamlakatimizda bozor munosabatlarining takomilla-shuvi va iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi natijasida tijorat banklari maqomi, kapitali va faoliyatiga qo'yilgan talablar doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Bularning natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunining yangi tahrirdagi matni 1996 yil 25 aprelda qabul qilindi. Mazkur qonun mamlakatimiz bank tizimi, xususan tijorat banklarini tashkil topishi va rivojlanishiga mustahkam huquqiy baza bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda tashkil etilgan dastlabki tijorat banki Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki hisoblanadi. Keyinchalik, "1994-1995 yillarda ixtisoslashtirilgan "Asaka" bank (avtomobil sanoatini qo'llab quvvatlash uchun), "G'allabank" (g'alla etishtirishni moliyalashtirish uchun), "Paxtabank"

(qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun) yakka xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlash uchun "Tadbirkor" tijorat banki tashkil etildi".

O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatiga litsenziya berish, ularning faoliyatini nazorat qilish va to'xtatish Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan bo'lib, tijorat banklarini tashkil etishda asosiy omillardan biri ularning ustav kapitaliga qo'yilgan talab hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz tijorat banklari kapitalining minimal miqdoriga qo'yilgan talab doimiy ravishda oshib bormoqda. Quyidagi jadvalda bu haqda ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekistonda tijorat banklari kapitaliga o'rnatilgan minimal talab darajasi va dinamikasi

Joriy etilgan sana	Tijorat banklari uchun	Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan	Xususiy banklar uchun
1.01.1998 y.	1, 5 mln. AQSh dol. ekvivalent.	5 mln. AQSh dol. ekvivalent.	0, 3 mln AQSh dol. ekvivalent.
1.01.2000 y.	2, 5 mln.	5, 0 mln.	0, 3 mln.
1.01.1999 y.	2, 5 mln.	5, 0 mln.	1, 25 mln.
1.01.2005 y.	5, 0 mln.	5, 0 mln.	2, 5 mln.
1.01.2008 y.	5, 0 mln.yevro	5, 0 mln.yevro	2, 5 mln.yevro
1.01.2011 y.	10, 0 mln.	5, 0 mln.	5, 0 mln.
1.10.2017 y.	100 mlrd so' m		


Tijorat banklari kapitalining minimal miqdoriga qo'yilgan talab 2007 yil 31 dekabrgacha AQSh dollari ekvivalentida amalga oshirilgan bo'lsa, 2008 yil 1 yanvardan boshlab evro ekvivalentida va 2017 yil 1 oktyabrdan so' mda jang' arilishi joriy etildi. Ta'kidlash joizki, tijorat banklari o'z faoliyatini dastlab boshlayotgan davrda kapitalning minimal miqdorini shakllantirilishi zarur bo'ladi. Tijorat banklari Markaziy bankdan litsenziya olib, faoliyatini boshlagandan so' ng esa kapitalning ushbu minimal miqdorini doimiy ravishda oshirib borishlari iozim bo'ladi, kapitalni oshirishning asosiy mezon sifatida ularning riskka tortilgan aktivlari hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari aksiyador mulkchilik shaklida tashkil etiladi. Bu borada 1998 yil 2 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik-tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga ko'ra, tijorat banklarini boshqarishda aksiyador-laming va bank Kengashlarining roli oshirildi. Quyidagi rasmda tijorat banklari tashkiliy tuzilishining namunaviy ko'rinishi keltirilgan.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bankning oliy boshqamv organi hisoblanadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutloq vakolatiga kiruvchi masalalar bank Kengashi yoki Boshqamviga topshirilmaydi. Bank Kengashining miqdoriy tarkibi ustav yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra belgilanadi. Aksiyadorlar soni 500 gacha bo'lgan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi banklaming bank Kengashi miqdoriy tarkibi kamida besh a'zodan, 501 dan 1000 gacha bo'lgan banklarda kamida etti a'zodan va 1000 dan ortiq boigan banklarda kamida 9 a'zodan iborat boiishi lozim.

Yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi banklaming bank Kengashi a'zolari umumiy soni aksiyadorlar sonidan qat'i nazar beshtadan kam boimasligi kerak.

Tijorat banklarini tashkil qilish 2009 yil 8 oktyabrda qabul qilingan “ Banklarni ro‘yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida” gi Nizom asosida olib boriladi. Mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar mamlakatimizdagi barcha tijorat banklari mazkuri zomga asosan



tashkiletiladivatugatiladi

l-rasm. Tijorat banklari tarkibiy tuzilishining namunaviy ko'rinishi

Tijorat banklari faoliyati uning boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bankning boshqaruv organi quyidagilar hisoblanadi:

- aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi;
- bank Kengashi (kuzatuv kengashi) ;
- bank Boshqaruvi.

Markaziy bank tijorat banklariga bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziya berish yuzasidan qaror qabul qilishda asosiy omil bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- biznes rejaning maqbulligi;
- kapitalning adekvatligi;
- daromadlilikning kelgusi istiqbollari;
- ko'zda tutilayotgan rahbaming malakasi va obro' -e' tibori;
- bankni ochish uchun taqdim etilgan hujjatlarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligi;
- monopoliyaga qarshi choralar.

Dastlab tashkil etilayotgan banklarning ustav kapitalida bank-larning ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi, xorijiy kapital ishtirokidagi banklar va shu bilan banklarni tashkil etish hollari bundan mustasno.

Tashkil etilayotgan bankning ustav kapitalida bir aksiyadoming ulushi yigirma foizdan ortsa Markaziy bankdan oldindan rozilik olinishi lozim. Bir aksiyador yoki o'zaro bog'langan aksiyadorlar guruhining tijorat banki ustav kapitalidagi ulushi ustav kapitali umumiy miqdorining 25 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Yangidan tashkil etilayotgan tijorat banklarining muassislari moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishlari lozim. Muassislarning moliyaviy barqarorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- balansning nolikvidligi;
- to'lovga qobiliyatsizlik yoki bankrotlik;
- yuridik shaxs rasmiy ravishda bankrot deb e'lon qilinishidan qat'i nazar uning passivlari aktivlaridan oshib ketishi;
- yuridik shaxs taqdim etgan shaxs zamonaviy hoilarda ustav kapitalini oshira olmasligini ko'rsatsa;
- bankda mulk sotib olinishi ko'zda tutilishi natijasida bankka yoki uning omonatchilariga moliyaviy xavf solinishi mumkinligini ko'rsatuvchi boshqa hollar mavjud bo'lsa.

Tijorat banklarini tashkil etishda barcha shaxslar ham ishtirok etishi maqsadga muvofiq kelmaydi. Bunday shaxslar tarkibiga:

- bankrotlikka uchragan yuridik shaxsning sobiq rahbarlari, boshqamvi va kuzatuv kengashi a'zolari yoki yirik ishtirokchisi va yuridik shaxsning bankrotligi ulaming harakatlari oqibatida yuzaga kelganligi faktlari ma'lum bolsa;
- o'zining ishbilarmonlik va shaxsiy xatti-harakatida ishlarni noto'g'ri boshqarish va vijdonan yuritish mumkin emasligini namoyish qilgan shaxslar;
- offshor hududlarda ro'yxatga olingan norezident yuridik shaxslar;
- davlat hokimiyati organlari, mahalliy boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, byudjetdan tashqari fondlar, byudjet muassasalari va tashkilotlari, agar boshqa holat qonunlarda ko'zda tutilmagan bo'lsa.

Yangidan tashkil etilayotgan tijorat bankiari quyidagi ta'sis hujjatlarini Markaziy bankka taqdim etishi lozim:

- a) muassislar tomonidan imzolangan va ulaming muhrlari bilan tasdiqlangan ta'sis shartnomasi;
- b) muassis — aksiyadorlar yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan va bank Kengashi raisi tomonidan imzolangan bank ustavi;
- d) ta'sis yig'ilishining bayoni. Bu hujjatda bankni tashkil etish, ustav kapitali miqdori, ustav va biznes - rejani tasdiqlash, bank Kengashi, taftish komissiyasi va boshqaruvini saylash to'g'risidagi qaror bo'lishi lozim.

Mustaqillikka erishgandan hozirgi kungacha boigan davrda turli mulk shaklidagi qator banklar tashkil etildi, ulaming asosiy qismi mamlakatimiz moliya-kredit bozorida samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining takomillashuvi va iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi natijasida ulaming ayrimlarini maqomi o'zgartirildi, ayrimlari boshqa banklarga qo'shib yoki umuman faoliyatini to'xtatdi. 2018 yil 1 yanvar holatiga mamlakatimizda jami 28 ta tijorat banklari tashkil etilgan bo'lib, ulaming uch tasi davlat banki, beshtasi xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma banklar, 8 tasi xususiy banklar, qolganlari aksiyadorlik tijorat banklari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklar iqtisodiyotning muhim moliyaviy “qon tomirlari” hisoblanib, ularning faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish mamlakatning tegishli qonun va me’ yoriy hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda bu boradagi jarayon doimiy ravishda rivojlanib va takomillashib bormoqda.

Tijorat banklarning funksiyalari

Tijorat banklarning mohiyati ularning funksiyalarida yanayam yaqqolroq namoyon bo’ladi. Banklarning funksiyalari ularning nazariy masalalari sifatida e’l tilof etiladi. Shu bois ham banklarning mohiyatini yoritishda vujudga kelgan qator mulohazali holatlar ularning funktsiyalarini yoritishda ham mustasno emas. Xususan, iqtisodiy adabiyotlarda banklarning funksiyalari haqida qator mulohazali va tushunmovchilik holatlar mavjud. Masalan, ayrim manbalarda banklar bajaradigan operatsiyalar ularning funksiyalari sifatida qayd etiladi. Bu erda bank faoliyati natijasida ular tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalari nazarda tutiladi. Biroq, shuni ta’kidlash joizki, banklarning barcha operatsiyalari ham ularning funksiyalari bo’la olmaydi. Bank funksiyasi uning ma’lum ko’rinishdagi faoliyatini ifodalaydigan iqtisodiy kategoriya bo’lishi lozim.

Shunga qaramasdan, ayrim iqtisodiy manbalarda banklar to’lov aylanmasi, kassaga naqd pullarni qabul qilish va berish, kredit berish, qimmatli qog’ozlarni saqlash va boshqarish, naqd va naqdsiz ko’rinishda xorijiy valyutani sotish va sotib olish, shuningdek, bank tomonidan bajaraladigan boshqa operatsiyalar ularning funksiyalari sifatida ta’kidlanadi.

Bundan tashqari, iqtisodiy adabiyotlarda banklarning qimmatbaho metallar va buyumlarni saqlash uchun maxsus seyfalar berish, xo’jalik yurituvchi subyektlarning kapitalini shakllantirishda ishtirok etishi, kreditlash uchun resurslarni jalb etish va boshqa shu kabi operatsiyalari ularning funksiyalari sifatida talqin etiladi. Albatta, bu banklarning pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi muassasa sifatidagi faoliyatini aniqroq tushinishda va ularning imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Biroq, ushbu operatsiyalarning barchasi banklarning

funksiyalari bo'lib hisoblanmaydi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, banklarning har-bir operatsiyasini ulaming funksiyalari sifatida e'tirof etadigan bo'lsak, demak zamonaviy banklar 300 dan ortiq funktsiyani bajaradi degan fikr paydo bo'ladi.

Tijorat banklarning funksiyalari haqida gap ketganda, bu jarayonni nafaqat banklar nuqtai nazaridan, balki uning mijozlari manfaatlaridan ham kelib chiqib so'z yuritish lozim. Shu jihatdan banklarning funksiyalarini o'rganishda ulami quyidagi mezonlariga e'tibor qaratish lozim:

- ◆ V makroiqtisodiy darajada, banklar va real sektor ishtirokchilari o'rtasida iqtisodiy munosabatlar;

- ◆ banklarning tashkiliy-huquqiy va mulkiy shakli jihatidan amal qilishi (Markaziy bank, tijorat banki, ixtisoslashgan bank va boshqalar).

Banklarning funksiyalari to'g'risida fikr yuritganda quyidagi masalalarni e'tibordan chetda qoldirish kerak emas. Birinchidan, banklarning funksiyalari ulaming mohiyatini kengroq ochishga xizmat qilishi lozim, ikkinchidan, banklarning funktsiyasi sifatida ta'kidlangan iqtisodiy kategoriya barcha moliyaviy institutlarning xususiyatlariga xos bo'lgan jarayon emas, balki faqat banklarga xos bo'lgan iqtisodiy kategoriya bo'lishi lozim.

Masumki, banklarning asosiy operatsiyalaridan biri iqtisodiy-yotdagi bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etishga qaratilgan. Bu banklarning funktsiyasi bo'la oladimi, degan savol tug'iladi. Markaziy bankda tijorat banklarining majburiy zaxiralari jamg'ariladi, banklarda esa aholi va mijozlarning vaqtinchi bo'sh pul mablag'i jamg'ariladi. Iqtisodiyotda vaqtinchi bo'sh pul mablag'i jamg'arish banklarning qadimiy operatsiyalaridan biri hisoblanadi. Bu erda asosiy masala shundan iboratki, vaqtinchi bo'sh pul mablag'i jamg'arish faqatgina banklarga xos bo'lgan operatsiya emas, ushbu operatsiyani jismoniy shaxslar yoki boshqa yuridik shaxslar ham amalga oshirishi mumkin. Chunki, har qanday subyekt u yoki bu obyektni moliyalashtirish uchun dastlab masum miqdordagi moliyaviy mablag'i

jamg' arishi lozim. Biroq, masalaga yanayam chuqurroq yondashadigan boisak, banklar ushbu operatsiyani bajarganda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bajaradigan operatsiyalardan jiddiy farq qiladi. Ular asosan quyidagi holatlarda namoyon boiadi:

- banklar pullarni jalb etganda o'z pullarini emas, balki begona shaxslarning mablaglarini jamg' aradi;
- banklar jamg' argan mablaglarni o'zining ehtiyoji uchun emas, balki boshqa shaxslarning ehtiyojlari uchun sarflaydi (qayta taqsimlash asosida).

Tijorat banklarning funksiyalari xususidagi mulohazalarni chuqur-lashtirish fikridan yiroq ekanligimizni ta'kidlagan holda, ularning quyidagi funksiyalari mavjudligini qo'llab-quvvatlaymiz.

Birinchi funksiyasi, vaqtinchalik bo'lish pul mablag'larini jalb qilish, jamg' arish va ushbu mablaglarni kapitalga aylantirish funksiyasi. Banklarning juda qadimiy funksiyalaridan hisoblanadi. Banklar jamiyatdagi vaqtinchalik bo'lish pul mablag'larini tegishli shartlar asosida o'zlariga jalb qiladi va ushbu mablag'larni samarali yo'nalishlarga joylashtiradi. Albatta, banklardan tashqari turli investitsion fondlar, moliya-sanoat korxonalari ham pul mablaglarini jalb qilish vajamg' arish bilan shug'ullanadi, biroq ularning pul mablaglarini jalb qilish va jamg' arishi bilan banklamikidan jiddiy farqlar mavjud. Banklarning itiyorida boigan mablaglarning deyarli 90 foizi chetdan jalb qilingan pul mablaglari hisoblanadi. Bu banklarning asosiy faoliyati boshqa shaxslarning mablaglari hisobiga amalga oshirilishi anglatish bilan birga, yuqori darajada riskka bogliqligini keltirib chiqaradi.

Ikkinchi funksiyasi, korxona va tashkilotlar, davlat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi mulkiy shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarni aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini oshiradi. Xususan, korxona va tashkilotlar ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash va kengaytirish, mehnat taqsimotini takomillashtirish, qo'shimcha aksiya-larni sotib olish va boshqa maqsadlarni amalga oshirishda

qo‘ shimcha moliyaviy mablagMarga kuchli ehtiyoj sezadi. Xo‘ jalik yurituvchi subyektlarning bu ehtiyojining asosiy qismi banklarning kredit berish funksiyasi orqali qondiriladi. Albatta, banklar ushbu fiinksiyani amalga oshirishda kreditning tegishli tamoyillariga (muddatlilik, ta’ minlanganlik, toMovlilik, qaytarishlik va maqsadlilik) amal qilgan holda xo‘ jalik yurituvchi subyektlarga tijorat asosida taqdim etadi.

Uchinchi funksiyasi, xo 'jalik subyektlari pul hisob — kitoblarni amalga oshirishda vositachi hisoblanadi. Iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan xo‘ jalik subyektlari kun davomida bir necha yuz minglab turli darajadagi pul aylanmalarini (asosan naqdsiz pul ko‘ rinishida) amalga oshiradi. Banklarning bevosita ishtiroki (vositachiligi) natijasida ushbu o'tkazmalar jo‘ natuvchidan oluvchiga etib boradi. Shuningdek, banklar pul o‘ tkazmalari orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapitalni joylashtiradi va kredit liniyalari ochadi. Bularning barchasi banklarning pul hisob-kitoblarni amalga oshirishda vositachilik funksiyasi orqali bajariladi va tartibga solinadi. Banklarning pul aylanmasini tartibga solish funksiyasi orqali Markaziy bank iqtisodiyotdagi tovar massasi va pul massasi o‘ rtasidagi o‘ zaro muvozanatlikni ta'minlaydi. Ma' lumki, ushbu muvozanatning buzilishi iqtisodiyotda inflyatsiya darjasini ortib ketishi yoki pul taqchilligini vujudga kelishiga olib keladi. Shu bois ham Markaziy bank o‘ zining pul-kredit instrumentlari orqali pul aylanmasi uchun zarur bo‘ lgan to‘ lov vositasining miqdorini tartibga solib turadi.

Kredit mablag ‘ larni muomalaga chiqarish banklarning to ‘ rtinchi funksiyasi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, ushbu funksiyani barcha banklar bajarish huquqiga ega emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida muomalaga kredit pullarni chiqarish Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. Markaziy bank muomalaga chiqarayotgan pul massasini mamlakatda yaratilayotgan tovar massasiga nisbatan muvozanatligini ta' minlashga e'tibor qaratadi. Markaziy bankning ushbu funksiyani samarali bajarayotganligi milliy valyutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamligi va inflyatsiya darjasining pastligi belgilaydi.

Demak, tijorat banklari kredit pullarini muomalaga emissiya qilish huquqiga ega emas, ular muomaladagi mavjud pul hajmi doirasida faoliyat yuritadi. Muomaladagi pul massasining hajmini o'zgarishiga tijorat banklari bevosita ta'sir qila olmaydilar, bunga faqat Markaziy bankning huquqi mavjuddir.

Iqtisodiy va moliyaviy maslahatlarni berish **banklarning beshinchi funksiyasi** hisoblanadi. Banklar iqtisodiyotdagi moliyaviy muas-sasa sifatida mulkiy shaklidan qat'iy nazar mamlakatdagi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'zlarining huquqiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli darajadagi iqtisodiy va moliyaviy maslahatlarni beradi. Albatta, ushbu maslahatlar mijoz va bank o'rtasida tuzilgan tegishli shartnomalar yoki o'zaro kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, banklarning funksiyalari ularning mohiyatini va bajaradigan operatsiyalarining mazmunini anglashga xizmat qiladi. Banklarning funksiyalari turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etilishining asosiy sababi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yuz berayotgan va rivojlanib borayotgan munosabatlarning doimiy ravishda yangi qirralarining vujudga kelayotganligi bilan izohlanadi.

Tijorat banklarning daromad va xarajatlari

Tijorat banklarining daromadi foizli va foizsiz daromadlardan iborat. Ularning daromadlari tarkibida foizli daromadlar asosiy salmoqni egallaydi. Daromadlar bank balansining passivida hisobga olib boriladi.

Tijorat banklari daromadlarini manbalari turli-tuman bo'lib, ularni quyidagi tartibda guruhlash mumkin:

1. Mulkiy shaklidan qat'iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga qisqa, o'rtacha va uzoq muddatga so'zlashda va xorijiy valyutalarda berilgan kreditlar bo'yicha daromadlar.
2. Markaziy bankdagi va boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlar bo'yicha daromadlar.
3. Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha daromadlar.

4. Trast, lizing, faktoring va forfeyting operatsiyalari bo' yicha daromadlar.
5. Qimmatbaho metallar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo' yicha daromadlar.
6. Qimmatli qog' ozlar bilan amalga oshiriladigan REPO bitimlari bo' yicha daromadlar.
7. Xorijiy valyutalar kursining o' zgarishi natijasida olinadigan daromadlar.
8. Berilgan kafolatlar va tijorat faoliyatidan olinadigan daro-madlar.
9. Qaram xo' jalik jamiyatlariga, qo' shma korxonalarga va sho' ' ba xo' jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar.
10. Maslahat va vositachilik xizmatlaridan olingan daromadlar.
11. Boshqa daromadlar.
12. Tijorat banklarining foizli daromadlari asosan ular tomonidan berayotgan kreditlar hisobidan shakllanadi.

Tijorat banklarining xarajati foizli va foizsiz xarajatlardan iborat bo' ladi. Xarajatlar bank balansining aktiv tomonida hisobga olib bori-ladi.

Tijorat banklari o' z faoliyatini tashkil etish jarayonida turli xarajatlarni amalga oshiradi, shu bois xarajatlarni moddalar bo' yicha guruhlariga ajratib o' rganish maqsadga muvofiq.

Bankning moliyaviy resurslarini shakllantirish va uning bevosita faoliyatini tashkil etish bilan bog' liq xarajatlar:

- - mijozlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlariga xarajatlar;
- depozit sertifikatlar, omonatlar va aksiyalarga to' lanadigan xarajatlar;
- boshqa bank va bank boimagan tashkilotlardan olingan kreditlar bo' yicha xarajatlar;
- Markaziy bankdan qayta moliyalash tarzida olingan resurslarga toianadigan xarajatlar;
- naqd pullarni olib kelish, jo' natish va saqlash bilan bog'liq xarajatlar;
- qimmatli qog' ozlar va qimmatli metallar bilan bog'liq operatsiyalar bo' yicha toianadigan xarajatlar;

- mahalliy banklarning vakillik hisobvaraqlariga toianadigan xarajatlar;
- xorijiy banklarning «Loro» vakillik hisobvaraqlariga toianadigan xarajatlar;
- qaytarilmagan kreditlar bo' yicha xarajatlar;
- boshqa xarajatlar.

Xodimlarining ish haqi, ijara va boshqa ma 'muriy xarajatlar:

- ish haqi va moddiy yordam xarajatlari;
- sug' urta va badallarga xarajatlar;
- xodimlarni ijtimoiy himoya va meditsina xarajatlari;
- ijara, suv, elektr energiya, ta'mirlash, qo' riqlash va boshqa xarajatlar.

Xizmat safari, transport va amortizatsiya xarajatlari:

- bank xodimlarining xizmat safari va yashash xarajatlari;
- transport vayoqilg' i xarajatlari;
- bank binosi va boshqa imoratlariga amortizatsiya xarajatlari;
- transport, mebel va boshqa jihozlarning amortizatsiya xarajatlari;
- nomoddiy aktivlar va ijaraga topshirilgan binolarga amortizatsiya xarajatlari;
- soliq to' lovlari bilan bog'liq xarajatlar;
- boshqa xarajatlar.

Bankning imidjini ko ' tarish va xizmatlarining turini ko ' paytirish bilan bog' liq xarajatlar:

- reklama va eionlarga qilinadigan xarajatlar;
- prezentatsiya va boshqa tadbirlarlarini otkazish bilan bog'liq xarajatlar;
- kitoblar va davriy nashrlarga qilinadigan xarajatlar,
- homiylik va vasiylik xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.
- Tijorat banklarining xarajatlari tarkibida asosiy salmoqni yuqo-rida keltirilgan birinchi va ikkinchi guruhdagi xarajat moddalari egal-laydi.

- Tijorat bankining yuqori darajada foydaga ega bo' lishi va kapitalning yetarliligini ta' minlanganligi uning iqtisodiy jihatdan mustahkamligini anglatadi. Bankning yuqori foydaga ega bo'Mishi uning raqobatbardoshligini va xizmatlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kapitalning yetarligini

ta' minlanganligi esa bankning aktiv operatsiyalarining hajmini oshirishga va risk darajasini pasaytirishga bevosita ijobiy ta' sir ko' rsatadi.

Bobga oid savollar

1. Tijorat banklari deb qanday tashkilotga aytiladi?
2. Respublikamizda mustaqillikgacha bo' lgan davrda qanday banklar faoliyat yuritgan?
3. Tijorat banklarining boshqaruv organlariga qaysi organlar kiradi?
4. Bugungi kunda tijorat banklarini tashkil qilish qaysi nizom asosida olib boriladi?
5. Kimlar tijorat banklarining muassislari bo' la olmaydi?
6. Dastlabki ruxsatnomani olish uchun tijorat banklari qanday hujjatlarni taqdim qilishlari lozim?
7. Xorijiy kapital ishtirokidagi banklar tashkil etilayotganda qanday qo' shimcha hujjatlar taqdim qilishlari lozim?
8. Tijorat banklariga Markaziy bank tomonidan litsenziya qanday talablar bajarilganidan keyin beriladi?
9. Tijorat banklarining qanday funksiyalarini bilasiz?
10. Banklarning daromadlari manbalariga nimalar kiradi?
11. Tijorat banklarining xarajatlari qanday guruhlariga ajratiladi?

MAVZU: TIJORAT BANKLARINING OPERATSIYALARI.

REJA:

1. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari
2. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari
3. Tijorat banklarining noan'anaviy operatsiyalari

Tijorat banklari asosan jamiyatdagi vaqtinchi bo' sh pul mablag' larini jalb qilish va ushbu mablag' larni tegishli maqsadlarda joylashtirish orqali tegishli

foydani shakllantiradi. Banklarning vaqtinchalik mablag' larni jalb qilish bilan bog' liq operatsiyalari passiv operatsiyalar hisoblanadi. Banklarning passiv operatsiyalari tegishli xarajatlar evaziga amalga oshiriladi. Demak, tijorat banklarining passiv operatsiyalari natijasida moliyaviy resurslarni shakllantiradi. Resurslar ikkita yirik manba: jalb qilingan mablag' lar va o' z mablag' lardan iborat. Resurslar bank balansining passivida hisobga olib boriladi. Tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar (jalb qilingan mablag' lar) tashkil etib, ulvar jami bank resurslari tarkibida 85-90 foizdan iborakt bo' ladi.

Majburiyatlarni muddati va vujudga kelio' manbasiga qarab: barqaror va beqaror mablag' larga, ular uchun to' lanadigan xarajatlar miqdoridan kelib chiqib: arzon va qimmat mablag' larga ajratish mumkin.

Jalb qilingan mablag' larning manbasi:

Depozitlar:

- chaqirib olinguncha saqlanadigan depozitlar;
- muddatli depozitlar;
- jamg' arma depozitlar;

Xalqaro bank amaliyotida bank resurslari tarkibida depozit mablag' lar, ayniqsa muddatli depozitlar asosiy ulushni tashkil etadi. Bank resurslari tarkibida muddatlli depozitlar ulushining yuqoriligi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga va to' lovg'a layoqatligini taminlashga bevosita tasir ko' rsatadi. Takidlash lozimki, respublikamiz tijorat banklari resurslari tarkibida muddatli mablag' larning ulushi ortib borish tendensiyasiga ega bo' lib, ushbu ko' rsatkich 2001 yil yanvar holatiga taxminan 7-8 foizni tashkil etgan bo' lsa, 2008 yil 1 yanvar holatiga ko' ra 17 foizga, 2018 yil 1 yanvar holatiga ko' ra 30-35 foizni tashkil etgan.

Depozitsiz mablag' lar:

- banklararo kredit resurslari;
- hukumat hisobvaraqlaridagi vaqtincha bo' sh mablag' lar;
- tijorat banklardan olingan resurslar
- boshqa mablag' lar;

Banklarning depozit bo'lgan mablag' lari tarkibida moliya bozoridan jalb qilinmagan banklararo kredit resurslari asosiy salmog' ni tashkil etadi. Banklararo kreditlar asosan qisqa muddatli xarakterga ega bo'lib, odatda ushbu kreditlarni berish va olish jarayoni o'zining tezkorligi bilan muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon bo'yicha asosiy operatsiyalar banklarning vakillik hisobvaraqlari doirasida amalga oshiriladi. Ya'ni, tijorat banklari o'zaro kelishuvga erishganda mablag' lar vakillik hisobvaraqlari orqali o'tkazib beriladi. SHu bilan birga ushbu kreditlar tijorat banklari uchun nisbatan arzon va muddatli jihatidan **“uzun” mablag' lar** hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida depozit bo'lgan resurslar tarkibida asosiy yirik manbalardan biri qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Banklar moliyaviy resurslarni shakllantirish maqsadida aksiya, obligatsiya, depozit va jamg'arma sertifikatlarini muomalaga chiqaradi. SHuningdek, tijorat banklari uzoq muddatli resurslarni shakllantirishda ipoteka va subordinar qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali resurslarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarni ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchi guruhga, tijorat banklari ustav va qo'shimcha kapitalni shakllantirish maqsadida aksiya subordinar qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish bo'yicha operatsiyalari, ikkinchi guruhga esa qisqa va uzoq muddatli resurslarga bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun obligatsiya va ipoteka qimmatli qog'ozlari, depozit va jamg'arma sertifikatlari bilan bog'liq operatsiyalari kiradi.

Aksiya va sertifikatlarning bozor bahosi ortib borishi ularning oldi-sotdisiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pchilik hollarda tijorat banklari o'z aksiyalari va sertifikatlarining ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi bahosini oshirish maqsadida investitsion kompaniyalar orqali investor sifatida ham maydonga chiqish mumkin. Tijorat banklari aksiyalari va sertifikatlarining bozor bahosi moliya bozoridagi mavjud talab va taklif asosida o'rnatiladi. Aksiya va sertifikatlarning nominal va bozor bahosi o'rtasidagi farq ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Agar ushbu farq ijobiy bo'lsa, tijorat banklari moliyaviy

jiyatidan barqaror va raqobatbardosh ekanligidan dalolat beradi. Mazkur holat banklarning qimmatli qog'ozlar orqali resurslarni oshirishga ijobiy tasir ko'rsatadi. Tijorat banklari aksiya va sertifikatlarning bahosiga tasir qiladigan asosiy omillardan biri ularga to'lanadigan dividend va foiz to'lovlari hisoblanadi. Aksiya va sertifikatlar to'lanadigan to'lovlar miqdorining yuqoriligi va barqarorligi banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi emitent nufuzini oshirishga bevosita tasir ko'rsatadi. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyatining asosida iqtisodiy foyda olish yotadi. Shuni alohida takidlash mumkinki, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi emitent, investor yoki vositachi sifatidagi ishtirokiga iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasini inobatga olish mumkin. Tijorat banklari mablag'lari ikkinchi yirik manbasini ularning kapitali tashkil etadi. Bank kapitali tarkibida ustav kapitalining tashkil topishi va barqarorligi jihatidan muhim moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi.

O'z mablag'lari manbasi:

- umumiy kapital;

Asosiy(birinchi darajali) kapital:

- ustav kapitali;
- emission daromad;
- maxsus zahiralar;
- taqsimlanmagan foyda;

Qo'shimcha (ikkinchi darajali) kapital:

- joriy yilning sof foydasi;
- qayta baholash zahirasi;
- subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari;
- sho'ba korxonalarga qilingan quyilmalar.

Yuqoridan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari regulativ kapitali birinchi va ikkinchi darajali kapitalidan tashkil topadi. Iqtisodiy adabiyotlar, meyoriy hujjatlar va Bazel andozalariga ko'ra birinchi darajali kapital asosiy kapital sifatida etirof etiladi. Tijorat banklari asosiy (birinchi darajali) kapitali xalqaro Bazel andozalariga asosan ustav kapitalining to'langan qismi, muddatsiz nekumilyativ

imtiyozli aksiyalar, emission daromad, sof foydahisobidan shakllantirilgan zahira summalari va o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan tashkil topadi.

Tijorat banklarining ikkinchi darajali (qo‘shimcha) kapitali kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zag‘iraning riskka tortilgan aktivlar miqdori 1, 25 foizdan oshib ketmaydigan qismi, qayta baholash zahirasi, subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari va konsolidatsiyalashgan sho‘ba korxonalarni tashkil etish maqsadida yo‘naltirilgan qo‘yilmalarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston tijorat banklari kapitalining tarkibi va uning etarlilikiga qo‘yilgan talablar Markaziy bankning 2015 yil 14 iyuldagi “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomi asosida tartibga solinadi.

O‘zbekiston tijorat banklari birinchi darajali kapitali tarkibiga xalqaro Bazel andozalaridan farqli o‘laroq, bankning ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo‘lgan valyuta kativlarini qayta baholash hisobiga tashkil etilgan devalvatsiya zahirasi alohida manba sifatida etirof etiladi. SHuningdek, tijorat banklarining joriy yildagi sof foydasi ikkinchi darajali kapitali tarkibiga kiritilgan. **Demak, tijorat banklari passiv operatsiyalari natijasida aktiv operatsiyalar uchun zarur bo‘lgan resurslarni shakllantiradi, banklarning passiv operatsiyalari xarajatlarni keltirib chiqaradi.**

TIJORAT BANKLARINING AKTIV OPERATSIYALARI

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari-bu banklarning passiv operatsiyalari natijasida shakllantirilgan mablag‘larni iqtisodiy jihatdan daromad (foyda) olish maqsadida turli maqsadlarga joylashtirish va likvidligini taminlash bilan bog‘liq operatsiyalardir. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ularning faoliyatida juda muhim hisoblanadi. CHunki ular ushbu operatsiyalar orqali daromadlarni shakllantiradilar va aktiv operatsiyalar doimo malum darajada risk, qarzdorning defolti(to‘lovga qobiliyatsizlik) bilan bog‘liq bo‘ladi.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra:

- kassa opreatsiyalari;
- ssuda operatsiyalari;
- investitsiya va fond operatsiyalari;
- valyuta operatsiyalari va kafolatlar berish;
- bank faoliyatini amalga oshirish uchun xarajatlar (asosiy vositalar, transport va b.) bilan bog' liq operatsiyalardan iborat.

Banklar **kassa operatsiyalari** orqali mijozlarga naqd pullarni berish va ularga naqd pullarni qabul qilish bilan bog' liq ishlarni amalga oshiradi.

Ssuda operatsiyalari orqali banklar mamlakatdagi faoliyat yuritadigan mulkiy shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subektlarga tegishli kreditlar beradi. Malumki, bank kreditlari bir yilgacha-qisqa muddatli, bir yil va undan ko'p davrga-uzoq muddatli kreditlarga bo'linadi.

Investitsiya operatsiyalarida banklar xo'jalik yurituvchi subektlar va davlatning qimmatli qog'ozlariga moliyaviy mablag' larni joylashtiradi. Albatta ushbu operatsiyalar banklar uchun malum darajadagi riskli operatsiyalar hisoblanib, banklarning foydasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fond operatsiyalarida banklar qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bajarish bilan birga, Fond birjalarda oldi-sotdi qilinadigan qimmatli qog'ozlar va veksellar bilan operatsiyalar amalga oshiradi.

Banklarning valyuta operatsiyalari bevosita xorijiy mamlakatlar milliy valyutasini oldi-sotdisi bilan bog' liq operatsiyalar hisoblanib, milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan kursining o'zgarishi g'isobiga foyda yoki zara ko'rishi mumkin.

Banklar yirik va yuqori darajadagi to'lov qobiliyatiga ega moliyaviy muassasa sifatida kompaniya, korporatsiya va boshqalarga uchinchi shaxs sifatida kafolatlar berishi mumkin. Albatta, berilgan kafolatlar evaziga banklar malum darajada foyda olishni rejalashtiradi.

YUqoridagi qayd etilganlarga asoslanib, banklarning aktiv operatsiyalarini to'rtta guruhga ajratish mumkin.

1. Erkin zahiralar-bunga kassadagi naqd pullar, Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlardagi qoldiqlar, boshqa kredit tashkilotlardagi vakillik hisobvaraqlardagi mablag' lar. Erkin zahiralar yuqori likvidli mablag' lar hisoblanib, bankka qisman yoki umuman daromad keltirmaydi.

2. Berilgan kreditlar va depozit ko' rinishida boshqa moliyaviy muassasalariga, shuningdek, Markaziy bankka joylashtirilgan mablag' lar.

3. Investitsiyalar-bu bankning qimmatli qog' ozlarga va nomoddiy aktivlarga yo' naltirilgan mablag' lari. Bunga bank faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo' lgan binolar, jihozlar va boshqa uskunalar kiradi.

4. Banklarning o' ziga (ichki investitsiyalar) moddiy va nomoddiy aktivlarga yo' naltirilgan mablag' lari. Bunga bank faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo' lgan binolar, jihozlar va boshqa uskunalar kiradi.

Tijorat banklarining daromadi bankning 2 va 3 guruhiga kiruvchi aktiv operatsiyalari hisobidan tashkil topib, bank aktivlarining risk darajasi qancha yuqori bo' lsa, ushbu operatsiyalardan kelayotgan daromadlar miqdori ham shuncha yuqori bo' ladi va aksincha.

Demak, banklarning aktiv operatsiyalari daromad keltirish darajasiga qarab:

- Daromad keltiradigan (kredit va investitsiyalar) aktivlar va daromad keltirmaydigan (erkin zahiralar, moddiy) aktivlarga bo' linadi.
- Aktivlar markaziy bankning 2015 yil 13 iyundagi 14/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan " Tijorat banklarda aktivlar sifatini tavsiflash va aktivlar bo' yicha ehtimoliy yo' qotishlarni qoplash uchun zahiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish to' g' risida" gi Nizomga asosan banklarning aktivlari sifatiga ko' ra:
 - **STANDART;**
 - **SUBSTANDART;**
 - **QONIQARSIZ;**
 - **SHUBHALI;**
 - **UMIDSIZ toifalarga tasniflanadi.**

Aktivlar “**STANDART**” sifatida tasniflangan aktivlar bo‘ yicha qaytarilmagan kredit summasining 1 foizi miqdorida zahiralar tuzish shart.

“**Substandart**” sifatida tasniflangan aktivlar bo‘ yicha bank asosiy qarzni to‘ lanmagan summasining 10 foiziga teng bo‘ lgan zag‘ iralarni shakllantirish lozim.

Tijorat banki sifati “**qoniqarsiz**” deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz qoldiq) summasining 25 foiz miqdorida maxsus zahira shakllantirishi lozim.

“**SHubhali**” deb tasniflangan aktivlar bo‘ yicha bank asosiy qarz to‘ lanmagan summasining 50 foizi miqdorida zahirani tashkil etilishi shart. Bank tomonidan berilgan kreditlar kamida 180 kunga kechiktirilganda bular “**umidsiz**” deb tasniflanadi. Umidsiz deb tasniflangan aktivlar bo‘ yicha bank asosiy qarzni to‘ lanmagan summasining 100 foizi miqdorida, sud jarayonida ko‘ rib chiqilayotgan aktivlarga 150 foizgacha zahiralar yaratilishi kerak. Bank aktivlari likvidli, yani tez naqd mablag‘ ga aylantirish imkoniyati bo‘ lishi kerak. Bank aktivlari likvidlilik nuqtai nazaridan quyidagilarga bo‘ linadi:

- YUqori likvidli aktivlar-bevosita pul ko‘ rinishidagi mablag‘ lar bo‘ lib, ushbu aktivlar istalgan paytda bank majburiyatini bajarishga yo‘ naltirilishi mumkin;

- Qisqa muddatli likvidli aktivlar-qisqa muddatli kreditlar va ikkilamchi bozorga ega bo‘ lmagan qimmatli qog‘ ozlar;

- Qiyin realizatsiya qilinadigan aktivlar-o‘ rta va uzoq muddatli kreditlar, ikkilamchi bozorga ega bo‘ lmagan qimmatli qog‘ ozlar, pay ulushlari va boshqalar;

- Past likvidli aktivlar-bankning asosiy vositalariga yo‘ naltirilgan mablag‘ lar kiradi.

- Demak, banklarning aktiv operatsiyalari ularning foydasini shakllantirishga xizmat qilish bilan birga malum darajada risklarni vujudga kelishiga sabab bo‘ ladi. Banklar aktiv operatsiyalarni bajarishda asosiy etiborni mavjud

risklarning darajasini pasaytirish orqali balansning likvidligini taminlashga qaratadi.

TIJORAT BANKLARINING NOANANAVIY OPREATSIYALARI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari mijozlarning moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va foyda manbasini oshirish maqsadida qator noanaviy opreatsiyalarni ham bajaradi. Bunday opreatsiyalar sirasiga: faktoring, kontokorrent (overdraft), forfeiting, trast kabi operatsiyalarni kiritish mumkin.

Faktoring operatsiyalari

Faktoring operatsiyalarida banklar tovar sotib oluvchining qarz hujjatlarini sotib oladi, unda asosan uchta tomon ishtirok etadi. Birinchisi, faktor-vositachi, bankning faktoring opreatsiyalarini bajaruvchi bo'limi. Odatda rivojlangan mamlakatlar tajribasida faktoring opreatsiyalarini amalga oshirishga ixtisoslashgan faktoring kompaniyalari tashkil etish amaliyoti ham mavjud.

Ikkinchisi, mijoz (tovar sotib oluvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi), faktor-vositachi bilan kontrakt tuzuvchi sanoat va savdo firmasi.

Uchinchisi, tovar sotib oluvchi. Mijoz sotilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinishi kerak bo'lgan pul mablag' larni talab qiluvchi hujjatlar asosida "faktor-vositachi" bilan faktoring operatsiyasi bo'yicha shartnoma tuzadi. Faktor-vositachi imzolangan faktoring operatsiyasi asosida, malum komission to'lov hisobiga mijozga sotilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlarga to'lovlarni amalga oshiradi. Sodaroq qilib aytganda, faktor-vositachi mijozdan tovar sotib oluvchiga mablag' larni to'lash bilan bog'liq to'lov hujjatlarini komission to'lov asosida "sotib oladi".

Faktor-vositachi mijoz bilan faktoring operatsiyasini imzolayotganda tovar sotib oluvchining moliyaviy holatini odilona baholashi juda muhim hisoblanadi. Bunda agar sotib oluvchining moliyaviy holati yomonlashib, faktoring operatsiyasi bo'yicha faktor-vositachi tomonidan mijozga to'lagan summani to'lov olmasa, ushbu zarar faktor-vositachining gardaniga tushadi.

Iqtisodiyotda faktoring operatsiyalarini vujudga kelishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni takidlash lozim;

- sotib oluvchi korxona va tashkilotlar olingan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlarga to'lashi lozim bo'lgan mablag'larni o'z vaqtida to'lash imkoniyatlarining mavjud emasligi. Bu qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar tufayli vujudga keladi;

- Tovar sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi mijozning ishlab chiqarish jarayonini doimiy ravishda davom ettirib turishi uchun moliyaviy mablag'ga bo'lgan ehtiyojini taminlashning zarurligi;

- banklarning moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanish hisobiga qo'shimcha foydani shakllantirishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi.

Kontokorrent operatsiyalari

Banklarning noan'anaviy operatsiyalaridan biri kontokorrent operatsiyalari hisoblanadi. Kontokorrent (overdraft) operatsiyalarida mijozlarning banklardagi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari bo'yicha malum miqdorda debet qoldiq (overdraft) qolishiga ruxsat beriladi. Albatta, bu iqtisodiy jarayon bank va mijoz ortasida tegishli shartnoma asosida rasmiylashtiriladi, kontokorrent shartnomasiga asosan mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlarida mablag'lar mavjud bo'lmagan holda, unga to'lovlarni malga oshirish uchun tegishli summani debet qoldig'i hisobidan o'tkazishga yo'l qo'yiladi.

Kontokorrent (overdraft) operatsiyalarida mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'ining aktiv qismida qolgan qoldiq asosida bank hisobiga tegishli foiz hisoblanadi. Mijoz tomonidan sotilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan mablag'lar uning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'i tushishi orqali debet qoldiq(overdraft) summasi yopiladi. SHu tariqa, bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomada kelishilgan muddat davomida kontokorrent (overdraft) operatsiyasi amalga oshiriladi. Uning ishtirokchilari bank va bankning mijozi hisoblanib, bank

kontokorrent (overdraft) shartnomasini tuzayotganda mijozning moliyaviy holati, balansning likvidligi va borshqa mezonlarga alohida etibor qaratiladi. Bunda asosan bank bilan uzoq yillardan buyon hamkorlik qilib kelayotgan va asosli to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan hamda ishonchli mijozlari yuqori mavqeiga ega bo'ladi. Kontokorrent (overdraft) operatsiyalarining qator afxalliklari mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilar hisoblanadi.:

- Mijozning qisqa muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini taminlaydi va qo'shimcha hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt va moliyaviy mablag' larni tejash imkoniyatini beradi;
- Banklarga moliyaviy mablag' larni ishonchli va samarali maqsadlarga joylashtirish imkoniyatini berish bilan birga, qo'shimcha foyda olishga sharoit yaratadi.

FORFEYTING OPERATSIYALARI

Forfeyting operatsiyalari asosan yirik banklar va kompaniyalar o'rtasida uzoq muddatga, juda katta miqdordagi moliyaviy mablag' larni to'lashda qo'llaniladigan operatsiyalar hisoblanadi. Forfeyting operatsiyasida, faktoring operatsiyasidagi singari uch tomon ishtirok etadi. Birinchi mol etkazib beruvchi, ikkinchisi, mol sotib oluvchi va uchinchisi, vositachi-bank yoki moliyaviy muassasa. Forfeyting operatsiyalarining faktoring operatsiyalaridan asosiy farqi sifatida ushbu operatsiyalar uzoq muddatga (6 oydan 5-6 yilgacha) va yirik summalarga tuzilishini takidlash mumkin. Forfeyting iqtisodiy termini odatda majburiyatni sotib olish manosida qo'llaniladi, uni so'ndirish tovar va xizmatlarni sotib olish jarayonida kelgusida yuz beradi "a forfeit" so'zi fransuzchadan vujudga kelgan bo'lib, "huquqdan voz kechish" manosini anglatadi. Forfeytingda pul mablag' larini olishga talabgor bo'lgan sotuvchi o'tkaziladigan veksel indossamentiga "to'lovni qaytarish shartisiz" so'zini qayd etish orqali to'lov regressidan o'zini himoya qiladi. Forfeyting vekselni sotuvchi asosan yirik eksporterlar hisoblanib, ular vekselni to'lov hujjati sifatida akseptlab sotilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlarning summasini diskont asosida zudlik bilan to'lash hisobiga barcha risk va majburiyatlar bilan birgalikda

forfetterga (yani vekseldagi summani to'lab beruvchi va o'zida qayd etib boruvchi bankka) o'tkazadi. Agar importer birinchi darajali to'lov qobiliyatiga va yuqori moliyaviy mavqeiga ega bo'lmasa, har qanday forfetterlangan qarz summa aval shaklida kafolatlangan yoki chaqirib olinmaydigan bank kafolatiga ega bo'lish lozim. Vekselni forfeterlash paytida undagi summa forfet krediti berilayotgan to'lov muddatga diskont asosida forfetter tomonidan avans tarzida ushlab qolinadi. Eksporter forfet krediti bo'yicha hech qanday majburiyatni o'zida olmaydi, faqatgina u jo'natilayotgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati va tuzilayotgan hujjatlarning qonuniyligi hamda haqoniyligini taminlashda masul hisoblanadi. Forfeyting operatsiyalariga misol sifatida AQSH ning Boing samolyotini ishlab chiqaradigan kompaniya bilan yirik aviakompaniyalar o'rtasidagi o'zaro oldi-sotdilarni keltirish mumkin. Chunki, boeng samolyotlarining bahosi juda yuqori bo'lishi aviakompaniyalarga ushbu mablag'larni birdan to'lash imkoniyatini bermaydi, biroq o'z navbatida ishlab chiqarilgan samolyot uchun tegishli to'lovni olmagani samolyotsozlik kompaniyasida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini taminlashda muammolar vujudga keladi. Aynan shu muammo banklarning ishtirokida forfeyting operatsiyalari orqali hal etiladi. Bundan bank samolyotni sotib olgan aviakompaniyaning boeng kompaniyasi oldidagi majburiyatlarni sotib oladi (savdo trattasi, o'tkazma yoki oddiy veksellik shaklida) va to'lovni bir yoki bir necha amalga oshiradi, kelgusida esa bank va aviakompaniya ortasida tuzilgan shartnomaga muvofiq asosiy summa tegishli jadval asosida, qo'shimcha foiz to'lovlari bilan birgalikda undirib boriladi.

TRAST OPERATSIYALARI

Xalqaro bank amaliyotida trust operatsiyalari banklar mijozlarning topshiriqlariga asosan ularning mulkini boshqarish yoki ishonchli vakil sifatida ularning nomidan xizmatlarni bajaruvchi shaxs. Tijorat banklarida trust-bo'limlari trust operatsiyalari doirasida quyidagi uch yoki undan ortiq ishlarni bajaradi:

- Mijozlarning vasiyatlariga binoan ularning meroslarini boshqarish;
- Ishonchli vakil sifatida xizmatlarni bajarish va otaliqqa olish;

- Agentlik(vositachilik) xizmati.

Mijozlarning vasiyatlariga binoan ularning meroslarini boshqarish. Meroslarni boshqarishda ularning asosiy vazifalari sud qarorini olish, meros bilan bog'liq mol-mulklarni butligi va xavfsizligini taminlash, mamuriy xarajatlarni amalga oshirish, qarzlarni to'lash yoki undirish, mol-mulk bilan bog'liq soliqlarni to'lash va vasiyatchining merosxo'rlariga tegishli xizmatlarni ko'rsatish va yordam berish.

Masalan, amaliyotda bunday holat mulkdorning farzandlari voyaga etmaganda erta olamdan ko'z yumush natijasida vujudga kelishi mumkin. Mijozning ishonchli vakili sifatida ishlarni bajarish yoki shartnoma asosida vaqtinchalik mol-mulkni boshqarish. Bu shakldagi operatsiyalar mijoz uzoq muddatga safarga yoki jismoniy zaifligi oqibatida tegishli mol-mulk (uy-joy, mashina, uy hayvonlari va boshqalar) ni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmagan holatda yuz beradi.

Agentlik(vositachilik) xizmati:

- Qimmatli qog'ozlarni saqlashga qabul qilish;
- Qimmatli qog'ozlarga bo'yicha daromadlarni undirish;
- Qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromadlar haqida benefitsarga malumot berib turish;
- Muddati tugagan qimmatli qog'ozlarni so'ndirish;
- Qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish;
- Benefitsarning hisobvaraqlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish;
- Sug'urta polislarni rasmiylashtirish;
- Seyflarni ijaraga.

Yakunlovchi fikr sifatida takidlash mumkinki, har qanday iqtisodiyotda banklarning noan'anaviy operatsiyalarni rivojlanishga qator omillar tasir qiladi. Xususan, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursining barqarorligi, real inflyasiya darajasining xalqaro amaliyotda umumqabul qilingan meyorlarni taminlanishi, bank

tizimiga aholi va mijozlar ishonchini mustahkamligi kabilar shular jumlasidandir.

2019 yilda o'zlashtirish mo'ljallanayotgan investitsiyalar. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish ko'rsatkichlari. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasining jahondagi etakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan e'tirof etilayotgani.

“Fitch Ratings” va “Standart & Poors” reyting agentliklari tomonidan birinchi marta mamlakatimiz xalqaro suveren kredit reytingini belgilangani. Reyting agentliklarining O'zbekistonda valyuta, savdo va narx siyosati erkinlashgani, davlat boshqaruvidagi institutsional o'zgarishlar, mamlakat oltin-valyuta va byudjet zaxirasi etarli ekani, davlat qarzining kamligi singari omillarga alohida e'tibor qaratayotgani.

2019 yilda O'zbekistonning suveren davlat obligatsiyalarini xalqaro moliya bozorlariga chiqarilishi. Bu borada “J.P.Morgan”, “Citibank”, “Deutsche Bank” kabi etakchi xalqaro investitsiya banklari bilan olib borilayotgan hamkorlik.

Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakat investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralari. Xorijiy investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantirishning ahamiyati.

Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes sub'ektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozimligi.

Eksportga mahsulot chiqarayotgan, innovatsion va yuqori texnologik ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan tadbirkorlarga va chet ellik investorlarga imkoniyat yaratish kerakligi.

O'zbekistonni Global raqobatbardoshlik reytingiga kiritish bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshirish.

Bank va moliya tizimida islohotlarni jadal davom ettirish, sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etish.

Mamlakatimizda bank kapitalining asosiy qismi davlatga tegishli ekani-bank tizimidagi asosiy muammo. Uning bank sektorida sog‘lom raqobatga, xizmat ko‘rsatish sifatiga salbiy ta‘sir qilayotgani.

Xalqaro moliya institutlari ko‘magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqish lozimligi.

Bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib borishning sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qilishi.

Moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirishning yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlardan biri ekanligi.

Yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali bank xizmatlari ko‘lamini yanada kengaytirish, ilg‘or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish zarurligi.

Investorlarga qulay sharoit yaratish uchun valyuta bozorini yanada erkinlashtirishning talab etilishi.

XVII BOB. NOBANK MOLIYA-KREDIT MUASSASALARI

Reja:

17.1. Nobank kredit tashkilotlari va ularni tashkil etish

17.2. Kredit uyushmalari va ularning operatsiyalari

17.3. Mikro kredit tashkilotlari

17.1. Nobank kredit tashkilotlari va ularni tashkil etish

Nobank kredit tashkilotlari deganda tor doirada ixtisoslashgan va alohida bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqi bo‘lgan kredit tashkiloti tushuniladi. Nobank kredit tashkilotlari har qanday bank operatsiyasini amalga oshira olmaydi. Xususan:

- *yuridik va jismoniy shaxslariga hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatish va pul o'tkazmalarini amalga oshirish;*
- *hisob —raqam ochish va yuritish*
- *vakillik hisob varaqlarini ochish va pul mablag'larini o'z nomiga joylashtirish va boshqa shu kabi operatsiyalar shular jumlasidandir.*

Nobank kredit tashkilotlarining vujudga kelishining asosiy sabab-laridan biri tez va kichik miqdordagi kreditlarni berish, nisbatan yuqori foiz to'lovlarini to'lash hisoblanadi. Chunki, tijorat banklari kredit summasi qancha bo'lishidan qat'iy nazar barchasiga bir xil talabni qo'yadi va biunga ko'pchilik hollarda ma'lum kun talab etiladi.

Xalqaro amalyotda nobank kredit tashkilotlariga:

- > *kredit uyushmalari;*
- > *mikrokredit tashkilotlari;*
- > *lombardlar;*
- > *lizing kompaniyalari;*
- > *faktoring kompaniyalari kiradi.*

Lizing kompaniyalari bahosi yuqori va muddatli foydalaniladigan tovarlarni to'la qiymatda sotib olib ularni lizingga beradi:

- a) *moliyaviy lizing;*
- b) *operativ lizing.*

Nobank kredit tashkilotlari faoliyatidagi quyidagi xos xususiyatlariga ega. Nobank kredit tashkilotlari faqat alohida olingan bank operatsiyalarini amalga oshiradi.

Nobank kredit tashkilotlari faoliyati tor doirada ixtisoslashgan bo'ladi. Bu ularni raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Nobank kredit tashkilotlari faoliyati Markaziy bank tomonidan Tijorat banklari faoliyati kabi qattiq nazorat qilinmaydi. Nobank kredit tashkilotlarining resurs bazasi quyidagi manbalardan tashkil topadi: *-ustav kapitali;*

- *boshqa tashkilotlarga berilgan moliyaviy yordam;*
- *o'z a'zolaridan jalb qilingan pul mablag'lari;*

- *tijorat banklarining kreditlari;*
- *sof foyda;*
- *foyda hisobidan shakllantirilgan zaxiralar;*
- *o'tgan uillaming taqsimlanmagan foydasi.*

O'zbekiston Respublikasida faktoring kompaniyalari mavjud emas.

Factoring operatsiyalarini tijorat banklari bajaradi. Ammo ular tovar hujjatlarini regress huquqi bilan sotib olishi mumkin emas.

Lizing kompaniyalari uzoq muddatli kreditlar bozorida tijorat banklari bilan raqobat qila oladilar. Ular bahosi yuqori va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni uzoq muddatli ijaraga beradilar. Lizing shartnomalarining o'rtacha muddati 3-5 yilni tashkil qiladi. Ammo lizing kompaniyalarining zaif jihati bo'lib ularda resurslar yetishmaydi. Ular faoliyatini asosan o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirishga majburdirlar. Shu sababli ular tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlarini keng ko'lamda jalb qiladilar.

O'zbekiston Respublikasida lizing operatsiyasi bilan tijorat banklari va lizing kompaniyalari shug'illanadi. Asosiy muammo shun-daki, to lizing obyeksi lizing-oluvchi tomonidan qabul qilib olinma-gunga qadar tijorat banklari lizing kreditiga foiz hisoblay olmaydi.

Kliring uylari (palatalari) nobank kredit tashkiloti hisoblanadi va ular chek va hosilaviy qimmatli qog'ozlar bo'yicha o'zaro hisob-kitob-larni amalga oshiradi. Kliring palatasi har bir ishtirokchiga bankda hisob ochadi. Bu hisoblar mazmuniga ko'ra aktiv-passiv hisoblar hisoblanadi, ya'ni bu schyotlar debit yoki kredit qoldiqqa ega boiishi mumkin.

Ko'pchilik mamlakatlarda nobank kredit tashkilotlari faoliyati Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Ammo Angliya, German iya, Lyuksenburg kabi mamlakarlarda ular nazorat funksiyasiga ega emas. Shu sababli ushbu mamlakatlarda nobank kredit tashkilotlarining faoliyati moliya bozorining regulyatori tomonidan nazorat qilinadi. Nazorat jarayonida nobank kredit tashkilotlarining ustav kapitalining minimal miqdoriga nisbatan talablar qo'yiladi.

17.2. Kredit uyushmalari va ularning operatsiyalari

Kredit uyushmasi-mikromoliyalash tashkilotlari tarkibidagi asosiy moliya muassasasi hisoblanib, vaqtinchalik bo'sh pul mablag'-larini jalb qilish asosida mikrokredit va kreditlar berish bilan shug'ul-lanadigan tijorat tashkilotidir.

Kredit uyushmasiga Markaziy bankning tegishli me'yoriy huj-jatlarida, kredit uyushmasi-kreditlar berish hamda boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy teng huquqli a'zolik asosida tuziladigan kredit tashkiloti sifatida ta'rif berilgan.

Kredit uyushmalariga iqtisodiy adabiyotlarda notijorat moliyaviy tashkilot sifatida ta'riflar berilgan. Bizningcha dastlabki kredit uyushmalari notijorat asosida tashkil topgan bo'lishi mumkin, biroq hozirgi kunda mamlakatimizda tashkil etilayotgan va faoliyat yuritayotgan barcha kredit uyushmalarining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan.

Kredit uyushmalari faoliyatiga kengroq ma'noda e'tibor qaratadigan bo'lsak, kredit uyushmalari kooperativ tashkilot bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'-larini tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etadi va o'zining a'zolariga ushbu mablag'-lar hisobidan kreditlarni taqdim etadi.

Ayrim ma'nbalarga ko'ra, dastlabki kredit uyushmalari 1844 yilda Angliyaning Rochdeyl shahrida to'qimachlik korxonasi ishchilari tomonidan tashkil etilgan. XIX-asrning 60 yillarida kredit uyushmalari tashkil etish g'oyalari Germaniya va Avstriyalik Fridrix Rayffayzen va German Shultse-Delichlar tomonidan ilgari surildi. Shu davrda kredit uyushmalari faoliyati rivojlandi va moliyaviy muassasalar sifatida mamlakat moliya tizimiga kirib keldi.

Rayffayzen dastlabki qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatadigan kredit klasslari, shuningdek, savdo-sotiqni kreditlaydigan uyushmalarning asoschisi hisoblanadi.

Shultse-Delich tomonidan tashkil etilgan kredit uyushmalarining asosiy faoliyati shaharlarda faoliyat yuritadigan hunarmand, kosib va mayda tadbirkorlarga xizmat ko'rsatishga qaratildi.

Hozirgi kunda, kredit uyushmalari AQSh, Kanada, Irlandiya, Avstraliya, Janubiy Koreya, Tayvan mamlakatlarida juda keng rivojlangan, shuningdek, ayrim MDX mamlakatlarida (Rossiya,

Qozog'iston, Estoniya) ham jadal rivojlanish bosqichini o'z boshidan kechirmoqda.

Kredit uyushmalaripassiv operatsiyalari-bu mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalardir. Kredit uyushmalari mablag'larni *pay badallari, muddatli va jamg'arma depozitlar, boshqa moliyaviy muassasalardan kredit* sifatida jalb qilishi mumkin. Shuningdek, kredit uyushmalarining daromad va foydani shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarini ham ularning passiv operatsiyalari sifatida tasniflash mumkin.

Kredit uyushmalarini tashkil etishning asosiy passiv operatsiyalari va ularni tashkil etishning talablaridan biri ustav kapitalini shakllantirish hisoblanadi. Kredit uyushmalari pay badallari (ustav kapitali) uning ta'sischilari tomonidan shakllantiriladi.

Kredit uyushmalari ustav fondi pul mablag'laridan, shuningdek, mazkur tashkilot ustav fondi miqdorining yigirma foizidan oshmaydigan boshqa mol-mulk hisobidan shakllantirilishi mumkin. Kredit hisobidan va garovga olingan mablag'lardan hamda boshqa jalb etilgan mablag'lardan kredit uyushmalari ustav fondini shakllantirishga ruxsat berilmaydi.

Kredit uyushmalarining muddatli va jamg'arma depozitlari unga a'zo jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari hisobidan shakllantiriladi.

Ta'kidlash joizki, kredit uyushmalarida muddatli va jamg'arma depozitlar bo'yicha to'lanayotgan foiz stavklarining yuqoriligi aholining kredit uyushmalarida omonatlarni jamg'arishga bo'lgan ishtiyoqini oshirmoqda. Biroq, bu omonatlar bilan bog'liq risklarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Kredit uyushmalari, moliyaviy muassasa sifatida qo'shimcha resurslarga kuchli ehtiyoj sezadi. Kredit uyushmalari, albatta ushbu ehtiyojni ustav kapitali, omonatlar, taqsimlanmagan foyda hisobidan qondirishga alohida e'tibor qaratadi.

Shunga qaramasdan, ushbu moliyaviy manbalar hisobidan shakllantirilgan mablag'lar yetarli bo'lmaganda tijorat banklaridan qisqa va uzoq muddatli kreditlarni jalb etadi.

Kredit uyushmalari aktiv operatsiyalari-bu passiv operatsiyalar natijasida shakllantirilgan moliyaviy mablag'larni tegishli foydani shakllantirish maqsadida samarali maqsadlarga joylashtirishi bilan bog'liq faoliyati majmuidir. Kredit uyushmalari aktiv operatsiyalari iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqqan holda *moddiy va nommoddiy aktivlarga, riskli va risksiz aktivlarga, daromad keltiradigan va daromad keltirmaydigan aktivlar* sifatida guruhlash mumkin.

Kredit uyushmalarining *moddiy aktivlariga* bevosita qiymat va buyum ko'rinishida mavjud bo'lgan aktivlar kiradi. Masalan, kassadagi naqd pullar, kreditlar, asosiy vositalar shular jumlasidandir. *Nomoddiy aktivlarga* kredit uyushmasini faoliyatini tashkil etish uchun sotib olingan dasturiy mahsullar, gudvill va boshqa shu kabilarni kiritish mumkin.

Ma'lumki, kredit muassasalari tomonidan amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarning asosiy qismi bevosita risk bilan bog'liq. Shuningdek, kredit uyushmalarining faoliyati ham bundan holi emas. Shu jihatdan ularning aktiv operatsiyalari ham *riskli va risksiz aktivlardan* iboratdir. Kredit uyushmalarining riskli operatsiyalari bevosita ularning daromadlarini shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalari jarayonida vujudga kelib, risk darajasi qanchalik yuqori bo'lsa ularning daromadlari hajmi ham shu darajada yuqori bo'ladi va aksincha.

Kredit uyushmalarining riskli operatsiyalari sifatida berilgan kreditlar, investitsiyalar, lizinglar va boshqa shaxslardagi omonatlarini keltirish mumkin. Risksiz aktivlar tarkibiga esa kassadagi naqd pullar, tijorat banklaridagi mablagiari, asosiy vositalar va shunga o'xshash aktivlarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Kredit uyushmalarining barcha operatsiyalari ham daromad keltirmaydi, shunday bo'lsada, uyushmaning faoliyatini tashkil etish maqsadida ular daromad keltirmaydigan operatsiyalarni amalga oshi-rishga ham majburdirlar. Masalan, kassadagi naqd pul bilan bog'liq operatsiyalari, asosiy vositalar, bankdagi

hisobvaraqlaridagi mablag'larni *daromad keltirmaydigan aktivlar* sifatida ta'kidlash mumkin.

Kredit uyushmalarining *daromad keltiradigan aktivlari* tarkibiga kreditlar, investitsiyalar, lizing va boshqa muassasalarga qo'yilgan muddatli jamg'armalarni kiritish mumkin.

17.3. Mikrocredit tashkilotlari

O'zbekiston Respublikasida nobank kredit tashkilotlarining, shu jumladan, mikrocredit tashkilotlarini faoliyat yuritishi va tegishli xizmatlarni ko'rsatishi uchun yetarli darajadagi tashkiliy-huquqiy baza yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududida mikrocredit tashkilotlari o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yishlari va olib borishlariga asos bo'lib hisoblanadi. Mikrocredit tashkiloti atamasi "Mikrocredit tashkilotlari to'g'risida"gi qonunning 3 moddasida quyidagicha izohlanadi:

Mikrocredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ushbu qonunga muvofiq boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs mikrocredit tashkilotidir.

Mikrocredit tashkilotlari tijorat tashkiloti sifatida tijorat banklarida hisob raqamlarini ochish orqali faoliyatini amalga oshiradi. Hisobvaraqlarni ochish, yopish, boshqa banklarga ko'chirish Markaziy bankning tegishli yo'riqnomalari asosida amalga oshiriladi.

Mikrocredit tashkiloti ishlab chiqarish, sug'urta, savdo-vositachilik kabi faoliyatlar bilan bevosita shug'ullanishga haqli emas. Mikrocredit tashkiloti quyidagi turlardagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishi mumkin:

- mikrocreditlar yoki mikroqarzlarni berish;
- qarz majburiyatlarini sotib olish va sotish (faktoring) ;
- mikrocredit tashkiloti lizing beruvchi sifatida ishtirok etadigan mikrolizing (moliya ijarasi) berish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan iste'mol kreditlari berish kabilar shular

jumlasidandir.

Shu o'rinda mikrolizing, mikrocredit va mikroqarzga O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi qonunida berilgan ta'rifni keltirib o'tamiz.

Mikrocredit-qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'laridir. Mikrocredit qarz oluvchiga pul mablag'larini shartnomaga muvofiq muayyan maqsadlar uchun ishlatish shartlari asosida (maqsadli mikrocredit) berilishi mumkin.

Mikroqarz-mikrocredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga eng kam ish haqining yuz baravari miqdoridan oshmaydigan summada muddatlilik va qaytarish shartlari asosida, shartnomada nazarda tutilgan hollarda esa to'lovlilik sharti asosida ham beriladigan pul mablag'laridir.

Mikrolizing mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdin mol-mulk olish hamda unga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmatdir. Mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun lizing to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining ikki ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladi.

Mamlakatimizda keyingi paytlarda aholiga mikrocreditlar, mikroqarzlar va mikrolizinglar berish borasida banklar bilan bir qatorda mikrocredit tashkilotlari ham o'z xizmatlarini kengaytirib bormoq-dalar.

Mikrocredit tashkiloti mikrocreditlar, mikroqarzlar, mikrolizing berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq maslahat va axborot xizmatlari ko'rsatishi mumkin.

Mikrocredit tashkiloti:

- qarz majburiyatlarini chiqarishga hamda yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar (depozitlar) qabul qilishga;

- jismoniy shaxslardan qarz mablag'larini jalb qilishga, bundan o'z muassislari (ishtirokchilari, mulkdorlari) mustasno;
- o'z muassislarining (ishtirokchilarining, mulkdorlarining) majburiyatlari bo'yicha kafil bo'lishga yoki kafolat beruvchi bo'lishga, shuningdek, ularga o'z majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning boshqa usullarini taqdim etishga haqli emas.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mikrokredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishga doir vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy tizimning barqarorligini saqlash, qarz oluvchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq mikrokredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda:

- mikrokredit tashkilotlari ustav fondining eng kam miqdorini belgilaydi;
- moliyaviy va kassa operatsiyalarini amalga oshirish, buxgal-teriya hisobi va hisobotini yuritish qoidalarini, shuningdek, iqtisodiy normativlarni belgilaydi;
- ko'rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar uchun foizlarni hisoblash tartibini tasdiqlaydi;
- mikrokredit tashkilotlarining faoliyatini tekshiradi va ularning faoliyatida aniqlangan mikrokredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarining buzilishlarini bartaraf etishga oid bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;
- mikrokredit tashkilotining faoliyatini auditdan o'tkazishga doir talablarni belgilaydi;
- mikrokredit tashkiloti ijro etuvchi organi rahbarining malakasiga doir talablarni belgilaydi;
- mikrokredit tashkiloti tomonidan mikrokredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari va belgilangan iqtisodiy normativlar buzilgan taqdirda, ustav fondining belgilangan eng kam miqdorining bir foizigacha jarima undiradi;
- mikrokredit tashkiloti tomonidan ayrim moliyaviy operatsiyalar o'tkazishni

uch oygacha bo'lgan muddatga cheklaydi;

- mikrocredit tashkiloti litsenziyasining amal qilishini to'xtatib turadi yoki tugatadi.

Quyida "Mega-investment plyus mikrocredit tashkiloti" MChJning hisobotlari keltirilgan.

**"Mega-investment plyus mikrocredit tashkiloti" MChJning 2016 yil yakuni
bo'yicha balans hisoboti⁸⁴**

ming so 'm hisobida

Ko'rsatkichlar	Sum
AKTIVLAR	
Kassadagi naqd pullar va boshqa to'lov	26
Bankdan olinishi lozim bo'lgan	57
Olinishi lozim bo'lgan hisoblangan	102
Sotib olingan debitorlik qarzlari-	0
Kreditlar, sof	2
Asosiy vositalar, sof	24
Boshqa aktivlar	64
Jami aktivlar	2
MAJBURIYATLAR VA KAPITAL	
MAJBURIYATLAR	
To'lanishi lozim bo'lgan kreditlar	1

To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan	19
Boshqa majburiyatlar	26
Jami majburiyatlar	141
KAPITAL	
Ustav kapitali	1
Taqsimlanmagan foyda	360
Joriy yil foydasi (zarar)	291
Jami kapital	1
Jami majburiyatlar va kapital	2

Dastlab "Mikrocredit tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida mikrocredit tashkilotlari ustav fondining eng kam miqdori 20 ming yevro ekvivalentda — Toshkent shahrida ruzilayotgan

mikrokredit tashkilotlari uchun, 10 ming yevro ekvivalentda — boshqa aholi punktlarida ruzilayotgan mikrokredit tashkilotlari uchun belgilandi.

**"Mega-investment plyus mikrokredit tashkiloti" MChJning 2016 yil
yakuni bo'yicha moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisoboti**

ming so 'm hisobida

Ko'rsatkichlar	Summasi
1. FOIZLI DAROMADLAR	
Jismoniy shaxslarga berilgan mikroqarzlar bo'yicha foizli daromadlar	1 292 067
Jami foizli daromadlar	1 292 067
2. FOIZLI XARAJATLAR	0
Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholashgacha bo'lgan sof foizli	969 680
Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar baholangandan so'ng sof foizli	969 680
3. FOIZSIZ DAROMADLAR	
<i>Boshqa foizsiz daromadlar</i>	19 680
Jami foizsiz daromadlar	19 680
4. FOIZSIZ XARAJATLAR	
Ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik xarajatlari	46 747
Jami foizsiz xarajatlar	46 747
5. OPERATSION XARAJATLARGACHA SOF	942 414
6. OPERATSION XARAJATLAR	

Xodimlar ish haqi va ular uchun qilingan boshqa	110 169
Ijara va ta'minot xarajatlari	63 357
Xizmat safari va transport xarajatlari	3217
Ma'muriy xarajatlar	4 813
Eskirish xarajatlari	9 832
Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar	49 232
Jami operatsion xarajatlar	240 620
7. KREDITLAR BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN KO'RILISHI MUMKIN	

8. FOYDA SOLIG'I VA BOSHQA TUZATISHLARGACHA BO'LGAN SOF	701 794
9. FOYDA SOLIG'I	67 161
10. TUZATISHLARGACHA BO'LGAN FOYDA FOYDAGACHA BO'LGAN TUZATISHLAR, SOF	634 633
11. SOF FOYDA	-389 000
	245 633

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabr-dagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3270-sonli Qaroriga asosan 2017 yil 1 oktyabrdan mikrokredit tashkilotlari ustav kapitalining minimal miqdori-2, 0 mlrd so'm etib belgilandi.

Mikrokredit tashkiloti filial tashkil qilish uchun:

- qoniqarli moliyaviy holatga ega bo'lishi;
- qonun hujjatlari va Markaziy bankning talablariga javob berishi;
- mikrokredit tashkiloti kunlik jamlama buxgalteriya balansini tuzish uchun kerakli dasturiy-texnik vositalarga hamda malakali buxgalteriya xodimlariga ega bo'lishi;
- mikrokredit tashkiloti litsenziya olingan kundan boshlab kamida ikki yildan ziyod o'z faoliyatini amalga oshirgan bo'lishi;
- Markaziy bank talablariga javob beradigan tegishli xonalar va uskunalariga ega bo'lishi lozim.

Mikrokredit tashkiloti quyidagi holatlarda qoniqarli moliyaviy holatga ega deb topiladi:

- joriy yil natijalariga ko'ra sof foydaga ega bo'lganda;
- muddati o'tgan kreditlarning summasi oxirgi bir yil davomida mikrokredit tashkiloti kredit portfelining 5% dan kam miqdorini tashkil etganda;
- mikrokredit tashkilotining jami kapitalidan ustav fondi va tekinga olingan mulklar chegirilgandan so'ng qolgan kapitali oxirgi bir yil davomida mikrokredit tashkiloti aktivlarining kamida 10% ni tashkil etganda mikrokredit tashkilotlari o'z filiallarini tashkil etishi mumkin bo'ladi.

Lombardlar va ularning tashkil topishi

Lombardlar-ixtisoslashgan tijorat tashkiloti bo'lib, asosiy faoliyati fuqarolarning harakatdagi mulklari garovi ostida, qisqa muddatli kreditlar berish va buyumlarni saqlash bilan shug'ullanadi. Lombardlarning ixtisoslashganlik darajasiga qarab buyumlar, oltin buyumlar va avtoulavlar garov sifatida qabul qilinadi. Buyumlar tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida baholanadi. Lombard va kredit oluvchi shaxs o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida kredit beriladi.

Dastlabki lombardlar XV asrlarda Fransiyaning Lombard shahrida savdogarlar tomonidan tashkil etilgan. Hozirgi kunda amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan "lombard" termini shu tariqa paydo bo'lgan.

Lombardlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ushbu muassasalar mijozning ehtiyoji uchun zarur bo'lgan summani juda tez fursatda berish imkoniyatiga egaligidir. Bunda lombard va qarz oluvchi o'rtasida, ko'pchilik hollarda qimmatbaho buyumlar garov sifatida foydalaniladi. Lombard tashkiloti berilgan kredit uchun undirilishi lozim bo'lgan foiz to'lovini, ko'pchilik hollarda, oldindan kredit summasidan chegirib qoladi.

Lombard kredit uchun hisoblanadigan foiz summalari quyidagi tartibda hisoblanadi.

Masalan, kredit summasi-1, 0 mln so'm, oylik foiz to'lovi-3 %, kreditdan foydalanish muddati-20 kun.

Kredit summasidan kelib chiqib, ushbu kredit summasiga nisbatan to'lanadigan foiz to'lovi quyidagicha aniqlanadi: $1000000 \cdot 0,003 \cdot 20 = 60000$ so'm. O'zbekistonda lombardlar bank tizimining ikkinchi pog'onasidagi kredit muassasalari tarkibiga kiradi.

Bobga oid savollar

1. Mikromoliyaviy tashkilotlarning mohiyati.
2. Kredit uyushmalari va ularning vazifalari.
3. Kredit uyushmalarini tashkil etishga qo'yilgan talablar.
4. Kredit uyushmalari aktiv operatsiyalari.
5. Kredit uyushmalari passiv operatsiyalari.

6. Kredit uyushmalarining daromadlari.
7. Kredit uyushmalarining xarajatlari.
8. Lombardlarning tashkil etishning zarurligi.
9. Lombardlarni ro'yxatga olish va litsenziya berish.
10. Lombardlarning kredit operatsiyalari.

MAVZU: BANK INQIROZLARI

REJA:

1. Bank inqirozi tushunchasi
2. Bank inqirozini belgilovchi mezonlar
3. AQSH da yuz bergan bank inqirozlari
4. Skandinaviya davlatlarida, Lotin Amerikasida yuz bergan bank inqirozlari

Bank inqirozlarining kelib chiqish sabablari

Har qanday inqiroz shuningdek, bank inqirozi ham iqtisodiy ja-rayonlarning buzilishi natijasida yuzaga keladi. U milliy daromadlarni yo'qotilishi natijasida iqtisodiy va moliyaviy mexanizm funksiyalarini samarali amal qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bank tizimi istalgan iqtisodiyotning pul, moliya, kredit tizimlarining bir qismi hisoblanib, unda inqirozlar ichki va tashqi omillar yoki boshqa tizimlar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin. Bank inqirozlarining kelib chiqish sabablari bir qator olimlar tomonidan uzoq yillar mobaynida turilicha muhokama qilinib kelingan. Bu xususida ilk qarashlar asosan omonatchilar, bank mijojozlari va aksiyadorlari tomonidan vahima (panika) qilish natijasida pul mab-lagiari (omonatlari) ni banklardan yoppasiga olish orqali banklarning likvidlilik darajasiga asossiz ravishda ta'sir etishi bilan bog'liqdir. Omonatchilar, bank mijojozlari va aksiyadorlarning bunday harakati banklar likvidlilik holatiga salbiy ta'sir etadi. Natijada banklarga jiddiy moliyaviy bosim oqibatida banklar aktivlarni sotishga majbur bo'ladi. Agarda mavjud siyosatni o'zgartirish orqali bank inqirozlarining

oldi olinmasa, ular tizimli hamda tashqi omillar ta'siri ostiga ham tushib qolishi ehtimoldan holi emas.

Bank inqirozlari xususidagi keyingi qarashlar banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmaslik holatini keltirib chiqaruvchi balans aktiv qismidagi yo'qotishlarga asoslanadi. Banklar aktivlari sifatida uzoq muddat davomida yo'qotishlarning mavjud bo'lishi, odatda noho'sh makroiqtisodiy jarayonlar, bozor tangligi, hukumat siyosati (yoki aralashuvi) va firibgarliklar bilan bog'liqdir. Shuningdek, mazkur qarashlarning aksariyati iqtisodiyot tamoyillaridagi o'zgarishlar hamda biznes sikllarining tabiiy mahsuli ekanligiga asoslanadi. Bank inqirozlarining makroiqtisodiy nuqtai-nazardan kelib chiqishi nobarqaror makroiqtisodiy siyosat, global moliyaviy shart-sharoitlar va valyuta kurslari ayriboshlash mexanizmiga oid muam-molarga bog'liq. Haddan ortiq pul-kredit ekspansionistik siyosati va fiksial siyosat kredit inqirozini, qarzlarni haddan ortiq ko'p jalb qilish va real aktivlarga investitsiyalarni safarbar qilish bank aktivlari sifatining pasayishiga olib keladi.

Amerikalik iqtisodchi olimlar Karmen M. Reynxart va Kennet S. Rogoff bank inqirozlari kelib chiqishining ilk sabablari sifatida kredit inqirozlari va aktivlar narxi bilan bog'liq pufak (ko'pik) larning vujudga kelishini ko'rsatib o'tadilar. Bu kabi makroiqtisodiy tanglikni iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatish mumkin. Iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar boshqa mamlakatlardan qisqa muddatli xorijiy valyutadagi qarzlarni jalb qilish orqali valyuta kursining qadrsizlanishi, xalqaro bozorda foiz stavkalarining oshishi va xalqaro savdo shartlarining o'zgarishi natijasida yuqori kredit riskini vujudga keltiradi. Misol uchun, 1980 yillarda G'arb mamlakatlari banklari Lotin Amerikasi mamlakatlariga iqtisodiy o'sishni ta'minlash va joriy operatsiyalar bo'yicha defitsitni qoplash maqsadida katta miqdorda qarzlar (AQSh dollarida) ni ajratadi. Katta miqdordagi xorijiy mablag'larning oqib kelishi qarzdor mamlakatlarda real amalmashuv kursining keskin oshishiga olib kelib, bir qancha qarzdorlarning defolt holatiga kelishiga sabab bo'ldi. Natijada mazkur inqiroz 800 mlrd. AQSh dollaridagi umumiy qarz mablag'larining 250 mlrd. AQSh dollaridan voz kechish

orqali yakun topdi. Bank inqirozlari kelib chiqish sabablarini bir qancha omillar orqali yaqqolroq yoritib o'tishga harakat qilamiz.

Haddan ortiq kredit ekspansiyasi. Mazkur omil natijasida kredit portfeli sifati yomonlashadi, kreditlar ta'minoti bo'yicha ortiqcha qiymat yuzaga keladi va kredit riski ortadi. Kredit portfeli tarkibida kreditlar miqdorining ortishi natijasida ularning monitoringini yuritish bilan bog'liq qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bunga misol sifatida, Yaponiya, 80-yillardagi Lotin Amerika va 90-yillardagi Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuzaga kelgan bank inqirozlarini keltirishimiz mumkin.

Inflyatsiya. Inflyatsiya foiz stavkalari orqali bank tizimiga bir qator yo'nalishlar doirasida ta'sir etishi mumkin. Bularga milliy kapitalning chetga oqib ketishi, jamg'arishga bo'lgan moyillikning pasayishi, aktiv va passiv operatsiyalar tuzilishidagi o'zgarishlarni keltirish mumkin. Shuningdek, bunday holatda bank passivlariga nisbatan (monand boimagan) uzoq muddatli aktivlarga ega bo'lgan bir qator moliyaviy institutlar qiyin ahvolga tushib qoladilar. Mamlakatda o'rtacha narxlar darajasi oshib borayotgan bir sharoitda banklar depozit bazasi mustahkamligini ta'minlash maqsadida depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirishga majbur bo'ladilar. Agarda aktiv operatsiyalar bo'yicha daromadlilik darajasini oshirish cheklangan bo'lsa, u holda bank foydasining keskin tushib ketishi kuzatiladi. Aksariyat mamlakatlar tajribasida o'rtacha narxlar darajasining yuqori o'sish sur'atlari mayjud sharoitda banklar kredit shartnomalari muddatlarini qisqartirishga intiladilar. Banklarning fundamental funksiyalaridan biri bu joriy jamg'armalarni uzoq muddatli investitsiyalarga aylantirishdan iborat. Kredit shartnomalari bo'yicha muddatlarning qisqarishi iqtisodiy kon'yunkturadagi tebranishlarda banklarni himoyasiz qilib, bank barqarorligirii zaiflashtiradi.

Tovar, moliyaviy aktivlar narxlari vafaiz stavkalarining keskin tebranishi. Bunday holatda banklar kredit va bozor risklarini aniqlashda, omonatchilar va nazorat organlari bank moliyaviy holatini baholashda noaniqliklarga duch keladi. 1980 yillarda Shvetsiyada kredit bozorini liberalizatsiya qilish natijasida kredit spekulyatsiyasi va moliyaviy bozorda narxlarning asossiz oshishi jiddiy bank

inqiroziga olib kelgan. Bank tizimida inqirozlar vujudga kelishining tashqi iqtisodiy omillariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, 1980 yillar boshlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda bank inqirozlari neft va boshqa asosiy eksport tovarlari narxining tushib ketishi bilan bog'liqdir. Shuningdek, bank inqirozlarini keltirib chiqarishda Ronald Reygan ma'muriyatining qat'iy inflyatsiyaga qarshi siyosati sharoitida G'arb mamlakatlari tomonidan tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz stavkalarining keskin oshishi ham muhim rol o'ynadi. Foiz stavkalarining keskin oshishi va milliy valyutalarning keskin devalvatsiyasi banklar to'lovga layoqatsizligining kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Savdo qoidalarining buzilishi. Mazkur holat bank inqirozlarini boshidan kechirgan deyarli barcha mamlakatlarda kuzatildi. Eksport tarkibida asosiy o'rin egallovchi moddalar bo'yicha narxlarning keskin tushishi eksport qiluvchi korxonalar va ularga xizmat ko'rsatuvchi banklar faoliyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda moliyaviy bozorlarni liberalizatsiyalash. Mazkur holatning barcha ijobiy tomonlarini hisobga olgan holda yana shuni ta'kidlash mumkinki, Lotin Amerikasi (80-90 yillarning birinchi yarmi) va Janubiy-Sharqiy Osiyo (1997-1998 yy.) mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, qisqa muddatli spekulyativ pullar va portfel investitsiyalar moliyaviy tizimning foiz stavkalari va valyuta kurslari tebranishlariga bo'lgan ta'sirchanligini oshiradi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarning chiqib ketishi iqtisodiyotni tang ahvolga keltirib qo'yadi.

Belgilangan valyuta kursi. Bunday sharoitda mamlakatda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadida valyuta kursini sun'iy ravishda ushlab turilishi Markaziy bank valyuta zahiralarini kamayishiga sabab bo'ladi. Tashqi qarzlar bilan bog'liq hisob-kitoblarda muammolar kuchayib, parallel valyuta bozori vujudga keladi. Bu esa, o'z navbatida foiz stavkalarining oshishi va qarzdorlar to'lovga layoqatlilikining yomonlashuviga olib keladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganlardan kelib chiqib, bank tizimida inqirozni vujudga keltiruvchi turli omillarning ta'sir darajasini quyidagi jadval ma'lumotlari orqali yoritib o'tamiz.

Bank inqirozlarini vujudga keltiruvchi omillarning ta'sir darajasi

	Bank inqirozi omillari	Ta'sir darajasi, %
	Nazorat va tartibga solishga oid kamchiliklar	90
	Bank menejmentiga oid kamchiliklar	69
	Savdo qoidalarining buzilishi	69
	Iqtisodiy turg'unlik(tanglik)	55
	Siyosiy aralashuv	40
	Afillangan shaxslarga kreditlar	31
	Spekulyativ "po'fak(ko'ik) lar"	24
	Firibgarlik	21
	Davlat korxonalarini kreditlash	21
	"Golland kasalligi"	14
	Kapitalning chiqib ketishi	7
	Sud tizimida mavjud muammolar	7
	Omonatchilar tomonidan banklardan depozitlarni olishning faollashuvi	7

K.V.Rudiy tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra bank inqirozlarining kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat:

- qadrsiz milliy valyuta;
- dollarizatsiya darajasining yuqoriligi;
- katta miqdordagi tashqi qarz;
- yuqori byudjet defitsiti;
- YalM o'sish sur'atining pastligi;

- banklarni tartibga solishning zaifligi;
- moliyaviy bozorlarning rivojlanmaganligi va ixtisoslashgan moliya-kredit muassasalari.

Bank inqirozlarining salbiy oqibatlari, ularning turlari va shakllari

Mamlakat iqtisodiyotiga bank inqirozlarining ta'sirini aniqlash uchun ularning ta'sir doiralari, shuningdek, ularni yuzaga keltiruvchi omillarini tahlil qilish kerak.

Oqibatlariga ko'ra, bank inqirozlarini uch guruhga ajratish mumkin: mikroiqtisodiy darajada ta'sir etuvchi, makroiqtisodiy darajada tarqaluvchi, iqtisodiyotning demonetizatsiyasi va inflyatsiya darajalarining oshishiga olib keluvchi byudjet-moliya tizimining masshtabli nobarqarorligiga olib keladi.

Iqtisodiyotda bank inqirozlarining salbiy oqibatlari Kaminskiy va Reynxartlar tomonidan empirik tadqiq etilib, ularning fikricha bank inqirozlarining oqibatlari quyidagilardan iborat:

- depozitlarning olinishi;
 - pulga bo'lgan talabning pasayishi;
 - depozitlarga nisbatan pul oqimlarining o'sishi;
 - kreditlash hajmining pasayishi;
 - foiz stavkalarining o'sishi;
 - M2 agregatining o'sishi va iqtisodiy faollikning tushib ketishi.
- Ba'zi bir rivojlanayotgan mamlakatlarda bank boshqaruvi bir kishi qo'lida bo'lsa va banklar shaxsiy "hamyon" yoki sanoat guruhlarining piramida sxemasi funksiyalarini bajarganda bu sharoitlar yomonroq natijalar ham keltirishi mumkin edi. Bu sharoitlarda o'z mijozlarini kreditlash "insayderlik" mahfiy ma'lumotlar asosida operatsiya amalga oshiriladi va ochiqdan ochiq qalloblik jazolanmay qolaveradi. Shunday qilib, davlat banklari tijorat tamoyillariga asolanmagan, balki siyosiy mezonlariga asoslangan "asosiy agentlik"ga aylanib, boshqa yuqori darajadagi boshqaruvga ega banklarning ichki muhiti, shuningdek, moliyaviy barqarorlikka tahdid soladi.

Bank inqirozlarining quyidagi turlari mavjud: Bank inqirozining ***birinchi turini*** byudjet xarajatlarning miqdoridan qat'iy nazar mikroiktisodiy darajadagi inqiroz deyish mumkin. Bunday holatda cheklangan miqdordagi banklarning bankrot bo'lishi butun moliyaviy tizimga keskin ta'sir ko'rsatmaydi hamda yirik miqyosdagi makroiqtisodiy pasayish kuzatilmaydi. Bunga misol sifatida AQSh (1984-1991 yy.), Shvetsiya (1990-1993 yy.), Finlandiya (1991-1994 yy.) va Fransiya(1991-1998 yy.) dagi bank inqirozlarini keltirish mumkin.

Bank inqirozining ***ikkinchi turini*** o'ta salbiy oqibatlarga olib keluvchi makroiqtisodiy darajadagi inqiroz deyish mumkin. Misol uchun, Chilida (1981-1984 yy.) yuz bergan bank inqirozi YalMning 13 % pasayishiga olib keldi. Bank sektorining aksariyat qismi milliyashtirilib, hanuzga qadar davlat xarajatlari to'la kompensatsiya qilinmagan. Mazkur turdagi inqirozlarni bartaraf etish uchun sarflanadigan mablag'lar YalMning 15-20%ini tashkil etishi mumkin.

Bank inqirozining ***uchinchi turi*** moliya-byudjet tizimining nobarqarorligi, yuqori inflyatsiya va iqtisodiyotni demonetizatsiya qilish kabi xususiyatlar bilan harakterlanadi .

Yuqorida keltirib o'tilgan bank inqirozlarining turlari bilan bir qatorda ularning quyidagi namoyon bo'lish shakllari ham mavjuddir:

Yashirin inqiroz (bank distress) . Bunday sharoitda banklarning ko'pchilik qismi to'lovga layoqatsiz bo'lsalarda faoliyatlarini davom ettiraveradilar.

Inqirozning ochiq shakli (bank runs) . Bunga Buyuk Depressiya vaqtidagi bank vahimasi, banklardan yoppasiga omonatlarai olish bilan bog'liq bo'lgan holatlarni aytish mumkin.

Tizintli bank inqirozi (Systemic Banking Crises) . Bu esa, o'z navbatida bank tizimining aksariyat qismini to'lovga layoqatsizligini anglatadi. Shuningdek, K.V.Rudiy xorijiy tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda bank inqirozlarining quyidagi turlarini keltirib o'tadi⁹⁰:

- kredit jarayoni funtsional holatining buzilishi natijasida yuzaga keladi bank inqirozlari;

- qarz va valyuta muammolari bilan bog'liq bank inqirozlari;
- bank epidemiyasi (har xil kanallar orqali tarqaluvchi, misol uchun, xorijiy kapital harakati) .

Tizimli bank inqirozlari va ularni boshqarish yo'nalishlari

Xalqaro valyuta fondi ekspertlarining Argentina, Sharqiy Osiyo, Ekvador, Meksika, Turkiya va Venesueladagi tizimli bank inqirozlari asosida keltirib o'tiladi. Ushbu mamlakatlarda bank inqirozlari makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillar ta'siri ostida kelib chiqqan. Shuningdek, mazkur inqirozlar 1990 yillar oxirida Osiyo mamlakatlari banklarida ro'y bergan inqirozlarda uchramaydigan yangi ko'rinishdagi muammolarni namoyon qildi.

Tizimli bank inqirozlari bank tizimining sezilarli qismiga bo'lgan ishonchning yo'qolishi, real iqtisodiyot uchun sezilarli darajada salbiy ta'sir etuvchi jiddiy xavf hamda to'lov tizimi va kreditlar oqimidagi xatoliklar, shuningdek aktivlar qiymatining o'zgarishidir.

Tizimli bank inqirozlarining kelib chiqish omillari quyidagilardan iborat:

- kelib chiqishidan qat'iy nazar bir, bir nechta yoki barcha banklarda inqiroz likvidlilik muammosi tarzida shakllanadi;
- likvidlilik va depozitlarni olish asosiy muammolarning belgilari sifatida namoyon bo'ladi;
- sabab sifatida makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy yoki ularning ikkalasi ham ko'rsatilishi mumkin.

Shuningdek, tizimli bank inqirozlarining mikroiqtisodiy omillari banklar faoliyatini nazorat qilish amaliyoti va normativ me'yorlarning talab darajasida bo'lmaganligida namoyon bo'ladi. Ularda bo'sh kreditlash amaliyoti, risklarni nazorat qilish tizimining zaifligi va balans defitsitini keltirib chiqarish (muvozanatsizlik, aktivlar nazorati talab darajasida bo'lmaganligi) kabi holatlar kuzatiladi.

Makroiqtisodiy disbalans bank tizimiga bo'lgan bosimni ko'chaytiradi. Uning ta'siri banklar balansi tuzilishiga bog'liq, ya'ni:

- davlatga katta ta'sir qilish;
- yuqori dollarizatsiya;
- xedjirlanmagan qarzdorlar;
- yuqori va nobarqaror foiz stavkalari.

Inqirozlarni boshqarishning *"Standart modellari"* quyidagilardan iborat:

1-bosqich. Inqirozni o'z ichiga oladi.

2-bosqich. Bankni restrukturizatsiyalash.

3-bosqich. Yo 'qotilgan aktivlarni boshqarish.

1-bosqichning asosiy yo'nalishi vaziyatni stabillashtirish va jamoatchilik ishonchini tiklashdan iborat. Bunda bank likvidliligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyojni qondirishda tezkor ravishda likvidlilikni ta'minlashga yordam ko'rsatish va ortiqcha likvidlilik sterilizatsiya qilinishi kerak. Shuningdek, inqiroz sabablarini aniqlash va ularni hal etish kerak. 1-bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- omonatchilar manfaatlarini himoya qilish;
- ishonchli makroiqtisodiy siyosatni tashkil etish;
- kapital chiqib ketishini cheklash bo'yicha choralarni belgilab olish;
- faoliyatini qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'lmagan muassasalarni tugatish;
- o'rta muddatli restrukturizatsiya dasturini qabul qilish;
- ishonchni tiklash uchun siyosat yuritishda shaffof bo'lish;
- agarda yuqorida ko'rsatilgan choralarning barchasi samarasiz yakun topsa, oxirgi chora sifatida administrativ (ma'muriy) choralarni qo'llash kerak.

2-bosqichning asosiy yo'nalishi byudjet xarajatlarini minimal-lashtirish orqali sektorlar davomiyligi va samaradorligini tiklashdan iborat. Bunda institutsional va huquqiy tuzilmalar banklar ustuvorligini ta'minlaydigan qonunchilik hujjatlari, aktivlar transferi va ularni baholashni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar hamda buxgalteriya hisobi va audit qoidalarini qabul qilishlari kerak. 2-bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat.

Banklar diagnostikasida:

- bir xil mezonlarni qo'llash;
- o'rta muddatli maqsadlarni ko'zlash (foйда olish imkonini bo'lgan) ;
- maxsus auditorlar rolini ko'chaytirish kerak.

Barqaror va yetarli darajada kapitallashuv darajasiga ega bo 'Imagan banklar:

- vaqtinchalik restrukturizatsiya rejasini ishlab chiqish, xususiy kapitalni jalb qilish;
- intensiv hisobot va monitoring yuritishni nazorat qilish kerak. *Nobarqaror va to 'lov layoqatliligiga ega bo 'Imagan banklar:*
- tugatilishi yuzasidan qisqa muddatda bir qarorga kelish;
- tugatilishi yuzasidan rozilik beruvchi yuqori tashkilotga murojaat qilish;
- depozitlar ishonchli bankka o'tkazib berilishi kerak. Shuningdek, banklar kapitallashuvida davlat mablag'laridan foydalanishni amalga oshirish kerak.

3-bosqichning asosiy yo'nalishi harakatsiz (taqdim etilmagan) kreditlarga ruxsat berishdan iborat.

Inqirozdan keyingi davrda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- yoppasiga kafolatlar berishdan voz kechish;
- administrativ (ma'muriy) choralardan voz kechish;
- davlat (hukumat) mulkidan chiqish;
- inqirozning ikkinchi to'lqinidan himoyalash maqsadida korporativ restrukturizatsiyalashni davom ettirish lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlar bilan bir qatorda, banklar uchun yuqori qarzdorlik va ular vakolatlarining ortishi ayrim siyosiy kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Qarz barqarorligi inflyatsiya, YalM o'sish darajasi va byudjet defitsitiga bog'liqdir. Uni quyidagi formula orqali keltirib o'tamiz.

$d = (\text{birlamchi defitsit}/YaIM) - (\text{senoraj}/YaIM) + + d(\text{realfoiz stavkasi-} \\ \text{o'sish darajasi})$.

Yuqori o'sish, past inflyatsiya va past byudjet defitsiti sharoitida qarzдорlik kamayadi. Yuqori defitsit va real foiz stavkalarining oshishi qarzдорlikni oshiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni ta'kidlab o'tish mumkin:

- inqirozga qadar institutsional va huquqiy asoslarni tashkil etishni qo'llab-quvvatlash kerak;
- rasmiy tizimlar xavfsizligi (likvidlilik talablari, depozitlarni sug'urtalash, kaoflatlash) puxta ishlab chiqilganligiga ishonch hosil qilish kerak;
- mumkin qadar tezkor ravishda vakolatlar berishga harakat qilish kerak;
- davlatning moliya-kredit siyosati shaffofligini ta'minlash va korporativ restrukturizatsiyalashga e'tibor qaratish lozim.

Bobga oid savollar

1. Bank inqirozlari kelib chiqish sabablari xususidagi ilk nazariy qarashlar haqida so'zlab bering.
2. Bank inqirozlari kelib chiqish sabablari xususidagi keyingi nazariy qarashlar va ularning ilk nazariy qarashlardan farqlari nimalardan iborat?
3. Amerikalik iqtisodchi olimlar Karmen M. Reynxart va Kennet S. Rogoff bank inqirozlari kelib chiqishining ilk sabablari sifatida qanday omillarni keltirib o'tadi?
4. Tarixda xorijiy kapitalni jalb etish bilan bog'liq bank inqirozlarining asosiy sabablari nimada?
5. Bank inqirozlari kelib chiqishida haddan ortiq kredit ekspansiyasi omili xususida so'zlab bering.
6. Bank inqirozlari kelib chiqishida inflyatsiya omili xususida so'zlab bering.
7. Bank inqirozlari kelib chiqishida tovar, moliyaviy aktivlar narxlari va foiz stavkalarining keskin tebranishi omili xususida so'zlab bering?
8. Bank inqirozlari kelib chiqishida savdo qoidalarining buzilishi omilining

ta'siri qanday?

9. Bank inqirozlari kelib chiqishida fiksirlangan valyuta kursi omilining ta'siri qanday?
10. K.V.Rudiy bank inqirozlarining kelib chiqish sabablari sifatida qanday omillarni ko'rsatib o'tadi?
11. Bank inqirozlarining salbiy oqibatlari nimalardan iborat?
12. Bank inqirozlarining qanday turlari mavjud bo'lib hisoblanadi?
13. Yashirin inqiroz nima?
14. Inqirozning ochiq shakli nima?
15. Tizimli bank inqirozi nima?
16. Tizimli bank inqirozlarining kelib chiqish omillari nimalardan iborat?
17. Tizimli bank inqirozlarini boshqarishning "Standart modellari" qanday bosqichlardan tashkil topgan?
18. Tizimli bank inqirozlarini boshqarishning "Standart modellari" 1-bosqichi haqida so'zlab bering.
19. Tizimli bank inqirozlarini boshqarishning "Standart modellari" 2-bosqichi haqida so'zlab bering.
20. Tizimli bank inqirozlarini boshqarishning "Standart modellari" 3-bosqichi haqida so'zlab bering.
21. Qarz barqarorligi qanday ko'rsatkichlarga bog'liq?

MAVZU: PULNING XALQAROMUNOSABATLARDAGI HARAKATLARI

REJA:

1. Pulning xalqaro munosabatlardagi harakatini yuzaga keltiruvchi omillar.
1. Erkin ishlatiladigan valyutalar
2. Xalqaro rezerv valyutalar
3. Qattiq valyutalar va yumshoq valyutalar

Xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishida mamlakatlar o'rtasida xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, xalqaro bozor-larning paydo bo'lishi,

xo'jalik yuritishning xalqaro tizimini shakllanishi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning globallasuvi hamda internatsionallasuvi asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Xalqaro takror ishlab chiqarish va valyuta munosabatlari o'rtasida bevosita va qarama—qarshi aloqa mavjud bo'lib, ular xalqaro daromadli tovarlar, moliyaviy kapital va xizmatlarni ayirboshlash jarayonida namoyon bo'ladi.

Mamlakatlar o'rtasida valyuta munosabatlarining holati milliy va xalqaro iqtisodiyotning rivojlanishi, mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy muhit, shuningdek, boshqa qator omillar bilan baholanadi.

Xalqaro iqtisodiyotning globallasuvi va internatsionallasuvi sharoitida ichki ishlab chiqarish jarayonlar tashqi omillarga bog'liq bo'lib qoladi. Jumladan, xalqaro ishlab chiqarish, savdo, fan va texnika taraqqiyoti, xorijiy kapitalning migratsiyasi kabi boshqa jarayonlar valyuta munosabatlari orqali tartibga solib boriladi. Xalqaro valyuta munosabatlarining zaiflashuvi, jahon moliyaviy inqirozlari mahalliy va xalqaro darajadagi takror ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatlar o'rtasida xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi xalqaro valyuta munosabatlarining shakllanishi va mazmunan rivojlanib, takomillashib borishiga zamin yaratdi. Bu o'z navbatida valyuta tizimini shakllanishiga xizmat qildi.

Valyuta tizimi—valyuta munosabatlarini tashkil etish va tartibga solish shakli bo'lib, mahalliy qonunchilik yoki xalqaro kelishuv asosida mustahkamlanadi. Xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda—milliy, xalqaro va hududiy valyuta tizimlari mavjudligi e'tirof etiladi.

Dastlab milliy valyuta tizimlari vujudga kelgan. Milliy valyuta tizimlari xalqaro amaliyotdagi normalarni inobatga olgan holda mahalliy qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinadi. Milliy valyuta tizimi mamlakat pul tizimini tashkil etib, erkin ravishda mamlakat hududidan o'zga hududlarda to'lov vositasini bajarishi mumkin. Buning uchun qator omillar mavjud bo'lishi lozim. Xususan,

milliy iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligi taminlangan bo'lishi, milliy valyutani sotib olish qobiliyati mustahkam bo'lishi, mamlakat jahon xo'jaligida yuqori mavqei va reytingga ega bo'lishi kabilar shular jumlasidandir.

Xalqaro valyuta tizimining vujudga kelishining asosini mamlakatlar milliy valyuta tizimi tashkil etadi va mamlakatlar o'rtasida o'zaro kelishuvlar asosida mustahkamlanadi. Dastlabki xalqaro valyuta tizimining vujudga kelishi 1850 yillarga to'g'ri keladi. Xalqaro valyuta tizimining barqaror samarali amal qilishi, uning tegishli tamoyillariga rioya etilishi, mamlakatlar o'rtasida siyosiy iqtisodiy barqarorlik ta'minlanishini talab etadi, aks holda xalqaro valyuta tizimi vaqti-vaqti bilan inqirozga uchraydi, buning natijasida amaldagi valyuta tizimi barham topib, uning o'rniga yangisi tashkil topadi.

Milliy va xalqaro valyuta tizimining amal qilishi, ularning elementlarida namoyon bo'ladi.

*Milliy valyuta tizimining asosiy **elementlari** quyidagilardan ibo-rat:*

- milliy valyuta;
- konverterlash shartlari;
- milliy valyuta pariteti;
- milliy valyuta kursining rejimi;
- valyutaviy chegaraning mavjudligi yoki chegaralanmaganligi, valyuta nazorati;
- mamlakatning xalqaro valyuta likvidligini tartibga solish tartibi;
- xalqaro kredit mablag'laridan to'lov vositasi sifatida foydalanishi reglamenti;
- mamlakatning xalqaro hisob-kitoblar reglamenti;
- mahalliy valyuta va oltin bozorlarini faoliyat ko'rsatish rejimi (tartibi) ;
- mamlakat valyuta munosabatlarini tartibga soladigan va bosh-qaradigan mahalliy organlar.

Xalqaro valyuta tizimining elementlari:

- jahon pulining funksional shakli;
- valyutalarni o'zaro konvertirlash shartlari;
- valyuta pariteti rejimining reglamenti;

- davlatlararo valyutaviy chegaralarni tartibga solish;
- xalqaro valyuta likvidligini davlatlararo tartibga solish usuli;
- xalqaro kredit mablag'lari muomalasini unifikatsiyalash qoidalari;
- xalqaro hisob-kitoblar shakllarini qo'llashning qoidalari;
- xalqaro valyuta va oltin bozorlarining faoliyat yuritish rejimi;
- davlatlararo valyutani tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar.

Milliy valyuta tizimining asosini shu mamlakat milliy valyutasi tashkil etadi. Ushbu valyuta tegishli qonunchilik xujjatlari asosida mamlakatda yagona to'lov vositasi sifatida mustahkamlanadi. Xalqaro hisob-kitoblarda qo'llaniladigan pul (milliy valyutalar) valyuta deb yuritiladi.

Valyuta tizimining vujudga kelishi va rivojlanish

Klassik oltin standard (1815-1914 yy.)

Jahon sivilizatsiyasining asrlar davomida rivojlanishi, dunyodagi turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarziga turlicha ta'sir ko'rsatdi. Shu nuqtai nazardan XIX asrni to'g'ri ma'noda g'arb sivilizatsiyasining oltin asri yoki klassik oltin standard hukmronligi asri deyishimiz mumkin. Bu davrda muomalada oltin bilan birga kumush ham to'lov vositasini bajargan, lekin mamlakatlar o'rtasidagi hisob-kitoblar oltinda amalga oshirilgan va jahon mamlakatlari iqtisodiyoti oltin standard ostida birlashgan edi.

Mamlakatda amal qilgan milliy valyutalar (dollar, funt, frank va h.k.) esa, faqatgina belgilangan oltin qiymatini o'lchov birligi bo'lib xizmat qilgan. Masalan, dollarning nomlanishi-1/20 unsiya og'irlikka teng bo'lgan oltinni anglatgan, funt sterling nomi esa-oltinning 1/12 unsiya og'irligini anglatgan. Shundan kelib chiqib, ayirboshlash kurslari davlat ishtirokisiz qat'iy belgilangan baholarda amalga oshirilgan. Mamlakat milliy valyutalari o'lchov birligiga bog'liq ravishda bir-biriga doimo mos kelgan. Ya'ni, 1 funt (o'lchov birligi) doimo 16 unsiyaga, xuddi shunday 1 funt sterling (oltin o'lchov birligi) -4.86 dollarga teng bo'lgan.

Xalqaro oltin standard insonlarga juda katta imkoniyatlar yaratgan va butun jahonda amal qiluvchi universal pul vazifasini o'z tagan. AQShning rivojlangan va

boy mamlakat darajasiga yetishining asosiy sabablaridan biri sifatida, dunyoning deyarli barcha davlatlarida dollarning to'lov vositasi sifatida amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buni iqtisodiyotning rivojlanishida mehnat-taqsimotida, xalqaro kapital oqimida, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida va boshqalarda ko'rishimiz mumkin.

Shuni qayd etish joizki, oltinni erkin iqtisodiyotda amal qilishi, barcha tovarlarga erkin ayriboshlanadigan umumiy ekvivalent "maxsus tovar" sifatida tan olinishi uchun 100 yillar talab qilindi va davlatning bu jarayonlardagi o'rnini unchalik katta emas. Chunki, oltinni muomalaga chiqishi davlat ixtiyori bilan emas, balki bozor talabidan kelib chiqib belgilangan. Xalqaro oltin standartining amal qilishi mamlakatda sun'iy inflyatsiyani yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi bilan birga, mamlakat to'lov balansining muvozanatini ta'minlagan.

Mamlakatda pul taklifini ortishi mahalliy tovar va xizmatlar bahosining ortishiga olib keladi. O'z navbatida aholining nominal daromadlari ortadi, bu esa importning o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki, import tovarlar bahosi mahalliy tovarlarga nisbatan ancha past bo'ladi. Natijada mamlakatda eksportning hajmi importga nisbatan qisqaradi. O'z navbatida mamlakat tashqi savdo balansida taqchillikni keltirib chiqaradi. Bu esa mamlakat oltin valyuta zaxiralarini kamayishiga olib keladi. Shu o'rinda aytish joizki, bank depozitlarining sun'iy ravishda oshishi va bank tomonidan beriladigan kreditlar hajmining ortishi ham oltin-valyuta zaxiralarini kamayishiga olib keladi. Chunki, bu holda ham importerlar yoki bank mijozlari depozitlarni oltin miqdorida qaytarishni talab qiladilar. Shuning uchun mamlakatda pul taklifini kamaytirish va uning tegishli me'yorini saqlash lozim bo'ladi. Pul taklifining pasayishi tovarlar narxini tushishiga olib keladi va shu tariqa bozorda narxlar muvozanati ta'minlanadi. Bu esa eksport hajmini oshirish ehtiyojini tug'diradi va mamlakatga oltin oqimining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatda bo'lgan barcha davlatlarda narxlar muvozanati ta'minlangunga qadar davom etadi.

O'z davrida davlatning oltin standard pul tizimini mustaqil amal qilishiga aralashuvi, uning samaradorligiga salbiy ta'sir qilgan va ushbu pul tizimining

mukammalligidan qat'iy nazar inflyatsiya, retsessiya natijasida iqtisodiy siklning izidan chiqish holatlari yuz bergan. Oltin tangalarni zarb etish ustidan davlat nazoratini o'matilishi, qonuniy to'lov vositalarining davlat tomonidan belgilab qo'yilganligi, qog'oz pullarni joriy etilishi va inflyatsiyani rag'batlantirilishi kabi yo'nalishlar orqali davlat erkin pul bozorini boshqarishga harakat qilgan. Davlatning pul muomalasiga ta'sir etish choralarini joriy etilishiga qaramay, ushbu sohadagi o'zgarishlar asosan bozor talabidan kelib chiqib amalga oshirilgan.

Birinchi jahon urushi va undan keyingi davr (1914-1926 yy.) Klassik oltin standard pul tizimi mukammal bo'lib, hozirgi kungacha insonlar undan samaraliroq va qulayroq pul tizimini o'ylab topa olishmagan. O'z navbatida "Agar oltin standard mukammal amal qilgan bo'lsa, nirna uchun muomaladan yo'qoldi degan savol tug'iladi." Buning asosiy sababi, davlatning pul tizimiga aralashuvining ortishi va banklarning o'z majburiyatlarini to'liq bajarmasligi oqibatida pul tizimining izdan chiqishidir. Birinchi jahon urushi natijasida urushda ishtirok etgan barcha davlatlarda xarajatlarning oshishi natijasida pul taklifmi haddan ziyod ko'paytirishga majbur bo'ldilar. O'zaro urushda ishtirok etayotgan mamlakatlarda inflyatsiya darajasi shu darajada yuqori ediki, ular xarajatlarni qoplash maqsadida emissiya qilingan qog'oz pullar oltin va boshqa qimmatbaho metallar bilan ta'minlanmagan edi. Shu tariqa ushbu davlatlar oltin standartidan voz kechdilar va o'zlarini bankrot deb e'lon qildilar.

Urushda ishtirok etgan davlatlar ichidan faqatgina AQShda dollarning taklifi belgilangan me'yoridan orttirilmadi. O'z vaqtida boshqa davlatlarda devalvatsiyaning ortishi, o'zaro turli valyutaviy to'siqlarning yuzaga kelishi, bojxona tariflari va kvotalarining joriy qilinishi natijasida xalqaro savdo va investitsiya faoliyati izdan chiqdi, bu esa mamlakat pul tizimiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Inflyatsiya oqibatida Angliya fund, Frantsiya franki, Germaniya markasi oltinga nisbatan qadrsizlandi. Bu hoi keyinchalik dollarning ham oltinga nisbatan kursini tushishiga olib keldi. Ushbu vaziyatda dunyo pul tizimi inqirozga uchragan va dunyoning yetakchi ekspertlari va siyosatchilari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi oltin standartiga qaytish ustida bosh qotirayotgan edi.

Oltin quyma va oltin deviz standarti (1926-1931 yy.) Birinchi jahon urushi natijasida jahon valyuta tizimi inqirozga uchragan edi. Urushdan keyingi davrga kelib, mamlakatlararo valyuta-pul tizimini yoiga qo'yish maqsadida oltin standartini joriy qilishning imkoniyatlarini ko'rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi. O'sha davrda yuzaga kelgan vaziyat shuni taqozo etar ediki, Yevropa mamlakatlari pullarini oltinga nisbatan qadrsizlanishidan kelib chiqib, valyuta kurslari o'rtasidagi nisbatni pul taklifi va narxlar darajasiga bog'liq ravishda qaytadan o'matish kerak edi. Chunki, agar urushdan oldingi davrda flint sterling 4, 86 dollarga teng bo'lgan oltin birligiga ayriboshlangan bo'lsa, urush so'ngida inflyatsiya oqibatida valyuta bozoridagi flint sterlingning kursi 3, 50 dollargacha tushib ketdi. Boshqa davlatlarni pullari ham shu tariqa qadrsizlangan edi. Shuning uchun Buyuk Britaniya oltin standartiga qaytadigan bo'lsa, funtning haqiqiy qiymati 3, 50 dollar nisbatida belgilanishini talab etar edi. O'z navbatida oltin standarti amal qilishi uchun barcha davlatlar ushbu holatga rozi bo'lishi kerak edi. Lekin bu borada mamlakatlarning bir to'xtamga kelishi qiyin bo'ldi. Masalan, Buyuk Britaniyaning kamchiligi shunda ediki, nafaqat oltin standartini qayta tiklash, balki funtning awal amalda bo'lgan 4, 86 dollar darajadagi kursiga qaytarish edi.

Buyuk Britaniyaning bunday siyosati dunyoning moliyaviy markazi bo'lgan Londonning obro'sini saqlashga qaratilgan edi. Buni amalga oshirish uchun Buyuk Britaniya eng awalo pul taklifmi kamaytirish va tovarlar narxini pasaytirishga erishishi kerak edi. Lekin, funt kursi 4, 86 dollarga tenglashgan holda Buyuk Britaniya tovarlarlarini jahon bozoridagi narxi ortib raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Kasaba uyushmalari ta'sirining ortishi va davlat tomonidan ishsizlik uchun nafaqalarni joriy qilinganligi pul taklifmi kamaytirish imkonini bermas edi. Deflyatsiyani amalga oshirish (pul taklifmi kamaytirish bilan aholi nominal daromadlarini pasaytirish) uchun Buyuk Britaniya ijtimoiy himoyaga asoslangan davlat qurish nazariyasidan voz kechishi yoki ayrim "ijtimoiy kafolat"larni muzlatishi kerak edi. Buning o'rniga Buyuk Britaniya ijtimoiy himoyaga asoslangan davlat dasturlarini bajarish maqsadida pul taklifmi yanada o'ttirib bordi, o'z navbatida inflyatsiya darajasi ham o'sib bordi.

Yigirmanchi asraing 20 yillarga kelib, Buyuk Britaniyada inflyatsiya va ishsizlik darajasi yuqori nuqtaga kelgan, mamlakat eksport hajmi ham tushib ketgan edi. Bu davrda boshqa Yevropa davlatlarida iqtisodiy o'sish kuzatilayotgan edi. Shuning uchun Buyuk Britaniyada qabul qilingan qarorlardan voz kechmagan holda yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish muammosi ko'ndalang turgan edi. Shu maqsadda 1922 yili Genuya shahrida bo'lib o'tgan konferentsiyada Buyuk Britaniya yangi pul standarti boigan oltindeviz standartini taklif qildi.

Dunyo mamlakatlari ichida AQShda klassik oltin standarti saqlangan bo'lib, Buyuk Britaniya va boshqa Yevropa mamlakatlari 1926 yilga kelib klassik oltin standartiga tenglashtirilgan yangi pul tizimiga o'tishdi. Unga ko'ra Britaniya fimi va boshqa valyutalar oltin tangalarga emas, balki faqatgina yirik tashqi savdoni amalga oshiruvchilar uchun oltin quymalarga ayriboshlanar edi. Buyuk Britaniya va boshqa Yevropa mamlakatlari foqarolari kundalik hayotda oltin tangalardan foydalana olmas edilar. Bu bank kreditlarini va inflyatsiyani rag'batlantirishga xizmat qilar edi. Yangi oltindeviz standartiga asosan Buyuk Britaniya funtni so'ndirishda oltin bilan birga dollardan ham foydalanar, boshqa davlatlar esa o'zlarining valyutalarini oltinga emas, funtga ayirboshlar edilar. Shu yo'l bilan aksariyat mamlakatlarda milliy valyutalar kursi sun'iy oshirildi va oltin standartiga qaytishdi. Natijada oltinga asoslangan moliyaviy piramida tashkil topdi. Uning asosini qisman flint bilan ta'minlangan Yevropa mintaqasi valyutalari, qisman dollar bilan ta'minlangan font, qisman oltin bilan ta'minlangan dollar tashkil etgan va bu "oltindeviz standarti" deb ataldi, dollar va font esa "tayanch valyutalar" hisoblangan.

Buyuk Britaniya iqtisodiyotida pul taklifi hamda kredit hajmining ortishi hisobiga tashqi savdo balansda taqchillik yuzaga keldi. Bunday vaziyatda oltin standarti inflyatsiyani cheklashga xizmat qilmay qo'ydi. Oltindeviz standarti Buyuk Britaniyaga milliy valyuta taklifini oshirish va inflyatsiya darajasini oshishiga sharoit yaratgan. Yevropaning boshqa davlatlari fontni oltin bilan qoplashni talab qilmas edi. Shu tariqa Yevropa va Buyuk Britaniyada inflyatsiya darajasi tobora chuqurlashayotgan, tashqi savdo kamomadi ortib borayotgan edi.

Undan tashqari, Buyuk Britaniya mamlakatdan oltin va dollarni chiqib ketishini oldini olish maqsadida AQSh Federal zaxira tizimining dollar taklifini oshirishiga erishgan edi. Oltindeviz standartining alohida xususiyati shunda ediki, u uzoq muddat amal qilishi mumkin emas edi. Chunki ushbu moliyaviy piramidaning izdan chiqishi qochib bo'lmaz haqiqat bo'lgan. AQSh, Fransiya va boshqa davlatlar iqtisodiyotida katta hajmda ta'minlanmagan Buyuk Britaniya funt sterlingi yig'ildi. 1931 yilda Yevropa mamlakatlarida inflyatsiya darajasi yuqoriligidan Fransiya "qattiq pul" siyosatini olib bordi va Buyuk Britaniyadan iqtisodiyotda yig'ilgan funt sterling o'rniga oltin ayirboshlashni talab qilishi Yevropa banklarini bankrot bo'lishiga olib keldi. Bu esa Buyuk Britaniyani butunlay oltin standartidan voz kechdi. Buning natijasida barcha Yevropa mamlakatlari o'zini bankrot deb e'lon qildilar.

Ta'minlanmagan qog'ozpullar (1931-1945yy.) Birinchi jahon urushidan keyin amaldagi oltin standarti pul tizimi o'zining hususiyatini yo'qotib, davlatlar klassik oltin standartini saqlab qolish maqsadida turli choralarni qo'lladi. Lekin yigirmanchi asrning 30 yillarida dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida yuzaga kelgan moliyaviy tartibsizliklar oqibatida muomalada oltin standartini amal qilishini butunlay to'xtadi. Mamlakatlar iqtisodiyotidagi inqiroz tobora chuqur-lashib, ishsizlik darajasi ortib bormoqda edi. Xalqaro iqtisodiy muno-sabatlarda davlatlar o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida turli valyuta cheklovlarini o'rnatish, milliy valyutalarni devalvatsiyalash, savdo va valyuta ustidan nazoratni kuchaytirish orqali o'zaro iqtisodiy va moliyaviy urush olib borishdi. Iqtisodiyotda to'g'ri va egri suzib yuruvchi valyuta kurslari yuzaga keldi⁹². Xalqaro savdo va investitsiyalarni to'xtatib qolishi natijasida o'zaro savdoni amalga oshirish uchun xukumatlar ishtirokida tuzilgan bitimga ko'ra tovarlar barter qilindi. AQSh davlat kotibi Kordell Xoll ushbu holatga izoh berib, "Ikkinchi jahon urushining asosiy sababi 30 yillarda yuzaga kelgan moliyaviy va iqtisodiy kelishmovchiliklar"-deya ta'kidlagan edi.⁹³

AQShda oltin standartini amal qilishi Yevropaga nisbatan ikki yilga cho'zildi. 1933-1934 yillarda AQShning, "turg'unlikni oldini oladi"-degan teskari

siyosati tufayli oltin standarti amaliyotda to'xtatildi. Amerika fuqarolariga mamlakatda (shu jumladan xorijda) oltinni ishlatish, olib yurish man etildi va dollarli hisob-kitoblarni oltin bilan so'ndirish ta'qiqlandi. Lekin, 1934 yildan keyin ham AQShda oltin standartining o'ziga xos yangi shakli amal qildi. Unga asosan qadrsizlangan dollar 1/35 unsiya oltinga tenglashtirilib, oltin bilan chet el hukumatlari va banklar talablari qondirilgan. Dollarning oltinga oz bo'lsada bog'liqligi va Yevropadagi tartibsizliklar hisobiga AQShga kirayotgan oltin hajmi yanada ortdi.

Milton Fridman va Chikago maktabi vakillarining qarashlarida iqtisodiy va siyosiy kamchiliklar mavjudligini 1930 yillardagi iqtisodiy tartibsizliklar ko'rsatib berdi. Fridman va uning izdoshlari-erkin bozor sharoitida qanday taklif bilan chiqishdi? Ularning qarashlari bo'yicha dastlab oltin standartidan voz kechish va milliy valyutani chiqarish vakolati davlat ixtiyorida bo'lishi lozim edi. Ya'ni, davlat tomonidan chiqarilgan ta'minlanmagan qog'oz pullar, qonuniy to'lov vositasini bajarishiga erishish nazariyasini ilgari surilgan. Shundan so'ng dastlab davlat qog'oz pullarni muomalaga chiqarishi va boshqa valyuta kurslariga nisbatan tebranishiga imkon berish kerak. Bunda inflyatsiya darajasini belgilangan me'yorda bo'lishini davlat tomonidan nazorati ta'minlanishi lozim edi. Lekin 1930 yillardagi jahon iqtisodiyotidagi tartibsizliklarni kelib chiqishi, aynan mamlakatlar pul tizimini izdan chiqishi bilan bog'liq edi.

Shunday qilib, 30 yillarning ta'minlanmagan qog'oz pullariga asoslangan pul tizimining ayanchli tajribasi va uni oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy tanglik shuni ko'rsatdiki, ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro iqtisodiy munosabatlarni, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi va kapital oqimini yo'lga qo'yish maqsadida AQSh o'z oldiga jahon pul tizimini qayta tiklash vazifasini qo'ydi.

*Bretton Vuds va yangi **oltin** deviz standarti (1945-1968 y.)*

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin AQSh tomonidan yangi pul tizimi taklif etildi. Uning qoidalari 1944 yilda Nyu-Xemshir shtatining Bretton-Vuds shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferentsiyada kelishildi va 1945 yilning iyul oyida

AQSh Kongressi tomonidan ratifikatsiya qilindi. Yangi amaliyotga kiritilgan Bretton-Vuds pul tizimining 1920 yillarda qabul qilingan oltindeviz standartidan farqli jihatlari ko'p emas edi. Shu nuqtai nazardan, ushbu pul tizimi ham kamchiliklardan holi emas va navbatdagi moliyaviy tartibsizliklarni kelib chiqishiga tashlangan dastlabki qadam edi.

Bretton-Vuds pul tizimining eski oltindeviz standartidan amal-dagi farqi shunda ediki, uning asosini ikki "tayanch valyuta"(funt va dollar) emas, balki yagona dollar tashkil etib, 35 dollar 1 unsiya oltingan tenglashtirilgan edi. Shu bilan birga, amaldagi tizimni 20 yillardagi oltindeviz standartidan farqli jihatlari, amerika fuqarolari dollardagi hisob-kitoblarni oltin bilan so'ndirish imkoniyatining yo'qligi va dollardagi hisob-kitob qilish huquqi xorijiy davlatlar va banklarga berilganligini e'tirof etish lozim. Ya'ni, jahon pulini (oltin) dollar bilan so'ndirish vakolati faqat davlat organlariga berildi. Shu jihatdan Bretton-Vuds tizimi ham 1920 yillarni oltindeviz standarti kabi moliyaviy piramida asosiga qurildi.

AQShda moliyaviy piramidaning asosini, faqatgina xorijiy davlat hukumatlari talab qilish huquqiga ega bo'lgan oltin tashkil etgani holda, muomalada ta'minlanmagan dollarlar mavjud bo'lgan. Boshqa davlatlarda moliyaviy piramidaning asosini, valyuta zaxirasi sifatida saqlanayotgan dollar tashkil etgani holda, muomalada ta'minlanmagan milliy valyutalar amal qilgan. Bunday moliyaviy piramidani tashkil etish uchun AQShda yetarlicha imkoniyatlar mavjud edi. Chunki, ikkinchi jahon urushidan keyin AQSh da to'plangan juda katta miqdordagi oltin zaxiralari (25 mlrd doll), ularga moliyaviy piramida qurish imkonini bergan. Bretton-Vuds tizimi amaliyotga joriy qilinishi bilan Yevropa davlatlari valyutalarining dollarga nisbatan kursi oshirildi. Masalan, Buyuk Britaniya funt sterling kursi urushgacha bo'lgan vaqtdagi qiymatga, ya'ni 4, 86 dollarga tenglashtirildi. Funtning sotib olish qobiliyatiga nisbatan qaralganda esa, uning qiymati pastroq bo'lgan. Ta'kidlash joizki, 1945 yilda dollar kursi sun'iy pasaytirilishi va boshqa davlatlar valyutalarining kursi dollarga nisbatan sun'iy oshirilishi natijasida "dollar tanqisligi" yuzaga keldi. AQShdan tashqarida yuzaga kelgan "dollar tanqisiligi"ni oldini olish maqsadida Amerika hukumati tomonidan

Yevropa mamlakat-lariga moliyaviy yordam ko'rsatildi. Boshqacha qilib aytganda, Yev-ropaga moliyaviy yordam berilishi, dollar kursini sun'iy pasaytirilishi natijasida AQSh to'lov balansi profitsitini qisman moliyalashtirishga xizmat qilgan.

Bretton-Vuds tizimida Amerika hukumatiga shunisi aniq bo'ldiki, ushbu tizim doirasida dollar inflyatsiyasini oshirilishi javobgarlikka olib kelmas edi. Shu nuqtai nazardan, urushdan keying davrda inflyatsiyani rag'batlantirilishi AQShda davlat siyosatiga aylandi.

1950 yillar boshida dollar inflyatsiyasi natijasida xalqaro savdo oqimi o'z yo'nalishini o'zgartirdi. AQShda pul taklifi va kredit hajmi ortib borishi natijasida, aksariyat Yevropa mamlakatlari (G'arbiy Germaniya, Shveytsariya, Fransiya, Italiya) ning valyutalari yanada mustahkamlandi. Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan Buyuk Britaniyada esa mamlakatdan dollarni chiqishini oldini olish maqsadida funtni 2, 40 dollargacha devalvatsiya qilindi. Yevropa va Yaponiyada ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishi AQSh to'lov balansida kamomadni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Inflyatsiyani cheklashda oltin tanga standartining klassik yondashuvchanligi o'zining xususiyatini butunlay to'xtatishi bilan birga, Bretton-Vuds tizimining qoidalari G'arb davlatlariga doimiy dollar zaxiralarini ko'paytirishni va buning asosida milliy valyuta taklifi va kredit hajmini oshirishni talab etgan.

Shu tariqa 1950-1960 yillarga kelib, G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Yaponiya dollar zaxirasini oshirib borish siyosati samarasiz ekanligi hamda yangi tizim tashkil etilganda dollar kursi sun'iy baholanganligidan sarosimaga tushdi. Chunki dollaraing sotib olish qobiliyatining tushishi, G'arb davlatlarida dollarga bo'lgan ehtiyojni pasaytirdi.

Bretton-Vuds tizimi Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti uchun "tuzoq" sifatida qaraldi va qarama-qarshiliklar ortdi. Fransiya nomidan Oltindeviz standartini yoqlab va amaldagi tizim qoidalariga qarshi fikrlar bilan davlat moliyaviy maslahatchisi de Gollya Jak Ryueff chiqdi. Amerika siyosatchilari va iqtisodchilari yuzaga kelgan qarshiliklarga e'tibor bermay, Yevropa dollarni "tayanch valyuta" sifatida qabul qilganligini ta'kidladi. Ularning fikriga ko'ra,

Yevropa aynan Bretton-Vuds tizimini amal qilishi natijasida iqtisodiy tanglikdan chiqish muammosini hal etgan. Davlatlar o'rtasidagi keli-shuvga asosan boshqa mamlakatlarda dollarning inflyatsiya darajasi ortishidan qat'iy nazar, AQSh yanada pul taklifini oshirish huquqiga ega edi.

Yevropada oltinning bir unsiyasi uchun 35 dollarga teng bo'lgan miqdori saqlanib qolingani edi. 1950 yillarda Yevropada dollar massasini ortib ketishi, uning oltinga va Yevropaning "qattiq" valyutalariga nisbatan qadrsizlanishiga hamda Amerikadan oltinni chiqib ketishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida AQShning oltin zaxiralari 25 mlrd. dollardan, 9 mlrd. dollargacha kamayib ketdi. Yevropa mamlakatlari hukumatlari va Markaziy banklarining dollarni oltin bilan so'ndirish talabini qondirilmasligi oqibatida Bretton-Vuds tizimining izdan chiqish xavfi tug'ilgan edi. Lekin, Yevropa mamlakatlarida yuzaga kelgan ushbu salbiy holat ham AQShni pul taklifini oshirishdan qaytarmadi. Shu tariqa 60 yillaraing oxirida Yevropada 80 mlrd dollardan ortiq "yevrodollar" nomini olgan pullar paydo bo'ldi. Yevropada muomalada bo'lgan dollarni oltin bilan so'ndirish talabini to'xtatish maqsadida AQSh siyosiy bosim o'tkaza boshladi. 1930 yilda oltindeviz standartining inqirozga yuz tutishida ham Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida shunday vaziyat yuzaga kelgan.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy qonunlarni aylanib o'tish, AQSh inflyatsiyani hisobga olmagan kabi, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu tariqa 1968 yilda Amerika tomonidan taklif etilgan "abadiy va buzilmas" Bretton-Vuds tizimi yemirila boshladi.

Bretton Vuds tizimining barham topishi (1968-1971 yy.) Yevropada dollar massasining ortib borishi va AQShda oltin zaxiralarini kamayishi, London va Syurixdagi erkin oltin bozorlarida oltinning unsiyasi uchun belgilangan 35 dollar narxni ta'minlab turish AQShga qiyinchiliklar tug'dira boshladi. Mamlakatlar o'rtasida Bretton-Vuds tizimining qoidalari kelishilganda ushbu narx (oltinning bir unsiyasi uchun 35 dollar) butun tizimning asosini tashkil etgan.

Amerika fuqarolariga 1934 yilda oltinga egalik qilish ta'qiqlangan bo'lib, boshqa davlat fuqarolari oltin quyma va oltin tangalarga qonuniy egalik qilishi

mumkin bo'lgan. Ularning dollarni oltin bilan so'ndirish imkoniyati faqat erkin bozorda 35 dollarga sotish orqali amalga oshirilgan. Amerikadagi inflyatsiya darajasining o'sishi, dollarning yanada qadrsizlanishi natijasida AQSh to'lov balansidagi kamomad o'sdi, oltinga egalik qilgan fuqarolar esa erkin bozorda faol ravishda oltin xarid qilar edi. O'z navbatida AQSh, London va Syurix erkin oltin bozorlaridagi oltin narxini belgilangan miqdorda ushlab turish uchun qisqarib borayotgan oltin zaxirasidan berishga majbur bo'ldi.

Erkin oltin bozoridagi dollarga bo'lgan ishonchsizlik, 1968 yilning mart oyida AQSh tomonidan mavjud pul tizimga o'zgartirishlar kiritishiga olib keldi. Ya'ni, amaldagi tizimni saqlab qolish maqsadida, oltinni erkin bozordagi faoliyatini to'xtatish zarur degan xulosaga keldi. Shunday qilib, "ikki pog'onali oltin bozori": oltinni erkin bozori-mustaqil va mamlakatlar Markaziy banklarining oltin hisob-kitoblari-mustaqil faoliyat yurita boshladi. AQSh taklifiga binoan oltinning erkin bozor bahosini belgilangan 35 dollar miqdorida xarid qilinishi rad etildi. Shu bilan birga, barcha davlatlar oltin unsiyasi uchun 35 dollar miqdorni abadiy belgilangan narxda bo'lishiga kelishib oldi.

Mamlakat Markaziy banklari va Hukumatlari "tashqi" (erkin) bozordan oltinni sotish va sotib olishdan bosh tortdi, natijada oltin Markaziy banklar o'rtasidagi hisob-kitoblarda hisob birligi (1 unsiya = 35 doll) sifatida qo'llanila boshladi. Oltinning erkin bozori ham umumiy pul tizimiga aloqasi bo'lmagan holda rivojlandi.

Ikki pog'onali oltin bozorining parallel ravishda amal qilishi, AQShni yangi zaxira qog'ozlarini joriy etish to'g'risidagi fikrini ilgari surdi va maxsus huquq beruvchi birlik (SDR) ni muomalaga kiritish masalasi ko'rildi.⁹⁴

Amerika bunday birlikni kiritish orqali oltinning o'rnini bosuvchi yangi qog'oz pul shaklidagi jahon valyutasini joriy etish bo'lgan. SDRni amaliyotga joriy etish va uni emissiya qilish huquqini Jahon banki ixtiyoriga berish rejalashtirilgan edi. SDRni joriy etish va uni jahon valyutasiga aylantirish xususida, ilgari surilgan tizimni barpo etish orqali AQSh boshqa davlatlar bilan birlashgan holda pul

taklifmi yanada oshirish imkoniyatiga ega bo'lar edi. Bu tizimni joriy etish, albatta dunyo iqtisodiy otining izdan chiqishiga jiddiy xavf tug'dirdi.

SDR amaliyotini tarqalishiga qarshilik ko'rsatayotgan G'arbiy Yevropa va qattiq valyutaga ega bo'lgan mamlakatlar AQSh valyuta zaxiralarining sezilarsiz miqdorini tashkil etgan.

Qog'oz pullar nazariyasini qo'llab-quvvatlagan Milton Fridman ham o'z qarashlarida jahon valyuta tizimidan oltinni butunlay bekor bo'lishini ilgari surgan. Ya'ni, Bretton-Vuds tizimi joriy etilganda, AQShning yetakchi ekspertlari sanoatda dollarga talab ortishi natijasida oltin narxini 10 dollargacha pasayishini taxmin qilishgan.

Lekin, ushbu tizimni mukammal ishlashi uchun dollar inflyatsiyasini belgilangan me'yorda saqlash lozim edi. 1973 yilning boshlariga kelib, oltinning bir unsiyasi 125 dollargacha ko'tarildi.

Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, AQShning taklifiga asosan ikki pog'onali oltin bozorining yaratilishi, Bretton-Vuds tizimining faoliyat yuritish muddatini bir necha yilga cho'zishga xizmat qildi. Chunki, inflyatsiyaning o'sishi oqibatida Amerikaning to'lov balansi kamomadi ortib, oltin zaxiralari qisqarib bordi. Yevropa Markaziy banklari hisobvaraqlarida esa, "yevrodollar"lar miqdori ortib bordi. O'z navbatida erkin oltin bozorida dollar massasini ortishi, oltin narxini ortishiga va dollarga bo'lgan ishonchsizlikni ortishiga olib keldi. Endilikda, oltinga egalik qilgan shaxslar, uni sotishdan voz kechayotgan edi. Bu o'z navbatida awaliga erkin oltin bozori faoliyatini, keyinchalik Bretton-Vuds tizimini batamom to'xtashiga olib keldi.

Suzib yuruvchi kurs (1971 yil va keyingi davr.)

1970 yillarning boshida AQSh iqtisodiy otida inflyatsiya darajasining yuqoriligi Bretton-Vuds tizimi faoliyatini davom ettirishiga ham jiddiy xavf sola boshladi. Inflyatsiyani oldini olish maqsadida 1971 yilning 15 avgustida AQSh Prezidenti Nikson barcha ish haqi va narxlarini muzlatdi, shuningdek, Bretton-Vuds tizimi qoidalariga mos kelmaydigan qarorlar qabul qildi.

Xususan, AQSh Yevropa mamlakatlari Markaziy banklari hisobvaraqlarida yig'ilgan dollarni oltin bilan so'ndirish xususidagi talabini qondirishdan bosh tortdi. AQSh Prezidenti oltin standartidan butunlay voz kechganligi to'g'risida axborot berdi. Jahon pul tizimi 30 yillarning tartibsizligiga qaytdi.

1930 yillarda AQShda dollarni oltinga bog'liqligini saqlanishi, jahon pul tizimidagi tartibsizliklarni chuqurlashib ketishini oldini olgan edi. Endilikda, dollar oltin bilan ta'minlanmagan oddiy qog'oz pulga aylangan edi. Bu o'z navbatida iqtisodiy salbiy oqibatlarni: valyuta to'siqlari, devalvatsiyaning ortishi xalqaro savdo va investitsiya faoliyatini to'xtashi kabi moliyaviy, iqtisodiy "urush"ni yuzaga kelishiga, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bo'lishiga jiddiy xavf tug'dirdi.

Barcha davlatlar xavf solib turgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozni oldini olish uchun turli chora-tadbirlar loyihalarini ishlab chiqdi.

1971 yil 18 dekabrda jahon pul tizimini saqlab qolish maqsadida AQSh tomonidan ilgari surilgan taklif Yamayka konferentsiyasida muhokama qilindi va tasdiqlandi. Ushbu kelishuvga asosan jahon valyuta tizimi oltin bilan ta'minlanmagan bo'lib, Smitson kelishuvi nomini oldi. Shu davrdan boshlab, oltin milliy valyutalarning ta'minlanganlik vazifasini bajarishni to'xtatdi.

AQSh Prezidenti Nikson tomonidan jahon valyuta tizimiga kiritilgan yangilik, amaldagi Bretton-Vuds tizimi yoki 20 yillarning oltindeviz standartidan ham ishonchsiz edi. Chunki, kelishuvga asosan mamlakatlar qat'iy belgilangan valyuta kurslarini saqlashi bilan birga, yangi tizimga ko'ra valyutalar oltin yoki boshqa jahon puli bilan ta'minlanmaganligi bekor qilindi. Yevropa valyuta kurslari sun'iy ravishda baholandi.

AQSh dollarining kursini doimiy 35 doll darajada bo'lishini ta'minlashi to'g'risidagi kelishuvga asosan dollarning devalvatsiyasi 38 dollar qilib belgilandi.

Yangi valyuta tizimida valyutalarning yagona ayriboshlash qoidalarining mavjud emasligi, ularni qat'iy ayriboshlash kursini amal qilishida kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi. Shuningdek, Smitson kelishuvida AQShdagi

inflyatsiyani, dollar kursi va tashqi savdo kamomadini tartibga soluvchi qoidalarining yo'qligi, iqtisodiy vaziyatni yanada chuqurlashtirdi.

Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotida "yevrodollar" massasini muntazam o'sishi, oltinga ayriboshlash shaklining barham topishi natijasida erkin bozordagi oltinning bahosi 215 dollargacha ko'tarildi. Mamlakatlar valyuta ayriboshlash kurslari o'rtasidagi nomutanosib-liklarni kelib chiqishi, dollarga yuqori baho berilganligi va Yevropa, Yaponiya davlatlari valyutalari sun'iy baholanganligidan dalolat bergan edi. Buning natijasida 1973 yilning fevral-mart oylarida jahon moliya bozori ishtirokchilari sarosimaga tushdi. Chunki, dollarga ishonchsizlikni yuqoriligi natijasida, mamlakatlar dollar xarid qilishdan bosh tortdi. Shunday qilib, Smitson kelishuvi imzolanishidan bir yil o'tib, bu tizimni faoliyat yuritishi barham topdi.

Smitson kelishuvida belgilangan qoidalarini o'zini to'liq oqlama-ganligi dollarga bo'lgan ishonchsizlikni yanada kuchaytirdi. Moliya bozoridagi tartibsizliklar dollar dealvatsiya qilinishini talab etdi. Qog'oz pullarning suzib yuruvchi kursida, valyuta kurslari talab va taklifdan kelib chiqib erkin aniqlandi. Bu esa, Yevropa valyuta birjalarida dollarni qadrsizlanishiga, nemis markasi, Shveysariya franki va Yaponiya iyenasi kabi qattiq valyutalarni qadri ko'tarilishiga olib keldi. Shu qatorda yevrodollar muammosining barham topishi bilan AQSh to'lov balansi kamomadi ham me'yorlashdi. Chunki, dollar kursi tushishi, AQShning jahon bozoridagi tovarlari bahosiga ijobiy ta'sir qildi va Amerika eksportini o'sishini ta'minladi. O'z navbatida valyuta bozorini tartibga solish uchun vaqti-vaqti bilan davlat tomonidan valyuta intervensiyasi o'tkazilishi, valyuta bozorini erkin faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatdi.

Keyinchalik ushbu tizimni amal qilishida ham qator kamchiliklar mavjudiligi ayon bo'ldi. Chunki, qattiq valyutaga ega bo'lgan mamlakatlar milliy valyutasining qadrini o'sishi iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Ya'ni milliy valyutaning uzoq vaqt o'sish tendentsiyasiga ega bo'lishi, milliy ishlab chiqaruvchilar tovarlarini narxini o'sishiga, iste'mol tovarlari bozorini Amerika tovarlari bilan to'lishiga olib keldi. Iqtisodiyotda shu kabi holatlarni oldini olish maqsadida

boshqa davlatlar 1930 yillarda bo'lgani kabi, turli valyutaviy nazoratlar, valyuta devalvatsiyasi va boshqa iqtisodiy me'yorlar joriy qilindi. Shuni ta'kidlash joizki, dollarning qadrsizlanishi, Amerikada import tovarlarining bahosini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Boshqa davlatlarda arzon amerika tovarlariga bo'lgan talab yanada ortadi. AQSh bozorlarida esa eksport tovarlarini hajmini kamayishi, ichki bozorda bunday tovarlarning (go'sht va bug'doy) bahosini o'sishiga olib keldi. Aytish joizki, dollarning qadrsizlanishi eksporterlarga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa, bu inflyatsiya solig'ini to'layotgan iste'molchilar to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

AQShning 1971 yil avgustidan keyingi davrda oltin standartdan voz kechishi va 1973 yil mart oyidan suzib yuruvchi valyuta kurslarini joriy qilinishi, jahon valyuta tizimida uzoq vaqt inflyatsiyani saqlanishiga sabab bo'ldi. Qog'oz pul nazariyasi tarafdorlari bo'lgan keynschilar va Milton Fridman kabi iqtisodchilar, sanoatni rivojlanishi natijasida dollarni oltinga nisbatan kursi 8-10 dollargacha tushishini taxmin qilishgan edi. Amaliyotda esa Bretton-Vuds tizimi joriy etilganda belgilangan oltin unsiyasi uchun 35 dollar, ushbu davr ichida umuman pasaymadi. Aksincha, 1971 yillarga kelib oltinning bozor bahosi bir necha marta oshib ketdi. Fransiyaning davlat maslahatchisi Jak Ryueff tomonidan 50-60 yillarda, oltin unsiyasi uchun 70 dollar miqdoridagi narx taklif qilinishi, AQShning qarshiligiga sabab bo'lgan edi. Lekin 1970 yil boshiga kelib, oltinning erkin bozordagi bahosi 70 dollardan bir necha marta oshdi.

1973 yilda butun davlatlar iqtisodiyotida hukm surayotgan inflyatsiyani ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tobora chuqurlashib bordi. Erkin bozorda narxlarni shakllanishida noaniqliklar va beqarorlik yuzaga keldi. Bu jahon valyuta tizimini qat'iy valyuta kurslariga va paritetiga asoslangan Bretton-Vuds tizimi qoidalaridan chiqish bilan izohlanadi.

Ya'ni amaliyotga valyutalarning suzib yuruvchi kurslarini kiritilganligi, oltinning rasmiy qiymatini yo'qolganligi va AQShning boshqa davlatlar Markaziy banklari hisobvarag'larida yig'ilgan "yevrodollar"larni oltinga ayriboshlashdan bosh tortishi, Bretton-Vuds tizimi tamoyillariga mutlaqo zid bo'lgan⁹⁵.

Mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni va investitsiya oqimini qayta tiklash maqsadida 1976 yil Kingston (Yamayka) shahrida bo'lib o'tgan konferentsiyada Xalqaro valyuta fondi tomonidan yangi valyuta tizimi taklif qilindi. 1978 yilning apreli oyida ratifikatsiya qilingan Yamayka kelishuvi, valyutalarni qat'iy belgilangan kurslarini bekor qildi. Shu bilan birga, oltin likvid aktiv sifatida Markaziy banklarda tayanch valyuta bo'lib qoldi. Xalqaro valyuta jamg'armasi Yamayka kelishuvi doirasida davlatlarga valyuta kurslarini aniqlash qoidalarini tanlash xuquqini berdi. Yamayka kelishuviga asosan oltin demonetizatsiyasi ko'zda tutilgan. Ya'ni:

- ikki davlat valyutalari nisbatida-oltin va oltin paritetining rasmiy qiymati bekor qilindi;

- davlat organlari va Markaziy banklar dollarni oltinga ayribosh-lash to'xtatildi;

- oltinni bozor bahosida sotish va sotib olishga ruxsat berildi;

- mamlakatlarga valyuta kurslarini aniqlash rejimlarini tanlash xuquqi berildi;

- valyuta kurslarini qat'iy belgilangan kursi o'raiga suzib yuruvchi valyuta kurslari joriy etildi;

- xalqaro valyuta jamg'armasiga, a'zo mamlakatlar valyuta siyosati ustidan nazorat qilish vakolati berildi.

Suzib yuruvchi valyuta kurslarining doimiy o'zgaruvchanligi, ularning barqaror faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatishini oldini olish uchun a'zo mamlakatlar, valyuta tizimida qabul qilingan qoidalar to'g'risida o'z vaqtida Xalqaro valyuta jamg'armasini ogohlantirish majburiyatini oldi. Xalqaro valyuta jamg'armasi, a'zo davlatlardan batafsil olingan ma'lumotlarga asosan, mamlakatlarni valyutalarning uch kategoriyasidan biriga kiritadi:

- bir yoki bir necha valyutalarga bog'langan valyuta;
- ayriboshlash kursi bir yoki bir necha valyutalarga nisbatan egiluvchan bo'lgan valyutalar;
- egiluvchanligi yuqori bo'lgan valyutalarning ayriboshlash kursi.

Ta'kidlash joizki, Xalqaro valyuta jamg'armasi mamlakatlarni, uchta kategoriya bo'yicha guruxlashtiradi va bu har yili o'zgarib turishi mumkin. Masalan, 1983 yilda jahonning 38 mamlakati o'z valyutalarini dollarga bog'lagan, 1985 yilda ularning soni 31 tagacha, 1990 yilda 28 tagacha kamaydi. Aksariyat davlatlar qattiq valyuta siyosati yuritib, valyuta tizimi kuchli nazorat ostiga olgan. Shu o'rinda mamlakat valyuta ayriboshlash tizimini litsenziyalashtirilishi⁹⁷ natijasida valyutalar to'liq konvertatsiya qilinmaydi.

Yamayka valyuta tizimi Bretton-Vuds valyuta tizimiga nisbatan egiluvchan bo'lib, mamlakatlar to'lov balansi va valyuta kurslari beqarorligiga moslashuvchan hisoblanadi. Shu bilan birga, Yamayka valyuta tizimini amal qilishi jarayonida, bir qator murakkab muammolar mavjudligi ko'zga tashlandi. Xususan, SDR standartining samarasizligi⁹⁸, yuridik jihatdan oltin demonetizatsiya qilinishi va xaqiqatda esa, uning jahondagi likvid aktiv sifatida zaxirada shakllantirilayotganligi, suzib yuruvchi kurslar tizimining mukammal emasligi bilan izohlanadi.

Valyuta kursi va uning turlari

Iqtisodiy adabiyotlarda valyuta kursi va uni aniqlash xususida juda ko'p fikrlar va yondoshuvlar mavjud. Ular ko'p holatda bir-biri-ga mos kelmaydi. Buning asosiy sababi valyuta kursi haqida bildirilgan fikrlar turli geografik va ijtimoiy-iqtisodiy muhitda yaratilganligi bo'lsa kerak.

Valyuta kursi bo'yicha iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikr va yondoshuvlarning umumiy mazmuni *"Valyuta kursi-bu bir mamlakat milliy valyutasining "bahosini" boshqa mamlakat pul birligida ifodalanishini"* anglatadi.

Valyuta kursi valyuta tizimining muhim elementlaridan biri hisoblanadi, chunki xalqaro iqtisodiy munosabatlar turli mamlakat-larning milliy valyutalarini bir-biriga o'lchashni taqozo etadi. Bu esa valyuta kursi orqali aniqlanadi. Turli mamlakatlar valyutalari bir-biriga taqqoslab bahosini aniqlash ishlab chiqarish va ayriboshlash jarayoniga asoslanib ularni obyektiv qiymat munosabatlari orqali amalga oshiriladi.

Valyuta kursi fundamental va boshqa obyektiv-subyektiv omillar ta'sirida doimiy ravishda tebranib turadi, bozorda tovarlar va xizmatlar xajmining o'zgarishi hamda pul tizimining ta'sirida valyutalar kursi aniqlanadi va uni aniqlash tartibi ham o'zgarib turadi.

Xalqaro amaliyotda valyuta kursining ***tartibga solib turiladigan va suzib yuruvchi*** usullari mavjud.

Tartibga solinadigan valyuta kursi nazariyasinin tarafdorlari valyuta kursini davlat tomonidan tartibga solish orqali uni mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning qo'shimcha mexanizmi ekanligini ta'kidlaydi.

Frantsiya iqtisodchisi Dj. Mid, R. Mandellning fikricha xalqaro bozorlarda valyuta kursining doimiy ravishda o'zgarishi milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki davlat har doim ham undan samarali foydalana olmasligi mumkin, shuning uchun ham davlat milliy valyuta kursini iqtisodiyotning samarali rivojlanish yo'nalishidan kelib chiqib o'zi belgilashi lozimligini ta'kidlaydi, Amerikalik iqtisodchi E. Birnbaum valyuta kursi davlatlararo tashkil etilgan xalqaro moliyaviy tashkilotlarning o'zaro kelishuvi asosida o'rnatilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Valyutaning suzib yuruvchi kursining nazariyasi tarafdorlari asosan neoklassik yo'nalishdagi iqtisodchilar hisoblanadi. Jumladan, ularning qatoriga M.Fridmen (Chikago maktabining yo'l boshchisi), F.Maxlup (Prinston universiteti), A.Lindbek (Stokgolm universiteti), G.Djonson (Chikago va London universitetlari), L. Erxard, G. Girsh, E. Dyurr (Germaniyaning Freyburg maktabi) va boshqalar kiradi.

Valyutaning suzib yuruvchi kursining qattiq valyuta kursidan quyidagi afzalliklari mavjud:

- mamlakat to'lov balansini avtomatik tarzda tartibga soladi;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlari bo'yicha siyosatni tashqi aralashuvsizlar tanlash imkoniyatini beradi;
- valyuta savdosini rivojlanishiga keng imkoniyat beradi, bozordagi talab va taklif asosida kimdir yuttiradi kimdir esa yutadi;

- xalqaro savdoni rivojlanishini rag'batlantiradi;
- valyuta bozori valyuta kursini davlatga nisbatan tez va aniqroq aniqlash imkoniyatini beradi.

Har bir mamlakat valyuta kursining qanday usulini joriy etishni mustaqil hal etadi. Bunga qator omillar ta'sir etadi, jumladan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holati, mamlakat bank tizimida pul-kredit siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligi kabilar shular jumlasidandir.

Valyuta kursining tartibga solinadigan usuli amaliyotda qo'llanilganda milliy valyutaning kursi asosan Markaziy bank tomonidan o'rnatiladi, valyuta kursining ushbu turi asosan iqtisodiyotni ma'muriy boshqarish sharoitiga xosdir. Bu sharoitda valyuta kursi mamlakat Markaziy banki tomonidan derektiv ko'rsatilgan tarzda joriy etilib, tovar va xizmatlar bahosi ma'muriy usulda joriy etiladi. Bunday sharoitda, asosan milliy valyutalar boshqa mamlakat valyutasiga erkin ayirboshlanmaydi.

Valyuta kursining suzib yuradigan turi, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tovar-pul munosabatlarida keng joriy etilib, bunda milliy valyutalarning xorijiy mamlakatlar valyutasiga nisbatan kursi talab va taklif asosida o'rnatiladi.

Xalqaro hisob-kitoblarning vujudga kelishi va mohiyati

Xalqaro valyuta hisob-kitoblarning vujudga kelishi va rivojlani-shining asosida mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar almashi-vuning mavjudligi, kapital aylanmasining vujudga kelishi va uning hajmini doimo ortib borishi yotadi. Xalqaro hisob-kitoblar xalqaro tashqi tovar va xizmatlar aylanmasini tashkil etish, tijorat va notijorat operatsiyalarni amalga oshirish, kreditlar berish va kapital xarakatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro hisob-kitoblar-turli mamlakatlar yuridik va jismoniy shaxslari o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar nati-jasida vujudga keladigan pullik talab va majburiyatlara tartibga solish usullaridir. Mamlakatlar o'rtasida amalga oshiriladigan operatsiyalar-ning asosiy hajmi xprijiy valyutalarni ko'chirish, ya'ni xalqaro hisob-kitoblar asosida amalga oshiriladi. Xalqaro hisob-

kitoblarni amalga oshirishda banklarning xorijiy mamlakatlardagi bo'limlari yoki xorijiy banklar bilan o'rnatilgan vakillik hisobraqamlaridan (korrespondentlik munosabatlari) foydalaniladi.

Korrespondent munosabatlarda "loro" (xorijiy banklarning mahalliy banklardagi), "nostro" (mahalliy banklarning xorijiy banklardagi) hisobraqamlarini ochish orqali amalga oshiriladi. Xalqaro hisob-kitoblarda qo'llaniladigan korrespondent hisobraqamlar ochilganda banklar o'rtasida ushbu hisobraqamlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi, komission to'lovlarning miqdori, sarflangan mablag'larni to'ldirish yo'llari va boshqa masalalarni bajarish haqida o'zaro kelishuv tuziladi.

Banklar xalqaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish maqsadida likvidli valyutalarda zarur miqdordagi valyuta pozitsiyalarni taminlashga xarakat qiladi, bunda asosiy e'tibor amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni belgilangan muddat va miqdorda to'lab berishga qaratiladi.

Xalqaro bank amaliyotidan ma'umki, xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirayotgan banklar "nostro" hisobvaraqaolari bo'yicha tegishli valyutada daromad olish, shuningdek, ushbu mablag'larni jahon ssuda kapitali bozorlarida valyutali aktivlarga joylashtirish maqsadida tegishli qoldiqni saqlashga harakat qiladi.

Xalqaro hisob-kitoblarda banklarning faoliyati tegishli mahalliy va xalqaro miqyosdagi huquqiy xujjatlar asosida tartibga solinadi. Xalqaro joriy valyuta operatsiyalardan dunyoning etakchi mamlakatlari milliy valyutasi to'lov vositalari vazifasini bajaradi. Birinchi jahon urushiga qadar runt sterlingda muomalaga chiqarilgan veksellar (trat-tallar) xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha operatsiyalarning 80 foizini bajardi.

Mamlakatlar o'rtasida mehnat taqsimotining kuchayishi va ularning iqtisodiyotini rivojlanishida o'zaro mutanosiblikning vujudga kelishi bois, angliya font sterlingi xalqaro hisob-kitoblardagi ulushi 1948 yilda 40 foizga, 1999 yilning boshida esa 5 foizga tushib qoldi.

AQSh dollarining tashqi savdodagi ulushi 1982 yilda 78 foizga etdi, 2000 yillarning boshida evro, yaponiya iyenasi, shvetsariya franki va boshqa etakchi

mamlakatlar milliy valyutalari xalqaro to'lov vositasi sifatida foydalanila boshlandi, natijada AQSh dollarining xalqaro savdodagi ulushi 55 foizga tushdi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatlar o'rtasida amalga oshiriladigan ayrim hisob-kitoblarda 1970 yildan SDR (spetsialnie prav zaimstvovaniya), 2000 yildan so'ng evro faol qo'llanila boshlandi.

Xalqaro hisob-kitoblarning rivojlanishi natijasida oltinni to'lov vositasi sifatidagi roli nafaqat ichki hisob-kitoblardan, balki xalqaro to'lovlarni amalga oshirishdan ham siqib chiqarildi. Oltin standard eng rivojlangan davrda ham xalqaro hisob-kitoblarda undan to'lov bilan-sining passiv qoldig'ini to'lashda foydalanildi. Oltin standartining bekor qilinishi va sariq metallga kredit pullarni almashtirish to'xtatil-gandan so'ng xalqaro majburiyatlarni oltin to'lash zaruriyati yo'qoldi.

Biroq, ta'kidlash joizki, mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik buzilganda jahon pulini bajarayotgan milliy valyutalarga nisbatan ishonchning yo'qolishi natijasida xalqaro hisob-kitoblarda oltindan foydalanish hollari amaliyotdan ma'ium.

Masalan, ikkinchi jahon urushi davrida xalqaro hisob-kitoblarning asosiy qismi oltin slitkalarda amalga oshirilgan. Urushdan keyingi davrda (1950-1958 yillarda) ayrim ko'p tomonlama hisob-kitoblarning dastlab 40 foizgacha, 1955 yilda 75 foizgacha oltin bilan to'langan.

Zamonaviy sharoitda mamlakatlar o'zining to'lov balansini barqarorligini ta'minlash maqsadida oltin zaxiralarini dunyoning etakchi valyutalariga sotadi. Bu o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, oltin xalqaro hisob-kitoblarda to'lov to'lov ishtirok etmasdan, oltin bozorlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishga erishmoqda.

Xalqaro hisob-kitoblarning holati va rivojlanishiga qator omillar ta'sir etadi. Xususan, mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, valyuta qonunchiligi, xalqaro savdoni tashkil etishning qonun va qoidalari, shuningdek, moliya-kredit tizimining rivojlanganlik darajasi shular jumlasidandir.

Xalqaro hisob-kitoblarning shakllari va valyuta riski

Mamlakatlar o'rtasida tovarlar va xizmatlar bo'yicha oldi-sotdi operatsiyalarni amalga oshirishda xalqaro **hisob-kitoblarning quyidagi shakllari** qo'llaniladi:

- xujjatli akkreditiv;
- inkasso;
- bank o'tkazmalari;
- veksel va cheklar bilan hisob-kitoblar shular jumlasidandir.

Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi.

1. Xalqaro hisob-kitoblarda eksporter va importerga xizmat ko'rsatadigan banklar moliyaviy vositachi sifatida maydonga chiqadi.

2. Xalqaro hisob-kitoblar mahalliy va xalqaro qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

3. Xalqaro hisob-kitoblar turli valyutalarda amalga oshiriladi. Asosan, dunyoda to'lov vositasi sifatida tan olingan mamlakatlarning milliy valyutalarida (AQSh dollari, yevro, iyena, yuan) .

4. Bitta xalqaro kontrakt doirasida bir necha hisob-kitob shakllari qo'llanilishi mumkin.

Eksporter va importerlar o'rtasida tovarlar va xizmatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda hisob-kitob shakllarini tanlash muhim masalalardan biri hisoblanadi va bunga qator omillar ta'sir qiladi. Xususan:

- tovar va xizmatlar turi;
- kontrgentlarni to'lovga layoqatliligi va mavqeyi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar importerlarining to'lov qobiliyati zaif bo'lganligi bois, ular o'rtasida xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv shakli ko'proq qo'llaniladi. Akkreditiv hisob-kitob shaklida eksporter-ga to'lov kafolatlanadi;
- jahon bozorida sotiladigan tovarlarga bo'lgan talab va taklif
- darajasi;
- boshqa omillar.

Valyuta riski va valyuta kelishuvi. Xalqaro hisob-kitoblarda valyuta riski va valyuta kelishuvi mavjud bo'lib, xalqaro valyuta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning iqtisodiyoti, moliyaviy holati va tashqi siyosatini barqarorligini oldini olish maqsadida tuziladi.

Valyuta riski-tomonlar o'rtasida tashqi savdo va kredit shartno-malarini imzolash jarayonida to'lov vositasi sifatida foydalaniladigan valyuta kursining o'zgarishi tufayli vujudga kelishi mumkin bo'lgan

yo'qotishdir.

Odatda valyuta kursi bahosining tushishi natijasida eksportyor va kreditor zarar ko'radi, to'lov valyutasi kursining oshishidan esa importyor va qarzдор moliyaviy mablag'larini yo'qotadi.

Xalqaro hisob-kitoblarda valyuta riskidan ko'rilishi mumkin zararlarni oldini olish maqsadida **himoya kelishuvi** to'g'risida shartnoma shartlari joriy etiladi, bu shartlar eksporter va importer o'rtasida tuziladigan shartnoma va kontraktlarda ko'zda tutiladi. Bretton-vudse valyuta tizimi inqirozigacha bo'lgan davrda va oltin pariteti bekor qilinguncha oltin kelishuvlari qo'llanilar edi, bunda to'lov vositasining pariteti oltinga nisbatan o'zgaradigan farq summasi proporsional ravishda to'lab berilgan.

Valyuta kelishuvi-eksporter va importeriga to'lov vositasining qadrsizlanishidan himoya qilish bo'lib, to'lov valyuta kursining o'zgarishi natijasida vujudga keladigan farqni proporsional tarzda to'lab berish haqidagi kelishuvdir.

Akkreditiv. Xalqaro hisob-kitoblar ichida akkreditiv juda ko'p qo'llaniladigan pul o'tkazmalarining shakli hisoblanadi. Akkreditiv bilan hisob-kitobda importer benefitsarning nomiga akkreditiv ochish yuzasidan topshiriq beradi, akkreditiv summasi benefitsarning tovarlar etkazib berganligi yoki xizmatlarni ko'rsatganligini tasdiqlovchi hujjalari asosida uning hisobiga o'tkaziladi.

Xalqaro akkreditiv bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi tomonlar ishtirok etadi:

- importer, bankka akkreditiv ochish uchun murojaat qiluvchi;
- emitent-bank, akkreditiv ochuvchi bank;
- avizo qabul qiladigan bank, ushbu bank importer bankida benefitsar nomiga akkreditiv ochilganligi haqida xabarni eksporterga etkazadi va toiovni amalga oshiradi;
- benifitsar-eksporter, uning hisobiga akkreditiv ochiladi.

Xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv shakli eksporterga to'lovni kafolatlashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, chunki eksporter va importer o'rtasida tuzilgan shartnoma summasi oldindan eksporterga xizmat ko'rsatadigan bankning akkreditiv hisobvarag'iga o'tkazib beriladi. Shuning uchun eksporterlar xalqaro hisob-kitoblarda to'lov qobiliyati nisbatan past importerlar va siyosiy-iqtisodiy jihatdan beqarorlik mayjud bo'lgan mamlakat eksporterlari toiovlarni amalga oshirishda ushbu shakldan foydalanishni afzal ko'radi.

Akkreditiv qo'llanilishi darajasiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi.'

1. Emitent-bank akkreditivning shartlarini o'zgartirish nuqtai nazaridan, *chaqirib olinadigan va chaqirib olinmaydigan* akkreditiv-dan iborat. Agar importer va eksporter o'rtasida tuzilgan shartnomada chaqirib olinadigan akkreditiv ko'zda tutilgan bo'lsa, shartnomda kelishilgan muddat ichida importerning tovarlarni sotib olish yoki xizmatlar bo'yicha qarori o'zgarsa benifitsar foydasiga o'tkazilgan shartnoma summasini to'liq yoki qisman chaqirib olinishi mumkin. Chaqirib olinadigan akkreditivda esa importerga bunday huquq berilmaydi.

2. Shartnomada ko'rsatilgan summani benifitsarning akkreditiv hisobvarag'iga o'tkazishi nuqtai nazardan, *ta'minlangan yoki ta'minlanmagan akkreditivga* bo'linadi. Ta'minlangan akkreditivda importer shartnomada kelishilgan summa to'liq benifitsarning bankida deponentlanadi, ta'minlanmaganda esa ushbu summa importerning banki tomonidan kafolatlanadi.

3. 3.Akkreditiv shartnomasida ko'rsatilgan summa bo'lib-borib, bir necha marta benifitsarning bankida ochilgan akkreditiv hisob varag'iga o'tkazilishi mumkin, akkreditivning bu turi *to'ldirib boriladigan* yoki *revolver akkreditiv* deb

yuritiladi. Akkreditivning ushbu shakli odatda ishlab-chiqarish jarayoni bir-biriga bog'liq bo'lgan eksporter va importerlar o'rtasida qo'llaniladi.

Xalqaro hisob-kitoblarda qo'llaniladigan akkreditivning afzallik jihatlari ko'proq eksporterga tegishli bo'lib, unga jo'natilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmat uchun to'lov kafolatlangan. Biroq, importer benifetsar uchun ochilgan akkreditiv hisobvarag'iga mabalag'ni o'tkazishi natijasida uning ixtiyoridagi mablag' ma'lum muddatga chetlashishiga sabab bo'ladi.

Inkasso. Xalqaro hisob-kitoblarda qo'llaniladigan akkreditiv-larning asosiy mohiyati shundan iboratki, eksporter jo'natilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni undirib olish maqsadida o'z bankiga tegishli hujjatlar bilan birga inkasso to'lov hujjatini ham taqdim etadi.

Xalqaro hisob-kitoblarning inkasso shaklida tovarlar harakati pul harakatidan oldinda yuradi. Shu bois ham ushbu hisob-kitobni amalga oshirishda tijorat kreditining bir ko'rinishi namoyon bo'ladi, bu eksporterlarni ma'lum darajada riskka duchor bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbtida eksporter importerning moliyaviy holati va uning to'lovga qobiliyati haqida, shuningdek, importer boshqa mamlakatdan bo'lsa mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy ahvolni o'rganishi juda muhim hisoblanadi.

Xalqaro hisob-kitoblarning shakli mahalliy inkasso hisob-kitoblardagi kabi, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Eksporter tovarlarni junatgandan o'z bankiga tovarlarni jo'natganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga inkasso hujjatini taqdim etadi.
2. Eksporterning banki inkasso hujjatlarini xalqaro talablar doirasida tayyorlanganligini o'rganib chiqqandan so'ng SFIVT elektron tzlov tizimi orqali imporerning bankiga jo'natadi.
3. Importerning banki inkasso hujjatlari kelib tushganligi va to'lovni amalga oshirayotganligini unga xabar qiladi va mablag'larni eksporterning bankiga jo'natadi.
4. Eksporterning banki valyuta mablag'larini uning hisobvarag'iga kirim qilgandan so'ng bu haqda xabar beradi.

Xalqaro hisob-kitoblarning inkasso shakli qo'llanilganda valyuta kursining o'zgarishi, importerning moliyaviy holati yomon-lashuvi tufayli to'lovni amalga oshira olmasligi, importerning mam-lakatida siyosiy va iqtisodiy vaziyatning keskinlashuvi oqibatida eksporter moliyaviy jihatdan zarar ko'rishi mumkin. Shu bois ham eksporter xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda hisob — kitoblarning ushbu shaklini tanlashda juda ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

Bank o'tkazmalar Xalqaro hisob-kitoblarda bank o'tkazmalari asosan eksporter va importer o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar doimiy xarakterga ega bo'lganda, ularning moliyaviy holati bir-biriga to'liq ma'lum bo'lganda va tegishli darajadagi ishonch mavjud bo'lsagina joriy etiladi.

Xalqaro hisob-kitoblarning ushbu shakli juda oddiy va oson bo'lib, tovarlar eksport qilingandan so'ng to'lovni amalga oshirish uchun importer o'z bankiga topshiriqnoma arizasini taqdim etadi. Importer banki topshiriqnoma arizada ko'rsatilgan summani eksporterning bankiga SFIVT elektron to'lov tizimi orqali o'tkazib beradi. Eksporterning banki uning hisobvarag'iga kelib tushgan mablag' haqida xabar beradi.

Xalqaro hisob-kitoblarda bank o'tkazmalarining ijobiy jihatlari ko'proq importerga tegishli bo'lib, u olingan tovarlar uchun mablag' yetarli bo'lsato'lovni amalga oshirishi, agar mablag' mavjud bo'lmasa yoki yetarli bo'lmasa to'lovni ma'lum muddatga kechiktirishi, olingan tovar yoki xom-ashyodan to'lovni amalga oshirmagan bo'lsada foydalanishi mumkin bo'ladi.

O'zbekiston banklarida xalqaro valyuta munosabatlari

O'zbekiston tijorat banklari mustaqillik yillarida juda ko'p xorijiy mamlakatlarning banklari bilan qator valyutali operatsiyalarni amalga oshirishni yo'lga qo'ydi.

O'zbekistonda xalqaro valyuta munosabatlari tegishli qonun va me'yoriy hujatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni shular jumlasidandir. Ushbu qonun 1993 yil 7 mayda qabul qilingan bo'lib, unga qator qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilgan.

O'zbekistonda xalqaro valyuta operatsiyalari tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu banklar Markaziy bankning bosh litsenziyasiga ega bo'lib, ular:

- O'zbekiston Respublikasi hududida ochiq valyuta mavqie limiti doirasida chet el valyutasini sotib olish va sotish bo'yicha, shu jumladan, hosila moliyaviy vositalar asosida chet el valyutasini sotib olish va sotish bo'yicha bevosita o'zaro, o'z mijozlari bilan hamda valyuta birjalari orqali, shuningdek xalqaro bozorlarda operatsiyalarni amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasining banklarida va chet el banklarida vakillik hisobvaraqlariga hamda boshqa hisobvaraqlarga ega bo'lish;

- naqd chet el valyutasini hamda chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarini jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish operatsiyalarini amalga oshirish uchun ayirboshlash shoxobchalarini ochishga haqli hisoblanadi.

Vakolatli banklar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar, valyuta to'g'risidagi qonunga ko'ra joriy xalqaro operatsiyalarni va kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalarga bo'linadi.

Joriy xalqaro operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- tashqi savdo, boshqa joriy faoliyat olib borilishi, shu jumladan, xizmatlar ko'rsatilishi bo'yicha to'lovlar;
- foizlar va boshqa daromadlar ko'rinishidagi to'lovlar;
- kreditlarni, qarzlarni uzish uchun yoki to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar amortizatsiyasi uchun maqbul summalarni to'lash;
- savdo bilan bog'liq bo'lmagan pul jo'natmalarini amalga oshirish bo'yicha operatsiyalar kiradi.

Kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalarga joriy xalqaro operatsiyalar hisoblanmaydigan barcha operatsiyalar kiradi. Xususan:

- investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
- kreditlar olish va berish, lizing operatsiyalarini amalga oshirish;
- ko'chmas mulkni sotib olish va sotish;
- xorijiy davlatlardan mablag'larni hisobvaraqlar va omonatlarga jalb etish

hamda xorijiy davlatlarda mablag'larni hisobvaraqlar va omonatlarga joylashtirish kiradi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasiga muvofiq hamda valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy qilish, respublika eksport salohiyatini oshirishni rag'batlantirish, tug'idan-tug'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini oshirish, mamlakati mizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida:

Valyuta bozorini yanada liberallashtirish sohasida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- birinchidan, yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olish va sotish hamda o'z mablag'larini o'zining hoxishiga ko'ra erkin tasarruf etish huquqlarini ro'yobga chiqarishni to'liq ta'minlash;

- ikkinchidan, milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini belgilashda faqatgina bozor mexanizmlarini qo'llash;

- uchinchidan, valyuta resurslaridan foydalanishda bozor instrumentlarining rolini oshirish, valyuta bozorida barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish, valyuta siyosatining noan'anaviy tarmoqlarda eksportni rivojlantirishda, mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashda rag'batlantiruvchi rolini oshirish;

- to'rtinchidari, sifatli ish o'rinlari va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni bevosita rag'batlantirish uchun iqtisodiyotning barcha sektorlariga tug'ridan-tug'ri xorijiy investitsiyalar, bilim va texnologiyalar jalb etishga xizmat qiladigan ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash;

- beshinchidan, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga karatilgan qat'iy monetar siyosatni amalga oshirish, bu borada monetar instrumentlardan faol va moslashtirilgan holda foydalanish, davlat qimmatli qog'ozlari bozorini rivojlantirish, shuningdek, ochiq bozorda operatsiyalar hamda davlat qimmatli qog'ozlarini banklar likvidligiga garovga berish bo'yicha operatsiyalarni amalga

oshirishni amaliyotga joriy qilish;

- oltinchidan, monetar va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish xamda Davlat byudjetining mutanosibligini ta'minlash orqali pul massasi haddan ziyod o'sishining oldini olish;

- yettinchidan, bank tizimining barqarorligini ta'minlash va uning tavakkalchiliklarga bardoshliligini, shu jumladan, valyuta siyosatini liberallashtirishning vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan samarali choralarni qo'llash hisobiga oshirish;

- sakkizinchidan, valyuta siyosatining yangi sharoitlarida tayanch tarmoqlar korxonalari samarali faoliyat yuritishi uchun ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish;

- to'qqizinchidan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari turmush darajasiga valyuta siyosatini liberallashtirishning salbiy oqibatlarini kamaytirish imkonini beradigan xar tomonlama ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

2017 yilning 5 sentyabridan:

- O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari joriy xalqaro operatsiyalar (tovar, ish va xizmatlar importi, foyda repatriatsiyasi, kreditlar ni qaytarish, xizmat safari xarajatlarini to'lash va boshqa savdo xarakteriga ega bo'lmagan o'tkazmalar) bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun tijorat banklarida chet el valyutasini cheklovsiz sotib olishlari mumkin;

- O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar chet el valyutasini tijorat banklarining valyuta ayirboshlash shoxobchalariga erkin sotishi va konversion bo'limlarida sotib olingan mablag'larni xalqaro tulov kartalariga o'tkazish bo'yicha amaldagi tartibga asosan sotib olishi va chet elda hech qanday cheklovlarsiz ishlatishi mumkin;

- iste'mol tovarlari importi bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga chet el valyutasini jismoniy shaxslar uchun o'rnatilgan tartibda, banklardagi hisobvaraqlar orqali sotib olishga ruxsat berildi;

- mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha eksportchi korxonalarning chet el valyutasidagi tushumini majburiy sotish bo'yicha talab bekor kilindi;

- chet el valyutasida daromad oluvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, fermer xo'jaliklari o'z bank hisobvaraqlaridagi chet el valyutasini naqd ko'rinishida olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi xududida:

- tovar (ish va xizmat) lar uchun to'lovlarni chet el valyutasida amalga oshirish taqiqlanadi, xalqaro tajribaga muvofiq xalqaro to'lov kartalari orqali to'lovlar bundan mustasno;

- tovar, ish va xizmatlar uchun narx va tariflar, shuningdek, jamiyatlarning ustav kapitaliga kuyiladigan minimal talablar faqat milliy valyutada belgilanadi;

- davlat bojlari, yig'implari va boshqa majburiy tulovlar faqat milliy valyutada undiriladi, konsullik yig'implari bundan mustasno;

- Xorijiy valyutada kreditlar berish va undirish shartlari kredit siyosatidan kelib chiqqan holda tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan tijorat banklari tomonidan mustaqil belgilanadi;

- banklarning xorijiy valyuta oldi-sotdisi bilan bog'lik operatsiyalar bo'yicha tavakkalchiliklari tadbirkorlik tavakkalchiligi hisoblanadi hamda ularni boshqarish tijorat bankining vakolatiga kiradi;

- xorijiy valyuta oldi-sotdisi bo'yicha komission vositachilik xaqi miqdori tijorat banki tomonidan mustaqil belgilanadi;

- tijorat banklariga xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha litsenziya berish amaliyoti bekor qilinadi. Tijorat banklarining xorijiy valyuta bilan operatsiyalari bank faoliyatini amalga oshirish xuquqini beruvchi litsenziya asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5177-sonli Farmoni asosida tayyorlangan.

Bobga oid savollar

1. Xalqaro valyuta tizimining mohiyati.
2. Mahalliy valyuta tizimining elementlari
3. Xalqaro valyuta tizimining elementlari
4. Xalqaro valyuta tizimini tashkil etish va faoliyat yuritishidan ko'zlangan bosh maqsad nima?
5. Oltin standard tizimini joriy etilishi va uni afzalliklari
6. Oltindeviz standartini joriy etilishi va uning salbiy oqibatlari
7. Bretton-Vuds konferentsiyasiga asosan tashkil etilgan valyuta tizimining qoidolari va inqirozga uchrashining sabablari nimalardan iborat?
8. Yamayka valyuta tizimini tashkil etilishi va uning asosiy tamoyllari nimalardan iborat?
9. Xalqaro munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qilgan.
10. Valyuta kursining turlari.
11. Xalqaro hisob-kitoblarning mohiyati va turlari.
12. "Loro" va "nostro" hisob raqamlarning mohiyati.
13. Xalqaro hisob-kitoblarning shakllari.
14. Valyuta riski va valyuta kelishuvi.

MAVZU: XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI, ULARNING MAQSADI VA FUNKSIYALARI

REJA:

1. Xalqaro moliya institutlari va ularning vujudga kelishi
2. Osiyo taraqqiyot banki, uning maqsadi va funksiyalari
3. Evropa tiklanish va taraqqiyot banki

Xalqaro moliyaviy institutlarining umumiy xarakteristikasi

Xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlarining institutesional tuzilishi o'z ichiga ko'plab xalqaro moliyaviy tashkilotlarni oladi. Ularning ayrimlari yirik moliyaviy resurs va katta vakolatlarga ega bo'lib, dunyo iqtisodiyoti

va moliya-kredit jarayonlarida bevosita va bilvosita ishtirok etadi. Boshqalari hukumatlararo moliyaviy masalalarni muhokama etish, moliya — kredit siyosati bo'yicha tavsiyalar va maslahatlar berish hamda moliyaviy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Yana boshqalari axborot yig'ish, muhim valyuta-kredit va moliya muammolari va umuman, iqtisodiyotda statistik va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiradi.

Bu institutlarning asosiy maqsadi-xalqaro va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy doirada yuz berayotgan murakkabliklarga va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, yumshatish hamda ularning o'zaro ham-korligini ta'minlashga qaratilgandir.

Dunyoda global ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro moliyaviy institutlar tarkibiga BMTning xayrxohligida tashkil etilgan, ixtisoslashtirilgan Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), Jahon banki guruhi, Butunjahon savdo tashkiloti kiradi. Bu ixtisoslashtirilgan xalqaro moliyaviy institutlar. Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning faoliyati bilan bog'liq xalqaro moliyaviy va iqtisodiy masalalarai hal etishda bevosita ishtirok etadi.

BMTning ixtisoslashtirilgan muassasasi-iqtisodiy kengash-Yevropa, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi uchun 4 mintaqaviy komissiya tuzgan. Osiyo va Lotin Amerikasi komissiyalari Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va Amerikalararo taraqqiyot banki (ATB) ni tashkil etilishiga vositachilik qilgan. Maxsus jamg'armalar bu tashkilotlarni to'ldirib turadi.

«Marshall rejasi»ning amalga oshirilishi munosabati bilan 1948 yilda tuzilgan Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti, keyinchalik Yevropa to'lov ittifoqining tashkil etilishiga yo'naltirilgan (1950-1958 yillar), 1960 yilda esa iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga (IXTR⁹⁹, Parij) almashtirilgan. Hozirda bu tashkilot o'z ichiga 32 mamlakatni oladi, uning vazifalariga-tashkilotga a'zo mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga ko'maklashish, moliyaviy barqaror-likka qaratilgan siyosatni ishlab chiqish, xalqaro savdoni rivojlantirish, diskriminatsion qarama-qarshiliklarni cheklash, rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatish kabilar kiradi DCRT ramkasida 100 ga yaqin qo'mita faoliyat kursatadi.

Ularning tarkibiga Noqonuniy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash gruppasi (FATF) ham kiradi. Bu tashkilot 1989 yilda tashkil etilgan va EXRTga a'zo mamlakatlar bilan hamkorlikda noqonuniy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash ishlarini amalga oshiradi.

IXRTning maqsadi-erkin savdoga, yosh davlatlarning rivoj-lanishiga, a'zo mamlakatlarni iqtisodiy rivojlantirishga va moliyaviy barqarorlashtirishga ko'maklashishdir. DCRT-o'ziga xos klub bo'lib, yiliga 2 marta sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun fikrlar almashish va iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish, valyuta-kredit va moliya siyosatni samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, jahon iqtisodiyotining ekonometrik andozalari asosida halqaro qiyoslash va bashoratlarni ishlab chiqish borasida yig'ilib turadi.

Kreditor mamlakatlarning Parij klubi-rivojlangan mamlakatlarning norasmiy tashkilotidir. Bu yerda mamlakatlarning davlat qarzlarini bo'yicha to'lov muddatlarini boshqarish muammolari muhokama qilinadi. Bir tomonlama moratoriyadan(to'lovni uzaytirish) qochish maqsadida kreditorlar tashqi qarzlarni qayta ko'rib chiqish shartlari haqida qarzdorlar bilan «yuzma-yuz» bitimlar olib boradi. Klub faoliyati 1956 yilda tashkil etilgan bo'lib, Argentina kreditorlari Parijga qarzdorlar bilan muzokaraga taklif qilingan paytga to'g'ri keladi.

Parij klubining majlislarida XVJ, Jahon banki va boshqa yirik moliyaviy institutlardan kuzatuvchilar ishtirok etishadi va ko'pincha tashqi qarzlarning joriy yilda to'lanishi lozim bo'lgan qismi ko'rib chiqiladi.

Xususiy bank-kreditorlarning norasmiy London klubi 1976 yildan faoliyatini boshlagan bo'lib, qarzdor mamlakatlarning xususiy tashqi qarzlarini tartibga solish muammolarini muhokama qiladi. London klubi XVJ va Parij klubi bilan iqtisodiy hamkorlik olib boradi.

1970-yillardan boshlab davlatlarning moliyaviy-iqtisodiy muam-molar dastlab "yettilik", keyinchalik Rossiya Federatsiyasi qo'shil-gandan so'ng "sakkizlik", Belgiya, Niderlandiya, Shvetsariya va Shvetsiya qo'shilgandan keyin "o'nlik" davlat va hukumat rahbarlari darajasida hal etilishi yo'lga qo'yildi. "O'nlik" mamlakatlar rahbarlari yig'ilishida asosiy e'tibor xalqaro valyuta-kredit

masalalariga qara-tiladi va "har kim o'zi uchun", ya'ni markazga intilish tendentsiya-lariga qarama-qarshi bo'lgan halqaro hamkorlik va liberalizm tamoyillari asosida ish ko'rishga intiladi.

Halqaro moliya institutlari, Halqaro xisob — kitoblar (HHKB, 1930 yil) bankidan tashqari, asosan ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan.

Bu davlatlararo institutlar mamlakatlarga kreditlar berish, jahon valyuta tizimining amal qilish tamoyillarini ishlab chiqish, halqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlarini davlatlararo tartibga solish bilan shug'ullansada, ulami tashkil etilishining tub sabablaridan biri rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy mustaqillikni joriy etish, ularning xalqaro doiradagi ishtirokini faollashtirish, milliy iqtisodiyotda vujudga kelayotgan muammolarni mintaq va xalqaro darajada yechish masalalariga qaratilgan.

Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro moliya institutlarining vujudga kelishiga quyidagi omillarni keltirish mumkin:

1. Xalqaro iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash borasida kuchlarni umumlashtirgan holda hamkorlikda faoliyat yuritish.

2. Davlatlararo valyuta va moliya-kredit siyosatini tartibga solish yuzasidan xalqaro andozalarni yaratish va amaliyotga joriy etish.

3. Hamkorlikda jahon valyuta va moliya-kredit siyosati yuzasidan strategik taktikani ishlab chiqish.

Xalqaro valyuta jamg'armasi

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) jamg'armaga a'zo mamlakatlarning valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solish va ularning to'lov balansi defitsitini qoplash uchun xorijiy valyutada qisqa, o'rta va uzoq muddatga kredit berish bilan shug'ullanadi.

Jamg'arma BMTning rasmiy ixtisoslashgan muassasasi statusiga ega. U dunyo valyutasining institutsional asosi sifatida faoliyat yuritadi. XVJ BMTning 1944 yil 1-22 iyulda AQShning Bretton-Vudse shahrida o'tkazilgan xalqaro valyuta-moliya munosabatlariga bag'ishlangan konferensiyasida ta'sis etilgan.

Konferentsiya XVJning Kelishuv moddalarini qabul qildi. Ushbu hujjat 1945 yil 27 dekabrda kuchga kirdi. Jamg'arma o'z faoliyatini 39 a'zo-mamlakat bilan 1946 yil mayda boshladi, valyuta operatsiyalari faoliyati bo'yicha operatsiyalari 1947 yil 1 martdan kuchga kirdi. Sobiq ittifoq Bretton-Vudse konferentsiyasida ishtirok etdi, biroq Janub va G'arb o'rtasidagi "sovuq urush" tufayli jamg'arma kelishuvlarini ratifikatsiya qilmadi.

XVJga a'zo mamlakatlar soni 2004 yilda 184 taga yetdi. Jamg'armaning bosh ofisi Vashingtonda joylashgan, shu bilan birga Bryussel, Parij, Jeneva va Tokioda ofislari, Nyu Yorkda BMT huzurida vakolatxonasi mavjud.

XVJning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- > valyuta-moliya doirasida xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish;
- > a'zo-mamlakatlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish, band-lilikning yuqori darajasini ta'minlash va aholining real daromadini oshirish maqsadida "xalqaro savdoni kengaytirish va uning muvozanatligini ta'minlashga yordam berish";
- > "valyutaning barqarorligini ta'minlash, a'zo-mamlakatlar o'rtasida valyuta munosabatlari bilan bog'liq masalalarni hal etish" va raqobatbardosh muhitni ta'minlash maqsadida milliy valyutaning barqarorligini tushib ketishining oldini olish;
- > a'zo-mamlakatlar to'lov balansidagi salbiy qoldiqni bartaraf etish maqsadida kreditlar berish;
- > a'zo-mamlakatlarda o'rtasida hisob-kitoblarni tashkil etishga yordam berish, shuningdek valyuta cheklovlariga barham berish.

XVJning maxsus hisob-kitob valyutasi hisoblangan SDR (spetsialных прав заимствование-maxsus ayirboshlash huquqi) ning rasmiy kursi SDR savatchasiga kiritilgan valyutalar asosida aniqlanadi. Quyida XVJning SDR savatchasiga kiritilgan valyutalar va ularning ulushi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Jadvaldan SDR savatchasida asosiy ulush AQSh dollari hissasiga to'g'ri kelganligini kuzatish mumkin, keyingi o'rinlarda Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarda amal qiladigan yevro pul birligi egallab turibdi.

XVJda ovozlar "tortilgan" tamoyilga amal qilib, a'zo-mamlakatlar ularning jamg'armadagi a'zolik badali miqdoridan qat'iy nazar 250 "asosiy" ovozga ega bo'lib, har bir qo'shimcha ovoz uchun 100 ming SDR badal to'lanishi lozim.

Turli valyutada 1 SDRning bahosi (qavsda valyutalarning SDR korzinasida tutgan mavqei foizda keltirilgan)

Yillar	USD	DEM	JPY	GBP	FRF
1981-1985	0, 540 (42%)	0, 460 (19%)	34, 0 (13%)	0, 0710 (13%)	0, 740 (13%)
1986-1990	0, 452 (42%)	0, 572 (19%)	33, 4 (15%)	0, 0893 (12%)	1, 020 (12%)
1991-1995	0, 572 (40%)	0, 453 (21%)	31, 8 (17%)	0, 0812 (11%)	0, 800 (11%)
1996-1998	0, 582 (39%)	0, 446 (21%)	27, 2 (18%)	0, 1050 (11%)	0, 813 (11%)
Yillar	USD	EUR	JPY	GBP	
1999-2000	0, 5820 (39%)	0, 3519 (32%)	27, 2 (18%)	0, 1050 (11%)	
2001-2005	0, 5770 (45%)	0, 4260 (29%)	21, 0 (15%)	0, 0984 (11%)	
2006-2010	0, 6320 (44%)	0, 4100 (34%)	18, 4 (11%)	0, 0903 (11%)	

XVJda hozirgi paytda, 2004 yil 7 sentyabr holatiga, eng yuqori ovoz AQSh-17, 1%, Yaponiya-6, 1%, Germaniya-6, 0%, Buyuk Britaniya va Fransiya-4, 9%, Italiya va Saudiya Arabistoni 3, 2%, Kanada, Xitoy va Rossiya 2, 7% mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Jamg'armada Yevropa ittifoqiga a'zo bo'lgan 15 ta mamlakat hissasiga 29, 8% va IXTRga a'zo bo'lgan 30 ta rivojlangan mamlakat 64, 5% ovozni, qolgan 35, 5 foiz ovoz esa a'zo-mamlakatlarning 84% hissasiga to'g'ri keladi. Jamg'armada kvotalarning taqsimlanishi 5 yilda bir marta ko'riladi.

Jamg'armaga a'zo-mamlakatlar soni ortib borishi barobarida unga to'lanadigan a'zolik badali hajmi 1947 yilda 7, 7 mlrd SDRdan 2004 yil 30 aprel holatiga 212, 8 mlrd SDR (308, 9 mlrd AQSh dollari) ga yoki 28 martga ortgan. Biroq, jamg'armaning capital miqdori o'sishi dunyo YaEMga nisbatan judayam past darajada qolmoqda. Bu o'z navbatida XVJning oldida turgan vazifalarni to'liq bajarishga imkoniyat bermayapti.

Jahon banki

Jahon banki (JB) BMT tarkibidagi ixtisoslashgan moliyaviy muassasa hisoblanadi. Jahon banki Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) va uning bo'limi hisoblangan Xalqaro rivojlanish assosatsiayasi (XRA), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Investitsiyalarni har tomonlama kafolatlash agentligi (IXKA) va Investitsion munozaralarni tartibga solish bo'yicha xalqaro markazi (MXM) kabi moliyaviy tashkilotlarni o'z tarkibiga oladi.

JB tarkibidagi birinchi uchta moliyaviy tashkilot dunyo rivojlanish bankining vazifalarini bajaradi, keyingi ikkitasi esa rivojla-nayotgan va iqtisodiyoti o'tish jarayonini boshidan kechirayotgan mamlakatlarga investitsiya oqimlarini rag'batlantirish bilan shug'ul-lanadi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki guruh tarkibida bosh tashkilot sifatida Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan birgalikda Bretton-Vudseda 1944 yil 1-22 iyulda boiib o'tgan xalqaro konferentsiyada tashkil topgan bo'lib, faoliyatini 1946 yil iyuldan boshlagan.

XTTBning resurslari ikkita manba:

- birinchisi, aksiyadorlarning kapitali (6 foiz atrofida) hisobidan;
- ikkinchisi, xalqaro moliya bozorlarida aksiyalarni joylashtirish orqali (95 foizga yaqini) shakllantiriladi.

Tashkiliy jihatdan XTTB aksiyadorlik jamiyati tamoyili asosida tashkil etilgan. XTTBda aksiyadorlarni ovoz berish soni ularning ustav kapitalidagi ulushi doirasida aniqlanadi. XTTBda asosiy ovoz berish huquqi AQShga (16, 8%) tegishli, bu AQShga bankda qabul qilinayotgan qarorlarga veto qo'yish huquqini ta'minlaydi, qarorlarni qabul qilinishi uchun umumiy aksiyadorlarning 85 foizi

ovoz berishi lozim bo'ladi. Ovozlar soni bo'yicha ikkinchi o'rinda Yaponiya (8%) turadi, shuningdek Germaniya (4, 6%), Buyuk Britaniya va Fransiya (4, 4% dan) mamlakatlari sezilarli ovozlar soniga ega.

XTTBning boshqaruv organi Boshqarav kengashi va Direktor (ijrochi organ) dan iborat bo'lib, Boshqaruv kengashi tarkibi unga a'zo mamlakatlar moliya vaziri yoki markaziy banki boshliqlaridan tashkil topadi. Boshqaruv kengashi har yili bir marta yig'ilib tegishli qarorlarni Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan kelishgan holda qabul qiladi. Bank siyosiy o'yinlardan holi emas, u tashkil topgandan buyon amerika fuqarosi bo'lgan shaxslar tomonidan boshqarib kelinmoqda.

XTTB tashkil topganda unga 38 mamlakat a'zo bo'lgan bo'lsa, 2004 yil iyun oyida ularning soni 184 taga yetgan. XTTBning asosiy faoliyati investitsion loyihalarni kreditlashga qaratilgan.

XTTBning 1950-60 yillarga qadar asosiy maqsadi a'zo-mamlakatlarning xalq xo'jaligini tiklashga qaratilgan bo'lib, 1960 yillardan so'ng ijtimoiy loyihalarni kreditlash masalasi birinchi darajaga ko'tarildi. Buning asosiy sababi ko'pchilik mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari barqaror ko'rsatikichga ega bo'lsada, boy va kambag'allar o'rtasida farq oshib borish tendentsiyasi mavjud bo'lib, bu esa o'z navbatida turli ijtimoiy ziddiyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'lar edi. Shu bois, XTTB o'z kreditining asosiy qismini aynan shu muammolarni hal qilishga yo'naltira boshladi.

XTTB dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy integratsiyalashuv, shuningdek turli iqtisodiy inqirozlar natijasida kreditlash tamoyillarini va siyosatini doimiy ravishda takomillashtirib o'zgartirib borishga majbur edi. Masalan, 1990 yillardan keyin yuz bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarni bo'lishida XFJ va XTTB jiddiy tanqid ostiga olindi.

Quyidagi rasmda XTTBning kreditlarini tarmoqlar kesimidagi tarkibi keltirilgan. Rasmdan 1998 yilda bank tomonidan berilgan kreditlarning deyarli 30 foizi moliya sohasiga berilganligi, 2008 yilda kreditlarning asosiy qismi davlat boshqaruvi hissasiga to'g'ri kelganligini ko'rish mumkin. Bu XTTBning kredit

siyosatini unga a'zo-mamlakatlarda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasida o'zgarib borayotganligini anglatadi.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA) 1960 yilda tashkil etilgan bo'lib, XTTB va XRA boshqaruv tartibi bir xil va ular bitta bank prezidenti tomonidan boshqariladi. XTTBning moliyaviy resurslari muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'lsa, XRAning resurs manbasi a'zo-mamlakatlarning badallari va XTTBning foydasi hisoblanadi. XRA 20, 25 va 40 yil muddatga, 10 yillik imtiyoz davri bilan kreditlar beradi. Berilgan kreditlar bo'yicha foizlar hisoblanmaydi, biroq juda yuqori bo'lmagan 0, 75 foiz miqdorida komission to'lovlar undiriladi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad 875 AQSh dollaridan kam bo'lgan mamlakatlar XRAning kreditiga da'vogarlik qilishi mumkin. Dunyo bo'yicha bunday mamlakatlar soni taxminan 81 tani (2008 yil) tashkil etib, ushbu mamlakatlarda 2, 5 mlrddan ortiq aholi yashaydi. XRAning kreditlari asosan ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Unga XTTBga a'zo-mamlakatlar kirishga haqli bo'lib, lekin ko'pchilik mamlakatlar bu imkoniyatdan foydalanmaydi, shuning uchun XTTBga a'zo bo'lgan 184 ta mamlakatdan faqat 164 tasi uning a'zosi hisoblandi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) 1956 tashkil etilgan. U XTTB va XRAga nisbatan boshqa strategik siyosatni amalga oshiradi. XMK asosan xususiy sohani kreditlash bilan shug'ullanib, uning kreditlari bo'yicha XTTB va XRA dan farqli o'laroq, davlat kafolati talab etilmaydi. XMK berayotgan kreditlar asosan loyiha summasining 25 foizidan ortmaydi. Kreditlarning muddati asosan 7-8 yil va eng yuqorisi 15 yilgacha berilishi mumkin. XMKning moliyaviy resurslari xalqaro moliya bozorlaridan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish asosida shakllantiriladi.,

Investitsiyalarni har tomonlama kafolatlash agentligi (GXKA) rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish maqsadida 1988 yilda tashkil etilgan. EXKA a'zo-mamlakatlarga kiritilayotgan investitsiyalarni notijorat risklar-dan, ya'ni investitsiya mulklarini eksproportsiya qilish, siyosiy katak-lizma, valyuta konvertatsiyasini bekor qilish, hukumat qarori natijasida kontrakt shartnomalarini bajarilmaslik holatlarini

kafolatlaydi. Odatda investitsiyalarni 15 yilga, ayrim hollarda 20 yil muddatgacha kafolatlaydi. Kafolatlangan investitsiyalar bo'yicha muammolar vujudga kelganda ularning 90 foizi GXKA tomonidan qoplab beriladi. GXKA o'zining kafolatlash faoliyatini milliy sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlikda tashkil etadi.

Investitsion munozaralarni tartibga solish bo'yicha xalqaro markazi (DV1XM) 1966 yilda tashkil etilgan bo'lib, investitsion nizo-larni arbitraj yordamida, xalqaro huquq mexanizmlari asosida tartibga solish asosida xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashadi. Shu bois ham ko'plab investitsiyalar haqidagi kelishuvlar shartida IXKANing arbitraj yordamida hal etishga havola qilinadi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki

Fransiyaning sobiq Prezidenti Fransua Mitteran 1989 yilning 25 oktyabrda Yevropa parlamentining yig'ilishida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EETB) ni tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Shundan so'ng 1990 yil 29 mayda Parijdagi kelishuvga asosan EETB ta'sis etildi va bu kelishuv 1991 yil 28 martdan kuchga kirdi.

1991 yil 15-17 aprel kunlari bank boshqaruv kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi va unda bank ta'sischilari bo'lgan 40 ta mamlakat va 2 ta xalqaro tashkilot, ya'ni Yevropa ittifoqi (EI) va Yevropa investitsiya banki (EYU) ishtirok etdi.

ETTB faoliyatining eng asosiy jihatlarini quyidagilarda ko'ri-shimiz mumkin. 1991 yilning noyabrida ETTBning Varshava vako-latxonasi ochildi va Estoniya, Latviya va Litva davlatlari bankga a'zoligi tasdiqlandi. Bugungi kunda ETTBning aksiyadorlari 60 mamlakat, EI va ESH xalqaro tashkilotlar hisoblanadi. Umumiy imzo-langan kapital-1964 mlrd yevro, to'langan kapital-5, 2 mlrd yevro.

ETTBning faoliyat maqsadi va asosiy vazifasi bozor muno-sabatlarini rivojlantirish va jahon iqtisodiy integratsiyasini chuqurlashtirish uchun tashkil etish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ETTBning asosiy vazifasi Markaziy va Sharqiy Yevropa mam-lakatlarida, Rossiya va Markaziy osiyo mamlakatlarida rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarini tezlashtirishdan iborat. Bugungi

kunda ETTB loyihalari Yevropa va Osiyoning 27 davlatida amal qilmoqda. Boshqa xalqaro moliya tashkilotlaridan farqli o'laroq, bank nizomiga asosan loyiha amalga oshirilayotgan davlatlarda ko'p partiyaviylik, plyuralizm va bozor iqtisodiyoti tamoyillari amal qilishi shart.

ETTB ning investitsiya loyihalari orqali:

- sanoatda tarkibiy islohatlar o'tkazish;
- raqobat, xususiylashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirish;
- moliyaviy tashkilotlar faoliyati va huquqiy tizimni barqarorlashtirish;
- xususiyl sektorini rivoji uchun infrastrukturani qo'llab quvvatlash;
- korporativ boshqaruv tizimini tadbiq etish, shu jumladan tabiatni muhofaza qilish masalalari moliyalashtiriladi.

ETTBning tarkibiy tuzilishi va faoliyati ustidan boshqaruv kengashi, direktorlar kengashi va bank prezidenti nazorat olib boradi. Boshqaruv kengashi ETTBning yuqori organi bo'lib, bankning har bir a'zosidan ikkitadan shaxsni boshqaruvchi va uning muvojinini o'z ichiga oladi. ETTBga a'zo mamlakatlar xohishiga qarab, bu shaxslar istalgan vaqtda o'zgartirilishi mumkin.

Direktorlar kengashining 23 a'zosi bo'lib, uning ikkitasi EI va ESH tomonidan; 6 ta direktor AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Yaponiya tomonidan saylanadi. 15 ta direktorlar saylash bir xil davlatlarga to'g'ri keladi: 4 tasi donor mamlakatlar, 5 ta-si istisno tariqasida loyiha amalga oshirilayotgan mamlakatlar tomonidan va 6 tasi donor va loyiha amalga oshirilayotgan davlatlar kelishuviga ko'ra saylanadi. ETTBni yig'ilishlarida ovoz berish tartibi aksiyalar ulushiga qarab belgilanadi.

ETTB ustav kapitali tarkibida EI va EEBning kvotalari 51 % ni, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlariniki-13%, boshqa Yevropa mamlakatlariniki-11%, boshqa a'zo mamlakatlar hissasiga-24 % kvota to'g'ri keladi. Bankning kapitali tarkibida eng yuqori ulush AQSh (10%), Italiya, FRG, Fransiya, Buyuk Britaniya va Yaponiya (8, 5 % dan) mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi.

ETTBning kredit siyosatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosan a'zo-mamlakatlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish, shuningdek hamkorlikda sindikat

kreditlarini berish, korxonalarning ustav kapitaliga investitsiyalar kiritish, qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni kafolatlash, mamlakat infrastrukturasini rivojlantirish va eksport-import operatsiyalari bo'yicha dasturlarni qo'llab-quwatlash masalalari alohida o'rin tutadi.

Mintaqaviy moliya-kredit institutlari

Xalqaro mintaqaviy banklari hisoblangan Amerikalararo taraqqiyot banki (ATB) ning, Afrika taraqqiyot banki (AfTB) va Osiyo taraqqiyot banki (OTB) 1960 yillarda tashkil topgan bo'lib, ularning tashkil topishiga qator ijtimoiy-iqtisodiy sabablar mavjud. Xususan:

1) o'sha yillari ko'pchilik mamlakatlarda mustamlakachilik tuzumining ag'darilishi natijasida siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritilishi, rivojlanayorgan mamlakatlarni jahon rivojidagi mavqeini ko'tarish va yangi iqtisodiy tuzumni joriy etishga bo'lgan zaruriyatning kuchayib borishi;

2) XVJ va Jahon banki e'tiboridan chetda qolayotgan xalqaro mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish;

3) hududiy mintaqalar iqtisodiyotini kreditlash uchun ichki moliyaviy resurslardan, shuningdek tashqi manbalardan samarali foydalanish mexanizmini yaratish;

4) rivojlanayorgan mamlakatlarda mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish, shuningdek iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash.

Quyidagi jadvalda nomlari keltirilgan banklar o'rtasidagi asosiy farq ularning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy darajalarining turlicha ekanligi, shu bilan birga ularning geografik joylashuvi va aholining etnik qatlami bo'yicha ham farq qiladi.

Shu bilan birga, barcha banklarning a'zo mamlakatlari 1/3 qismi rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi. Ovoz berish huquqining yuqoriligi tufayli XaTBning har qanday qarori AQSh, OTBning qarori Yaponiya va AQSh tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Quyidagi jadvalda uchta mintaqaviy bank haqida ayrim maTumotlar keltirilgan.

Nomi va joylashgan joyi	Tashkil topgan yili	A'zo mamlakatlar soni	Shundan rivojlanayotgan	Ustav kapitali	Shundan to'langani	Loyihalarni Moliyalashtirishi
				Mlrd dollar		
Amerikalararo taraqqiyot	1959	46	30	101, 0	4, 3	13, 6
Afrika taraqqiyot	1963	77	51	29, 7	2, 0	2, 6
Osiyo taraqqiyot	1965	61	45	47, 0	3, 0	5, 4

AfTB tashkil topgan paytda unga a'zo mamlakat sifatida faqat Afrika qit'asidagi mamlakatlar kirishi belgilab qo'yilgan edi. Biroq, keyinchalik bankning moliyaviy resurslari bazasini shakllantirishda muammolar vujudga kelganligi sababli rivojlangan mamlakatlarni a'zo bo'lishiga ruxsat berildi.

Xalqaro valyuta va kredit tashkilotlari ichida *Xalqaro hisob kitoblar* banki (Bazel) alohida o'rin tutadi. HHKB 1930 yilda oltita mamlakat (Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya va Yaponiya) ning hukumatlararo Gaga shartnomasi va shu mamlakatlarning konventsiyasi asosida Shveytsariya tashkil etildi.

XHKB dunyodagi barcha banklar uchun kapitalning yetarliligi bo'yicha xalqaro talablarini ishlab chiqadi va amaliyotga joriy etadi. Masalan, XHKB banklar kapitalini ularning riskka tortilgan aktivlariga nisbatan umumiy kapitali bo'yicha 0, 08 va asosiy kapitali 0, 04 bo'yicha koeffitsiyent bo'lishi zarurligi belgilagan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki aynan shu talablarni, mos ravishda 0, 05 va 0, 1 koeffitsiyentda o'rnatgan. Xususan, mamlakatimiz tijorat banklari banklarida ushbu talab yuqori darajada bajarilayotganligini Prezidentimiz Islom Karimov alohida e'tirof etib: "Banklarimiz kapitalining yetarlilik darajasi 23 foizdan oshadi. Bu esa banklar monitoringi bilan shug'ullanadigan xalqaro Bazel

qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlardan qariyb 3 barobar ko'pdir¹⁰⁰ deya ta'kidladilar.

XHKB-markaziy banklarning banki. XHKBga uning ustavi bo'yicha ikkita asosiy vazifa qo'yilgan. Birinchisi, markaziy banklar o'rtasida o'zaro aloqalarni rag'batlantirish, xalqaro moliyaviy operat-siyalarni amalga oshirishga qulay muhit yaratish; ikkinchidan, unga a'zo mamlakatlar o'rtasida xalqaro kredit va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishda bank-agent yoki bank-depozitariy sifatida faoliyat yuritadi.

XHKBning asosiy moliyaviy resurs manbasi Markaziy banklarning qisqa muddatli (asosan 3 oy muddatga) depozitlari yoki oltinlari hisoblanadi. Aktiv operatsiyalari sifatida bankning Markaziy banklarga xorijiy valyutalarda beradigan kreditlarini ta'kidlash mumkin.

Arab valyuta jamg'armasi (AVJ) mintaqaviy moliyaviy tashkilot bo'lib, 1976 yil 27 aprelda 20 ta arab mamlakatlari ishtirokida Marokkoda tashkil etilgan. Asosiy maqsadi, arab mamlakatlarining iqtisodiy va valyuta siyosatini tartibga solib turishdan iborat. Jamg'ar-maning yana bir muhim vazifalaridan biri, arab mamlakatlarida neftdollarni tartibga solish bo'lib, jamg'armaga a'zo mamlakatlardagi ortiqcha neftdollarni g'arbdan erkin foydalanish bo'yicha mustaqillik darajasini oshirishga qaratilgan.

Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar tomonidan o'nga yaqin xalqaro moliyaviy tashkilot, institut, markazlar (1960-65 yillardan buyon) tashkil etilgan bo'lib. Ularni tashkil etilishining asosiy maqsadi quyidagilar bilan izohlanadi:

- yagona bozor va yagona valyutani yaratish asosida iqtisodi-yotning, shuningdek valyuta-kredit va moliya munosabatlarining rivojlanishi va integratsiyasini ta'minlash;
- G'arbiy Yevropa mamlakatlari jahon iqtisodiyotidagi mavqe-yini mustahkamlash asosida AQSh va Yaponiya markazlari bilan raqobat qila oladigan muhitini yaratishga bo'lgan harakat;
- rivojlanayotgan iqtisodiy hamkor mamlakatlarga yordam berish mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni barqarorligini ta'minlash maqsadida qo'shma

jamg'armalarni kengaytirishga bo'lgan zaruriyatning mavjudligi.

Bobga oid savollar

1. Xalqaro moliya institutlari o'z tarkibiga qanday tashkilotlarni oladi?
2. Xalqaro moliya tashkilotlarining vakolatlari.
3. Xalqaro moliya tashkilotlarning maqsadlari.
4. Global ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro moliyaviy institutlar.
5. Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti qachon va qanday maqsadda tashkil etilgan?
6. Xalqaro valyuta jamg'armasi qachon va qanday maqsadda tashkil etilgan?
7. Jahon banki qachon tashkil etilgan, uning tarkibiga qanday moliyaviy tashkilotlar kiradi?
8. Investitsiyalarni har tomonlama kafolatlash agentligi qanday tashkilot va u investitsiyalarni necha yilgacha kafolatlaydi?
9. Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki kimning tashabbusi bilan va qachon tashkil etilgan?
10. Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki ustav kapitalining eng yuqori ulushi qanday mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi?
11. Xalqaro mintaqaviy institutlar tarkibiga qanday tashkilotlar kiradi va ularning asosiy missiyasi nimadan iborat?
12. O'zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik doirasi.

**O‘ ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’ LIM , FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI



“PUL VA BANKLAR”

fanidan

USLUBIY QO‘ LLANMA

**(5230200-“ Menejment”(tarmoqlar va sohalar bo’yicha), 5230600”Moliya”,
5230900 ”Buxgalteriya hisobi va audit“ ta’lim yo’nalishi 3-kurs talabalari
uchun amaliy mashg’ulotlar to’plami**

Qarshi-2023

Tuzuvchi: H.E.Azimova “Buxgalteriya hisob va audit“

kafedrası katta o‘qituvchisi

**Taqrizchilar: Ш.Якубова QDU “Туризм ва сервис”
kafedrası mudiri, и.ф.н.,доц.и**

**S.Egamberdiyeva“Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrası dosenti**

“Пул ва банклар” fanidan amaliy mashgulotlar to‘plami bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ((5230200-“Menejment”(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), 5230600”Moliya”, 5230900 ”Buxgalteriya hisobi va audit“ ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabalar uchun amaliy mashgulotlarni bajarish bo‘yicha topshiriqlar to‘plami).-Qarshi.: QMII, 2021. -84 b.

Ushbu amaliy mashg'ulotlar to'plami bo'yicha uslubiy qo'llanma "Пул ва банклар" fanidan amaliy mashg'ulotlar to'plami bo'lib masalalar, mashqlar, topshiriqlar va ularni bajarish bo'yicha uslubiy qollanma to'plami hisoblanadi. Uning maqsadi talabalarning mazkur fan orqali pullar va pul muomalasi, kredit va kredit munosabatlari, banklar va bank tizimi bilan bog'liq bo'lgan pul-kredit munosabatlarini, shuningdek pulning mohiyati va pul muomalasi qonuniyatlarini o'rganish, pul aylanmasi va pul tizimi to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, kreditning mohiyati va prinsiplarini o'rganish, kreditning shakllari va turlari xususida ma'lumotlarni berish, shuningdek bank tizimini mohiyati xususidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish nazarda tutilgan. Darslarning samaradorligini oshirish maqsadida amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va o'tkazish nazarda tutilgan. Ushbu qo'llanma Амалий машғулотларни бажариш бўйича услубий қўлланмада munozara uchun savollar va izohli so'zlar tarkibi kiritilgan, hamda o'zlashtirishni sinab ko'rish maqsadida har bir mavzuga oid bir qator testlar to'plamlari ham berilgan. To'plamga kiritilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar ma'ruza mashg'ulotida olgan nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga yordam beradi."

Uslubiy qo'llanma "Бухгалтерия ҳисоби ва аудиті" kafedrasining 2021 yil "___" _____ dagi ___-sonli, "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy komissiyasining 20___yil "___" _____ dagi ___-sonli, institut Uslubiy Kengashining 20___yil "___" _____ dagi ___-sonli yig'ilishlarida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Institut o' quv uslubiy

boshqarma boshlig' i:

_____ **Sh.Turdiyev**

(imzo)

“Iqtisodiyot” fakulteti

Uslubiy komissiyasi raisi:

_____ **dots. A.Qurbonov**

(imzo)

“ Buxgalteriya hisobi va audit ”

kafedrası mudiri:

_____ **i.f.f.d.A.Alikulov**

(imzo)

	Kirish	
1- Mavzu	Pul va banklar faniga kirish	
	° test savollari	
	° vaziyatli masalalar	
2- Mavzu	Pulning paydo bilishi, zarurligi va funksiyalari	
	° test savollari	
	° vaziyatli masalalar	
3- Mavzu	Pul nazariyalari	
	° test savollari	
	° vaziyatli masalalar	
4-	Pul aylanmasi va uning tarkibi	

Mavzu		
	° test savollari	
	° vaziyatli masalalar	
5- Mavzu	Pul massasi va pul agregatlari	
	° test savollari	
	° vaziyatli masalalar	
6- Mavzu	Pul tizimi: mazmuni, turlari va elementlari	
	° test savollari	
	° vaziyatli masalalar	
7- Mavzu	O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning elementlari	
	° test savollari	
	° vaziyatli masalalar	
8- Mavzu	Inflyatsiya va unga qarshi kurashish yo‘llari	
	° test savollari	
	° vaziyatli masalalar	
9- Mavzu	Kreditning zarurligi, funksiyalari, turlari va shakllari	
	° test savollari	
	vaziyatli masalalar	
10- Mavzu	Kredit bo‘yicha foiz stavkalar va ularga ta‘sir qiluvchi omillar	
	° test savollari	
	° vaziyatli masalalar	
11- mavzu	Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi	

	°test savollari	
	°vaziyatli masalalar	
12- Mavzu	O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning tarkibi	
	°test savollari	
	°vaziyatli masalalar	
13- Mavzu	Markaziy bank va uning funksiyalari	
	°test savollari	
	°vaziyatli masalalar	
14- Mavzu	Markaziy bankning mustaqilligi	
	°test savollari	
	°vaziyatli masalalar	
15- Mavzu	Tijorat banklari va ularning funksiyalari	
	°test savollari	
	°vaziyatli masalalar	
16- mavzu	Tijorat banklarining operatsiyalari	
	°test savollari	
	°vaziyatli masalalar	
17- mavzu	Nobank moliya-kredit muassasalari	
	°test savollari	
	°vaziyatli masalalar	
18- mavzu	° Bank inqirozlari	
	°test savollari	

	°vaziyatli masalalar	
19-mavzu	° Pulning xalqaro munosabatlardagi harakati	
	test savollari	
	vaziyatli masalalar	
20-mavzu	Xalqaro moliya institutlari, ularning maqsadi va funksiyalari	
	Glossariy	
	Foydalaniladigan adabiyotlar	

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida yangi munosabatlar-bozor munosabatlari qaror topib, tobora mustahkamlanib bormoqda. Hayotimizni bozor iqtisodiyotidan ayro holda tasavvur etib bo‘lmaydi. U turmushimizning barcha sohalarida shiddat bilan kirib borib, o‘z izini qoldirmoqda. Bir vaqtning o‘zida bu iqtisodiyotga xos bo‘lgan munosabatlar ham o‘zgarmoqda, takomillashib murakkablashmoqda. Bu, o‘z navbatida, oliy talim muassasalarida, jumladan moliyaviy fanlar o‘quv rejalarining ham uzluksiz yangilanib borilishini taqozo etadi. Moliya” fani bakalavriatning 5230600-“Moliya” ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu uslubiy qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori hamda 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3151-son Qarorlarining asosiy qoidalariga muvofiq

ishlab chiqilgan va unda “ Moliya” fanini o‘qitishda zarur bo‘lgan asosiy jihatlar yoritilgan.

Fanni o‘qitishdan maqsad – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo‘lib yetishadigan talabalar uchun moliya munosabatlarini tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi moliyaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘nikma va malakalar shakllantirishdir. Bugungi kunda jahon bozori kon‘yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani mamlakatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirishni taqozo etmoqdaki, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida “ Moliya” fanini chuqur o‘rganish orqali talabalar mamlakatimizning moliya munosabatlaridagi ishtirokini faollashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish, iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish borasida tegishli nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.

**PUL VA BANKLAR FANIGA KIRISH MAVZUSI
ASOSIDA AMALIY MASHGULOTLAR UCHUN TUZILGAN
TOPSHIRIQLAR.**

Topshiriq №1: *Quyidagi so'zlarga ta'rif bering?*

1. Barter -
2. Dekadraxma-
3. Fulus -
4. Haqiqiy pullar –
5. Kredit pullar –
6. O‘rinbosar pul -
7. Natural pullar –
8. Plastik karta –
9. Pul –

Topshiriq №2: *Savollarga javob bering.*

1. Qiymat shakllarining evolyutsiyasi nima?
2. Pulning o‘ ziga xos xususiyatlari deganda ..?
3. Pulning shakllari va turlari bu - ?
4. Kredit pullar nima?
5. Qog‘ oz pullarning paydo bo‘ lishi va evolyutsiyasi deganda ..?
6. Pulning mohiyati bu - ?
7. Pulning funksiyalari nima - ?

QUYIDAGI TEST SAVOLLARIGA JAVOB BERING:

Hozirgi zamonda pulning sotib olish quvvatini nima belgilaydi?
aholiga sotiladigan tovarlar massasi va ko‘ rsatilgan xizmatlar hajmi.
pul birligidagi oltin miqdori.
davlatning pul muomalasi sohasidagi pul siyosati.

Markaziy bankning pul muomalasidagi siyosati.

Pulning kredit harakteri nima bilan belgilanadi?

Markaziy bankning tijorat banklarini kreditlash jarayoni orqali muomalaga pul chiqarishi.

muomaladagi pullarning davlat tomonidan ta' minlanishi.

davlat byudjetining davlat banklari krediti hisobiga qoplanishi bilan.

muomaladagi pullarning tovarlar bilan ta' minlanganligi.

Baho masshtabi nima?

to'g'ri javob yo'q

milliy pul birligining oltin asosi.

tovarlar massasi bilan pul massasi o'rtasidagi farq

mamlakat pul tizimini bir- birligi tarkibidagi qimmatbaho metallar miqdori.

Pul nima?

tovarlar va xizmatlar to'lovi vositasi, qiymat o'lchovi va saqlanish vositasidir.

baholar masshtabini belgilovchi vosita.

mehnat taqsimoti sharoitida tovar ayirboshlash vositasi.

barcha tovarlar umumiy ekvivalentini bajaruvchi maxsus tovar.

Pul muomalasi qonuni bu:

to'g'ri javob yo'q.

mamlakatda tovar ayirboshlash uchun hizmat kiluvchi zaruriy pul mikdorini belgilovchi qonun.

pul muomalasi harakatini urgatuvchi qonun.

barcha pullarga taalukli qonun.

Davlatning emission kredit siyosatini kim aniqlaydi?

davlat.

moliya vazirligi.

markaziy bank.

tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki.

M2 pul agregati uz ichiga:

naqd pullar, chek jamgarmalari, noчек jamgarma raqamlari va kichik muddatli jamgarmalar.

metall pullar va qog‘ oz. pullar

naqd pullar va chek jamgarmalari.

naqd pullar, noчек jamgarma raqamlari va mayda muddatli jamgarmalar.

Devalvatsiya nima maksadda utkaziladi?

davlat pul birligini qadrini ko‘ tarish maqsadida.

eksportini rag‘ batlantirish.

importni rag‘ batlantirish.

to‘ lov balansini defitsitiga barham berish.

Likvidli mablaglar bu:

tovar moddiy qiymatliklarini nakd pulga aylanish kobiliyati.

mavjud mablaglarni tezdan yo‘qotish kobiliyati.

tovar moddiy qiymatliklarini pulga sotish kobiliyati.

korxonalarda mavjud bo‘lgan naqd va naqd pulsiz pul mablaglari.

Markaziy bank majburiy zahiralariga tulov olishdan maksad:

tijorat banklari kredit potensialiga ta‘ sir ko‘ rsatish;

depozitlarni himoya qilish;

markaziy bank daromadiga ta‘ sir ko‘ rsatish;

banklarning likvidliligini saqlash;

Obligatsiyalarni va aksiyalarni olish-sotish qayerda amalga oshiriladi?

birjada

auksionda

birjadan tashqari bozor

ikkilamchi bozor.

Pul massasini tartibga solish-bu:

foizlar siyosati, ochik bozordagi operatsiyalar; pul sektorida hukumatning

barqaror siyosati

ochiq bozordagi operatsiyalar, markaziy bankning majburiy rezervlar bo' yicha siyosati, pul sektorida pul miqdorining kamayishi; foizlar siyosati, ochiq bozordagi operatsiyalar, hukumat tomonidan muomaladagi pul miqdorini belgilanishi; pul miqdorining ko' payishi;

Monetar siyosatning bilvosita instrumentlari;

Majburiy rezerv talablari; qayta moliyalashtirish stavkasi; ochiq bozordagi operatsiya va selektiv kreditlash;

Majburiy rezerv talablari; qayta moliyalashtirish stavkasi; ochiq bozordagi operatsiya;

Majburiy rezerv talablari; ochiq bozordagi operatsiya va selektiv kreditlash;

To'g'ri javob yo'q

**MAVZU: PULNING PAYDO BO'LISHI, ZARURLIGI VA
FUNKSIYALARI MAVZUSI ASOSIDA AMALIY
MASHGULOTLAR UCHUN TUZILGAN TOPSHIRIQLAR.**

Topshiriq №1: Quyidagi so'zlarga ta'rif bering?

Barter -

Dekadraxma-

Fulus -

Haqiqiy pullar –

Kredit pullar –

O'rinbosar pul -

Natural pullar –

Plastik karta –

Pul –

Topshiriq №2: Savollarga javob bering.

1. Qiymat shakllarining evolyutsiyasi nima?
2. Pulning o'ziga xos xususiyatlari deganda ...?
3. Pulning shakllari va turlari bu - ?
4. Kredit pullar nima?
5. Qog'oz pullarning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi deganda ..?
6. Pulning mohiyati bu - ?
7. Pulning funksiyalari nima - ?

QUYIDAGI TEST SAVOLLARIGA JAVOB BERING:

1. Dastlabki davrda pulning vujudga kelishiga nima sabab bo'lgan?

- A. Ishlab chiqaruvchilarning foyda olishga bo'lgan harakati.
- B. Tovar – pul munosabatlarining rivojlanishi.
- V. Ayirboshlash munosabatlarining vujudga kelishi.
- G. Mehnat taqsimotining rivojlanishi.

2. Ayirboshlash munosabatlarining faollashishiga nimalar turtki bo'ldi?

- A. Ishlab chiqarishning natural xo'jalik shaklidan tovar ishlab chiqarish davriga o'tilishi.
- B. Ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning bir – biriga o'zaro bog'liqligining vujudga kelishi.
- V. Ayirboshlash jarayonida tovarlar ekvivalentligining ta'minlan – ganligi.

G. Barcha javoblar to'g'ri.

3. Pulning vujudga kelishini yoritishda asosiy e'tibor uning:

A. – ayriboshlash xususiyatiga qaratiladi;

B. – evolyutsion nazariyasiga qaratiladi;

V. – qiymat shaklining rivojlanishiga qaratiladi;

G. – sotib olish qobiliyatiga qaratiladi.

4. Pulning qiymat shakli nechta ko'rinishda namoyon bo'ladi?

A. To'rtta.

B. Beshta.

V. Uchta.

G. Ikki

5. Dastlabki tangalar qachon zarb etilgan?

A. Eramizdan avvalgi X asrning boshlarida.

B. Eramizdan avvalgi VII asrda.

V. Eramizdan avvalgi V asrda.

G. Eramizdan avvalgi III asrda.

QUYIDAGI SAVOLLARGA JAVOB BERING?

1. Fanning predmeti va vazifalarini ayting? Pulning paydo bo'lish sabablarini yoritib bering?

2. Pul shakllari va turlarining evolyutsiyasi hamda pulning mohiyati va uning namoyon bo'lish shakllarini tushuntirib bering?

3. Pulning funktsiyalarini yoritib bering?

4. Qiymat shakllarining evolyutsiyalarini hamda uning oddiy yoki tasodifiy shaklini yoritib bering?

5. Pulning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan ajralib turuvchi o'ziga hos xususiyatlarini ochib bering?.

6. Kredit pullari va ularning turlarini keltiring va ularga tavsif bering?

**MAVZU: PUL NAZARIYALARI MAVZUSI ASOSIDA AMALIY
MASHGULOTLAR UCHUN TUZILGAN TOPSHIRIQLAR.**

Topshiriq №1: *Quyidagi so'zlarga ta'rif bering.*

Aktiv savdo balansi

Pul nazariyalari

Monetarizm

Monetar siyosat.....-

Oltin standart.....-

Topshiriq №2: *Savollarga javob bering?*

1. Merkantilistlar va ularning nazariy qarashlari bu - ?
2. Pulning metallilik nazariyasiga nisbatan tanqidiy qarashlar deganda ...?
3. Pulning nominallik nazariyasining yuzaga kelish shart-sharoitlari.
4. Pulning miqdoriylik nazariyasini asosiy qoidalari bu - ?
5. Zamonaviy monetarizm nazariyasining yaratilishi va uning asosiy qoidalari bu?

Topshiriq №3: *Test savollariga javob bering?*

1. Pulning nazariy tabiatining qanday konsepsiyalari mavjud?

- a) “tovarli” va “tovarsiz” konsepsiyalari
- b) “tovarli” va “ayirboshlash” konsepsiyalari
- c) “qiymat” konsepsiyasi
- d) “to'lovli” va “to'lovsiz” konsepsiyalari

2. Pulning qimmatliligini aniqlashda asosiy e' tibor real foydali hisoblangan ichki qiymatiga qaratilishi pulning qanday konsepsiyasi hisoblanadi?

- a) “ to' lovsiz” konsepsiya
- b) “ tovarli” konsepsiya
- c) “ qiymat” konsepsiya
- d) “ tovarsiz” konsepsiya

3. Pulning tovarsiz konsepsiyasi nimadan iborat?

- a) pulning qimmatliligini aniqlashda asosiy e' tibor real foydali hisoblangan ichki qiymatiga qaratiladi
- b) pulning qimmatliligini aniqlashda asosiy e' tibor nominal foydali hisoblangan tashqi qiymatiga qaratiladi
- c) uning tovarni sotib olish huquqini beruvchi qiymati, simvoli, ieroglifi, umumiy ko' rinishi kabi belgilariga e' tibor qaratiladi
- d) pulning qimmatliligini aniqlashda asosiy e' tibor real foydali hisoblangan tashqi qiymatiga qaratiladi

4. Pulning metallik nazariyasi qachon vujudga kelgan?

- a) XV – XVII
- b) X – XVI
- c) XI – XVI
- d) XVI – XVII

5. Pulning metallilik nazariyasi kishilik jamiyatining qaysi tuzumi davriga borib taqaladi?

- a) natural – feodal tuzumi
- b) kapitalizm davriga

c) ijtimoiy tuzumi

d) ibtidoi jamoa davriga

6. Metall pul nazariyasi vakillari ushbu ta'limotni yoqlab chiqqanlarida asosan qanday metal tangalarni nazarda tutadilar?

a) mis, bronza, kumush va oltin tangalar

b) nodir metallarni, ya'ni kumush va oltin tangalar

c) metal tangalarga tenglashtirilgan nodir buyumlar

d) bronza va kumush

7. Metall pul nazariyasi tarafdorlari sifatida kimlarni ta'kidlash mumkin?

a) U.Stafford, T.Men, D.Nors

b) J.Berkli, T.Men, D.Nors

c) J.Styuart, U.Stafford, T.Men,

d) J.Berkli, U.Stafford, D.Nors

8. Dastlabki tangalar qaerda zarb etilgan?

A. Xitoyda.

B. Misrda.

V. Liviyada

G. Hindistonda.

9. Qog'oz pullar muomalaga qachon chiqarilgan?

Bank aktivlari-bank balansining aktiv qismida joylashgan moddalarining sifat nuqtai nazaridan uning umumiy miqdoridagi ulushi tushuniladi.

Bank aksepti- importyor banki tomonidan uning Vekselini akseptlanishidir.

Bank kapitali - banklarga jalb qilingan va ular tomonidan kredit hisob-kitob va boshqa operatsiyalar uchun foydalanadigan pulli kapitallar yig'indisi, ya'ni

bankning resurslari; 2) bank kapitalining bir qismini tashkil etuvchi banklarning o'z kapitali.

Bank krediti – bu moliya muassasalari(banklar, fondlar, tashkilotva uyushmalar) tomonidan har qanday xo'jalik subyektlari(tadbirkorlar, korxonalar, tashkilotlar va boshqalar)ga pul shaklida ssuda tarzida beriladi.

Bank krediti - eksport va importni kreditlashda ssuda formasida namoyon bo'ladi va u tovarlar, tovar hujjatlari, veksellarni, xamda trattani garovga olgan holda beriladi. Ba'zan banklar o'zlariga chambarchas aloqada bo'lgan yirik eksportyor-firmalarga blankli kredit, ya'ni rasmiy ta'minlanmagan kreditlar berishadi.

Bank krediti-banklar pulni uning sohiblariga foiz to'lash sharti bilan o'z qo'lida jamlaydilar va o'z nomidan qarzga berib, foiz olishdir.

Bank passivlari-yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'lari, o'z mablag'lari hamda Markaziy bankning kreditlaridan tashkil topadigan , bank xarajatlari bilan bog'liq operatsiyalar majmui.

Bank sindikati - sinditsiyalashtirilgan kredit berish borasida ikki yoki undan ortiq banklar o'rtasida o'zaro kelishuv.

Banklararo kredit-boshqa tijorat banklaridan olingan kredit.

Banklararo kreditlar – bank kreditining keng tarqalgan shakllaridan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi ma'lum bir tijorat bankning boshqa turdagi ssudalar berish siyosatini aniklab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu normaning aniq miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Benefitsiar bank - bu to'lov operatsiyasini yakunlovchi bank.

BERI indeksi- mamlakat iqtisodiy risklari xajmini belgilovchi ko'rsatkich.

Biznes (biddines) – daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan xo'jalik faoliyati yoki sohibkorlik–tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish. Biznes mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa sohalaridagi faoliyatdir.

Vaqtinchalik usul - to'lov balansi defitsitini chet el kapitalini, ya'ni tadbirkorlik va ssuda kapitallarini kiritish yo'li blan qoplashga aytiladi.

Valyuta - bu xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladigan u yoki bu mamlakat milliy pul birligida ifodalangan to'lov hujjatlari va pul majburiyatlaridir.

Valyuta arbitraji - bu foyda olish maqsadida valyutani sotib olish – sotish bo'yicha operatsiyalardir. Valyuta arbitraji – bu valyuta kurslari farqidan foyda olish maqsadida valyutani sotib olish va bir vaqtning o'zida sotishdir.

Valyuta bozorlari - bu talab va taklif asosida turli xil valyutalar oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlardir.

Valyuta bozorlaridagi operatsiyalar- tashqi savdo bo'yicha xalqaro hisob-kitoblar, xalqaro turizm, kapitallar va kreditlarning davlatlararo harakati va chet el valyutasini oldi-sotdi qilisht bilan bog'liq boshqa hisob-kitob operatsiyalari hisoblanadi.

Valyuta dempingi - bu valyuta kursini tushirish natijasida uning xarid qilish qobiliyatining pasayishidan foydalangan holda tashqi bozordagi raqobatchilarni siqib chiqish maqsadi bilan bog'liq holda tovarlarni jahon o'rtacha narxlaridan past darajada keng ko'lamda eksport qilishdir.

Valyuta intervensiyasi - Markaziy bank tomonidan milliy valyuta kursiga ta'sir etish maqsadida chet el valyutani sotish va sotib olish operatsiyalaridir.

Valyuta qamali - xalqaro tashkilotlar yoki ayrim mamlakatlar guruhi tomonidan ba'zi bir mamlakatlarga nisbatan valyuta tushumlarining kelish jarayonida to'sqinlik qilish tushuniladi.

Valyuta kursi - valyuta bozoridagi chet el valyutasiga ega bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqadi.

Valyuta munosabatlari- valyutaning jahon oborotidagi harakati natijasida vujudga keladigan pul munosabatidir.

Valyuta operatsiyalari - chet el valyutalari va valyutaviy qimmatliklarga mulk huquqini almashinishi bilan bog'liq operatsiyalarga aytiladi.

Valyuta rezervlarini diversifikatsiya qilish-bir vaqtning o'zida 1 necha yetakchi erkin almashinadigan valyutalarda chet el valyuta rezervlarini tashkil qilish - valyuta rezervlarini diversifikatsiya qilish deyiladi.

Valyuta riski - valyuta kurslarini o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan zarar ko'rish xavfi tushuniladi.

Valyuta siyosati - bu xalqaro valyuta munosabatlari sohasida amalga oshiriladigan tadbirlar yig'indisidir.

Valyuta tizimi- valyuta munosabatini tashkil qilishning davlat huquqi shakli.

Valyutaviy inqiroz - xalqaro valyuta munosabatlarida yuzaga keladigan keskin ziddiyatlarga aytiladi.

Valyutaning kurs rejimi-birinchidan, agar milliy valyutaning kursi erkin tarzda valyuta bozorida talab va taklif asosida aniqlansa, bu erkin suzib yuruvchi kurs rejimi deb ataladi.

Varrant (warrant) – opsionning bir turi bo'lib, egasiga belgilangan muddat ichida emitentdan imtiyozli sharoitda ma'lum bir miqdordagi aksiyalarni sotib olish imkonini beradi.

Veksel- karz majburiyati bulib, veksel beruvchining Ushbu vekselini ko'rsatilgan muddatda taqdim etganda, veksel ushlovchiga uning nominal qiymatini to'lab berish guvohini beruvchi qimmatli qog'ozlar va to'lov vositasidir.

Vekselli kredit- eksportyor tovarni sotish xaqida bitim tuzib, o'tkazma veksel (tratta)ni importyorga jo'natadi, importyor tijorat hujjatlarini olib akseptlaydi, ya'ni unda ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

Vositalashgan kafolatlar- kafolat beruvchi o'ziga xos tarzda vositachilik vazifasini o'taydi. Bunday kafolatlar eksport-import operatsiyalarida keng ishlatiladi.

Davlat krediti- banklar davlatdan qarz olishidir.

Davlat krediti- kreditning bu shaklining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat bir tomondan qarz beruvchi va ikkinsi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok qilishi mumkin. Qarz beruvchi vazifasini bajara turib, davlat, davlat kredit institutlari, jumladan Markaziy bank orqali iqtisodning har xil sohalarini kreditlashni o'z zimasiiga oladi. Davlat kreditining xarakterli xususiyati, davlat tomonidan lingan qarz mablag'lari ishla chiqarish fondlari aylanishida yoki moddiy boyliklar yaratishda ishtirok qilmaydi. Bu mablag'lar davlat qarzlarini qoplash uchun ishlatiladi.

Daromad (income) – ishlab chiqarish omillarini ishlatishdan keladigan pul va natural tushumlar.

Devalvatsiya - bu milliy valyuta kursining chet el valyuta kursiga nisbatan rasman qonuniy asosda pasaytirilishi.

Devidend - deb ataluvchi daromad aksionerlarga ularning kulidagi aksiyalar soniga muvofik tulanadi.

Deviz siyosati -bu davlat organlarining chet el valyutalarini sotish yoki sotib olish orqali milliy valyuta kursiga ta'sir etish siyosatiga aytiladi.

Depozit operatsiyalari- yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalar.

Depozit sertifikatlari- jamgarmachining banka kuygan pul mablag'ini ifodalovchi va muomla muddati tugaganidan keyin kuygan pul mablag'ini xamda foyda sifatida ustama foizini xukuk va imkoniyatini beruvchi kimmatli kogozdir. Depozit sertifikati bank tomonidan beriladi.

Diskont stavkasi-uchyot stavkasi, Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga ularning ixtiyoridagi trattalarni qayta hisobga olish yo'li bilan beriladigan kreditlarning foiz stavkasidir.

Diskont siyosati - Markaziy bankning uchyo't stavkasini o'zgartirish yo'li bilan milliy valyuta kursiga va to'lov balansining holatiga ta'sir etish siyosatidir.

Yevrovalyuta- o'sha valyutani mamlakat tashqarisidagi barcha yig'indisidir.

Yevrokreditlar-yevrovalyutalarda beriladigan kreditlardir.

Yetakchi bank - sinditsiyalashtirilgan kreditlash tashabbusi bilan chiqqan va zimmasiga ishtirokchi-banklar nomidan kredit hujjatlarini yuritish mas'uliyati yuklatilgan qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatuvchi bank.

Jamg'arma sertifikatlari - bu bank tomonidan chikariladigan va uni egasiga oldindan shartlashilgan vaktda belgilangan summani olish xukukini beruvchi kimmatli kog'ozdir.

Jamg'armachi-tijorat banklariga qo'yilgan pul mablag'i jismoniy va yuridik shaxslardir.

Jahon moliyaviy inqirozi - bu bank-moliya tizimida ro'y bergan chuqur tanglik holati, buning natijasida yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni

to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketishi, dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishi, oqibatda ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi holatdir.

Joriy likvidlilik-likvid shakldagi balans aktivlari bankning talab qilib olinguncha saqlanadigan va muddati 30 kungacha bo'lgan hisobvaraqlar bo'yicha majburiyatlari summasi o'rtasidagi nisbatni tavsiflaydi.

Imtiyozli aksiyalar - oddiy aksiyalar singari firmani, korxonaning kapitalini bir kismiga egalik qilish xukukini beradi, ammo uning egasi boshkaruvda ishtirok etish xukukini bermaydi.

Inflyatsiya - mamlakat iqtisodiyotida iste'mol tovarlari va xizmatlari narxlari umumiy darajasining o'sishi.

Iste'mol krediti - bu aholining iste'mol talablarini qondirishga yordam beruvchi kreditdir va uy-ro'zg'or buyumlari: radio-elektron va maishiy asbob-uskunalar, mebellar, interyer buyumlari, turar uy-joylarni ta'mirlash bilan bog'liq tovarlarni xarid qilish, avtomashina sotib olish va aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar va boshqa xizmatlarning haqini to'lash uchun 3 yilgacha bo'lgan muddatda beriladi.

Iste'mol krediti-tijorat banklari iste'molchilarga tovar sotib olish uchun bergan qarzidir.

Ishonchsiz kreditlar – ishonchsiz deb turkumlangan aktivlar qaytishi mumkin bo'lmagan aktivlar deb qaraladi. Bunday aktivlar juda pats qiymatga ega va ularni bank aktivlari sifatida hisobga yuritish maqsadiga muvofiq emas deb hisoblanadi. Bunday turkumlash bu aktivlarning hech qanday likvidatsion bahosi yuq degani emas, lekin banklarga bunday aktivlarni o'z balansida yuritish tavsiya etilmaydi va bu aktivlar likvidatsiya qilinishi kerak.

Qayta moliyalashtirish siyosati - Markaziy bank tomonidan kredit institutlarining veksellarni sotib olish shakli va qimmatbaho qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan kreditlash tushuniladi.

Kapital va kreditlarning harakati balansi- tadbirkorlik bilan ssuda kapitalining harakati aks ettiriladi.

Kapitalning tarkibiy qismi bilan bog'liq risklar — bu risklar passivlarning tarkibiy qismi va ishbilarmonlik riski bilan bog'liq.

Qimmatli kog'ozlar__- moliyaviy bozorda savdo predmeti bulib xisoblanadi. qimmatli kog'ozlar bu meyoriy xukukiy talablarga muvofik rasmiylashtirilgan, hujjat bulib, uning egasiga (yoki soxibiga) muayyan mulkiy xukuklarni ta'minlaydi va shu bilan birga kiymatga ega buladi.

Qimmatli qog'ozlar komissiyasi- qimmatli qog'ozlar mijozdan o'z mablag'larihisobiga sotib olish yoki o'z portfelidan qimmatli qog'ozlarni sotishdir.

Qimmatli qog'ozlar hosilalari-foydası yoki zarari bir necha bozor ko'rsatkichlari Bilan, ya'ni bozor indeksleri Bilan bog'liqdir.

Qisqa muddatli likvidlilik-bankning so'ngdirish muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan aktivlar bilan 30 kundan 1 yilgacha qabul qilingan depozitlar va resurslarga nisbati tushuniladi.

Qisman ta'minlangan kreditlar-“yaxshi ta'minlanmagan kreditlar” mezoniga muvofiq kelmaydigan ta'minotga ega kreditdir.

Kichik korxona - mulkchilik shaklidan qa'tiy nazar, yengil va oziq -ovqat sanoati, metalga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel va qurilish materiallari sanoatida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 100 kishidan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida 50 kishidan, fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalarda 25 kishidan oshmagan korxonalar.

Kontokorrent krediti-bankning mijozi bo'lgan korxona ko'p sonli korxonalar bilan ikki tomonlama aloqada bo'lgan hollarda qo'llashdir.

Kredit – iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u vaqtincha o‘z egalari qo‘lida bo‘sh turgan pul mablag‘larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlarni bildiradi.

Kredit- o‘zga mulki bo‘lgan pulni qarzga olib ishlatish borasidagi munosabatdir.

Kredit vazifalari

- pulga tenglashtirilgan to‘lov vositalarini (Veksel, chek, sertifikat) yuzaga chiqarib, ularni xo‘jalik oborotiga jalb qilishdir
- bo‘sh turgan pul mablag‘larini xarakatdagi, ishdagi kapitalga aylantirib, pulni pul topadi, degan qoidani amalga oshirishdir.
- qarz berish orqali pul mablag‘larini turli tarmoqlar o‘rtasida qayta taqsimlash bilanishlab chiqarish resurslarining ko‘chib turishini ta’minlashdir
- qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirishdir.

Kredit diskriminatsiyasi - bu kredit olishda, undan foydalanishda yoki xalqaro kreditni to‘lashda ma’lum bir qarz oluvchilarga iqtisodiy va siyosiy bosimni yuzaga keltiruvchi og‘ir va qiyin shartlarni qo‘yishdir.

Kredit mexanizmi- xo‘jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo‘lib, kreditlash shartlarini usullari va kreditni boshqarishdir.

Kredit mexanizmi-kredit munosabatlarini tashkil qilishda qo‘llaniladigan elementlar majmuasidir.

Kredit obykti- vaqtincha bo‘sh turgan, berilishi mumkin bo‘lgan pullar va tovarlardir.

Kredit paketi-kreditlash jarayoni uchun zarur bo‘lgan xujjatlar majmuasi tushuniladi.

Kredit portfelining diversifikatsiyasi – bu bankning ba’zi mijozlaridan ko‘rgan zararlarni boshqa mijozlardan ko‘rgan daromad hisobidan qoplash maqsadida bankning kredit resurslarini kam miqdorda ko‘p sonli mijozlar o‘rtasida taqsimlash demakdir.

Kredit portfeli-tojorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlar jamlovchi xujjat.

Kredit potentsiali-bankdagi yig'ilgan, tarkib topgan mablag'lardan likvidlilik rezervlarini ayirmasiga teng.

Kredit resurslarining auksioni-kredit resurslarini erkin, ochiq tarzda auksion orqali sotishdir.

Kredit siyosati-bankning kredit resurslarini joylashtirish sohasidagi qarorlarni qabo'l qilishga imkon beruvchi qoidalar va cheklanishlar majmuidir.

Kredit subyektlari – har hil bo'lishi mumkin. Bularga korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

Kredit subyektlari-korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholidir.

Kredit summasi – bu qarzga beriladigan pul birligining hajmi.

Kredit tamoyillari- tovar va pul ko'rinishidagi mablag'larni:

- Maqsadlilik
- qaytarib berishlik,
- muddatlilik
- foiz to'lash
- garov shartlari asosida berish natijasidir.

Kredit tizimi – bank va kredit muassasalari ularning kredit operatsiyalarini bajarish uslublari, takil etishning huquqiy shakllari majmuini ifodalaydi.

Kredit turlari

- qisqa muddatli kreditlar (muddati bir yilgacha bo'lgan kreditlar)
- uzoq muddatli kreditlar (muddati bir yildan ortiq bo'lgan kreditlar) dir.

Kredit ekspansiyasi-mamlakatning ssuda kapitallari bozorida foiz stavkalarining pasayishi natijasida kredit oluvchilarning ko'payishi va buning oqibatida, kredit qo'yilmalari hajmining keskin ko'payishidir.

Kreditga layoqatlilik-korxonaning bankdan so'ragan ssudani u o'z vaqtida va tuliq qaytara olish imkoniyatidir.

Kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxira-bank kredit portfeli va balansdan tashqari mmajburiyatlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoki mavjud zararlarni qoplash uchun qiymat summasini o'zida aks ettiradigan bankning barcha kreditlari bo'yicha zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zaxiralar kontr-

aktiv hisobvarag'i.

Kreditlash jarayoni-kreditni rasmiylashtirish jarayoni boshlangandan to berilishigacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi.

Kreditlash obyektlari-kredit hisobidan nima tashkil qilinsa yoki kredit nimaga yo'naltirishsa o'sha tushuniladi.

Kreditlash strategiyasi-kredit siyosati borasida iron ir bankning moliya bozoridagi mazmunli, maqsadli va aniq tamoillarga kredit munosabatlari hisoblanadi.

Kreditlash subyektlari-kredit munosabatlari qatnashuvchi tomonlaranglanadi.

Kreditlash taktikasi-kredit jarayonida ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan moliyaviy va boshqa dastaklar majmuidir.

Kreditlash chegarasi-kredit munosabatlarining subyektlariga yoki ssudalarning turlariga nisbatan aniq ko'rsatkichlar shaklida belgilab qo'yiladigan kreditdan foydalanishning qat'iy chegarasi kreditlash chegarasidir.

Kreditlashtirish-kredit resurslari hisobidan tadbirlarni amalga oshirish darajasidir.

Kreditni qayta taqsimlash-jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini bu pullarga extiyojmand bo'lgan subyektlar o'rtasida qayta taqsimlashdir.

Kreditning vazifalari – taqsimlash, emissiya qilish, nazorat qilish, bo'sh pul mablag'larini harakatdagi pul mablag'lariga aylantirish va rag'batlantirish vazifalari kredit kategoriyasiga xosdir.

Kreditning chegaralari-kreditning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqli tomonlarini, ayni vaqtda, o'sha kategoriyalar bilan o'zaro aloqalarini mujassamlashtiruvchi tushunchadir.

Kredit-o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga xaq to'lash sharti bilan olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatdir.

Kredit-foiz va ma'lum shartlar asosida kredit beruvchi tomonidan berilgan qarz summasi.

Kritik risk zonasi-yo'qotishlar bo'lish havfi borligini ifodalaydi, olinadigan foydadan bir qismining Biron jarayon uchun yo'naltirilganligini vash u mablag'larning qaytib kelishida , havf borligini ifodalaydi.

Kross kurs - bir mamlakatning valyutasini ikkinchi bir mamlakat valyutasiga nisbatan USD orqali ifodalanadigan nisbati. Kross kurs xalqaro miqyosda keng qo'llaniladi. Uni asosan yirik kompaniyalar va korporatsiyalar qo'llaydi. Bu valyuta kursini aniqlashning real yo'li hisoblanadi.

Libor- Londondagi jahon ssuda kapitallari bozorida yetakchi erkin almashinadigan valyutalar-AQSH dollari, Germaniya markasi, Yaponiya iyenasi, Buyuk britaniya funt serlingi kabi valyutalardagi depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasidir.

Lizing turlari

- operativ lizing
- moliyaviy lizing

Lizing-bu zavodlarni, sanoat tovarlarini, uskunalarni, qo'zg'almas mulklarni mulk egasi tomonidan ularni ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatish uchun ijaraga berish to'g'risidagi shartnomadir.

Lizing-tomonlar o'rtasidagi mulkiy va moliyaviy munosabatlarni tashkil etuvchi, asosiy vositalarni uzoq muddatli ijara asosida sotilishidir.

Likvidlik riski-Tijorat banklarining likvidligini pasayishi ,ilan bog'liq risklardir.

Likvidlilik koeffitsiyenti-mavjud mablag'larni qanchalik qismi tez orada qoplash uchun yo'naltirilishi mumkinligini ifodalovchi ko'rsatkich.

Likvidlilik-aktivlarni pul mablag'lariga aylantirishning asosan amalga oshirilishini, ya'ni bankning Markaziy bank yoki vakil banklardagi naqd pul mablag'laridan foydalanish likvid aktivlarni sotish imkoniyati va hokazolarni anglatadi.

Lombard krediti- qisqa muddatli, miqdori qat'iy belgilangan ssuda bo'lib, oson sotiladigan qo'zg'aluvchi mulkdir.

Lombard krediti -tijorat banklari Markaziy bankdan o'zlarining portfelidan qimmatbaho qog'ozlarni garovga qo'yish orqali kredit olish - bu lombard krediti hisoblanadi.Mamlakatlarning xalkaro hisob-kitoblarini amalga oshirish rejasini belgilash, xalqaro hisob-kitoblar turi:

Majburiy zaxiralar siyosati-tijorat banklari jalb qilgan mablag'laridan ma'lum bir qismini Markaziy bankning zaxira fondiga o'tkazilishidir.

Marja – banklarning oladigan foizi bilan beridigan foizi o'rtasidagi farqdir.

Marja- savdo, birja, sug'orta va bank amaliyotida tovarlar narxi, valyuta va qimmatbaho qog'ozlar ko'rsi, foiz stavkalari va boshqa ko'rsatkichlar farqini ifodalash uchun ishlatiladigan atamadir.

Markaziy bank-o'z sarf-xarajatlarini o'z daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa bo'lib, u davlat gerbi tushirilgan va nomi yozilgan muhriga ega.

Maxsus zahiralar-bu zahiralar har bir kreditlar bo'yicha tashkil etilgan zahira summalaridir.

Maxsus imtiyozli kreditlash jamg'armasi" - kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar, shuningdek, mikrokreditlar berish maqsadida tashkil qilingan jamg'armadir. Imtiyozli kredit berish jamg'armasi hisobidan beriladigan mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkalari mikrokredit berilgan kundagi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi

Mikrokredit - qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining 1000 baravari miqdoridan oshmaydigan pul mablag'idir.

Mikrofirma - bu mulkchilik shaklidan qa'tiy nazar, ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ishlab chiqarish sohasida 20 kishidan, xizmat ko'rsatish soxasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo, va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan korxonalar

Milliy valyutaning pariteti - milliy valyuta qiymatining xorijiy valyuta qiymatiga nisbati bo'lib, u hisoblanadigan ko'rsatgich hisoblanadi va milliy valyuta kursini belgilash uchun asos bulib xizmat qiladi.

Moliya-barcha xo'jalik subyektlarining o'ziga tegishli pul mablag'lari xususidagi aloqadir.

Moliyaviy bozorlar – moliyaviy resurslarni taklif kiluvchilarni va ularga extiyoj sezayotlar oddatda fond birjalariga uxshash vositachilar yordamida bitim tuzish uchun birlashtirish mexanizmidir

Moliyaviy derivativlar_(financial derivatives) – bozor narxiga ega bulgan pulli dastak bulib, uning soxibiga birlamchi kimmatbaxo kog‘ozlarni sotish yoki sotib olish xukukini beradi. Bularga opsionlar, fyucherslar, varrantlar, svoplar kiradi.

Moliyaviy institutlar – masalan, banklar va ssuda omonat assotsiatsiyalari – oddatda omonatlarni kabul kiladilar va keyin pulni kreditga beradilar yoki boshka pul bilan mablag‘ larni investitsiyalaydilar.

Moliyaviy lizing - bu ijara munosabatlarning alohida turi bo‘lib, bunda bir tomon (lizing oluvchi)ning topshirig‘iga binoan uchinchi tomonidan (sotuvchidan) mulk (lizing obyekti) ni lizing shartnomasida belgilangan shartlarda lizing oluvchiga to‘lov asosida foydalanish va egalik qilish uchun hamda keyinchalik lizing oluvchining xususiy mulkiga o‘tishi sharti bilan berish maqsadida sotib oladi.

Muammoli ssudalar- qaytarilish muddati kelgan, lekin bank mijozining to‘lovga noqobilligi tufayli to‘lanmayotgan ssudalardir.

Muddati uzaytirilgan kredit - ayrim hollarda kreditni qaytarish muddati kelmasdan avval qarzdor tomonidan bankka taqdim etilgan iqtisodiy asoslangan yozma iltimosnoma asosida kreditni qaytarish muddatini keyinroqqa surilishi to‘g‘risida filial kredit komissiyalari qarorlari asosida Bosh bank kredit qo‘mitasi bilan kelishilgan holda ijobiy qaror qabul qilingan qarzlardir.

Muddati o‘tgan kreditlar - kredit shartnomasida belgilangan qaytarish muddati, shuningdek, garchi ularning muddati uzaytirilgan bo‘lsa, uzaytirish muddati ham tugagan qarzlardir. Muddati o‘tgan kreditlar iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra qayta rasmiylashtirilgan hisoblanadi, chunki kredit shartnomasida muddati o‘tqazib yuborilganligi uchun oshirilgan foiz stavkalarini qo‘llash ko‘zda tutiladi.

Muddati o‘tgan kreditlar-qarzdor tomonidan kredit shartnomasida ko‘zda tutilgan to‘lash shartlari va jadvali buzilganhamda asosiy qarz va unga doir foizlarning navbatdagi to‘lovi muddati yetib kelgandan so‘ng to‘lanmagan kreditlar.

Muddatli kredit - kredit shartnomasiga ko‘ra to‘lav muddati hali yetib kelmagan ssudadir.

Nostro hisobvarag‘i-bir bankning boshqa bankdagi hisobvarag‘i.

Nota - (karz majburiyati) (note) - qisqa muddatli (3-6 oy) pulli dastak bulib, bank bilan kelishuv asosida karz oluvchining uz nomiga chikariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan ta'minlanadi. Keng tarkalgan notalar – Yevronotalardir.

Obligatsiya- “Obligo” – lotincha tilida “Karz olish” mazmunini bildiradi. Emitentga obligatsiya egasi tomonidan malum bir pul mablagini kiritganligi va unda kursatilgan muddatda nominal kiymatini xamda kushimcha foiz tulab berish majburiyatini guvoxlovchi kimmatli kogosdir. Obltgatsiya uning egasiga emitentning ishini boshkarishda katnashish xukukini bermaydi.

Obligatsiyalar - zayom oluvchilarni (emmitentini)va kreditlarni (investorni) munosabatlarini rasmiylashtiruvchi kimmatli kog'oz bulib, emmitentini belgilab pul summasini kelishilgan vaktda tulash shartini ifoda kiladi.

Overdraft - kontokorrent hisob raqamining maxsus shakli hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bank mijozning asosiy “talab qilib olinguncha” depozit hisob raqamida qisqa muddat mobaynida debetli (qoplanmagan) qoldiq bo'lishiga ruxsat beradi. Overdraft hisob raqamidan foydalanish xuquqi eng ishonchli mijozlargagina beriladi.

Opsion (option)- shartnoma (kimmatbaxo kog'oz) bulib, xaridorga ma'lum bir kimmatbaxo kog'oz yoki tovarni belgilangan muddatdan sung yoki ma'lum bir davr ichida kat'iy belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish huquqini beradi.

Ochiq schyotlar bo'yicha beriladigan kredit- Eksportyor jo'natilgan xar bir tovarlar qiymatini importyorning xisobiga qarz sifatida qayd qilib boradi. Importyor shartnomada ko'rsatilgan vaqtda kredit summasini to'lab boradi. Ochiq schyotlar bo'yicha beriladigan kreditlar faqatgina doimiy aloqada bo'lgan firmalar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Passiv to'lov balansi-tushumlar summasi to'lovlar summasidan bo'ladi.

Pul aylanish tezligi – nominal yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik pul massasiga nisbati orqali aniqlaniladi.

Pul massasi - bank tizimining majburiyati bo'lib, qo'yidagi passivlarni o'z ichiga oladi:

Rambursli kredit-akkreditivni akseptli kredit bilan uyg'unlashuvdir.

Real investitsiyalar (kapital kuyilmalar) – pul mablag' larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat.

Revalvatsiya - bu milliy valyuta kursining chet el valyuta kursiga nisbatan oshirish. Revalvatsiya asosan importni rag'batlantirish va milliy bozorni o'sha mamlakat tovarlari bilan to'ldirish maqsadida qo'llaniladi.

Remoliyalashtirish siyosati- markaziy bank tomonidan tijorat banklari ixtiyoridagi tijorat Veksellarni hamda qimmatbaho qog'ozlarni garovga olish va shu yo'l bilan kredit berishdir.

Savdo balansi- eksport va import operatsiyalari bo'yicha valyuta to'lovlari va tushumlarining haqiqatdagi summasi aks ettiriladi. Kreditga sotib olingan tovarlar qiymati bu yerda aks ettirilmaydi.

Svop (swap) – savdo qoidalariga amal qilgan xolda bitta karzni tulash bo'yicha ma'lum bir muddat o'tgandan so'ng shartlarni o'zgartirish bo'yicha bitim.

Svop operatsiyasi - bir valyutani spot operatsiyasi bo'yicha sotib olish va forvard sharti bo'yicha sotishga yoki forvard sharti bo'yicha sotib olish va spot sharti bo'yicha sotishga aytiladi.

Spot operatsiyalari - valyuta bitimi tuzilgandan so'ng, valyutalar ikki ish kunida kelib tushadigan operatsiyalar.

Ssuda kapitali-qarzga berilgan pul ishga solinib, yangidan pul topish, daromad olish uchun ishlatilishidir.

Ssuda-qarzga beriladigan pul ssuda deyiladi.

Substandart - bu aktivlar aniq ifodalangan kamchiliklarga ega bo'lib, bu holat dastlabki shartnomaga muvofiq qarz qaytarilishi shartlarining bajarilishiga shubha uyg'otadi. Substandart sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha tijorat banklar qarzini to'lanmagan summasi 25 foiziga teng bo'lgan zahiralarini ikkilantirishi lozim.

Substandart kreditlar-2 to'lov davrida foiz yig'indisi to'lanmagan kreditlardir.

Sug'urtalash-bankning amalga oshirayotgan operatsiyalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni ma'lum bir sug'urta badali asosida sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rilgan zararni qoplab berish shartnomasini tuzish.

So‘nggi usul - mamlakatning oltin valyuta rezervlarini ishlatish yo‘li bilan to‘lov balansi defitsitini qoplashga aytiladi.

Taklif foiz stavkalarining xar kanday darajasida investitsiyalarni kancha miqdorda mablag‘ bera olishiga tayyor ekanligini kursatadi.

Talab deganda korxona va uy xujaliklarini turli baxo darajasida-foiz stavkasiga karamay jami mablag‘ miqdorini karzga olishga rozi bulgan xolatni nazarda tutadi.

Tasdiqlangan kafolatlar- kafolatlarni tasdiqlash shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan, bank o‘z mijoz bo‘lgan importyorning to‘lov majburiyatlari bo‘yicha kafolat bergan bo‘lsa, eksportyorning banki ham ushbu kafolatlar bo‘yicha majburiyatni o‘z zimmasiga oladi. Bu esa, mavjud kafolatlarni tasdiqlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Tasnifiy baholash modeli- kreditni baholashning balli modeli (reyting uslubi) va bankrotlikni bashorat qilish (MDA – Multiple Discriminate Analysis ga asoslangan statistik baholash) modellariga asoslanadi.

Ta’lim kreditlari - tijorat banklari filiallari tomonidan oliy ta’lim muassasalarining kunduzgi bo‘limlariga to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi fuqorosi bo‘lgan talabalarning o‘qishi uchun talabalarning o‘zlariga, ularning ota-onalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin.

Ta’minlanmagan kreditlar-biror bir ta’minotsiz berilgan kreditlar.

Ta’minlanmagan kreditlar-biror bir ta’minotsiz berilgan kreditlar.

Tijorat banki-tijorat tashkiloti bo‘lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlarni jalb qilish va ularni kreditga berish, to‘lovlarni amalga oshirish bilan shug‘ullanuvchi amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

Tijorat krediti-sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beradigan kreditidir.

Tranzaksion depozitlar- yuridik shaxslarning bo‘sh pul mablag‘lari ularni mablag‘ini talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit turi.

Tranzit komission bitimlar-birjada ishtirok etish huquqi berilgan banklarning birjada ishtirok etish huquqi berilmagan kredit institutlari nomidan ishtirok etishi.

Trast operatsiyalari-bank mijoz topshirig‘i bilan ma’lum mulkni, pul, qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida saqlash, o‘tkazish va boshqarishni o‘z zimmasiga oladi.

To'g'ri kafolatlar – bunda kafolat beruvchi tomon bevosita eksport-import operatsiyalariga kafolat beradi. Bunda mazkur to'lov bo'yicha majburiyatlarini to'liq o'z zimmasiga oladi. Bunday kafolatlar to'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblar, hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblarda keng qo'llaniladi.

To'lov balansi - mamlakatning xorijiy davlatlar bilan bo'ladigan aloqalari natijasida yuzaga keladigan valyuta tushumlari va to'lovlarining haqiqatdagi summasi aks ettiriladi.

To'lovga layoqatlilik-bank zarur muddatlarda kredit-omonatchilar, banklar davlat oldidagi majburiyatlarini to'la summada bajara olish layoqatini bildiradi.

Umidsiz deb tasniflangan kreditlarga qaytarilmaydigan kreditlar kiradi. Umidsiz kreditlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining foizi miqdorida zahiralar yaratishi kerak.

Umumiy zahiralar-bunday zahiralar kredit portfeli uchun tashkil etiladi. Umumiy zahiralar kredit portfeliga xos bo'lgan yashirin tavakkachilikdan ximoya qilish maqsadida tashkil etiladi. Ular odatda ssuda bo'yicha qarzdorlik summasiga nisbatan foizda belgilanadi.

Umumiy kapitalning yetarliligi-bankning umumiy kapitali miqdorini riska tortilgan aktivlarga nisbatini orqali aniqlovchi ko'rsatkich.

Umumiy usullar-bank risklaring miqdorini uni daromadlariga bog'liq ravishda baholash va bashorat qilish hamda bank likvidliligiga nisbatan belgilangan iqtisodiy normativlarni bajarish kiradi.

O'zaro aloqador shaxslar-tijorat banki aksiyadorlari va boshqaruvida o'z faoliyati yurituvchi shaxslarning qarindoshlari hisoblanadi.

O'stirilmaydigan kreditlar-belgilangan tartibga muvofiq foizlar hisoblanishi to'xtatiladigan kreditlar.

Faktoring - bu xo'jalik yurituvchi subyektlar – mol yetkazib beruvchilarni (bundan keyingi matnda - mijoz) ular tomonidan bank - moliya agentiga to'lovchilardan (bundan keyingi matnda -to'lovchi) jo'natilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun ular tomonidan akseptlangan, lekin hali to'lanmagan

to'lov talabnomalari bo'yicha pul to'lovini olish huquqini o'tib berishlari evaziga, regres huquqisiz, moliyalashtirish borasidagi bank xizmati turidir.

Faktoring-hisob-kitoblarni tashkil etish sohasidagi yangi xizmat turi bo'lib, mijozning kapitalini kreditlash bilan shug'ullanadi.

Firma krediti - eksportyor mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning importyoriga to'lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishiga tushuniladi.

Foiz stavkasi-qarzdor kishining olgan qarzi uchun pul egasiga to'laydigan to'lovidir.

Foiz xavf xatari- foiz stavkalarining darajasi va xarakatining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfidir.

Foiz xavf xatarini boshqarish usullari

- aktivlarni boshqarish
- passivlarni boshqarish
- foiz marjasini boshqarish

Foydalilik-risk-bank xodimi o'zini ortiqcha risklardan saqlagan holda foyda meyorini cheklashidir.

Forvard bitimlar -kelgusi bitimda belgilangan oldindan kelishilgan narx buyicha ma'lum mikkordagi ba'zi asosiy aktivlarni sotish, boshka tomon esa sotib olish majburiyatiga muvofik tuzilgan kelishuvlaridir.

Forvard kurs (forward rate)- asosiy karz summasining ma'lum bir uzgarmas kismiga nisbatan belgilangan vaktida tulanadigan foiz stavkasining xajmi tugrisida kelishuv bulib, u usha kundagi foiz stavkasidan past yoki yukori bulishi mumkin.

Forvard operatsiyalari - belgilangan muddatda, ammo ikki ish kunidan oshiq bo'lgan muddatda amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytiladi. Amaliyotda forvard bitimlarini amalga oshirishning standart muddatlari uchraydi. Standart muddatlarga 1; 3; 6; 9; va 12 oylarni kiritish mumkin.

Fyuchers (futures) –kimmatbaxo kog'ozlarni, valyuta yoki tovarlarni belgilangan narx va kelajakdagi belgilangan muddatda sotish yoki sotib olish borasidagi bajarilishi majbur bulgan kiska muddatli standart shartnomalardir.

Xazina majburiyatlari- uning egasi tomonidan malum bir pul mablagini byudjetga kiritganligi va uning butun aylanish davrida anik chegaralangan foizni tulab berish majburiyatini guvovlovchi kimmatli kogosidir.

Xalqaro kafolatlar - tovarlar va kapitallar harakatini uzluksiz va doimiy harakat qilinishini ta'minlanishiga xizmat qilib Markaziy banklar, tijorat banklari, korporatsiyalar, hukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladi.

Xalqaro kredit – bir davlat, shu davlat banki, huquqiy shaxsi tmonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa huquqiy shaxslariga muddatlilik va to'lovlilik asosida beriladigan kreditdir.

Xalqaro kredit munosabatlarining subyektlari - tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, yirik korxonalar, regional va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari qatnashadi.

Xalqaro kredit-bu ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakati bo'lib, bu xarakat tovar va valyuta ko'rinishidagi mablag'larni qaytarib berishlik, muddatlilik va xaq to'lashlik asosida berish bilan bog'liqdir.

Xalqaro hisob-kitoblar-tashqi savdo, kapitallar va kreditlarning harakati bilan bog'liq valyutaviy operatsiyalar, valyutada oldi-sotdi qilish operatsiyalari va boshqa tovarsiz harakatdagi operatsiyalar majmui tushuniladi.

Xarid avansi - eksportni kreditlashning bir formasi bo'lib hisoblanadi va shu vaqtning o'zida importyorning majburiyatini ta'minlovchi vositadir. Chunki importyor o'zi buyurtma bergan tovarni sotib olishga majbur bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarning import bilan shug'ullanuvchi firmalari rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli o'laroq, xarid avansidan shu davlatlarning qishloq xo'jalik mahsulotlarini olib chiqib ketishda foydalanmoqdalar.

Xarid krediti- eksportyor bankning to'g'ridan to'g'ri milliy eksportyorni kreditlamasdan, balki chet ellik xaridorni, ya'ni, importyor mamlakat firmasi va uning bankini kreditlash hisoblanadi.

Xizmatlar va tijorat xarakteriga ega bo'lmagan to'lovlar balansi- transport, pochta, telegraf, telefon, turizm, madaniy aloqalar, perevodlar, xorijiy mamlakatlar hududida harbiy qismlarni saqlash, chet elda savdo va diplomatik vakolatxonalarni

ochish, xalqaro kreditlar bo'yicha to'lanadigan foizlar va boshqa shu kabi sohalarda yuzaga keluvchi valyutaviy tushumlar va to'lovlar summasi aks ettiriladi.

Hisob-kitob balans -shunday iqtisodiy kategoriyaki, bunda mamlakatning xorijiy davlatlarga nisbatan talab va majburiyatlarining umumiy summasi ko'rsatiladi.

Hisobli kredit-Vekselni tijorat bankiga sotish yo'li bilan olinadigan kreditdir.

Chet el valyutalarini diversifikatsiya qilish - bir vaqtning o'zida bir nechta chet el valyutasida rezervlar tashkil qilish tushuniladi.

Shubhali kreditlar — bu ziyon qilish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy amallari mavjud bo'lgan ushbu kreditlar sharoit oydinlashguncha shubxali deb tasniflanadi. Shubhali deb tasniflangan kreditlarga asosiy to'lanmagan summasini 50 foizini miqdorida zahira tashkil etiladi.

Shubhali kreditlar- 3 to'lov davrida foiz yig'indisi to'lanmagan va 1 marta asosiy qarz yig'indisi to'lanmagan kreditlardir.

EAV- mamlakatning to'lov balansini joriy operatsiyalar bo'limiga valyutaviy cheklashlar bo'lmasa, bu mamlakatning puli erkin almashadigan valyuta deb tan olinadi.

Emitent-qimmatli qog'ozlarni chiqargan tashkilot hisoblanadi.

YAIM deflyatori - mamlakatda narxlar umumiy darajasining o'sishini ifoda etuvchi umumlashtiruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkich. U nominal YAIM hajmini real YAIM hajmiga bo'lish orqali aniqlaniladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik - yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishidir.

Yalpi ichki mahsulot – ma'lum davr ichida mamlakat hududida rezidentlari va norezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlar yig'indisidir.

Yaxshi - ushbu aktivlar bo'yicha qarzlarning o'z muddatida to'lanishi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonuni.T., 1995.
2. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni. T., 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018 yil 9 yanvardagi PF-5296-sonli "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmoni.
4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017. 104 b.
5. Mirziyoev Sh.M Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2017. 56 b.
6. Mirziyoev Sh.M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017. 48 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5177-sonli farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3270-sonli qarori.
9. 2017 yil 13 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-3272-sonli "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yan-vardagi PF-5296-sonli "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida farmoni.
11. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. T.: Iqtisod-moliya, 2007. 348 b.
12. Dengi mira. Red.gruppa: O.Eliseeva, T.Evseeva i dr. M.: Mir ensiklopediy Avanta+, Astrel, 2009. 184 s.Samie krasivie i znamenitie.
13. Dengi, kredit, banki: Uchebnik / Pod red. O.I.Lavshurina. M.: KNORUS, 2007. 560 s.

14. Mullajonov F.M. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. T.: O'zbekiston, 2001.
15. Omonov A.A. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish: Monografiya. T.: Iqtisod-Moliya, 2010. 246 b.
16. Omonov A. Banklar va banklarda hisob: O'quv qo'llanma.T.: Akademiya, 2006. 122 b.
17. Omonov A.A., Marpatov M.D. Pul va pul muomalasi: O'quv qo'llanma.T.: Akademiya, 2008. 158 b.
18. Rashidov O.Yu. va bosh. Pul, kredit va banklar: Darslik. T.: TDIU, 2008. 432 b.
19. Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, inkassatsiya va qimmatliklarni tashishga doir yo'riqnoma. T.: O'zbekiston, 2004.
20. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida buxgalteriya hisobini yuritishga oid hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston, 2003.
21. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston, 2003.
22. Qoraliev T.M. Sayfiddinov I.F. Tijorat banklari faoliyati tahlili: Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2010. 384 b.
23. Qoraliev T.M. Norqobilov S.X. Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2008.
24. International Financial Statistics. IMF, August. 2011. 1422 p.